



# SHAVKAT MIRZIYOYEV

BIR BO'LSAK –  
YAGONA XALQIMIZ,  
BIRLASHSAK – VATANMIZ

8





# SHAVKAT MIRZIYOYEV

---

BIR BO'LSAK –  
YAGONA XALQMIZ,  
BIRLASHSAK – VATANMIZ

---

8

"O'ZBEKISTON"  
TOSHKENT – 2024

UO'K 323 (575.1)

KBK 66.3 (50·zb)

M 54

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining sakkizinch jildiga mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xalqaro miqyosdagi forum va sammitlardagi nutq va ma'ruzalar, shuningdek, yurtimizda keng nishonlanib kelayotgan umumxalq bayramlari, tarixiy sanalar, ommaviy tadbir va marosimlar munosabati bilan yo'llangan tabrik va qutlovlар kiritilgan.

ISBN 978-9910-9214-0-7



9 789910 921407

©“O'zbekiston” nashriyoti, 2024

---

## **SHHT MINTAQASI – ULKAN IQTISODIY IMKONIYATLAR MAKONI**

Hurmatli rais!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida barcha ishtirokchilarni samimiy qutlashdan mammunman.

Hindiston Respublikasi Bosh vaziri janob Narendra Modiga bugungi uchrashuvimizni tashkil etgani uchun bildirilgan barcha minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman. Hindistonning SHHTga birinchi raisligi muvaffaqiyatli bo‘lganini qayd etamiz.

Samarqand sammitida erishilgan kelishuvlarga muvofiq, ko‘p qirrali hamkorligimiz jadal rivojlanib borayotganini mammuniyat bilan ta’kidlab o‘tmoqchiman. Biz tashkilotimizni yanada kengaytirish va isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni amalgaloshirishni boshladik.

Fursatdan foydalanib, Eron Islom Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirishi bilan bog‘liq barcha tartib-taomil jarayonlari yakuniga yetgani va ushbu davlatning tashkilotga a’zo bo‘lgani bilan Eron Prezidenti Ibrohim Raisiyga bildirilgan tabriklarga qo‘shilaman.

O‘zbekiston, shuningdek, SHHTga a’zo davlat maqomini olish maqsadida Belarus Respublikasining majburiyatları to‘g‘risida qabul qilinayotgan qarorni ham to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Barchamiz xalqaro munosabatlar tizimida davom etayotgan tub o‘zgarishlarning guvohi bo‘lib turibmiz.

Afsuski, geosiyosiy keskinlik va mojarolarning kuchayishi kuzatilmoqda, global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga nisbatan yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda, ekologiya, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi sohalarida tahdidlar avj olmoqda. Shu munosabat bilan konstruktiv va ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish o‘tkir zaruratga aylanib borayotgani o‘z-o‘zidan ayondir.

O‘zbekiston bahs va mojarolarni hal etish, tinchlik va barqarorlikni ta’minalash bo‘yicha maqbul yechimlarni izlash va qarorlarni qabul qilishda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o‘rin egallashi kerak, degan prinsipial pozitsiyaga rioya qiladi**.

Ta’kidlash joizki, o‘zaro muloqot va ishonch borasidagi chora-tadbirlarni mustahkamlash maqsadida o‘tgan yili umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lidagi birdamlik bo‘yicha Samarqand tashabbusini ilgari surgan edik.

Global miqyosda kun tartibida turgan eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ularning bepoyon mintaqamizga ta’sirini baholash va o‘zaro hamkorlikda takliflar ishlab chiqish maqsadida biz BMT, boshqa nufuzli xalqaro sheriklar bilan birgalikda mazkur Tashabbusning doimiy platformasini yo‘lga qo‘yishni rejalashtirmoqdamiz.

Qadrli hamkasblar!

SHHT doirasidagi ko‘p tomonlama va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash yo‘lidan borar ekanmiz, bugun biz tashkilotimizning muvaffaqiyati uning asosiy tamoyillariga qat’iy rioya etish asosida ta’minalishini yaxshi tushunamiz. Bular – tashkilotning blokdan tashqari maqomi, ochiqlikka qat’iy sodiqlik, teng huquqlilik va qarorlarni konsensus asosida qabul qilish tamoyillaridir.

Eng muhimmi, bizning hamkorligimiz turli manfaatlar, yonda-shuvlar, qarashlar va tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasidagi madaniy tafovtlarni o‘zaro hurmat qilish va konstruktiv idrok etishga asoslanadi.

SHHTni rivojlantirishning hozirgi bosqichida biz uning mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalarni hal qilishda samara-

**li xalqaro tuzilma sifatidagi yetakchilik rolini saqlab qolish va kuchaytirish juda muhim, deb hisoblaymiz.**

Shu munosabat bilan tashkilot doirasida qabul qilingan kelishuv va qarorlarni inventarizatsiya qilish, hamkorlik institut va mexanizmlari faoliyatini auditdan o'tkazish, tashkilotimizni modernizatsiya qilish bo'yicha kelishuvlarning amalga oshirilishini jadallashtirishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Milliy tahlil markazlarini birlashtirgan **Ekspertlar forumi** doirasida **SHHT istiqbollari bo'yicha qo'shma tadqiqot loyihasini** amalga oshirishni ham taklif etamiz.

Bunday ishlar natijalarini navbatdagi sammitimiz davomida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Bugungi uchrashuvimiz kun tartibidan kelib chiqib, SHHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq takliflarimizni qayd etib o'tmoqchiman.

**Birinchi.** Biz "Shanxay ruhi"ga muvofiq, tashkilot doirasida o'zaro hamjihatlik va anglashuvni mustahkamlashni hal qiluvchi vazifa deb bilamiz.

Biz **SHHTning yaxshi qo'shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini** ishlab chiqish tashabbusini ilgari surmoqdamiz. Ushbu hujjatning qabul qilinishi yangi sharoitlarda ustuvor vazifalarni belgilab olish, ko'p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha umumiy yondashuvlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

**Ikkinci.** SHHT mintaqasi – bu ulkan iqtisodiy imkoniyatlar maydoni, tashkilotimizga a'zo barcha mamlakatlar uzoq muddat davomida barqaror rivojlanishi uchun platforma va resurs bazasidir.

Xarid qobiliyati pariteti bo'yicha jahon yalpi mahsulotining uchdan bir qismi, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qariyb 27 foizi va jahondagi savdo hajmining 20 foizi SHHT ulushiga to'g'ri keladi.

Tashkilotimizga a'zo davlatlar sanoat va innovatsion taraqqiyot ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchilik qiladi, ulkan intellektual salohiyatga, energetika va agrar sohada boy resurslarga ega.

Shu munosabat bilan bugungi kunda ichki, ya'ni mintaqaviy savdo va sanoat-texnologik kooperatsiyani rivojlantirish uchun **umumiyl makonni shakllantirish bo'yicha tashabbusni** ilgari surish har qachongidan ham dolzarbdir.

Hukumatlarimiz va mutasaddi idoralarimizga SHHTning innovatsion taraqqiyot, raqamlashtirish va robotlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologiya, farmatsevtika va sanoatning boshqa istiqbolli tarmoqlarini qamrab oluvchi **Yangi iqtisodiy muloqot dasturini** qabul qilish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha topshiriq berishni taklif qilaman.

Bunday loyihalarni ilgari surish maqsadida O'zbekistonda SHHTga a'zo davlatlar mintaqalarining innovatsion sherikligi haftaligini yuqori texnologiyalarning qo'shma ko'rgazmasi bilan birgalikda o'tkazish niyatidamiz.

**Uchinchi.** SHHT makonida transport-kommunikatsiyaviy bog'-liqlikni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish muhimdir.

Hozirgi vaqtida biz Shimol – Janub va Sharq – G'arb magistral yo'llarini rivojlantirish bo'yicha bir qator strategik loyihalarni faol ilgari surmoqdamiz. Shu borada Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temiryo'lini qurish loyihasi bo'yicha amaliy ishlar boshlanganini aytib o'tmoqchimiz. Biz ushbu yo'nalish bo'ylab, shuningdek, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga olib chiqadigan Eron va Pokiston portlari tomon multimodal tashuvlarni rivojlantirmoqdamiz.

Tahlilchilarning ma'lumotiga ko'ra, ushbu loyihalarni amalgao shirish yuk tashish hajmini bir necha barobar oshirish, shuningdek, transport xarajatlarini uchdan bir qismga kamaytirish imkonini beradi.

**SHHT davlatlarining transport sohasidagi o‘zaro bog‘liq-ligiga doir yagona xaritani** ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu mavjud “to‘sıqlar” va “bo‘sqliqlar”ni aniqlash, umumiy, o‘zaro integratsiyalashgan transport-tranzit tizimini shakllantirish uchun ustuvor chora-tadbirlar va loyihalarni belgilab olish imkonini beradi.

Ushbu masalalarni mamlakatlarimiz transport vazirlarining navbatdagi kengaytirilgan yig‘ilishida yirik transport-logistika kompaniyalari, operatorlar va ekspeditorlar, tahlilchi va ushbu soha mutaxassislarini keng jalb etgan holda bat afsil ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

**Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidida O‘zbekistonda Mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlik markazini tashkil etish bo‘yicha tashabbusimizni ham hamkorlarimiz qo‘llab-quvvatlashiga umid qilamiz.**

**To‘rtinchi.** “Yashil” kun tartibiga oid masalalarga alohida to‘xtalib o‘tmoxchiman.

Bugungi kunda barcha mamlakatlarimiz bu borada ko‘p ishlarni olib bormoqda. Biroq SHHT maydonida iqlim o‘zgarishiga moslashish, dekarbonizatsiya va “toza” texnologiyalarni joriy etish, “aqlii” qishloq xo‘jaligi va suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yanada yaqin muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlik zarur.

Biz tashkilotimiz makonida keyingi yil – Ekologiya yili deb e’lon qilinishini qo‘llab-quvvatlaymiz.

“Yashil belbog” dasturi doirasida **Mintaqaviy ekologik loyi-halarni qo‘llab-quvvatlash** va “yashil” texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini tayyorlashni taklif qilamiz. Ushbu ishni O‘zbekistonda tashkil etilayotgan Markaziy Osiyo atrof-muhitni o‘rganish va iqlim o‘zgarishi universiteti ne-gizida tashkil etish mumkin.

**Beshinchi.** Oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq xatarlar or-tib borayotgani munosabati bilan Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi

tashkiloti bilan birgalikda joriy yilning sentabr oyida O‘zbekiston-da mazkur masala bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazishni re-jalashtirmoqdamiz.

Ushbu tadbirning alohida sessiyasi mazkur masalani global da-rajada hal etishga amaliy hissa qo‘sish uchun umumiyl tamoyil va yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida SHHT davlatlari hamkor-ligiga bag‘ishlanadi.

Ushbu konferensiyada sizning mamlakatlaringiz delegatsiya-larini faol ishtiroy etishga taklif qilamiz.

**Oltinchi.** Turizm sohasidagi hamkorlik asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida sifatli va maqbul narxlardagi umummintaqaviy sayyohlik mahsulotlari yetishmasligi yaqqol sezilmoqda.

SHHT mintaqasida Turizmni rivojlantirish yilida turizm ma’muriyatları, yetakchi operator va aviakompaniyalar o‘rtasidagi aloqa-larning faollashuvini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Samarqand shahridagi “Ipak yo‘li” xalqaro universitetida shu yilning oktabr oyida bo‘lib o‘tadigan Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi doirasida **SHHT turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiya** o‘tkazishni taklif etamiz.

**Yettinchi.** SHHT mamlakatlari boy madaniy-gumanitar salohi-yatga ega.

Ushbu yo‘nalishda muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshi-rish mamlakatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtiradi, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan biz **faol madaniy almashinuvlar bo‘yicha yillik taqvimlarni** shakllantirish amaliyotini joriy etishni taklif qilamiz. Xalqlarimizning betakror tarixiy merosi bo‘yicha qo‘shma ko‘rgazmalar, bevosita hamda elektron platformalar asosidagi kon-sertlar, teatrlar gastrollari, forumlar, kinofestivallar va taqdimotlar ushbu taqvimdan o‘rin oladi.

Ilmiy va ta’lim dasturlarini kengaytirish, tashkilotga a’zo mamlakatlar tillarida xalqlarimizning adabiy merosini tarjima qilish va nashr etish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish muhimdir.

Shuningdek, “**SHHT – ilg‘or g‘oyalar va kelajak tashabbuslari makoni**” mavzusida yoshlar o‘rtasida muloqotni kengaytirish bo‘yicha tadbirlar dasturini tayyorlash tashabbusini iltgari surmoqdamiz.

**Sakkizinchi.** Mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishi mintaqada yagona va bo‘linmas xavfsizlikni ta’minalash bilan chambar-chas bog‘liq.

Hamkasblarim tomonidan SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyatini faollashtirish bo‘yicha tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanayotganini mammuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Biz Mintaqaviy aksilterror tuzilma kengashining sayyor yig‘ilishlarini o‘tkazish amaliyotini davom ettirishni qo‘llab-quvvatlaymiz. Bu ushbu tuzilmaning zamонавиј таддидларга tezkor javob berish bo‘yicha imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ko‘p tomonlama muhim hujjatlar – Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi shartnama hamda SHHT makonida ekstremistik mafkuraga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma dasturni tayyorlash va qabul qilishni tezlashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Ushbu hujjatlarning hayotga tatbiq etilishi radikallashuv borasidagi xatarlarga munosib javob bo‘lishi, buzg‘unchi kuchlarning o‘z mafkurasini, birinchi navbatda, yoshlar o‘rtasida tarqatishga bo‘lgan urinishlarini zararsizlantirishi lozim.

Hurmatli hamkasblar!

Kun tartibimizda turgan yana bir muhim masala – bu Afg‘onis-tonda saqlanib qolayotgan murakkab vaziyatdir.

Afsuski, bu mamlakatning muammosi va afg‘on xalqining fojasи xalqaro kun tartibida ikkinchi o‘ringa surilib qoldi. Keyingi paytlarda xalqaro miqyosda amalga oshirilgan harakatlar kutilgan nati-

jani bermadi. Afg'oniston aholisining tobora og'irlashib borayotgan ijtimoiy ahvoli ham shundan dalolat beradi. Buning ustiga, ushbu mamlakatga ko'rsatilayotgan gumanitar yordam hajmi sezilarli darajada kamaydi.

Faqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Afg'oniston humumati bilan konstruktiv muloqot o'matish orqaligina bu muammo-ga yechim topish mumkin, deb hisoblaymiz.

Bu ko'p jihatdan Afg'onistonning bevosita qo'shnilarini va uzoq muddatli siyosiy yechim topilishidan eng ko'p manfaatdor bo'lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlarining siyosiy irodasiga bog'liq.

Shu munosabat bilan "**SHHT – Afg'oniston**" muloqot guruhi **shaklidagi birgalikdagi ishlarni va maslahatlashuvlarni qayta tiklash** maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Aziz do'stlar!

So'zimning yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislikni qabul qilib olgani munosabati bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga bildirilgan tabrik va tilaklarga qo'shilaman.

Siz e'lon qilgan keng ko'lamli dasturni amalga oshirishda yaqin hamkorlik qilishga tayyormiz.

Shuningdek, O'zbekistonda bo'lib o'tadigan prezidentlik saylovi munosabati bilan aytgan iliq so'zlariningiz va muvaffaqiyatlar tilaganingiz uchun sizlardan chin dildan minnatdorman.

Ishonchim komilki, uchrashuvimiz natijalari, bugun ilgari surilgan tashabbuslar, qabul qilinadigan muhim qarorlar SHHT makonida ser-qirra sheriklikni yanada kengaytirishga, xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik va do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar  
rahbarlari kengashi majlisidagi nutq*

2023-yil 4-iyul

---

## **XALQIMIZNING YUksAK ISHONCHINI OQLASH, ERISHGAN YUTUQLARIMIZNI YANADA ULKAN NATIJALAR BILAN MUSTAHKAMLASH – BOSH VAZIFAMIZ**

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli Senat a'zolari!

Hurmatli Qonunchilik palatasi deputatlari!

Xorijiy diplomatik korpus vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Mana shu tarixiy va hayajonli daqiqalarda, avvalo, menga yuksak ishonch bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylagan barcha yurtdoshlarimga yana bir bor chin qalbimdan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Muqaddas Vatanimiz timsoli va mustaqilligimiz ramzi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'iga, madhiyamiz va gerbimizga, menga topshirilgan Prezidentlik Oliy nishoni va bayrog'iga yuksak hurmat bajo keltiraman.

Aziz do'stlar!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishimni men inson huquq va erkinliklarini, xalq manfaatini ta'minlashga qaratilgan siyosatimizning yana bir yuksak e'tirofi sifatida qabul qilaman.

Bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovi yangilangan Konstitutsiyamiz asosida o'tkazilgani unga chinakam xalqchil ruh va mazmun bag'ishladi. Ushbu saylovda xalqimiz o'z xohish-irodasini emin-erkin bildirib, Yangi O'zbekiston uchun ovoz berdi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Mamlakatimiz hayotidagi g'oyat muhim va mas'uliyatli bu siyosiy jarayon el-yurtimiz bilan birgalikda tanlagan va amalga oshirayotgan milliy taraqqiyot yo'limiz naqadar to'g'ri ekanini yana bir marta tasdiqladi.

Saylovda 15 ta xalqaro tashkilotdan 466 nafar, 47 ta xorijiy davlatdan 331 nafar vakil xalqaro kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Shu bilan birga, 1400 nafar mahalliy va xorijiy jurnalistlar saylov jarayonlarini atroflicha yoritib bordi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining uzoq muddatli missiyalari butun saylov jarayonlarini bevosita kuzatib bordi.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo assambleyasi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkilotidan ham kuzatuvchilar ishtirok etdi. Bularning barchasi ushbu saylov jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otganini ko'rsatadi.

Mahalliy va xorijiy kuzatuvchilar saylovnинг milliy qonunchiligimiz va umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar asosida, erkin va demokratik, sog'lom raqobat va siyosiy kurash muhitida, ochiqlik va shaffoflik ruhida o'tganini e'tirof etdilar. Bu, o'z navbatida, barchamizni birlashtirib, o'z kuch va imkoniyatimizga bo'lgan ishonchimiz, xalqimiz, Vatanimiz oldidagi mas'uliyatimizni yanada oshirishi tabiiy, albatta.

Hurmatli tantanali marosim qatnashchilari!

Oliyjanob va bag'rikeng xalqimiz menga yana bir bor katta ishonch bildirib, buyuk Vatanimiz taqdiri uchun butun mas'uliyatni o'z zimmamga olish imkonini berganini shu hayajonli lahzalarda yanada chuqr anglab, qalbim cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'immoqda.

Shu bilan birga, bugun yelkamga qanday ulug'vor mas'uliyat olayotganimni, Vatanimiz mustaqilligi, 36 milliondan ziyod aziz

xalqimning tinchligi va farovonligi uchun shaxsan javobgar ekanimni yurak-yuragimdan his etib turibman.

Mana shunday yuksak ishonch uchun, hurmat va e'tibor uchun ko'p millatli, mard va donishmand xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta'zim qilaman.

Nomzodimni ilgari surgan va saylov kampaniyasi davomida asosiy tayanchim bo'lgan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining a'zolari va faolalariga, biz bilan hamfikr bo'lib, nomzodimni qo'llab-quvvatlagan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi vakillariga, barcha tarafдорларим hamda ishonchli vakillarimga chin qalbimdan tashakkur aytaman.

Saylovda munosib ishtirok etgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod – Robaxon Mahmudovaga, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan – Ulug'bek Inoyatovga, O'zbekiston Ekologik partiyasidan – Abdushukur Hamzayevga alohida minnatdorlik bildirib, ularning kelgusi ishlariga yutuq va omadlar tilayman.

Albatta, biz turli siyosiy partiyalarga mansub bo'lishimiz, turli g'oya va qarashlar tarafdoi bo'lishimiz mumkin. Demokratiya degani ham aslida shu. Ammo mohiyat e'tibori bilan qaraganda, bar-chamizning, butun O'zbekiston xalqining maqsadi bir. Barchamizni Vatan, el-yurt manfaati birlashtiradi.

Shu sababli biz saylovda qatnashgan partiyalarimiz das-turlaridagi eng muhim fikrlar va amaliy takliflarni kelgusi faoliyatimizda, albatta, e'tiborga olamiz. Barchamiz Yangi O'zbekiston degan yagona va ulug' maqsad atrofida yanada jipslashib, xalqimizning orzu-armoni bo'lgan mana shu ezgu g'oyani amalgao shirish yo'lida hamkorlik qilamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun, ushbu tantanali marosimda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilariga, barcha tu-

man va shaharlarimiz, qishloq va ovullarimiz aholisiga, yurtimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan mahalla faollariga, fuqarolik instituti vakillariga, hayotimizning nur-u ziyosi bo'lgan aziz faxriyalarimizga, jamiyatimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan qadrli opa-singillarimizga, kelajagimiz egalari – navqiron yosh avlodimizga, suyukli o'g'il-qizlarimga, chet ellarda ta'lim olib, mehnat qilayotgan, Vatan mehri bilan yashayotgan barcha vatandoshlarimizga chin yurakdan tashakkur bildiraman.

Ayni vaqtida ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda fidokorona mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilarga, tadbirkor va fermerlarga, buniyodkor quruvchilarimizga, fidoyi ustoz va murabbiylarga, ilm-fan, ijod va san'at ahliga, muhtaram ulamolarimizga, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlariga, dunyodagi eng ulug' va sharafli vazifani ado etayotgan jasur harbiyalarimizga, barcha Vatan himoyachilariga, jahon maydonlarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan matonatli sportchilarimizga alohida rahmat aytaman.

Shu bilan birga, Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zolariga, mahalliy hokimliklar hamda xorijiy mamlakatlardagi elchilarimizga, diplomatik vakolonalarimiz xodimlariga, saylov jarayonlarida qatnashgan mahalliy va xorijiy kuzatuvchilarga, ommaviy axborot vositalari vakillariga, jurnalist va blogerlarga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishim munosabati bilan samimiy tabriklarini yo'llagan mamlakatimizning barcha fuqarolariga, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, siyosat va jamoat arboblariga chuqr ehtiromimni bildiraman.

Qadrli vatandoshlar!

Xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan – deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tash-

kilotlar rahbarlaridan, har bir yurtdoshimizdan belimizni yanada mahkam bog'lab, avvalgidan ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shi-joot bilan ishlashni talab etadi.

Shu ma'noda, oldimizda turgan davr O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'ladi. Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi.

**Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi.**

O'zingiz ko'rib turibsiz, bugun dunyo qanday shiddat bilan, keskin o'zgarib bormoqda. Jahon miqyosida bir tarixiy davr nihoyasiga yetmoqda. Ayni vaqtida oldindan tahlil qilib bo'lmaydigan jarayonlardan iborat o'ta murakkab yangi bir davr boshlanmoqda.

Yer yuzining turli mintaqalarida davom etayotgan qurolli mojarolar global tinchlik va osoyishtalikka jiddiy putur yetkazmoqda. Bunday nizo va to'qnashuvlar, shafqatsiz raqobat savdo va investitsiya oqimlarini, tovar va xizmatlar aylanishini izdan chiqarib, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bo'yicha yangi muammolar keltirib chiqarmoqda.

Dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani ham barqaror rivojlanishga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Biz mana shunday og'ir va tahlikali vaziyatda xalqimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to'g'ri yo'lni – samarali ichki va tashqi siyosat yo'lini aniq belgilab olishimiz va uni qat'iy amalgashirishimiz lozim.

Islohotlarimizning ta'sirchanligi va bardavomligini ta'minlash uchun yo'limizda uchrashi mumkin bo'lgan barcha xavf-xatar, to'siq va g'ovlarni hisobga olishimiz va ulardan talafotsiz o'tish choralarini ko'rshimiz zarur.

Barchamiz birgalikda kelajakka ishonch bilan intilib, butun diqqat-e'tiborimizni oldimizda turgan vazifalarni hal etishga qara-

tishimiz, xalqimiz kutayotgan, davrning o‘zi talab etayotgan yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surishimiz lozim.

Biz o‘tmishdan, kechagi tariximizdan, yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarimizdan zarur xulosalar chiqarib, O‘zbekistonimizning dunyodagi o‘rni va nufuzini yanada yuksaltirishimiz, Vatanimiz shuhrati va shon-sharafini hamma jabhalarda munosib va mardona himoya qilishimiz kerak.

Nega deganda, bugungi keskin raqobat olamida kechagi mezon va yondashuvlar bilan rivojlanib bo‘lmaydi. Bugungi zamon – bu kechagi zamon emas.

Shu bois har bir imkoniyatdan oqilona foydalananib, har qanday muammoni aql bilan, ilm bilan hal qilishimiz, turli sinovlarni xalqimiz bilan bamaslahat, og‘ir-vazmin bo‘lib yengib o‘tishimiz kerak.

Parlamentimiz, hukumatimiz, vazirlilik va idoralar, mahalliy hokimliklar o‘zlarining kelgusi faoliyatlarini mana shu omillarning barchasini inobatga olgan holda tashkil etishlari zarur.

Endi barcha soha va tarmoqlarda tizim o‘zgaradi, vaziyat o‘zgaradi, samaradorlik o‘zgaradi.

Biz saylovning ertasi kuniyoq belgilab olingen ulkan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha qat’iy harakatlarni boshladik. Chunki vaqt, hayot bizni kutib turmaydi. Davrning o‘zi barchamizni tezkor bo‘lishga, kerak bo‘lsa, vaqtidan o‘zib ishlashga undamoqda.

Kimki “Saylov o‘tdi – safarbarlik tugadi”, deb o‘ylasa, xato qiladi. Haqiqiy safarbarlik endi boshlanadi. Chunki xalqimiz bizga ishonib topshirgan katta-katta reja va dasturlarni o‘zimiz bajarmasak, ayting, chetdan kim kelib bajarib beradi?

Kelgusi yetti yilga mo‘ljallab ishlab chiqilgan strategik maqsadlarga erishish uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar bor.

**Qudratli xalqimizga tayanib, aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni ishga solib, islohotlarimiz sur’ati va samarasini yanada oshiramiz, hech qachon susaytirmaymiz. Qanchalik qiyin va mashaqqatli bo‘imasin, tanlagan yo‘limizdan ortga qaytmaymiz.**

**“Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak poydevori” degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokim-larning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart.**

Hurmatli deputat va senatorlar!

Yangilangan Konstitutsiyamizda muhrlangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish kelgusi faoliyatimizning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi.

Saylovchilar bilan bo‘lgan barcha uchrashuvlarda men hayotimizni yaxshilash, uni har tomonlama erkinlashtirish haqida odamlarimizning juda ko‘plab fikr-mulohazalari, taklif va talablari bilan yaqindan tanishdim. Ularning asosiy qismi biz ishlab chiqayotgan taraqqiyot dasturidan, albatta, o‘rin oladi.

Shu maqsadda mavjud huquqiy-me’yoriy bazani yangilash bo‘yicha oldimizda keng ko‘lamli ishlar turganini sizlar, albatta, yaxshi tasavvur qilasiz. Ya’ni qanday yangi qonunlarni qabul qilish, qaysi qonun hujjatlarini o‘zgartirish kerakligini sizlar hammadan ko‘ra yaxshi bilasiz. Chunki sizlar el-yurtimiz ishonch bildirgan, qonuniy vakolat bergen xalq vakillarisiz.

Qonunchilik va ijro hokimiyatini takomillashtirish, ixcham va samarali boshqaruv tizimini tashkil etishda biz sizlarga, sizlarning boy tajribangiz, bilim va salohiyatingizga, fidoyilik fazilatlaringizga tayanamiz.

Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilganidek, jonajon O‘zbekistonimizni millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaromiz tinch va erkin, baxtli va farovon yashaydigan ijtimoiy davlatga aylantiramiz. Jumladan, ta’lim va tarbiya, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san’at, sport sohalarini rivojlantirish, yangi uy-joylar qurish, aholini ichimlik suvi, energiya bilan ishonchli ta’minlash, ijtimoiy infratuzilmalar ishini yaxshilash bo‘yicha belgilab olgan vazifalarni, albatta, bajaramiz.

Biz uchun Vatan ramzi bo‘lgan mahalla tizimini barcha islohotlarimizda markaziy va hal qiluvchi bo‘g‘inga aylantiramiz.

Tadbirkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratib, yangi yangi ish o'rirlari ochish, aholi daromadlarini ko'paytirish, yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o'qitish, ularning bandligini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlari, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalarmi qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Hech shubhasiz, biz bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bilan birga ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyat-larga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz.

Saylovoldi uchrashuvlarida milliy o'zligimiz va ezgu qadriyatlarimizni asrab-avaylash, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat sohalarini rivojlantirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bo'yicha belgilab olgan vazifalarni sizlar bilan, keng jamoatchilik bilan birgalikda amalga oshiramiz.

O'zbekistonda barcha siyosiy huquqlar qatorida vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlari so'zsiz ta'minlanadi.

**Biz demokratiya va ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, konstruktiv muxolifat faoliyatini, so'z va matbuot erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini kafolatlaymiz.**

O'zbekiston fuqarolari dunyoning qaysi o'lkasi yoki mintaqasida bo'lmasin, qonunlarimiz himoyasida bo'ladi. Chet eldag'i vatandoshlarimiz bilan aloqalarni yanada mustahkamlaymiz.

Qadrli vatandoshlar!

Saylovoldi uchrashuvlarida har bir hududdagi eng dolzarb masala bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlarni muhokama qilib olganimiz, albatta, bejiz emas.

Maqsad – markaziy vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar va jamoatchilikni ana shu muammolar ichiga chuqurroq olib kirish, har bir hudud bo'yicha yechimlarni aniq-aniq ko'rsatib berish edi.

Endi hukumat ham, vazirlik va idoralar ham, mahalliy hokimliklar ham ana shu yo‘nalishlar bo‘yicha ishlaydi. Maqsad – aniq, vazifa – aniq, amalga oshiriladigan loyihalar – aniq, zarur mablag‘lar ham aniq-ravshan belgilab berilgan.

Odamlar endi bizdan yangi amaliy ishlarni kutyapti. Millionlab insonlar – ota-onalarimiz, opa-singillarimiz, o‘g‘il-qizlarimiz bugun bizga umid va ishonch bilan ko‘z tikib turibdi. Ana shunday umid va ishonchni oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi natijalar bilan mustahkamlash bizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi shart.

Barcha bo‘g‘indagi rahbarlarga chiroqli, balandparvoz gapiga qarab emas, faoliyatining aniq natijasiga qarab baho beramiz.

Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo‘pol munosabatda bo‘ladigan, byurokratiya va korrupsiya balosiga berilgan har qanday rahbar – u vazir yoki hokim bo‘ladimi, boshqa mas’ul vazifadagi amaldor bo‘ladimi – davlat obro‘siga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kesil xayrlashamiz. Ularning o‘rniga bilimli, Vatan va xalq tashvishi bilan yashaydigan yosh-yosh yigitqizlarni qo‘yamiz.

Mana, safimizga yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliyghlarda o‘qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelmoqda. Men ularning timsolida, avvalo, ertangi kunimizning yangi rahbarlarini, hudud, tarmoq va sohalarning mohir boshqaruvchilarini ko‘raman.

Iqtisodiyot sohasida ham tub burilishlarni amalga oshiramiz. “Yashil” iqtisodiyot, “yashil” energiya tamoyillarini yanada keng joriy etamiz. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini bir necha barobar oshiramiz.

Biz 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek juda katta marra oldik. Bunga erishish, albatta, oson bo‘lmaydi. Lekin bu yo‘lda aniq hisob-kitoblarimiz,

real imkoniyatlarimiz bor. Tabiiy boyliklarimiz, mehnat resurslari-  
miz, intellektual va ma'naviy salohiyatimiz, ish tajribamiz yetarli.

Men O'zbekiston yoshlariga yana bir bor murojaat qilmoq-  
chiman: aziz o'g'il-qizlarim, bugun tarixning o'zi, zamonning o'zi  
sizlarning oldingizda beqiyos imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

El-yurt koriga, avvalo, kim yaraydi?

Albatta, sizlar!

Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni kim barpo etadi?

Albatta, sizlar!

Yurtimiz, xalqimiz kelajakda kim rozi qiladi?

Albatta, sizlar!

Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi.

Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk  
ishlarni amalgga oshirishga qodirsiz.

Yoshlik – g'animat, vaqt – g'animat, fursat borida otni qam-  
chilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning  
qadriga yeting! Dunyoga o'z so'zingizni ayting!

Izlanish va intilishdan aslo to'xtamang!

Baxt va omad doimo sizlarga yor bo'lsin!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini  
olish bundan buyon ham biz uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Biz, hech shubhasiz, ekologik muvozanat, musaffo havo, toza  
suv, bezavol tabiat tarafдоримиз. Bu masala biz uchun boshqalar-  
ga qaraganda nihoyatda dolzarb va muhimdir. Nega deganda, biz  
dunyodagi eng katta ekologik ofat – Orol fojiasini bevosita o'z  
boshidan kechirayotgan xalqmiz. Shuning uchun hozirgi vaqtda res-  
publikamizda bebaho ekologik tizimni saqlash va mustahkamlash-  
ga qaratilgan keng ko'lamlı dasturlar, jumladan, "Yashil makon"  
umummilliyl loyihasi amalgga oshirilmoqda. Biz kelgusida bu ish-  
larni yanada jadal davom ettiramiz.

Yangi quriladigan sanoat korxonalari loyihalarda bu masala bo'yicha qattiq nazorat o'matiladi. Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ham barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz.

Ayni paytda biz faqat dehqonchilik bilan kun ko'radigan mamlakat bo'lib qolmasligimiz kerak. Biz atrof-muhitga zarar yetkazmaygan holda, ishlab chiqarish industriyasi kuchli darajada rivojlangan davlatga aylanishimiz zarur.

Mamlakatimizda bugun mavjud bo'lган sanoat salohiyati, ochiq aytish kerak, dunyodagi ko'pgina davlatlarda yo'q. Biz mana shunday noyob salohiyatimizni yanada rivojlantirish, yurtimizni qudratli industriya makoniga, yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lган sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy mamlakatga aylantirish bo'yicha katta-katta das-turlar qabul qilganmiz va ularni, albatta, amalga oshiramiz.

Biz nafaqat mohir paxtakor va bog'bonlar o'lkasi, balki IT bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar, injener va energetiklar, konchi va metallurglar, fizik va kimyogarlar mamlakati bo'lishimiz kerak.

Qadrli vatandoshlar!

O'zbekistonimizning yerosti va yerusti boyliklari ko'p. Lekin bizning eng katta kuchimiz, beba ho boyligimiz – bu yagona, ahil oila bo'lib yashayotgan ko'p millatli xalqimizdir.

Bo'lib o'tgan saylovlar bu haqiqatni yana bir bor isbotladi.

Barchamiz millatimiz, tilimiz va dinimizdan qat'i nazar, dunyomiz, el-yurtimiz tinch bo'lsin, O'zbekistonimiz obod va farovon bo'lsin, farzand va nevaralarimiz sog'lom bo'lib, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallab, hayotda o'z o'mi va baxtini topsin, degan ezgu niyat bilan yashaymiz.

Biz mamlakatimizdagi 130 dan ortiq millat va elat vakillari ga o'z tili, madaniyati, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishlari uchun zarur sharoit yaratib berishni izchil davom ettiramiz.

Ishonchim komil, azaldan do'stlik va hamjihatlik maskani sifatida shuhrat qozonib kelgan O'zbekiston zamini bundan buyon ham chinakam insonparvarlik va bag'rikenglik diyori bo'lib qoladi.

Muhtaram do'stlar!

Hozirgi tahlikali zamonda yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirish ustuvor vazifamizdir. Shu maqsadda biz milliy armiyamiz qudratini, askar va ofitserlarimizning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini kuchaytirishga e'tiborni yanada oshiramiz.

Harbiy xizmatchilar va soha faxriyalarini, ularning oila a'zolarni qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minotini yanada yaxshilash, ujoy bilan ta'minlash, farzandlarining zamonaviy bilim va kasbhunarlarni egallashi uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'ramiz.

Biz chuqur o'ylangan tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya borasidagi harakatlarimizni izchil davom ettiramiz.

Avvalo, mintaqamiz mamlakatlari bilan yaqin do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kuchaytirish asosiy maqsadimiz bo'ladi.

Dunyoning uzoq-yaqin davlatlari bilan o'zaro manfaatli va ko'p qirrali aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor beramiz.

Yaqin qo'shnikimiz bo'lgan Afg'onistonda tinch va osoyish-ta hayotni tiklash uchun afg'on xalqiga qo'limizdan kelgan baracha yordamni ko'rsatamiz. Ushbu mamlakat bilan birqalikda yirik transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdormiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Parlamentlararo Ittifoq, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar bilan ko'p tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'taramiz.

Aziz va qadrlı yurtdoshlarim!

Biz sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birgalikda tarixan qisqa davrda, boshimizga tushgan qiyinchilik va mashaqqatlar, pandemiya va global inqiroz oqibatlariga qaramasdan, ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik.

Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi, hayotimizning turli soha va tarmoqlari tubdan o'zgarmoqda. Xalqimiz biz orzu qilgan o'zgarishlarning dastlabki mevalaridan bahramand bo'lmoqda.

**Donishmandlar aytganlaridek, olg'a yurishni o'ylagan inson uchun qo'rquv, ikkilanish, shubha va gumon – eng katta dushmandir.**

Biz dadil oldinga intilib, qo'rquv va hadikdan xalos bo'ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar orttirdik. Yuksak irodamiz, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo'lib maydonga chiqdik.

Men saylovoldi uchrashuvlarida xalqimiz vakillari bilan chin dildan muloqot qilib, bu haqiqatga to'la ishonch hosil qildim. Odamlarimiz katta maqsadlarga intilishdan, tashabbus ko'rsatishdan, yangilik yaratishdan qo'rqlayapti. Aksincha, bundan zavq va ilhom olib, yanada faol ishlayapti.

Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o'zgargani, uning qalbida o'ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo'lgani – bu bizning eng katta yutug'imiz.

**O'zini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o'zgartira oladi, o'z murod-maqsadlariga, albatta, yetadi. Mana shunday ulug' e'tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo'lib, uni yorug' manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharafdir.**

**Hayotimning ma'no-mazmuniga aylangan buyuk maqsad – Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lida sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga tinimsiz**

**ishlashga, bor kuch-g‘ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etishga tayyorman.**

Men bilan bir safda sizlardek aziz qadrdonlarim, duogo‘y otaxon va onaxonlarimiz, azamat aka-ukalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azm-u shijoatli yoshlarimiz borligi menga bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat, ruh va ilhom beradi.

Ishonchim komil, barchamiz birgalikda Yangi O‘zbekistonni – inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlatni, albatta, quramiz!

Barchamizni mana shunday ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashtirgan xalqimiz, Vatanimiz doimo omon bo‘lsin!

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin!

Yashasin O‘zbekiston!

Yashasin O‘zbekiston xalqi!

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan  
Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutq*

2023-yil 14-iyul

---

## **UMUMIY TARIX VA MEROSIMIZ ZAMONAVIY MUNOSABATLARIMIZ RIVOJI UCHUN MUSTAHKAM POYDEVORDIR**

Bismillahir rohmanir rohim!

Muhtaram delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli Bosh kotib janoblari!

Barchangizni bugun “Ko‘rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo” oliv darajadagi bиринчи sammitida ko‘rib turganimdan g‘oyat mam-nunman.

Mo‘tabar bo‘lgan Makkaning ramziy darvozasi – go‘zal va betakror Jidda shahridagi tarixiy uchrashuvimizni anchadan beri kutayotgan edik.

Ushbu nufuzli anjumanimizni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqani hamda tadbir yuksak saviyada tashkil etilgani uchun Ikki muqaddas masjid xodimi, Saudiya Arabiston Podshohi Salmon Bin Abdulaziz Ol Saud A’lo Hazratlari hamda Valiahd, Vazirlar Mahkamasi raisi, birodarimiz Muhammad Bin Salmon Ol Saud Hazrati Oliylari nomlariga bildirilayotgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz mintaqasi xalqlarini azaldan yaqin savdo aloqalari, mushtarak qadriyat va urf-odatlar, eng muhimi, muqaddas islom dinimiz chambarchas bog‘lab turadi.

Movarounnahr va Arabiston diyorlari o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni rivojlantirishda buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning beqiyos xizmatlari borligini faxr bilan eslaymiz. “Barcha muhad-dislarning peshvosi” – ulug‘ alloma Imom Buxoriy ana shunday siymolardan biridir.

Musulmon dunyosidagi oltita buyuk muhaddisning ikki nafari mintaqamizda tug‘ilib kamol topgani, qadimiy Buxoro esa “Qubbat ul-Islom” nomi bilan shuhrat qozonganidan g‘ururlanamiz.

Ma’lumki, IX asr boshida Abbosiylar davlati poytaxtidagi “Donishmandlar uyi” deb nom olgan akademiyada markaziy osiyo-lik 200 dan ortiq alloma ilmiy faoliyat olib borganlar.

Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi ulug‘ allomalarimiz esa bebaho ilmiy asarlarini aynan go‘zal va mukammal arab tilida yaratib, butun dunyoda shon-shuhrat qozonganlar.

Hozirda poytaxtimizda saqlanayotgan muqaddas Mus’hafi sharif – Usmon Qur’oni o‘lkamiz va arab diyorlari o‘rtasidagi aloqalar qadimiy va teran ildizlarga ega ekanidan dalolat beradi.

Bu kabi ibratli misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Biz bunday buyuk umumiylar tariximiz va merosimiz zamona-viy munosabatlarimizga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi uchun barcha kuchimizni safarbar etishga tayyormiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Atrofdagi xavf-xatarlarga qaramay, mintaqalarimiz tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot makoni bo‘lib kelmoqda.

Ulkan iqtisodiy, tabiiy va intellektual resurslarga ega bo‘lgan Ko‘rfaz davlatlarining global barqarorlik va energetik xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni beqiyosdir.

Ayni paytda Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz davlatlari bir-birlariga ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida qaramoqda.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekistonning Ko‘rfaz mamlakatlari bilan aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilganini mammuniyat bilan ta’kidlayman. Bugungi kunda yurtimizda yetakchi kompaniya va banklarining bilan amalga oshirilayotgan umumiylar loyihalar portfeli 20 milliard dollardan ortdi.

Ijobiy tajribalarimizdan kelib chiqib, mintaqalarimiz o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni quyidagi yo‘nalishlarda kengaytirishni taklif etamiz.

**Birinchidan**, biz siyosiy sohada keng qamrovli aloqalarni turli formatlarda rivojlantirish tarafborimiz.

Birodar davlatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish maqsadida kelgusida ko‘p tomonlama Do‘stlik, mintaqalararo bog‘-liqlik va hamkorlik bitimini ishlab chiqish masalasini bирgalikda o‘rgansak, ma’qul bo‘lar edi.

**Ikkinci yo‘nalish** – yuqori texnologiyalar va investitsiyalar sohasidagi hamkorlikdir.

Biz innovatsiyalar, “sun’iy” intellekt, “yashil” iqtisodiyot, raqamlashtirish, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, nano va biotexnologiyalar sohalaridagi hamkorlik platformalari va ishchi mexanizmlarini yaratishimiz kerak.

Shu munosabat bilan, mamlakatlarimiz biznes vakillari ishtirokida Qo‘shma investorlar kengashini ta’sis etishni va uning dastlabki yig‘ilishini Samarqandda o‘tkazishni taklif etaman.

Mintaqamizda Ko‘rfazdagi hamkorlarimiz bilan tuzilgan investitsiya fondlari salohiyatidan unumli foydalanish va yetakchi banklaringiz faoliyatini kengaytirish istagidamiz.

Shuningdek, “yashil” energetika loyihamonlari bирgalikda amalga oshirish maqsadida alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish muhim, deb hisoblayman.

Bugungi kunda mamlakatimizda “ACWA Power”, “Masdar”, “Mubadala”, “TACA”, “Nebras Power” kabi yetakchi kompaniyalar bilan umumiyy quvvati 15 gigavattdan ortiq quyosh va shamil stansiyalarini barpo etish hamda energiyani saqlash loyihamonlari amalga oshirmoqdamiz.

Kelgusi oyda Saudiya Arabiston bilan “yashil” vodorodni ishlab chiqarish bo‘yicha yirik loyiha tamal toshini qo‘yamiz.

**Uchinchi yo‘nalish** – savdo va transport bog‘liqligini kuchaytirish.

Ko‘rfaz davlatlari bilan erkin savdo rejimini joriy etish, texnik reglamentlarni uyg‘unlashtirish va elektron tijoratni rivojlantirish dolzarbdir.

Bu borada ko‘p tomonlama Savdo bitimini qabul qilish masalasini ekspertlarimiz ishlab chiqishi lozim.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun Ko‘rfaz davlatlariga organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish mexanizmlarini tatbiq etishga tayyormiz.

Transport va tranzit sohasida O‘rta transport koridorida eng maqbul tariflarni qo‘llash, mavjud multimodal yo‘laklardan keng foydalanish va to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni maqsadli subsidiyalash yordamida ko‘paytirishni taklif etaman.

Ko‘rfaz davlatlarini eng yaqin va qulay yo‘l orqali mintaqamiz bilan bog‘laydigan Transafg‘on temiryo‘lini qurish strategik loyihasida sizlarni faol ishtirok etishga chorlab qolaman.

Ushbu yo‘l transport xarajatlari va yuklarni yetkazib berish muddatlarini ikki barobarga qisqartirish imkonini beradi.

Bu yo‘nalishlarda aniq takliflar ishlab chiqib, amalga oshirish maqsadida savdo va transport vazirlarimizning muntazam muloqotini yo‘lga qo‘yish umumiy manfaatlarimizga xizmat qiladi.

**Keyingi muhim yo‘nalish** – ekologiya va iqlim o‘zgarishlari masalasi. Global Iqlim sammiti bu yil Dubayda bo‘lib o‘tishi Ko‘rfaz davlatlari mazkur yo‘nalishda erishayotgan yutuqlarining xalqaro e’tirofidir.

Shuningdek, Saudiya Arabistonining “Yaqin Sharq yashil tashabbusi” mintaqa ekologik tizimini tubdan yaxshilashga salmoqli hissa qo‘shayotgani tahsinga sazovordir.

Yurtimizda ochilayotgan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti negizida birgalikda xalqaro tadqiqotlar dasturini tayyorlash borasidagi g‘oyamizni ma’qullaysizlar, deb ishonaman.

**E’tiboringizni beshinchchi yo‘nalish** – turizm sohasiga qaratmoqchiman. Ko‘rfaz mamlakatlaridan sayyohlar sonini ko‘paytirish maqsadida biz bu davlatlar aholisiga vizasiz tartibni joriy etganmiz.

“Ko‘rfaz – Markaziy Osiyo” yagona vizasiz sayyohlik məkonini va turistlar uchun mo‘ljallangan zamonaviy klasterlarni yaratish, qo‘sima turistik mahsulotlarni ko‘paytirish ayni muddao bo‘lar edi.

Bundan tashqari, mintaqalarimiz yetakchi sayyohlik operatorlari forumini 2024-yilda “Islom dunyosi turizm poytaxti” deb e’lon qilingan Xiva shahrida o’tkazishni taklif etaman.

Gumanitar yo‘nalishda davlatlarimizda milliy madaniyat haftaliklari, madaniy meros ko‘rgazmalarini tashkil etish orqali birodar xalqlarimizni yanada yaqinlashtirgan bo‘lar edik.

Hozir O‘zbekistonda yuz mingdan ziyod nodir qo‘lyozmalar saqlanmoqda. Bu borada O‘mon Sultonligi ko‘magida poytaxtimizda yirik loyiha amalga oshirilganini biz minnatdorlik bilan ta’kidlaymiz.

Hurmatli anjuman qatnashchilar!

Biz dunyoda kuzatilayotgan islomofobiya holatlari bilan birgalikda kurashishimiz va bu borada Islom hamkorlik tashkiloti doirasida amaliy qadamlar qo‘yishimiz kerak.

Umuman olganda, ushbu tashkilotning mas’uliyati va vazifalarini qayta ko‘rib chiqish vaqt keldi, deb hisoblayman.

Terrorizm, ekstremizm, radikalizm va narkotrafikka qarshi kurashish, yoshlarimizni bu kabi xavf-xatarlar internet va boshqa vositalar orqali tarqalishidan asrash borasida aloqalarimizni kuchaytirishni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Diqqatingizni Afg‘oniston muammosiga qaratishni istar edim. Bu yurtda tinchlik o‘rnatmasdan nafaqat mintaqamiz, balki global xavfsizlikni ham ta’minalash mumkin emas.

Shu ma’noda, Qatar hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusi bilan may oyida Dohada o’tkazilgan maxsus vakillar ilk uchrashuvlari natijalarini ijobiy baholaymiz.

Umuman olganda, bizning mintaqalarimiz tashabbuskor bo‘lib, katta-katta minbarlardan Afg‘oniston muammolariga butun dunyo

e'tiborini jalg etishimiz, afg'on xalqi hayotini yengil qilishga munosib hissa qo'shishimiz kerak.

Muhtaram sammit ishtirokchilari!

Bugungi muloqotimiz, bildirilgan fikr-mulohaza va takliflar aloyalarimizning katta salohiyatini ko'rsatdi.

Mintaqalarimiz endi uchrashmoqda va katta hamkorlik eshigini ochmoqda. Buning uchun birodarimiz Valiahd Muhammad Ol Saud Hazrati Oliylariga yana bir bor alohida tashakkur aytaman.

Bu kabi ochiq va samarali uchrashuvlarni izchil davom ettirish uchun navbatdagi sammitimizni O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilaman.

Hech shubhasiz, bugungi tarixiy sammitimiz natijalari Ko'rfaz va Markaziy Osiyo mintaqalari o'rtaqidagi ko'p qirrali aloqalarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*"Ko'rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo"  
oliy darajadagi birinchi sammitidagi nutq*

2023-yil 19-iyul

---

## **XALQLAR DO‘STLIGI KUNI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI**

Qadrlı vatandoshlar!

Siz, azizlarni, butun O‘zbekiston xalqini 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni bilan chin qalbimdan samimiylab, barchangizga o‘zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

**Ko‘p millatli xalqimiz – bizning eng katta boyligimiz, yurtimizdagи millatlar va konfessiyalararo hamjihatlik – barcha yutuq va marralarimizning mustahkam asosidir.**

Azal-azaldan o‘zining do‘stlik, birodarlik va bag‘rikenglik an‘analari bilan shuhrat qozongan qadimiy va betakror O‘zbekiston zaminida hozirgi vaqtida 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘zarotinch va ahil yashab, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar, 38 ta do‘stlik jamiyatni va 153 ta milliy madaniy markaz erkin faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizdagи davlat ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari 7 tilda olib borilmoqda, qardosh tilli maktablarda tahsil olayotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta’milnmoqda.

Barcha hududlarimizdagи “Do‘stlik uylari” turli millatga mansub fuqarolar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutmoqda.

Xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlarimiz ham O‘zbekistonning do‘stlik va insonparvarlik diyori sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugun – ushbu quvonchli ayyomda “Xalqlar do’stligi” festivalli doirasida o’tkazilayotgan turli madaniy-ma’rifiy va ilmiy-amaliy tadbirlar hayotimiz qoidasiga aylangan “**O’zbekiston – umumiy uyimiz**” degan g’oyat muhim tamoyilni yanada keng qaror toptirishda beqiyos ahamiyatga ega ekanini, albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Ezgu an’anamizga muvofiq, millatlararo do’stlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatimizda hukm surayotgan o’zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini asrash, milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari uchun turli millat va elat vakillari bo’lgan vatandoshlarimiz bu yil ham davlatimizning orden va medallari bilan taqdirlandi. Bugungi imkoniyatdan foydalanib, ularning barchasini chin qalbimdan tabriklayman.

Muhtaram do’stlar!

Biz millatlar va konfessiyalar o’rtasida totuvlikni, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir O’zbekiston fuqarosining vijdon erkinligini ta’minlashga qaratilgan siyosatimizni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz.

Umumxalq referendumida qabul qilingan Asosiy Qonunimizda mustahkamlab qo‘yilgan qoida va me’yorlar asosida nodavlat tashkilotlarning rolini oshirish, ularning huquqlarini kafolatlash orqali fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratamiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, so‘nggi olti yarim yilda O’zbekistonning ichki va tashqi siyosatida katta ijobiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Buni jahon hamjamiyati vakillari, xalqaro ekspertlar, turli davlatlarning siyosiy arboblari haqli ravishda e’tirof etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo’shni mamlakatlar bilan do’stona aloqalar qayta tiklanib, azaliy qardoshlik va birodarlik an’analari yangi bosqichda davom ettirilayotgani xalqlarimizning ezgu orzu-umidlari ro’yobga chiqayotganidan dalolatdir.

Qadrli yurtdoshlar!

Ushbu go‘zal bayram chinakam do‘stlik va bag‘rikenglik yurti bo‘lgan jonajon O‘zbekistonimizni dunyoga yanada keng tarannum etishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni, butun xalqimizni yana bir bor Xalqlar do‘stligi kuni bilan samimiyl tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Muqaddas Vatanimiz – O‘zbekistonimiz gullab-yashnasin, doimo tinch va barqaror bo‘lsin!

2023-yil 29-iyul

---

## TEMIRYO‘L TRANSPORTI SOHASI XODIMLARIGA

Hurmatli do‘sstar!

Avvalo, sizlarni – zahmatkash ishchi va xizmatchilar, quruvchi va muhandislarni, mashinist va vagon kuzatuvchilari, soha faxriyalarini Temiryo‘l transporti xodimlari kuni bilan chin dildan samimiy tabriklayman.

Yangi O‘zbekistonni – jadal rivojlanib, dunyoga yuz tutayotgan davlat va jamiyatni barpo etishda siz, azizlarning o‘rningiz va hissangiz beqiyos ekanini barchamiz minnatdorlik bilan e’tirof etamiz.

Jonajon Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi arafasida nishonlanayotgan ushbu qutlug‘ ayyomda O‘zbekiston temiryo‘llari istiqlol davrida katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tganini ta’kidlashimiz tabiiydir.

Bu davrda 2 ming 400 kilometrdan ko‘proq yangi temiryo‘llar qurilib, foydalanishga topshirildi, 3 ming kilometrdan ziyod yo‘llar elektrlashtirildi, 1 ming 100 kilometrdan ortig‘i esa reabilitatsiya qilindi.

Hech shubhasiz, temiryo‘l tarmoqlarining kengayib borayotgani barcha hududlarimizni o‘zaro mutanosib rivojlantirish, boy mineral xomashyo resurslarini kompleks o‘zlashtirishda yangi-yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Buni “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganidan buyon yuk va yo‘lovchi tashish hajmi 2 barobardan ziyod ko‘paygani, 1,6 milliard tonna yuk tashilib, 380 million nafar yo‘lovchi manzilga yetkazilgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Sizlar kabi minglab fidoyi yurtdoshlarimizning mas'uliyatli mehnati tufayli mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini to'liq ta'minlay oladigan yaxlit temiryo'l tizimi barpo etilib, respublikamizning barcha hudud va mintaqalarini ishonchli va samarali bog'lab kelmoqda.

Hozirgi kunda yurtimiz zamonaviy transport kommunikatsiyalari va yuksak tranzit salohiyatiga ega bo'lgan davlat sifatida Sharq va G'arb, Janub va Shimolni o'zaro bog'laydigan xalqaro temiryo'llarning muhim halqasiga aylangani bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Poytaxtimizdan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarimizga qatnayotgan zamonaviy "Afrosiyob" elektropoyezdlari milliy temiryo'l transportimizning brendiga aylandi. Nasib etsa, kelgusi yilda Buxoro – Xiva yo'nalishida ham yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlari qatnovini yo'lga qo'yamiz. Bu esa aholimiz uchun har tomonlama qulaylik yaratish bilan birga, turizm sohasi rivojini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston temiryo'lchilari aeroportlar, metro liniyalari, ko'prik va yo'l o'tkazgichlar qurish, konlarni o'zlashtirish borasida ham muhim strategik loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib temiryo'l sohasida o'zining og'ir mashinasozlik va quyuv-metallurgiya sanoatiga ega bo'ldi. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan yirik sanoat korxonalari barpo etilib, vagon ishlab chiqarish, lokomotivlar, yuk va yo'lovchi vagonlarini modernizatsiya qilish va ta'mirlash yo'lga qo'yildi.

Eng muhimi, sohada amalga oshirilayotgan murakkab boshqaruv va texnologik ishlarning barchasi o'zimizning mahalliy mutaxassislarimiz, azm-u shijoatli yoshlарimiz tomonidan bajrilmoqda.

Fursatdan foydalanib, ushbu tizimda sidqidildan mehnat qila-yotgan barcha yuksak mahoratli, jonkuyar insonlarga o‘z nomimidan, xalqimiz nomidan tashakkur bildiraman.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Mamlakatimiz temiryo‘l tizimini modernizatsiya qilish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etgan holda yirik va istiqbolli lo-yihalarni amalga oshirish, yangicha fikrlaydigan, Vatanimizga sado-qat bilan xizmat qiladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash borasida hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini, albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz.

O‘tgan davrda katta bilim va tajriba orttirgan temiryo‘l sohasi xodimlari o‘zlarining mardona mehnati, bunyodkorlik salohiyati bilan oldimizda turgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etadilar, deb ishonaman. Bu maqsadlarga erishish uchun davlatimiz tomonidan barcha zarur sharoitlar yaratib berilishini alohida ta’kidlamoqchiman.

Siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, kelgusi faoliyattingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik, baxt va qut-baraka tilayman.

2023-yil 5-avgust

---

## O'ZBEKISTON QURUVCHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli quruvchi bunyodkorlar!

Avvalo, siz, azizlarni qutlug' kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga samimiy hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

El-yurtimiz sizlar kabi ming-minglab mohir quruvchi va muhan-dislar, usta va me'morlarni, loyihachi va pudratchi tashkilotlar va killarini Yangi O'zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan fidoyi insonlar deb biladi.

Sizlarning oliyjanob mehnatingiz bilan barpo etilayotgan yangi-yangi turar joylar, ishlab chiqarish obyektlari, yo'l va kommunikatsiya tarmoqlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport maskanlari mamlakatimiz qiyofasini tubdan o'zgartirib, hayotimizning yanada obod va farovon, fayzli bo'lishiga xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, xalq manfaatini o'ylab mustahkam va ko'rkar imoratlar qurish, ravon yo'l va ko'priklar bunyod etish dunyodagi eng savobli va xayrli ishlardan biridir.

Bugungi quvonchli ayyomda mana shunday ezgu faoliyatningiz uchun sizlarga har qancha tashakkur aytsak, arziydi, albatta.

Aziz yurtdoshlar!

Hozirgi kunda mamlakatimiz tom ma'noda ulkan qurilish maydoniga aylanganiga barchamiz guvohmiz. Boshqa jabhalar qatorida qurilish tarmog'i ham jadal rivojlanmoqda, sohaga yangi texnologiya va innovatsiyalar, eng zamonaviy me'moriy yechimlar faol kirib kelmoqda.

O'tgan yetti yil davomida yurtimizda qurilish ishlari hajmi bir necha barobar ortib, 2016-yildagi 30 trillion so'm o'miga 2022-yil-

da 131 trillion so‘mga, joriy yilning birinchi yarmida esa 68 trillion so‘mga yetgani mamlakatimiz bunyodkorlari qisqa davrda qanday katta yo‘lni bosib o‘tganidan dalolat beradi.

Bu haqda so‘z yuritganda, so‘nggi yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 1 ming 500 dan ortiq qishloq va mahallalarda yo‘l va transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarida ulkan qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilganini ta’kidlash lozim.

Aholimizning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishdagi ishlarimiz izchil davom ettirilmoqda. Shu yilning o‘zida “Yangi O‘zbekiston” massivlari va uy-joyga talab yuqori bo‘lgan hududlarda 90 ming kvartiraga ega uy-joylar barpo etilayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz qurilish sohasida ham yangi davr boshlandi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Avvalo, sohaning huquqiy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, respublikamizning barcha hududlarida ilg‘or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangi-yangi qurilish tashkilotlari paydo bo‘layotgani, qurilish materiallari industriyasi yuqori sur’atlar bilan rivojlana-yotgani, malakali yetuk kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgani shunday deb aytishga asos beradi.

Hurmatli do‘srlar!

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi oldimizga qo‘yayotgan muhim va dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda, sizlar bilan birgalikda sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish, bosh reja va shaharsozlik hujjatlari loyihalarini yangicha mezonlar asosida yaratish uchun katta harakatlarni boshladik. Jumladan, urbanizatsiya bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda 2023–2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlari shakllantirilmoqda.

Qurilish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali qurilish jarayonlarining barcha

bosqichlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, sifat va samaradorlikni oshirish, zahmatkash quruvchilarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni har tomonlama rag‘batlantirish masalalari bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lib qoladi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Siz, azizlarni, mamlakatimiz qurilish sohasini taraqqiy ettirishga imunosib hissa qo‘shib kelayotgan barcha yurtdoshlarimizni bugungi kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin yurakdan muborakbod etaman.

Sizlarga mustahkam sog‘liq, sharafli va mas’uliyatli faoliyattingizda yangi-yangi yutuqlar, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik, fayz-u baraka tilayman.

Jonajon O‘zbekistonimiz, shahar va qishloqlarimizning obodligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida qilayotgan mehnatlaringizning rohatini ko‘ring!

Qo‘lingiz aslo dard ko‘rmasin, aziz do‘stlar!

2023-yil 13-avgust

---

## **TADBIRKORLIK RIVOJINI YANADA YUKSAK BOSQICHGA KO‘TARISH – ZAMON TALABI**

Hurmatli biznes vakillari, ishbilarmon tadbirkorlar, bugungi muloqot ishtirokchilari!

Bundan ikki yil oldin yaxshi bir tajriba – Tadbirkorlar kuni arafasida ochiq muloqot shaklida sizlar bilan uchrashib, to‘planib qolgan masalalarga birgalikda yechim topish amaliyotini yo‘lga qo‘ygan edik. Bugun ham ushbu an‘anani davom ettirib, sizlar bilan sog‘-omon, xush kayfiyatda uchrashib turganimdan bag‘oyat xursandiman.

Qadrli yurtdoshlar!

Ochiq aytish kerak, so‘nggi 3–4 yilda xalqaro maydonda bo‘layotgan o‘zgarishlar dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizga ham katta ta’sir o‘tkazmoqda.

Turli ziddiyatlar tufayli logistika va mahsulot yetkazib berish zanjirining uzilgani, hamkor mamlakatlar valutasining qadrsizlan-gani, global miqyosda inflatsiya darajasi yuqori bo‘lib qolayotgani oqibatida moliyaviy resurslarning qimmatlashgani kabi omillar ta’sirini tadbirkorlarimiz juda yaxshi biladilar.

Tan olish kerak, bundan buyon ham oson bo‘lmaydi. Yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardan to‘g‘ri saboq chiqarib, faqat oldinga intilsak, bizning mehnatkash xalqimiz, ishbilarmon tadbirkorlarimiz har qanday mashaqqatni albatta yengib o‘tadi, men bunga ishonaman.

Dastlabki ochiq muloqotimiz ham aynan jahondagi iqtisodiy tanglik va noaniqlik avjiga chiqqan davrda o‘tkazilgani bejiz emas. Sababi – bunday murakkab sharoitda muammolarni bevosita biznes

vakillarining o‘zidan eshitib, ularga birgalikda yechim topish va bu orqali tezkorlik bilan qaror qabul qilish eng to‘g‘ri yo‘l ekanini hayotning o‘zi isbotlab berdi. Misol uchun, 2021-yilda bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot natijalari bo‘yicha 57 ta, o‘tgan yili esa 55 ta tashabbus ilgari surilgan edi.

Bularning hisobidan biznesni yuritishda nima yengilliklar bo‘ldi? Tadbirkorlar hayotida qanday ijobiy o‘zgarishlarga erishildi? Umuman, birgalikdagi tashabbuslarimiz natijasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatdi?

**Birinchidan**, o‘tgan yilgi takliflar asosida biznes subyektlari mikro, kichik, o‘rtta va yirik toifalarga bo‘lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va molivaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar o‘tgan olti oyda qariyb 1 trillion so‘mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobidan 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi o‘tgan yilga nisbatan 1,5–2 barobar oshdi. Boshqacha aytganda, joriy yilning birinchi yarmida 7 trillion so‘mdan 11,5 trillion so‘mga ko‘paygan.

Qolgan 40 ta tuman rahbarlari ham tadbirkorlar bilan yaqindan ishlab, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanganida edi, 5-toifaga kiradigan tuman qolmasdi.

**Ikkinchidan**, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish muddati qisqartirilib, o‘tgan bir yil ichida – 2022-yil 1-avgustdan 2023-yil 1-avgustgacha – 6 mingta korxonaga 20 trillion so‘m qaytarib berildi. Ayniqsa, eksportdan valuta tushumini kutmasdan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini intizomli eksportchi korxonalarga qaytarib berish tartibi joriy qilingani natijasida 2 mingdan ziyod tadbirkorlarning hisob raqamiga 7 trillion so‘m kelib tushdi.

Eng muhimi, ushbu soliq stavkasini 12 foizga tushirganimiz hisobidan qo‘shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilari soni 26 mingtaga

ko‘payib, ularning faoliyati “soyadan” chiqdi. Qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchilar soni 184 mingtaga yetdi.

Samarasiz soliq mexanizmlarini qo‘llash oqibatida vujudga kelgan soliq qarzdorligidan voz kechganimiz hisobidan biznes ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi.

**Uchinchidan**, kredit berishda aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta’minati sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Bu imkoniyatdan foydalangan tadbirkorlarimizga 1 milliard dollar miqdorida kreditlar berildi.

Shuningdek, mikromoliya tashkilotlarini ochish tartibini oson qildik. Buning natijasida mamlakatimizda banklarga muqobil kreditlar bozori paydo bo‘ldi. Natijada so‘nggi bir yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so‘m kredit bergen.

Biz bojxona hududida qayta ishlash tizimini soddalashtirdik. Natijada ushbu bojxona rejimidan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barobar ko‘paydi. Misol uchun, bir yil ichida ushbu imkoniyat orqali 455 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Shu tariqa 110 million dollarlik qo‘silgan qiymat yaratildi.

**To‘rtinchidan**, ilgari yangi tadbirkorlar uchun “kirish qiyin bo‘lgan” 119 ta faoliyat bo‘yicha litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi yoki xabardor qilish shakliga o‘tkazildi. Mamlakatimiz hududida birgina yuklarni avtomobilda tashish faoliyati bo‘yicha litsenziyalarni bekor qilish hisobidan yuk tashish hajmi 1,5 barobar oshdi.

**Beshinchidan**, tadbirkorlar o‘zları aytsin, to‘g‘ri ishlaydigan soliq to‘lovchilar faoliyatida tekshirishlar keskin qisqargani sezildimi yoki yo‘qmi?

E’tibor bering, 2023-yilning olti oyida tekshirishlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 40 foiz yoki 104 mingtadan 64 mingtaga kamaygan. Ya’ni tadbirkorlarimiz to‘g‘ri ishlash “soyada” ishslashdan ko‘ra afzal ekanini tushunib yetmoqda. Shuning uchun ham

soliq hisobotlarini topshirish va kameral tekshirish natijalari bo‘yicha moliyaviy jarimalar qo‘llashni bekor qildik.

Umuman, o‘tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko‘payib, 490 mingga, o‘rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingga yetdi. Yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko‘payib, 1,5 mingta bo‘ldi.

Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetdi. Bu – 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko‘p demakdir.

Bo‘lib o‘tgan ochiq muloqlardan keyin so‘nggi ikki yilda korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o‘zimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Hurmatli biznes vakillari!

Yuqorida qayd etilgan barcha natijalarimiz tashabbuskor, ishbilarmon va fidoyi tadbirkorlarimizning mehnati bilan bo‘lmoqda va biz buni yuksak qadrlaymiz.

Shu munosabat bilan ushbu yutuqlarga erishishda katta hissa qo‘shib kelayotgan, yangi g‘oyalar tashabbuskori bo‘lgan kichik tadbirkorlarimizga, iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylangan o‘rta biznes vakillariga, minglab ish o‘rinlari yaratib, odamlarimizni daromadli qilayotgan yirik korxonalar rahbarlariga, bozorlarimizga baraka olib kirayotgan klaster, fermer va dehqonlarimizga o‘zining samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Mana bugun ham bir guruh tadbirkorlarimizning mamlakatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini yuksak e’tirof etib, ularning 44 nafarini orden va medallar bilan, 126 nafarini esa “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirladik.

Fursatdan foydalanib, ushbu e’tirofga sazovor bo‘lgan tadbirkorlarimizga yana bir bor chuqur tashakkur bildiraman va sizlarning saflaringiz kun sayin kengayib borishiga astoydil ishonaman!

Aziz vatandoshlar!

Bir narsani tan olish kerakki, yetti yillik sa'y-harakatlarimiz natijasida **Yangi O'zbekistonda yangi tadbirkorlar sinfi shakllandi.**

Xabaringiz bor, bu yil – siyosiy tadbirlarga boy yil bo'ldi. Boshlagan islohotlarimiz ortga qaytmas tus olishini kafolatlash maqsadi-da xalqimiz yangilangan Konstitutsiyani qabul qildi.

Eng muhimi, Bosh qomusimizda ilk bor qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, mulk daxlsizligi, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, sud mustaqilligi bo'yicha davlat o'ziga aniq majburiyatlar oldi.

Saylovoldi uchrashuvlarida aytilgan katta-katta marralarni ro'yobga chiqarish uchun kelgusi yetti yillik islohotlarimiz dasturi loyihasi avgust oyi boshida keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Muhokamalarda bir milliondan ortiq taklif va mulohazalar bildirilgani, bunda tadbirkorlarimizdan yurtimizning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ko'plab yangi-yangi tashabbuslar kelib tushgani bizni albatta quvontiradi.

Shu bilan birga, biz barcha masalalarni hal qildik, deb ayta olmaymiz. Biznesga yangi-yangi imkoniyatlar yaratish, sharoitlarni yanada kengaytirish bo'yicha hali oldimizda qiladigan ishlarimiz ko'p.

Yaratganning bizga marhamat qilgan har bir kuni, barchamiz uchun yangi imkoniyat. Gap nima haqida ekanini tadbirkorlarimiz hammadan ham yaxshi tushunadilar. Bundan unumli foydalanib, imkoniyatni natijaga aylantirish uchun barchamiz tinimsiz izlanishimiz, yangi g'oya va tashabbuslardan qo'rmasdan, yanada ko'proq mehnat qilishimiz kerak.

Hurmatli tadbirkorlar!

Ushbu muloqotimiz arafasida tadbirkorlarimizdan 6 mingga yaqin murojaat kelib tushdi. Ular ko'targan asosiy masalalar – kredit va moliyaviy yordamni kengaytirish (jami murojaatlarning 26 foizi), biznesni joy va infratuzilma bilan ta'minlash (21 foiz),

soliq tizimini soddalashtirish (10 foiz), tekshirishlar va ortiqcha byurokratiyani keskin qisqartirish (8 foiz) bilan bog'liq.

Ushbu raqamlarni ko'rib, bilasizlarmi, birinchi bergen savolim nima bo'ldi? Nima uchun murojaatlar soni o'tgan yilidan kam? Lekin, taklif va tashabbuslar bilan birma-bir tanishib, bir narsaga amin bo'ldim.

Oldingi ochiq muloqotlarga tayyorgarlik davomida ko'tarilgan masalalarning 80 foizi individual xususiyatga ega bo'lib, ko'plari joyida hal qilingan edi.

Bu safar 70 foiz tadbirkorlarimiz tizimli muammolarni yechimlari bilan taklif qilishmoqda. Tadbirkorlarimiz faqat o'ziga emas, balki butun sohaga naf keltiradigan masalalarni ko'tarayotgani albatta quvonarli hol.

Ochiq muloqot natijalari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarda bularning barchasi inobatga olinadi.

Endi sizlardan kelib tushgan takliflar asosida eng muhim yangi tashabbuslarga to'xtalib o'taman.

### **Birinchi yo'naliш – kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar**

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinalining 70–80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikrobiznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikrobiznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40–50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib,

minglab doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlash, ushbu soha vakillariga zarur shartsharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to‘liq shakllanib ul-gurmadi, desak, adolatdan bo‘ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning oyoqqa turib olishi va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o‘qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratiladi.

Buning uchun, **eng avvalo**, “Qishloq qurilish bank”ni “Biznesni rivojlantirish banki”ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishslash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yan-gicha bo‘ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida tajriba orttirgan 500 mingdan ziyod mikrobiznes vakillari bor. Endi 9 ming 400 ta mahalladagi hokim yordamchilari o‘z hududida mikrodan kichik biznesga o‘snoqchi bo‘lgan 3–4 nafar tadbirkorni har oyda biznes markazlariga jalb qiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashadi, o‘z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarni o‘qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko‘rsatadi.

**Ikkinchidan**, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o‘qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Bunda kichik biznes loyihasining 10 foiziga tadbirkor investitsiya kiritса, 45 foiziga “Biznesni rivojlantirish banki”ning o‘zi, qolgan 45 foizi uchun davlat ko‘magida resurs yo‘naltiriladi.

Ushbu maqsadlar uchun bir “tadbirkorlik yili”da bankning o‘zi 500 million dollar olib keladi, davlat yana shuncha miqdorda mablag‘ ajratadi. Kreditlar tadbirkorlarga 5–7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida beriladi. Ushbu mablag‘larning 150 million dollari bo‘yicha kredit liniyalari 1-oktabrdan ochiladi.

O‘z biznesini yo‘lga qo‘ya olgan, “kredit va soliq tarixi” toza bo‘lgan tadbirkorlarga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foizga kamaytiriladi.

Loyihani amalga oshirishda qo‘srimcha resursga ehtiyoji bor korxonalarga mavjud kreditga qo‘srimcha mablag‘ ajratishga ruxsat beriladi. Buning uchun yiliga qo‘srimcha 1 trillion so‘m ajratiladi. Shuningdek, loyiha doirasida olib kiriladigan asbob-uskunani sug‘ortalash, xomashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlari markazlar tomonidan qoplab beriladi.

Umuman, dasturda ishtirok etayotgan kichik biznes korxonalari faoliyatini uch yilgacha tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Uchinchidan**, Kichik biznes markazlari ko‘magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o‘rnataladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomaga bilan sotishga ruxsat beriladi.

**To‘rtinchidan**, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga “Biznesni rivojlan-tirish banki”ga hissador bo‘lib kirish huquqi beriladi.

Shuningdek, markazlarga xorijiy mutaxassislarni ham olib kelamiz. Bunda biznes-konsultant, muhandis-texnolog, dizayner, mehmonxona boshqaruvchisi, marketolog, agronom, veterinar, urug‘shunos kabi xorijdan jalb qilingan mutaxassislarga O‘zbekistonda ishslash uchun ruxsatnoma berish muddati hozirgi 1 yildan

3 yilga uzaytiriladi. Ishlashga ruxsatnoma to‘lovi esa hozirgi 10 million so‘mdan 330 ming so‘mga tushiriladi. Ularga hududiy mehnat organidan ishga jalb etish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa olish talab qilinmaydi.

**Beshinchidan**, yangi tizimni joriy etish bo‘yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihibarini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha jarayonlar soddالashgan tartibda belgilanadi.

Albatta, bank ham, markaz ham yangi loyiha daromad keltirib, tadbirkor faoliyati rivojlanishidan manfaatdor bo‘lishi zarur. Shuning uchun yangi kichik biznes loyihasi ishga tushgach, ikki yil davomida ulardan tushadigan barcha soliqlar “Biznesni rivojlantirish banki”ning aylanma mablag‘i uchun o‘tkazib beriladi. Ya’ni tadbirkor qancha ko‘p daromad topishidan bank manfaatdor bo‘ladigan tizim yaratiladi.

Eng asosiysi, ushu dasturda istalgan davlat banki va xususiy banklar ishtirok etishi, o‘zлari ham resurs jalb qilishi mumkin bo‘ladi. Banklarning dastur doirasida olgan foydasi soliq bazasidan chegirib tashlanadi. Shunda tadbirkorlarda ham, banklarda ham manfaat va raqobat bo‘ladi. Buning uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlardan yana 500 million dollar jalb qilamiz.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini oyoqqa turg‘izish, kamida 25 mingtasini o‘rta korxonalariga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o‘rni yaratishdan iborat.

### **Ikkinchchi yo‘nalish – o‘rta biznes barqaror iqtisodiy o‘sish garovi**

Hurmatli biznes vakillari!

Iqtisodiyotimizning yangi texnologiya va innovatsiyalarga asoslangan, sifatli hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan muhim bo‘g‘ini – bu o‘rta biznes.

Lekin hozir o‘rta biznes uchun sharoitlar yetarli emas, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Faqatgina Tadbirkorlik jamg‘armasi tijorat kreditlariga kafillik yoki kompensatsiya berib kelyapti. U ham barchaga emas.

Shu bois biz kichik biznesdan o‘rta biznesga o‘tish istagida bo‘lgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham yangicha yondashuvlarni yo‘lga qo‘yamiz. Bu borada biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mavjud jamg‘armalarining faoliyati ham, ishslash usuli ham tubdan o‘zgaradi.

Endi Tadbirkorlik jamg‘armasi (J. Qo‘chqorov) xizmat ko‘rsatish bo‘yicha, “yashil” va energiya samarador loyihalarga moliyaviy yordam ko‘rsatishga, Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi (J. Xodjayev) esa sanoat loyihalari uchun mas’ul bo‘ladi.

Biz jamg‘armalarni boshqarishga malakali xorijiy menejerlarni olib kelamiz. Ushbu jamg‘armalar budjet mablag‘lari bilan cheklanib qolmaydi, ularga mustaqil investitsiya jalb qilish vakolati beriladi. Bu orqali kelgusi bir yilda ushbu jamg‘armalar o‘rta biznes uchun qo‘srimcha 1 milliard dollar mablag‘ olib keladi.

**Birinchidan**, biz “drayver” tarmoqlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etib, dastlabki bosqichda unga 200 million dollar ajratdik.

Jamg‘armadan 1-sentabrdan boshlab, yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun xorijiy valutada 5 foiz, milliy valutada 10 foiz stavkada 10 yil muddatga kreditlar ajratiladi, sanoat korxonalariga 1 yil muddatgacha xorijiy valutada 4 foiz, milliy valutada 10 foiz stavkada aylanma mablag‘ taqdim etiladi.

Bunda olib kelinadigan asbob-uskuna uchun 15 foizlik avans to‘lovlarini ham Jamg‘arma tomonidan kredit qilib beriladi. Marketing, loyihalashtirish, xorijiy mutaxassis jalb qilish xarajatlarining 20 ming dollargacha qismiga kompensatsiya to‘lanadi.

**Ikkinchidan**, sanoat ipotekasi tizimi yo‘lga qo‘yilib, tadbirkorlarga “tayyor biznes” shaklida ishlab chiqarish maydonlari qurib

beriladi. Jumladan, har bir viloyatda kamida 3 tadan yangi sanoat zonasini tashkil etiladi.

Bundan tashqari, sanoat zonalarida ishlab chiqarish obyekti ishga tushirilib, investitsiya majburiyatlari bajarilganidan so'ng yer maydonlarini xususiy lashtirishga ruxsat beriladi.

**Uchinchidan**, oxirgi yillarda katta-katta investitsiya dasturlarini amalga oshirish hisobidan mamlakatimizda 20 mingga yaqin zamnaviy uskunalarga ega korxonalar barpo etildi. Bularning yarmi – o'rta korxonalardir.

Bu korxonalar faoliyatini kengaytirish uchun ularga yangi investor va brendlarni jalg qilishga ko'maklashish zarur. Shu bois endi agar korxona xorijiy brend va investor bilan kelishuvga erisha, unga yangi tashkil qilingan Sanoat jamg'armasi 25 foizgacha bo'lgan kapitaliga sarmoya bilan kirishi mumkin bo'ladi.

**To'rtinchidan**, Tadbirkorlik jamg'armasi iqtisodiyotimizning yana bir drayveri bo'lgan xizmatlar sohasiga mas'ul bo'ladi.

Jamg'armaga salohiyatli o'rta biznes korxonalariga hissador bo'lib kirish vakolati beriladi. Buning uchun joriy yilda Jamg'arma qo'shimcha 25 million dollar, kelgusi yilda yana 100 million dollar ajratiladi.

Shu bilan birga, Jamg'arma tomonidan o'rta biznes uchun xorijiy valutadagi kreditlarga ham kafillik beriladi. Jamg'arma turizm, savdo va servis sohalarida "xizmatlar ipotekasi" tizimini joriy qiladi.

Endi mehmonxona, restoran, savdo kompleksi, avtoturargoh, yoqilg'i shoxobchasi, kemping kabi obyektlarning tayyor loyihalari tadbirkorlarga taklif etiladi.

Shuningdek, Jamg'arma tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish obyekti uchun yer sotib olish, bino-inshootlar qurish va aylanma mablag'i uchun ham resurs ajratadi. Shu bilan birga, korxonalarda "yashil" texnologiyalarni joriy qilish uchun xorijiy hamkorlarimizdan 100 million dollar jalg qilinadi.

Ana shu ikkita yangi tizim 1-oktabrdan to‘laqonli ishga tu-shiriladi va kelgusi bir yilda o‘rta biznesda sanoat sohasida 2 mingta va xizmatlar bo‘yicha 10 mingta yangi loyihalar moliyalash-tiriladi.

Agar birgalikda astoydil ishlasak, ushbu yangi imkoniyatlar hisobidan qo‘sishimcha 1 milliard dollarlik xizmatlar, 5 milliard dol-larlik yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, 350 mingta yangi ish o‘rnini bemalol tashkil qila olamiz.

### **Uchinchi yo‘nalish – yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish**

Aziz do‘stlar!

Shubhasiz, so‘nggi yillarda bunga e’tibor qaratib, ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirganimiz iqtisodiyotimizda yuqori o‘sish sur’atlarini ta’mirladi.

Bir narsani to‘g‘ri tushunish kerak. Biz ayrim mamlakatlar kabi neft-gaz resurslarini sotish hisobidan yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlay olmaymiz.

Bizning neftimiz ham, gazimiz ham – bu siz kabi tashabbuskor va ishbilarmon tadbirkorlar xomashyodan yaratayotgan yuqori qiy-matli va sifatli mahsulotlardir.

Shu bois mahsulotlarimiz – tashqi bozorlarda sifatli, talabgorli-gi yuqori va raqobatbardosh bo‘lishi kerak. Ana shunday natijaga erishish uchun ishlab chiqarishni mutlaqo yangi bosqichga olib chi-qib, keskin o‘sish qilishimiz zarur.

O‘tgan yilgi ochiq muloqotda “**Yangi O‘zbekiston – raqobat-bardosh mahsulotlar yurti**” dasturini boshlagan edik. Dastur doirasida 100 ta yetakchi eksportchi korxona tanlab olinib, ularga kredit, soliq, bojxona bo‘yicha alohida rejim joriy qilindi. Natijada joriy yilda bu korxonalar eksporti 1,5 barobar ko‘payib, 1,2 milliard dollarga yetkaziladi.

Umuman, eksportni qo'llab-quvvatlash hisobidan so'nggi to'rt yilda bunday korxonalar soni 4,5 mingtadan 7,2 mingtaga ko'paydi, chetga sotilayotgan mahsulot turlari 1,5 mingtadan 3 mingtaga oshib, geografiyasi 139 ta mamlakatdan 164 taga kengaydi, tashqi bozorlarga tayyor mahsulot sotish hajmi 2 barobar, bunda tovarlar eksportidagi ulushi esa 50 foizdan 65 foizga oshdi.

Shu bilan birga, xalqaro maydondagi vaziyat hisobiga logistika xarajatlari 3–4 marta oshib ketdi. Shu bois biz eksportchi korxonalarни qo'llab-quvvatlashni izchil davom ettiramiz. Ular uchun moliyaviy imkoniyatlarni yanada kengaytirishimiz zarur.

Bunda logistika xarajatlarini kompensatsiya qilishga qo'shimcha 100 million dollar yo'naltiramiz. Shuningdek, mahsulotlarni xorijda sertifikatlash, xalqaro standartlarni joriy qilish va bu borada mutaxassis tayyorlashga yana 25 million dollar ajratiladi.

Biz "**Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti**" dasturini joriy yilda ham davom ettiramiz va dastur bilan qamrab olinadigan korxonalar sonini 500 taga yetkazamiz. Ular uchun dasturdagi barcha imtiyozlar saqlab qolinadi.

Eksportni kengaytirish bo'yicha yana bir katta imkoniyat – bu nufuzli xorijiy brendlarni mamlakatimizga jalb qilish hisoblanadi. Misol uchun, yillik bozori 100 milliard dollardan oshadigan dunyoning eng mashhur 50 ta brendi korxonalarimiz bilan ishlashga katta qiziqish bildirmoqda.

Topshirig'imga ko'ra, ishchi guruhi Ispaniya, Germaniya, Polsha, Turkiyaning yirik brendlari bilan muzokaralar o'tkazib keldi. Ular mahalliy korxonalarimizga 3 milliard dollarlik buyurtma berishga hozirning o'zida tayyor. Bunday imkoniyat bizda hech qachon bo'limgan. Buning uchun ular so'rayotgan 3 ta eng katta masalani hal qilib beramiz. Bu borada, **birinchi navbatda**, ishlab chiqarishga xalqaro standartlar, ekologiya va sertifikatlash talablarini joriy qilamiz. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz mutaxassislarini ularning talabi asosida o'qitamiz.

**Ikkinchidan**, mahalliy korxonalardagi ishchilarga munosib mehnat sharoitlarini yaratib beramiz.

**Uchinchidan**, brendlarning mahsulotlarini olib kirish va eksport qilish uchun qulay bojxona rejimini joriy qilamiz.

Yirik brendlarni jalb qilgan korxonalarga 500 million so‘mdan grant ajratiladi. Misol uchun, Germanianing “Diesel” brendini jalb qilgan Namangandagi “Fazman Tekstil” korxonasi rahbari Ne’mat Fathiddinov hamda AQSHning “Nike” brendini jalb qilgan Andijondagi “Sino International” korxonasi rahbari Fan Rongxuanga bugun birinchi bo‘lib ushbu grantni berishni taklif qilaman.

O‘ylaymanki, xalqaro bozorga chiqmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarimiz bu takliflarni qo‘llab-quvvatlaydi.

### **To‘rtinchi yo‘nalish – yuqori daromadli korxonalarini ko‘paytirish**

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Bugungi uchrashuvda yangi bir tashabbusni ilgari surmoqchiman.

Xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, elektrotexnika, to‘qimachilik, charm-poyabzal, zargarlik, qurilish materiallari, mebelsozlik, polimer, kimyo va oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 140 ta tayyor loyiha ishlab chiqildi.

Bugun sizlarga ushbu 140 ta ilg‘or sanoat korxonasi loyihalari taqdimot qilindi. Ushbu loyihalarning jami qiymati 10 milliard dollarga teng bo‘lib, ularda 60 mingta ish o‘rni yaratish, yiliga 5 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish hamda 2,5 milliard dollarlik eksport qilish ko‘zda tutilgan.

Mazkur 140 ta loyiha elektron platformaga qo‘yilib, tadbirkorlarga ochiq-oshkora shartlar asosida taklif qilinmoqda. Bu yerda o‘tirgan tadbirkorlar orasida dasturda ishtirok etishga kim qiziqish bildirsa, hozirning o‘zida ular bilan shartnomaga tuzishga tayyormiz.

Ularga joyi ham, mablag'i ham, infratuzilmasi ham hozirning o'zida hal qilib beriladi.

Dasturga kirgan korxonalarga Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 10 yil muddatga past foizli kreditlar ajratiladi.

Kelgusi yil ochiq muloqotda ushbu loyihalarini birgalikda albatta ishga tushiramiz.

### **Beshinchi yo'naliш – sodda soliq ma'murchiligi va byurokratiyasiz qulay muhit**

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimizda **tadbirkorlar qancha ko'p bo'lsa**, ular yanada **ko'proq daromad ko'rsa, davlatimiz ham shuncha boy bo'ladi**. Sizlardek shijoatli, ishbilarmon, tashabbuskor va fidoyi tadbirkorlarimiz safi bir necha karra kengayishidan barchamiz bir-dek manfaatdormiz.

Shu bois biz tadbirkorlarga soliq yukini ko'paytirish emas, balki ularni qo'llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish hisobidan budgetga tushumlarni oshirish yo'lidan boryapmiz.

O'tkazilgan so'rovlarda 62 foiz tadbirkorlarimiz soliq sohasidagi islohotlarimizni ijobiy baholagan. Lekin biznes vakillari soliq tizimidan, soliqchilar faoliyatidan qanchalik rozi?

Murakkab soliq ma'murchiligi, biznesga ortiqcha aralashish va tizimdagi korrupsiya holatlarining barchasidan xabarim bor. Endi bu tizimni tubdan isloh qilib, soliq idoralari xodimlari yondashuvlarini butunlay o'zgartiramiz. Soliq ma'murchiligi ham sod-dalashadi.

**Birinchidan**, hozirgi tadbirkorlarni xavf guruhiga kiritish tizimi yopiq bo'lib, intizomli soliq to'lovchilar ham qaysidir hamkor qachonlardir xato qilgan bo'lsa, uning uchun ham javob bermoqda.

O'tkazilgan so'rovlarda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarning 70 foizi ushbu soliqni qaytarishda soliq uzilishi koeffitsi-

yentini qo'llash, ya'ni "tax-gap" tizimi adolatsiz ekanini bildirgan. Soliq tizimidagi korrupsiya bilan bog'liq shikoyatlar haddan tashqari ko'payib ketgani ham aynan "tax-gap" bilan bog'liq.

Endi 1-oktabrdan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsiyentini qo'llash amaliyotini, ya'ni "tax-gap"ni bekor qilamiz.

Shu bilan birga, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman soha vakillari bilan birga tadbirkorlarning ochiq-oshkora reytingini joriy qiladi. Bunda kelgusi yil 1-yanvardan boshlab, reytingi yuqori korxonalar barcha turdag'i soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi, ularga qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha qismi bir kunda qaytarib beriladi, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi guvohnomasini vaqtinchalik to'xtatib turish amaliyoti bekor qilinadi.

**Ikkinchidan**, kameral nazorat soliqchining "quroli" emas, balki tadbirkorga xatosini ko'rsatib, uni to'g'rilashga yordam beradigan jarayon bo'lishi kerak.

Hozirda esa kameral nazorat to'laqonli soliq tekshiruviga aylandan ketgani sir emas va bu korrupsiyaga ham yo'l ochib beryapti.

Endi kameral nazoratda tadbirkordan hujjat talab qilish yoki uni idoraga chaqirishni qat'ian taqiqlaymiz.

Umuman, soliqchilar o'z dunyoqarashini o'zgartirib, mahalladagi katta imkoniyatlarni ishga solishi, faqat va faqat tadbirkorlarga sharoit yaratib berishlari lozim bo'ladi.

Shuningdek, alohida ochiq-oshkora platforma yaratib, soliqchilar ko'rsatgan xizmatlar sifatiga tadbirkorlarning o'zi baho beradigan tizimni yo'lga qo'ysak, nima deysizlar?

**Uchinchidan**, hozirgi vaqtida soliqqa oid bitta huquqbuzarlik uchun tadbirkor sifatida moliyaviy jarima, jismoniy shaxs sifatida ma'muriy jarima qo'llanmoqda.

Endi bunday amaliyot bekor qilinadi.

Umuman, tadbirkorlarga qo'llanayotgan jarimalar ular faoliyatining to'xtab qolishiga sabab bo'lmasligi zarur. Shu nuqtayi

nazardan, uch oyda barcha moliyaviy sanksiyalar qayta ko'rib chiqilib, adolatli me'yorlar belgilanadi.

**To'rtinchidan**, tadbirkorning soliq idoralari bilan bo'ladigan barcha nizolarini ma'muriy sud vakolatiga o'tkazamiz. Shuningdek, tadbirkorlarning to'g'ridan to'g'ri sudga shikoyat qilishidagi har qanday cheklovlarni olib tashlaymiz.

Soliq bo'yicha tadbirkorlarga nisbatan da'vo kiritish muddati hozirgi 5 yildan 3 yilga tushiriladi. Bundan tashqari, soliq yoki kredit qarzini undirish bo'yicha sud qarori chiqarilganida penya va foizlar hisoblash to'xtatiladi.

**Beshinchidan**, hozirgi kunda tadbirkorlar 140 dan ortiq hisobot doirasida 8 mingga yaqin ko'rsatkichlarni 16 ta davlat idorasiga topshirishga majbur. Oqibatda 500 ming tadbirkor har yili bunday turli hisobotlarni tayyorlashga 300 milliard so'm sarflamoqda.

Shu bois 2024-yil 1-yanvardan boshlab bir-birini takrorlovchi va eskirgan hisobotlar tugatiladi, barcha hisobotlarni yagona elektron tizim orqali taqdim etish yo'lga qo'yilib, ularning qog'oz shakli bekor qilinadi.

### **Yana bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.**

Klaster tizimiga o'tganimiz qisqa vaqt ichida qishloq xo'jaligida keskin o'zgarishlar qilishga zamin yaratdi, desak, bu ham haqiqat. Xususan, o'tgan olti yil ichida bir gektardan olinadigan paxta hosili 26 sentnerdan 34 sentnerga yetdi. Ayniqsa, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm va Toshkent viloyatlariда 40 sentnergacha hosil olinmoqda.

Paxta tolasini qayta ishlash 2,5 barobar oshib, 100 foizga yetkazildi, ip-kalava ishlab chiqarish – 2,2 barobar, tayyor mahsulot – 5 barobar ortdi.

Kelgusi yilda sohadagi eksportni 1,5 barobar ko'paytirib, 2022-yildagi 3,2 milliard dollar o'rniga 5 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olganmiz.

Hozirgi vaqtida paxta to‘qimachilik klasterlarida 600 mingga ya-  
qin aholi doimiy daromad olib, mehnat qilmoqda.

O‘tgan yilgi paxta hosili bo‘yicha jahon bozori bilan ichki bo-  
zordagi tola narxi o‘rtasida katta tafovut bo‘lgani oqibatida klaster-  
larimiz 6 trillion so‘m zarar ko‘rganidan xabarim bor. Shu vaziyatni  
hisobga olib, klasterlarning 3 trillion so‘m kredit qarzdorligini bir  
yilga uzaytirib berdik.

Biz ushbu moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada  
kengaytiramiz. Jumladan, klasterlarning aylanma mablag‘lari uchun  
bir yarim yil muddatga 3 trillion so‘m kredit ajratiladi.

Bundan tashqari, paxta va sun’iy tolani olib kelishda trans-  
port xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi, xomashyo, bo‘yoq va  
kimyoviy vositalar, furnitura,sovutish tizimlari va aksessuarlar uch  
yil muddatga bojxona bojidan ozod qilinadi.

Hurmatli tadbirkorlar!

Shu o‘rinda sizlarga alohida murojaat qilmoqchiman.

So‘nggi yetti yildagi soliq islohotlarimiz, tadbirkorlarga berilgan  
yengillik va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida 120 trillion  
so‘mdan ziyod mablag‘ qoldi.

Mana, bugun ham juda katta qulayliklar berilyapti.

Xalqimizda “qars ikki qo‘ldan chiqadi” degan gap bor. Hozir-  
gi kunda mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyotning ulushi 40 foiz  
atrofida.

Biz to‘g‘ri ishlayotgan, ish o‘rni yaratayotgan, ilg‘or texnolo-  
giyalar joriy qilib, yangi mahsulotlarni o‘zlashtirayotgan, eksportini  
oshirayotgan biznes vakillari uchun barcha sharoitlarni yaratib be-  
rishga tayyormiz. Lekin soliqlardan qochib, o‘zining majburiyatla-  
rini bajarmasdan kelayotgan “tadbirkorlar”ga biz, albatta, murosasiz  
bo‘lamiz.

Birovning haqqiga xiyonat Yaratganga ham xush kelmaydi.

Shu bois tadbirkorlarimiz o‘zлari ham bosh bo‘lib, bunday  
“nopok” ishbilarmonlar saflarida bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasa, o‘y-

laymanki, xufiyona iqtisodiyot ulushini bir necha karra qisqartiramiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish davri bo‘lib qolmoqda.

Shu ma’noda, kelgusi yillar uchun belgilab olgan reja va dasturlarimizni amalga oshirish, albatta, oson bo‘lmaydi. Buni ham ochiq aytishimiz kerak. Lekin hayot sinovlarida toblangan, so‘zida ham, ishida ham qat’iy sizlardek mard va tashabbuskor tadbirkorlarimiz bor ekan, biz, albatta, ko‘zlagan marralarimizga erishamiz.

*Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida  
o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutq*

2023-yil 18-avgust

---

## **SHAHID BOBOLARIMIZ XOTIRASINI E'ZOZLASH – MUQADDAS INSONIY BURCHIMIZDIR**

Bugungi ulug‘ ayyom kunida – mustaqilligimizning 32 yillik bayrami arafasida biz ushbu xiyobonga kelib, sobiq mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan yurtdoshlarimiz xotirasini yod etmoq-damiz.

Ma'lumki, 1937–1953-yillarda 100 ming nafar yurtdoshimiz begunoh qatag‘on qilingan. Ularning 13 mingdan ko‘prog‘i otib tashlangan.

Bu fidoyi ajdodlarimiz ertangi kun uchun, millat kelajagi va farovonligi, hamjihatligi uchun jonini ayamasdan, butun umrini shu oliyjanob maqsadga baxsh etgan buyuk insonlardir. Bugungi yorug‘ kуллarni ota-bobolarimiz qancha-qancha yillar kutganlar.

Bundan 32 yil oldin jonajon Vatanimizni mustaqil deb e’lon qildik. Istiqlolni xalqimiz buyuk ne’mat sifatida qabul qilib, shundan buyon suveren va mustaqil davlat, xalqaro huquqning to‘laqoni li subyekti sifatida, erkin va ozod xalq bo‘lib yashab kelmoq-damiz.

Chindan ham, bu Xudoyi taoloning el-yurtimizga eng katta marhamati, ne’mati. Mana shu ne’matga doimo shukronalar aytib, uning qadriga yetib yoursak, o‘ylaymanki, to‘g‘ri bo‘ladi.

So‘nggi ikki yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi asossiz qatag‘on qilingan 850 dan ortiq fuqarolarimizni oqladi. Bu yilning o‘zida yana 240 nafar yurtdoshimiz oqlandi.

Biz tegishli vazirlik va idoralar tomonidan bu borada olib borilayotgan izlanishdan hech qachon to‘xtamasligimiz kerak.

Bugun bu masalaga yana bir marta qaytayotganimiz bejiz emas. Maxsus komissiya tuzib, kerak bo'lsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lган boshqa davlatlarga borib, hamma arxivlардagi ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish lozim. Eng avvalo, Komissiya a'zolarining samarali ishlashi uchun sharoit yaratib berish kerak.

Maqsad shuki, qancha-qancha ajdodlarimiz aybsiz, nohaq ravishda qatag'on qilingani, otib tashlangani haqida ularning qarindosh-urug'lari, avlodlari, nevara-chevaralari, butun xalqimiz bilishi zarur.

Shu ma'noda, keyingi vaqtida mingga yaqin qatag'on qurbanlarning oqlangani – bu adolat sinmasligini, haqiqat baribir tanta-na qilishini anglatadi. Biz bu begunoh insonlar barhayot, ularning orzu-niyatlari ham bardavom, degan nuqtayi nazardan bugun katta ishlarni amalga oshiryapmiz.

Mustaqillik bayrami arafasida turli ma'rifiy tadbirlarda, yoshlар bilan uchrashuvlarda, juma namozlarida mo'min-musulmonlar, umuman, butun xalqimiz o'rtasida bu haqda ko'proq gapirishimiz kerak.

Misol uchun, "Mahallamizdan, mana bu oilalardan buncha yurdoshimiz qatag'on qilingan. Ular o'z hayotini istiqlolimiz uchun, ozodlik uchun bag'ishlab fido qilgan, yurtimiz mustaqil bo'lishi uchun kurashgan. Shu bois ularning haqlariga duo qilishimiz, xotirasini e'zozlashimiz kerak", degan mazmunda tushuntirish ishlari olib borilsa, bunday targ'ibotlar keng ommalashsa, bizga yarashidigan ish bo'lar edi.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi barcha darajadagi hokimliklar, ta'lim vazirliklari, "Nuroniy" va "Mahalla" jamg'armalari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Diniy qo'mita, Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeysi bilan birgalikda shu ishlarni tizimli yo'lga qo'yishi zarur.

Chunki biz qatag'on bo'lган fuqarolarimizni oqlayapmiz, nomlarini e'lon qilyapmiz-u, lekin, afsuski, shu bilan ularni esdan chiqaryapmiz.

Endi bu ishlarning uzviy davomi sifatida shahid ketgan bobolaramiz xotirasini e'zozlash, nomlarini tarixga muhrlab qo'yish choralarini ko'rishimiz kerak.

Mana, masalan, har bir mahallada Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari yashaydigan uy darvozasiga shu haqda ma'lumot yozilgan lavhalar o'rnatib qo'yilgan. Qatag'on qilingan fuqarolarimiz, ayniqsa, shafqatsizlarcha otib tashlangan 13 mingdan ortiq yurdoshlarimiz yashagan, ularning oila a'zolari, avlodlari istiqomat qilayotgan xonadonlarga ham shunday lavhalarni o'rnatib qo'ysak, o'ylaymanki, bu adolatdan bo'ladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda biz joylarda Qatag'on qurbonlari muzeyining filiallarini tashkil etdik. Bu muzeylarga, avvalambor, rahbar va yetakchilarining o'zлari borishi, aholimizni, avvalo, yoshlарimizni olib borishi, ular bilan birgalikda tariximizning mana shunday sahifalarini o'rganishi muhim.

Ayni vaqtida viloyat, shahar va tuman hokimlari nuroniyalar, malla faollari, ziyolilar hamrohligida, qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning xonadonlariga borib, ularning xotirasiga, oila a'zolari, avlodlariga hurmat va ehtirom ko'rsatsa, bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Chindan ham, aslida eng katta maktab, eng katta tarbiya shu emasmi?

Ana shunday tashriflar, targ'ibot ishlari jarayonida yoshlарimizga mustaqillik qanday ulug' ne'mat ekanini qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning hayoti va kurashi misolida tushuntirib berish kerak.

Axir, ular ham bu yorug' dunyoda yashashga haqli edi, ularning ham hayotdan orzu-umidlari bor edi. Nima uchun ular – 100 mingdan ko'proq begunoh inson adolatsiz, ayovsiz qatag'on qilindi, shafqatsizlarcha otib tashlandi? Bu haqdagi bor haqiqatni, u qanchalar mudhish va fojiali bo'lmasin, xalqimiz, yoshlарimiz al-batta bilishi kerak.

Afsuski, sobiq mustabid tuzum davridagi qatag‘onlar faqat shu bilan cheklanib qolmagan. Qancha-qancha fuqarolarimiz nohaq “qulog” qilingan, olis va sovuq o‘lkalarga surgunlarga jo‘natilgan.

O‘tgan asrning 80-yillarida ham minglab yurtdoshlarimiz adolatsizlik qurbanini bo‘lgan. “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” degan soxta ayblovlar bilan boshimizga balolar yog‘dirilgan.

O‘sha yillar respublikamiz bo‘yicha 40 ming kishi tergov qilinib, qiyinoq va azob-uqubatlarga solingan, ulardan 5 ming nafari jinoiy javobgarlikka tortilgan. Davlat va jamoat arboblari, xo‘jalik rahbarlari, taniqli olimlar, ziyorilar qatorida oddiy mehnatkash dehqonlar, mexanizatorlar, zveno va brigada boshliqlari ham badnom etilgan, jazolangan. Bunday quruq tuhmatlarga chidayolmasdan, ularning qancha-qanchasi bevaqt olamdan o‘tib ketdi.

O‘zbekistonga yigirma besh yil rahbarlik qilgan, o‘zbek xalqining buyuk farzandi, jasur jangchi va iste’dodli adib, halol va kamtarin inson Sharof Rashidov ham o‘limidan keyin siyosiy qatag‘onga uchragani alamli haqiqatdir.

Shularning hammasini hisobga olgan holda, tegishli hujjatlarni qabul qilib, 9 ming 400 dan ko‘proq mahallalarimizda qatag‘onga uchragan oilalar xonadonlariga yuqorida aytib o‘tilgan xotira lavhalarini o‘rnatish kerak. Bugungi dorilomon kunlarda ana shunday oilalarga hurmatimiz va minnatdorligimizni bildirish – bar-chamizning insoniy burchimizga aylanishi lozim.

Har qaysi mahalla idorasida ushbu mahallada tug‘ilib o‘sgan, qatag‘on qurbanini bo‘lgan insonlarning ro‘yxatini, “Xotira kitobi”ni tashkil qilish kerak.

Albatta, Qatag‘on qurbanlari muzeylarini tashkil qilganimiz juda to‘g‘ri ish bo‘ldi. Lekin, afsuski, hamma ham muzeyga bormaydi. Mahalla idorasiga esa ko‘pchilik kiradi.

Shu tariqa odamlar qatag‘onga uchragan mahalladoshlari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishib, mustaqillik qanday og‘ir yo‘qotishlar evaziga qo‘lga kiritilgan buyuk ne’mat ekanini, xalqi-

miz qanday mash’um kunlarni boshdan kechirganini, mard va fidoyi ajdodlarimiz zulm, istibdod avj olgan shunday og‘ir paytlarda ham vijdonini, milliy o‘zligini saqlab qolganini yurak-yurakdan his etadi.

Albatta, o‘sha og‘ir zamonalarda hamma ham zulmga qarshi tura olmas edi. Shuning uchun qarshi tura olgan ajdodlarimiz xotirasini qalbimizda saqlashimiz, ularning avlodlarini e’zozlashimiz, yoshlrimizga namuna qilib ko‘rsatishimiz kerak.

Bunday targ‘ibot ishlarini maktablarda ham yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Maktab o‘qituvchilari, ma’naviyat faollari, nuroniylarimiz maktablarga borib, o‘z mahallasidan chiqqan, mustabid tuzum qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz haqida gapirib bersa, ularni yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatsa, o‘ylaymanki, to‘g‘ri ish bo‘ladi. Nega deganda, shahid ketgan, qatag‘on qilingan har bir insonning hayoti – bu qahramonlik.

O‘z vaqtida Ikkinchiji jahon urushi qahramonlari to‘g‘risida ko‘plab badiiy va hujjatli filmlar yaratilgan. Qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz haqida ham badiiy va hujjatli filmlar ishlasak, o‘ylaymanki, yoshlrimiz tarbiyasi uchun katta zamin tayyorlagan bo‘lar edik.

Bunday kinoasarlarni ko‘rgan odamlarda xalqimiz, millatimiz haqida “oriyatli, g‘ururli millat ekan”, degan fikr paydo bo‘ladi, O‘zbekistonga hurmati oshadi.

Bu savobli ishga jon-dilimiz bilan kirishishimiz kerak. Bu boradagi ishlar xalqimiz, bugungi va kelgusi avlodlar hech qachon unutmaydigan umummilliy harakatga aylanishini istar edim.

Bu nima uchun kerak? Bu, avvalambor, mustaqilligimiz va hozirgi hayotimizga befarq bo‘lmasdani, unga daxldor bo‘lib yashash uchun, istiqlolimizni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarimiz qo‘liga mustahkam holda topshirish uchun kerak.

O‘z navbatida, bunday intilish ota-bobolarimiz mana shu yorug‘ kunlar uchun aziz jonlarini fido etgan ekanlar, biz bugun mustaqilligimiz uchun nima qilyapmiz, degan savolga javob berish uchun

kerak. Bu ozod va erkin hayotning qadriga yetish, shukrona qilish uchun kerak.

Mana, barchangiz ko'rib-bilib turibsiz, yillar o'tgani sari insoniyat tarixiy xotirasidan, o'zligidan uzoqlashmoqda. Dunyoda ma'rifat, madaniyat, o'zlikni anglash, ezgulik, qadriyat, ishonch kabi tushunchalar zavolga yuz tutmoqda.

Mana shunday tahlikali zamonda biz milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimizni tiklab, yoshlarimizni shu ruhda tarbiyalasak, qandaydir o'ylab topilgan, soxta tarix va buzg'unchi g'oyalar emas, adolatli haqiqat asosida, o'zimizning tariximiz asosida tarbiyalasak, marra bizniki bo'ladi.

Mamlakatimiz ziyolilari, tarixchi olimlarimiz o'tgan davrda bu yo'nalishda amalga oshirgan ishlarimizni atroficha tahlil qilib, bugungi murakkab davrda yana qanday ishlarini qilishimiz kerakligi bo'yicha tashabbus va takliflarini bersalar, barchamiz ulardan minnatdor bo'lamiz.

Bu yo'nalishdagi ishlarga nafaqat vazirlik va idoralar, kerak bo'lsa, nodavlat tashkilotlar, tadbirkorlarimiz ham o'z hissasini qo'shsa, biz bunday sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

Masalan, mahallalarda joylashgan korxonalarda stend tashkil qilib, unda mustaqillik yo'lida kurashgan jadid bobolarimiz, ularning qahramonona hayoti haqidagi surat va ma'lumotlar yorililsa, qanday yaxshi!

Nega deganda, bugungi hayot ham, bugungi xususiy mulk ham, yirik korxonalar va tadbirkorlik rivoji ham istiqlol sharofati bilan bo'ldi. Katta-katta tadbirkorlarimiz mustaqillik tufayli shu darajaga erishdi. Shuning uchun odamlarimizni hozirgi hayotimizga ongli qarashga, tariximiz, o'tgan kunlarimizni bilishga o'rgatishimiz kerak.

Bu borada targ'ibot ishlarini, **avvalambor**, agar mustaqil bo'limganimizda taqdirimiz qanday kechar edi, bugungi hayot, yu-

tuq va marralar qayoqda edi, degan yondashuv asosida tashkil qilish ijobiy natija beradi.

**Yana bir muhim jihatı** – biz hamisha bilim va ma'rifatga intilgan, ilm-fanni taraqqiyotning kaliti sifatida ko'radigan, yuksak ma'naviyatli, bag'rikeng millat ekanimizni, yurtimizda xalqparvar davlat qurayotganimizni xalqimizga oddiy va sodda tilda, ravon usulda tushuntirib berish kerak.

**Ikkinchidan**, qatag'on davri va uning qurbanlarini, jadidlik harakati va ushbu harakat namoyandalarining hayoti va faoliyatini chuqur o'rganadigan ilmiy maktab yaratishning vaqtি-soati keldi. Buxoroda ushbu masala bo'yicha katta ishlarni boshladik. Jumladan, ilgari jadid namoyandalariga tegishli bo'lgan muhtasham bir binoni xalqimizga qaytarib, muzeyga aylantirish bo'yicha amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Ayni vaqtda jadidlik mavzusini o'rganish uchun oliy ta'lim dargohlari, ilmiy tadqiqot institutlari aspiranturasida maqsadli kvotalar, davlat grantlarini ajratish zarur.

Tadqiqotchilarimiz izlanishlar olib borib, qatag'on davrini chuqur, puxta, xolis o'rganishi, bu tarixiy voqealarni ilmiy asoslاب berishi, shu asosda dissertatsiyalar yoqlanishi lozim. Ilmiy tadqiqotlar natijalari kitob holida chop etilishi kerak.

**Uchinchi yo'nalish** – tarixdan zarus saboq va xulosa chiqarish, ajdodlarimiz xotirasini tiklash borasidagi ishlarimiz, mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan tarixiy yutuq va marralarimizni ilmiy yo'nalishlarda tadqiq etish va kitob, to'plam holida muhrab qo'yish, buning uchun tegishli chora-tadbirlarni amalgaloshirish zarur.

Bu ishlarimiz natijalari bo'yicha Mustaqillik bayrami arafasida – bir oy davomida mahallalarda, ilmiy jamoalarda, masjidlarda, tumanlarda taqdimotlar o'tkazsak, to'g'ri bo'ladi.

Bu ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim chetdan kelib biz uchun qilib bermaydi. Yozuvchi va shoirlarimiz ham bu ishlarda faol

bo‘lishini iltimos qilamiz. Shu mavzuda yaratilgan badiiy asarlarni Vazirlar Mahkamasining qarori asosida nashr etishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Bundan buyon Shahidlar xotirasini yod etish kuni avval qataq‘on qilingan yurtdoshlarimizning mahallalari, xonadonlariga bo‘rib, ziyorat qilib, keyin ushbu xiyobondagi marosimlarni o‘tkazsak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu marosimlarga qatag‘on qurbanlarining avlodlari, farzandlari, nevara va chevaralarini ham taklif qilishimiz kerak.

O‘zingiz ko‘rasiz, besh yil o‘tadi, o‘n yil o‘tadi, juda katta manba to‘planadi. Bu to‘g‘rida ilgari bilmagan yangi ma’lumotlarga, tarix haqiqatlariga guvoh bo‘lamiz.

Yana bir masala. Vazirlar Mahkamasi ziylolar, keng jamoatchilik vakillari bilan birgalikda davlat mukofotlari bilan taqdirlashda qatag‘on qurban bo‘lgan yurtdoshlarimizning oilalariga ham e’tibor ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritishi kerak.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – ana shu fidoyi insonlarning qadr-qimmatini joyiga qo‘yishdan iborat.

Biz, odatda, “Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!” deb ko‘p gapiramiz. Bu umumiyl gap bo‘lib qolmasligi uchun, adolat qaror topishi uchun ana shunday amaliy ishlarni qilishimiz zarur.

Nuroniylar nima qiladi, ziylolar nima qiladi, tarixchilar nima qiladi, yozuvchilar nima qiladi, ulamolarimiz nima qiladi, yoshlarimiz nima qiladi – bu ishda har bir jabhani qamrab olish zarur. Hamma bu ishga o‘z hissasini qo‘shishi kerak.

Ma’lumki, mustabid tuzum davrida qatag‘onga uchragan shaxslarning aksariyat qismini jadidlar tashkil etadi.

Jadid bobolarimiz g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat, ozodlik va mustaqil taraqqiyot g‘oyalari bilan maydonga chiqqanlar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan **maktab** va **teatrilar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar** tashkil qildilar. Qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar.

Lekin, afsuski, mustabid tuzum el-yurtimizning eng ilg‘or va-killari, millatimizning gullari bo‘lgan ziyoli insonlarni ayovsiz qatag‘on qildi. Bu og‘ir yo‘qotishning o‘rnii, mana, oradan shuncha yillar o‘tsa hamki, hamon sezilib turadi. Agar ular nohaq qatl etilmaganida edi, mamlakatimizning bugungi taraqqiyoti va ravnaqi butunlay boshqacha bo‘lardi. Afsuski, buni ko‘pchilik tushunishi qiyin bo‘lyapti.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish haqida gapiryapmiz. Bu umumiyl gaplar emas. Buning zamirida kuchli asos bor.

Agar mustabid zamon buyuk bobolarimizni yo‘q qilmaganida, biz Uchinchi Renessansga ega bo‘lar edik. Jahon hamjamiyatida o‘nmiz boshqacha bo‘lardi.

Tarixga befarq qarab bo‘lmaydi. Mana, biz Xorazmiy bobomiz, Beruniy bobomiz, Ibn Sino bobomiz va boshqa allomalarimiz ijodini, ularning ilmiy merosini yetarlicha o‘rganmaganligimiz, targ‘ibot qilmaganimiz uchun atrofimizda ayrimlar bu masalada tagi puch da’volar bilan chiqyapti.

Mana, Samarcand haqida, uning tarixi, qadimiyl hukmdorlari to‘g‘risida qanday asossiz gaplar chiqib kelyapti. Bunday misollarni yana keltirish mumkin.

Bugun yurtimizda tarixiy mavzularda kinolar olinyapti. Shu filmlarni yoshlarimiz ko‘proq ko‘rishi lozim. Ularga asl tarixni, tarixiy haqiqatni xolisona yetkazishimiz kerak.

Yoshlarimiz bugun, asosan, internetda, telefonda “o‘tiribdi”. Mayli, bu ham zamonning zayli. Ammo fikr-u xayoli boshqa qahramonlar bilan band. Biz bu masalaga qarashimizni, yondashuvimizni o‘zgartirmasak, ko‘p narsani yo‘qotamiz.

Vaqt shiddat bilan o‘tyapti. Vaqt kelib hamma ham bu dunyodan o‘tadi. Ammo bizdan nima qoladi? Qanday ishlarimizni kelajak avlodlar minnatdorlik bilan yodga oladi? Hammamiz shu o‘tkir savolga javob berishimiz zarur.

Xudoga shukur, bugun yutuqlarimiz ko‘p, iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanayapti, jamiyatimiz o‘zgaryapti. Farzandlarimiz ham oldinga intilyapti. Biz shunga erishishimiz kerakki, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, xorijiy tillarni bilgan farzandlarimiz so‘zsiz o‘z ona tilini, o‘zbek millati, o‘zbek xalqi tarixini al-batta bilishi shart. Xorijiy mamlakatlarga o‘qishga, ishga borganida, o‘z millati, o‘z xalqi, ulug‘ ajdodlari, jadidlarimiz bilan faxrlansin. Butun dunyoga Beruniy bobosini, Navoiy bobosini, Fitrat bobosini, ularning hayotini, ulug‘ ishlarini g‘ururlanib gapirib bersin.

Ming shukurki, iftixor qilsak arziydigan tariximiz, madaniyatimiz bor. Bu masalada kuch va mablag‘ni ayamasligimiz kerak. Shunday qilsak, sekin-sekin muhit o‘zgaradi, dunyoqarash o‘zgaradi.

Buning uchun shoir va yozuvchilar, tarixchilar, o‘qituvchi va domlalar, hurmatli rektorlarimiz ham xalqimizning ong-u tafakkuri, mentalitetini o‘zgartirish uchun o‘zini qiyaydigan, faollik ko‘rsatadigan vaqt keldi.

Dunyoda bo‘layotgan ishlarni, yuzaga kelgan hozirgi ahvolni, urushlarni ko‘rib, ko‘zimiz moshdek ochilishi kerak. Millatimizni, tinchlik va birligimizni, birdamligimizni, yoshlarimizni mahkam himoya qilib, ularni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalashga jiddiy qaramasak, hayot, tarix bizni kechirmaydi.

Deputatlar ham, senatorlar ham bu masalaga befarq bo‘lmasligi lozim.

Muftiy hazratlari bosh bo‘lib, mo‘min-musulmonlarimiz o‘rtasida bu gaplarni tushuntirsalar, mahallalarda qatag‘on qurboni bo‘lgan bobolarimizni eslab, haqlariga duoyi fotihalar o‘qishni yo‘lga qo‘ysak, ayni muddao bo‘ldi.

**Milliy tarix, milliy san’at, milliy qadriyat** – bu ma’naviyatimizning uchta tayanch ustuni bo‘lishi kerak.

Men uchrashuvlarda baxshichilik bilan maqom san’ati unutilib ketmoqda, ularni saqlab qolish choralarini ko‘rishimiz kerak, deb ko‘p marta aytgan edim.

Mana, kecha maqom san'atini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi qarorga qo'l qo'ydim. Maqom fidoyilarini rag'batlantirish yuzasidan ko'p imkoniyatlar yaratildi.

Yaqindagina yurtimizda atigi uch nafar taniqli baxshi qolgan edi. Shu sababli baxshichilik maktabini tikladik. Bu san'at oldida yangi ufqlar ochilmoqda.

Shuning uchun bugun ko'tarilgan masalalarga tarbiya nuqtayi nazaridan qarab, ortiqcha shoshilmasdan, bu ishlarni birov larga ko'z-ko'z qilish uchun emas, avvalo, o'zimiz uchun, farzandlarimiz uchun amalga oshirishga chuqur e'tibor berishimiz ham qarz, ham farz.

Hozirgi tahlikali dunyoda yoshlارимиз uchun o'rнак bo'ladi-gan qahramonlарни chetdan qidirish kerak emas. Haqiqiy qahramonlar qadim va buyuk tariximizda, bugungi kunimizda juda ko'p. Farzandlarimizni ularning ma'naviy olamiga olib kirib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalasak, eng to'g'ri yo'l shu bo'ladi.

Shu munosabat bilan Bosh vazir (A. Aripov), Prezident maslahatchilar (G'. Mirzayev, X. Sultonov, M. Komilov) tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda yuqorida tilga olingan masalalar bo'yicha Prezident qarori loyihasini tayyorlab, tasdiqlash uchun kiritsin.

*Shahidlar xotirasini yod etish kunida  
bildirilgan fikrlar*

2023-yil 31-avgust

---

## **BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ**

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram otaxon va onaxonlar!

Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlari!

Hurmatli mehmonlar!

Bundan roppa-rosa o‘ttiz ikki yil muqaddam O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qildi. O‘tgan davrda biz qancha sinovlarni boshimizdan o‘tkazdik, ko‘plab qiyinchilik va mashaqqatlarni birgalikda yengdik.

O‘ttiz ikki yil avval tug‘ilgan go‘dak bugun o‘zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, orzu-istiklalari va maqsadlariga ega shaxs sifatida voyaga yetdi. Xuddi shu singari, bugungi O‘zbekiston ham, o‘tgan davrda turli sinovlarda toplanib, tajriba orttirib, o‘zining aniq maqsadi va yo‘li, pozitsiyasiga ega bo‘lgan katta davlat sifatida shakllandi.

Bu – butun xalqimizning tarixiy yutug‘i. Unda har biringizning munosib hissangiz bor!

Siz, azizlarning Vatanga mehr va sadoqat bilan qilayotgan har kunlik mehnatingiz O‘zbekiston mustaqilligini yana-da mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu ma’noda, Istiqlol bayrami – barchamizning bayramimiz, mustaqil O‘zbekiston – barchamizning faxrimiz, iftixorimiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mana shu shukuhli damlarda har qanday sharoitda ham o‘z kasbiga sodiq qolib, yosh avlodimizga ilm-fan asoslarini o‘rgatib kelayotgan hurmatli muallim va murabbiylarni, xalq salomatligi yo‘li-

da o‘zini ayamasdan xizmat qilayotgan jonkuyar shifokorlarni, el-yurt dasturxonini yanada to‘kin qilish uchun dalalarimizda fidokorona mehnat qilayotgan mirishkor dehqon va fermerlarimizni, ona yurtimiz qalqonlari bo‘lgan jasur harbiyalarimizni, iqtisodiyotimiz rivoji, xalqimiz farovonligini oshirish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatayotgan tadbirkorlarimizni, o‘zining dastlabki yutuqlari bilan barchamizni xursand qilayotgan azm-u shijoatli yoshlарimizni, qalb to‘la mehri, ulug‘ fazilatlari bilan xonadonlarimiz ustuni bo‘lib kelayotgan hurmatli opa-singillарimizni, har bir ishda duogo‘y bo‘lib, bizga Yaratgandan kuch va madad tilab turgan muhtaram otaxon va onaxonlarimizni, dunyoning qaysi o‘lkasida bo‘lsa ham, O‘zbekiston sog‘inchi bilan yashayotgan aziz vatandoshlarimizni, bir so‘z bilan aytganda, 36 millionlik butun xalqimizni bugungi ulug‘ bayram bilan chin qalbimdan samimiyl tabriklayman.

Istiqlol ayyomi barchamizga muborak bo‘lsin!

Qadrli do‘srlar!

Albatta, O‘zbekiston o‘z suvereniteti, davlat mustaqilligiga osonlik bilan erishgani yo‘q. Bu yo‘lda ajdodlarimizning siyosiy va ma’rifiy intilishlari so‘nggi bir yarim asr davomida deyarli to‘xtamadi. Hurriyat uchun kurashgan ko‘plab Vatan fidoyilar qatag‘on etildi, istiqlolga intilgan millat qahramonlari zulm va zo‘ravonlik qurbanini bo‘ldi.

Biz yurt ozodligi yo‘lida kurashgan, nohaq ayblanib, bu dunyodan armon bilan ketgan vatandoshlarimizning pok nomlarini tiklashni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan edik. So‘nggi uch yilda ularning 856 nafari Oliy sud tomonidan oqlandi. Biz bunday ezgu ishlarni albatta davom ettiramiz. Zero, bu masalada adolat qaror topishi shart.

O‘tmishga nazar tashlar ekanmiz, achchiq bir haqiqatni tan olishga majburmiz: “o‘zbek” deganda, faqat erta-yu kech paxta dasida mehnat qiladigan zahmatkash insonlar tasavvur qilinar edi. Afsuski, shu darajaga tushib qolgan edik.

Paxta hukmronligi o'zbekning peshanasiga yozilgan balo bo'ldi. Paxta siyosati Orolni quritdi, ekologiyamizni inqirozga olib keldi, iqtisodiyotimizni, ta'lif tizimini izdan chiqardi. Oqibatda bir necha avlod chalasavod bo'lib voyaga yetdi. Biz buning asoratlari bilan haligacha kurashyapmiz.

Bugun paxtachilikda bozor iqtisodiyoti tamoyillari joriy etilib, soha o'z egasini topdi. Natijada o'qituvchi maktabga, shifokor shifoxonaga qaytdi, tadbirkorlar paxta "o'lponi"dan ozod bo'ldi, majburiy va bolalar mehnatiga chek qo'yildi. O'zbekiston xalqaro "qora ro'yxatlar"dan chiqarildi.

Barchamizning fidokorona mehnatimiz, g'ayrat-u shijoatimiz bilan Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Xalqaro maydonda Vatanimizga nisbatan hurmat va e'tibor tobora ortib bormoqda.

Prezident sifatida dastlabki ishlardan biri qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish bo'ldi. Yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar hal etildi. Buning natijasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha sohalardagi aloqalarimiz yangi bosqichga chiqdi.

Qadrli yurtdoshlar!

Siyosiy mustaqillik zamirida, eng avvalo, iqtisodiy mustaqillik yotishi hech kimga sir emas. Oxirgi yillarda amalga oshirgan ishlarmiz, erishgan natijalarimiz bu yo'lda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi 6 yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ziyod, tadbirkorlik subyektlari soni 2 karra ko'paygani, sanoatdagi o'sish 40 foizdan oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Qisqa muddatda kambag'allikni 2 barobardan ziyod qisqartirishga erishdik.

Lekin biz bugun bilan kechagi kunni emas, bugun bilan ertangi kunni taqqoslashimiz, ishimizni shu asosda tashkil etishimiz kerak. Chunki kelajak bugun biz tashlayotgan qadamlardan boshlanadi.

Aziz do'stlar!

Biz mutafakkir zotlarning: “**Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi**”, degan hikmatli so'zlarini o'zimiz uchun dastur deb bilamiz.

Ma'lumki, biz bir yil avval taraqqiyotimizning 5 ta asosiy yo'nalishini belgilab olgan edik. Unda ta'lim sohasini rivojlantirish birinchi galda ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Men doimo ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, deb ta'kidlashim beziz emas. Chunki ta'limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir.

2022-yili mamlakatimizda 72 ta yangi maktab qurildi, 279 tasi kapital ta'mirdan chiqarildi, 514 ta maktab esa rekonstruksiya qilindi. Maktablar uchun 30 mingdan ortiq kompyuter xarid qilindi. Yangi o'quv yilidan respublikamiz maktablarida xorijdan maxsus taklif etilgan 500 nafar ingliz tili mutaxassisi bolalarimizga dars beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan yangi dastur va darsliklar bo'yicha o'qiy boshlaydilar.

Xuddi shu kabi sog'liqni saqlash, biznesni rivojlantirish, sud tizimini takomillashtirish hamda suv va yoqilg'i-energetika muammolarini hal etish yuzasidan katta loyihalar boshlangan. Yana bir bor ta'kidlayman: ushbu belgilangan ustuvor yo'nalishlar bizning doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Agar 3 ming yillik tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz asrlar mobaynida dunyo tamadduniga nafaqat jismoniy, balki intellektual mehnati bilan ham ulkan hissa qo'shgani-ga guvoh bo'lamiz.

Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo, ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik yetkazib bergen ne-ne ulug' zotlarning avlodimiz.

Hech shubhasiz, ularga xos bo‘lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an’analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda.

Men ishonaman, biz bu tarixiy yo‘lni munosib davom ettirishga har tomonlama qodirmiz. Bugungi kunda dunyo xaritasida tutgan o‘rnimiz, o‘z oldimizga qo‘yayotgan juda ulkan maqsad va marralaramiz ham aynan shuni taqozo etmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, biz transport-logistika tizimi bilan birga, bugun zamonning o‘zi talab qilayotgan ilm-fan, innovatsiya, IT va aqliy mehnatga asoslangan boshqa sohalarni jadal rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratyapmiz. Aynan shu yo‘nalishlar O‘zbekiston iqtisodiyotining yaqin kelajakdagi asosiy lokomotivlariiga aylanadi.

Muhtaram do‘stlar!

Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o‘sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi turgan bo‘lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo‘lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi.

Bizning vazifamiz – har ikki yo‘nalishda ham muvozanatni saqlashdan iborat. Hech qachon unutmasligimiz lozimki, tabiiy resurslar – bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo‘lgan boylikdir. Shu bois ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o‘ylab, oqilona foydalanishimiz zarur.

Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o‘tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun “yashil” va raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Qadrli yurtdoshlar!

Yangilangan Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning dunyoviy davlat va turli madaniyatlarni birlashtirgan makon ekani aniq bel-

gilab qo'yildi. Bizning kuch-qudratimiz – mana shunda, biz bu boylikni ko'z qorachig'idek asrashimiz kerak. Tarixga qaraydigan bo'lsak, asrlar davomida yurtimizda turli xil e'tiqod va qarashlar, dinlar, madaniyatlar bag'rikenglik bilan qabul qilinganini ko'ramiz.

Biz – nizolarni urush bilan emas, tinchlik bilan hal etish yo'lini tanlaydigan xalqmiz. Biz barcha xalqlar bilan hamisha murosayi madora, do'stlik va hamkorlikda yashab kelganmiz. Bugungi taraqqiyot yo'limizda ham aynan shu tamoyillarga tayanamiz.

Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyatni zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak.

Bugun rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish haqida gap borar ekan, buni so'z va matbuot erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun dunyoda jurnalistlar o'zлari va jamiyatni o'ylanti-rayotgan, xavotirga solayotgan mavzular haqida gapirish va yozish huquqi uchun, haqiqat uchun kurashganlar va bundan keyin ham kurashadilar.

Ammo ishonch bilan ayta olamanki, men erkin fikrli jurnalistlar tarafida bo'lганман va doimo shu pozitsiyada qolaman. Ayni vaqt-da axborot makonida haqqoniylik va xolislik bosh mezon bo'lishi kerak.

Hurmatli bayram qatnashchilari!

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, "**xotin-qizlar – bu millat onalaridir**". Ular millatning yangi nasli – farzandlarini tarbiyalash uchun o'zлari ham yuksak bilimli bo'lishlari zarur.

Shunday ekan, oldimizda turgan yana bir muhim vazifa – jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Hurmatli xotin-qizlarimizning jamiyatdagi о'rni va nu-fuzini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini, kasb sohasi bo'yil-

cha o'sishini ta'minlash borasida o'tgan davrda ko'p ishlarni amalga oshirdik. Shu bilan birga, bu yo'naliшhda qiladigan ishlarimiz ham oz emas.

Ma'lumki, muhtarama ayollarimiz zimmasida xizmat sohasidagi vazifasidan tashqari, farzandlar tarbiyasi, oilada sog'lom muhitni mustahkamlash, axloqiy-ma'naviy an'analarni davom ettirishdek murakkab vazifalar ham bor. Shunday ekan, mehribon opa-singillarimizni har qancha qo'llab-quvvatlasak, arziydi.

Mana, bu yil oiladagi zo'ravonlikka qarshi qonunni qabul qildik. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning baxti va himoyasini ta'minlashdir. Biz bu yo'naliшhdag'i ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz.

Aziz yurtdoshlar!

O'zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birdamligi, mam-lakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni o'z hayotining ma'nosi deb bilmog'i kerak!

**Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!**

Hurmatli yurtdoshlar!

Insoniyat oxirgi besh-olti yil mobaynida so'nggi yuz yil davomida o'z boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha sinovlar bilan yuzma-yuz kelgani sizlarga ma'lum.

Bu pandemiya bo'ladimi, tabiiy ofatlar, zilzilalar bo'ladimi, qurolli to'qnashuvlar, global isish hamda qurg'oqchilik bo'ladimi – barchasi bashariyatni qattiq sinovdan o'tkazdi va o'tkazmoqda. Mazkur murakkab vaziyatni, ta'bir joiz bo'lsa, kuchli va qattiq to'fonga qiyoslash mumkin.

Bunday ofatlar oqibatida "manaman" degan daraxtlarning ham barglari uzilishi, shoxlari sinishi, kurtaklari to'kilishi, hatto mevalari nobud bo'lishi mumkin. Lekin ildizi mustahkam va chuqur bo'lgan daraxtlar yiqilmaydi. Aksincha, yerga o'sha tomirlari bilan yanada mahkam bog'lanadi. Qayta kurtak yozadi, mevalar tuga-veradi. Bu – hayot qonuni.

Bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor. Bu bizning tariximiz, qadriyat va an'analarimiz, urf-odatlarimiz, milliy o'zligimizdir. Men ana shu teran ildizlarimizda yurtni, millatni birlashtiradigan buyuk bir g'oyani ko'raman.

Biz Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinchligini ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirishga, harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun yanada munosib sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratamiz.

Dunyoning olis va yaqin mamlakatlari, ayniqsa, qo'shni davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqamiz. Bu borada mamlakatimiz va xorijiy davlatlar diplomatlarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Mana shu imkoniyatdan foydalanib, bugungi tantanali marosimda xorijiy davlatlarning hurmatli elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etayotganidan mamnun ekanimni bildirib, ularning mamlakatlari va xalqlariga tinchlik va ravnaq tilayman.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Barchangiz bir haqiqatni bilishingizni istardim. Bizning jami-ki sa'y-harakatlarimiz mamlakatimiz ravnaqi uchun, o'z Vataniga sadoqatli xalqimiz uchun, sizlar uchun, aziz yurtdoshlar!

Bugun oldimizda turgan vazifalar qanchalik ulkan va murakkab bo'lmasin, ularni birgalikda hal etishga kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham yetadi.

**Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas.**

Tarixdan ma'lum: vaqt ni - imkoniyatga, imkoniyatni - yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq - buyuk xalqdir. Bugun mehnatkash, mard va oliyjanob, mehr-oqibatli elimiz ayni shunday xalq bo'lib maydonga chiqmoqda.

Fursatdan foydalanib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda fidokorona mehnat qilib kelayotgan barcha yurtdoshlarimizga, ona xalqimga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Siz, azizlarni, katta-yu kichik barcha vatandoshlarimni bugungi ulug‘ ayyom – O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga baxt-u saodat, fayz-u baraka tilayman.

Barcha yutuq va g‘alabalarimizning ijodkori va bunyodkori bo‘lgan xalqimiz hamisha omon bo‘lsin! Go‘zal yurtimizda tinchlik va osoyishtalik bardavom bo‘lsin!

Jonajon Vatanimizga ko‘z tegmasin!

Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

*O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining  
o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutq*

2023-yil 31-avgust

---

## **OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI BO‘YICHA XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni qadimiylar va go‘zal Samarqand shahrida oziq-ovqat xavfsizligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Mazkur anjumanda dunyoning 32 ta davlatidan 620 nafardan ziyod xorijiy mehmon hamda 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilot-dan vakillar qatnashayotgani unga jahon miqyosidagi katta qiziqish va e’tibordan dalolatdir.

Albatta, ushbu konferensiya uchun aynan Samarqand shahri tanlangani beziz emas. Qariyb uch ming yillik tarix va madaniyatga ega bo‘lgan bu ko‘hna shahar asrlar davomida Buyuk ipak yo‘lidagi muhim chorraha bo‘lib kelgan.

Sizlarga yaxshi ma’lumki, oziq-ovqat xavfsizligi, uni barqaror yetkazib berish, ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash masalalari bugun ham o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi o‘n yillarda “yashil inqilob” va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, tobora ko‘payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Afsuski, keyingi paytda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlar oshishiga sabab bo‘ldi.

Bundan, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko‘rmoqda. Global iqlim o‘zgarishlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmi kamayishi vaziyatni yanada og‘irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish janoblarining 2021-yilda oziq-ovqat tizimlari bo‘yicha global sammit o‘tkazish borasidagi tashabbusini birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatladi. Bugungi anjuman ana shu sammitning mantiqiy davomidir.

Hozirgi vaqtida qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta’sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun axborot konsalting markazlarini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg‘or texnologiya va usullar bo‘yicha o‘qitish uchun agrokonsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo‘lib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi texnikasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo‘lishi kerak. Biz xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining “yashil” texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga chaqiramiz.

Biz eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovkasida to‘liq erkinlik hamda oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarni soddalashtirish tarafдоримиз. Savdo yo‘llari xavfsizligi va ochiqligini ta’minlash davlatlararo munosabatlarda o‘zgarmas tamoyil bo‘lib qolishi zarur.

**Qadrli do‘sstar!**

O‘zbekiston zamini o‘zining qadimiy va boy dehqonchilik an’analari, g‘oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi.

Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagи yetakchi sektorlardan biri bo‘lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan, G‘arbda “Avitsenna” degan nom bilan shuhrat qozongan buyuk alloma Ibn Sino bobomiz O‘rta asrlardayoq: “Kimki uzoq va sog‘lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e’tibor qaratsin”, deb ta’kidlaganlar.

Albatta, dunyo aholisi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish mada-niyatini shakllantirish – uzoq davom etadigan jarayon. Bu maqsadga erishishda barcha davlatlar hukumatlari, ishlab chiqaruvchilar, olimlar va tibbiyot xodimlari yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim, deb hisoblaymiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Sizlar konferensiya davomida ana shunday muhim masalalar haqida atroflicha fikr almashib, global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladigan yangi tashabbus va amaliy takliflarni ishlab chiqasiz, deb ishonaman.

Mehmondo‘st O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Mamlakatimizga tashrifingiz mazmunli va samarali bo‘lsin!

2023-yil 7-sentabr

---

## XALQARO ETNOSPORT FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival qatnashchilari!

Qadrli do'stlar!

Xonimlar va janoblar!

Barchangizni butun dunyoda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida shuhrat qozongan, ko'hna va betakror Xiva shahrida **Xalqaro etnosport festivalining** ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Yurtimizda birinchi bor o'tkazilayotgan ushbu anjumanda UNESCO, TURKSOY, Butunjahon etnosport konfederatsiyasi hamda unga a'zo davlatlar vakillari, shuningdek, 63 ta mamlakatdan qariyb 930 nafar etnosport namoyandalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etayotgani festivalga dunyo miqyosida qiziqish va e'tibor naqadar katta ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mazkur xalqaro anjumanning uch ming yildan ziyod shonli o'tmishtga ega bo'lgan Xorazm zaminida o'tkazilayotgani, albatta, bejiz emas. Bu qutlug' voha bizning boy tarix va madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning qadimiy beshiklaridan biridir. Ushbu di-yordan yetishib chiqqan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud singari mard va jasur ajdodlarimiz, mohir sarkardalarimiz bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Ma'lumki, xalqning tarixi, milliy qadriyat va an'analarini o'zida mujassam etadigan etnosport turlari yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, dunyo davlatlari bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Shu bois mamlakatimizda milliy xalq o‘yinlarini targ‘ib etish va ommalashtirish, bu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda bu borada qator qarorlar, jumladan, **Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi** qabul qilindi.

Ayniqsa, milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli musobaqalar tizimi tashkil etilgani, Toshkent shahrida har yili bir marta etnosport turlari bo‘yicha respublika festivali, Xiva shahrida esa ikki yilda Xalqaro etnosport festivalini o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgani bu boradagi muhim amaliy qadamlarimizdandir.

Yurtimizda har bir tuman va shaharning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini ommalashtirish va rivojlantirish, sport musobaqalarini tashkil etish bo‘yicha hududiy dasturlar qabul qilindi.

Ayrim etnosport turlari bo‘yicha boshqaruva tizimi hamda sportchi va trenerlar zaxirasi shakllantirilgani, musobaqalarni doimiy o‘tkazish va ularni moliyalashtirish joriy etilgani bu sohadagi ishlarni muntazamlik asosida olib borish imkonini bermoqda.

Yosh avlod o‘rtasida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini ommalashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu yo‘nalishda malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish masalalari ham e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Bu boradagi ishlarni izchil davom ettirgan holda, yurtimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ro‘yxatlari shakllantirildi, o‘zbek kurashini UNESCOning etnosport milliy o‘yinlari nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritish choralarini ko‘rilmoxda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fursatdan foydalanib, ushbu festivaldagи ishtirokingiz uchun siz, azizlarga, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komil, birqalikdagi sa'y-harakatlarimiz bilan bu festival dunyodagi nufuzli sport anjumanlari qatoridan munosib o'rin egallaydi.

Festival doirasida o'tkaziladigan sport musobaqalari, xalqaro turnir, jahon championatlari va konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuq va zafarlar yor bo'lsin!

*2023-yil 8-sentabr*

---

## **MARKAZIY OSIYO IQTISODIY O'SISH VA INVESTITSION FAOLLIK MARKAZIGA AYLANMOQDA**

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvining barcha ishtirokchilarini chin qalbimdan qutlayman.

Avvalambor, an'anaviy iliq qabul va tadbirni yuksak darajada tashkil etgani uchun Tojikiston Respublikasi Prezidenti hurmatli Emomali Sharipovich Rahmon nomiga bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Bugungi uchrashuvimizda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevni ko'rib turganimdan xursandman. Sizning ishtirokingiz mintaqaga mamlakatlarining Ozarbayjon bilan chuqur tarixiy bog'liqligi va hamkorlikning hozirgi yuksak darajasining yana bir tasdig'idir.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuqori martabali vakili Kaxa Imnadze janoblarini ham qutlayman. U boshqarayotgan Mintaqaviy preventiv diplomatiya markazi Markaziy Osiyoda ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirishda muhim rol o'ynayotganini qayd etmoqchiman.

Hurmatli hamkasblar!

Bugungi beshinchi Maslahat uchrashuvining o'tkazilishi va unda ilgari surilayotgan tashabbuslar bizning o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va sherikchilikka asoslangan munosabatlarimizni mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kuchaytirish yo'lidagi intilishlarimizni namoyon etmoqda.

Umumiylar sa'y-harakatlarimiz tufayli hayotiy muhim masalalarni hal etish va hamkorligimizni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirish borasida jiddiy oldinga siljishga erishdik.

Bizning siyosiy muloqotlarimiz va parlamentlararo almashuvlar doimiy tus olmoqda. Muloqot va hamkorlik uchun turli platformalar ishga tushirildi.

Shu kunlarda Dushanbeda an'anaga aylangan yetakchi ayollar, rektorlar, yoshlar uchrashuvlari, iqtisodiy forum va ko'rgazmalar, bir qator madaniy-gumanitar tadbirlar muvaffaqiyatli o'tmoqda.

**Eng asosiysi – Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlik mustahkamlanmoqda.** Bizning mintaqamiz iqtisodiy o'sish va investitsion faollik markazlaridan biriga aylanmoqda, G'arbni Sharq va Shimolni Janub bilan bog'laydigan transport xabi bo'lishdek tarixiy vazifani yana o'z zimmasiga olmoqda.

So'nggi yillarda mintaqqa mamlakatlarining umumiylar ichki mahsuloti 40 foizga ko'paydi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barobardan ziyod oshdi. O'zaro investitsiyalar hajmi qariyb 6 marta, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 45 foizga o'sdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm ko'rsatkichlari 2 barobar oshdi.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Mintaqa mamlakatlari faoliyatining xalqaro maydonda yaqindan muvofiqlashtirilgani umumiylar sa'y-harakatlar natijasidir.

Bugun biz global va mintaqaviy siyosat kun tartibidagi ko'plab dolzarb masalalar bo'yicha yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqdamiz. Bizning mamlakatlarimiz 2017-yildan buyon Markaziy Osiyodagi taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining 8 ta rezolutsiyasini qabul qilish yuzasidan tashabbuslarni ilgari surishdi.

Bularning barchasi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda va keng e'tirof etilmoqda. "Markaziy Osiyo plus"

formatida qariyb 10 dan ortiq hamkorlik muloqoti ta'sis etilgani buni tasdiqlaydi. Ana shu muloqotlar doirasida tashqi ishlar vazirlari darajasida bizning birgalikdagi harakatimiz bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim, deb hisoblaymiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bugungi kunda bizning barcha mamlakatlarimiz dunyoda kuza tilayotgan geosiyosiy raqobat va ziddiyatlarning oqibatlarini to'liq his etmoqda. Bu o'rinda savdo va transport-logistika zanjirlarining uzilishi, investitsiya va texnologiyalardan foydalanish borasidagi cheklovlar, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha muammo larning keskinlashuvi haqida so'z bormoqda.

Iqlim o'zgarishlari alohida xavotir uyg'otmoqda.

Ana shunday xavf-xatarlarga samarali qarshi turish imkoniyati ko'p qirrali sheriklikni chuqurlashtirishga qaratilgan qo'shma sa'y-harakatlarni birlashtirishga bog'liq.

Shu munosabat bilan hamkorligimiz istiqbollari bo'yicha qator takliflarni bildirmoqchiman.

**Birinchi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik** mintaqaviy sheriklik va integratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Biz ushbu yo'nalishda mintaqada mamlakatlari bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish uchun O'zbekistonda barcha shart-sharoitlarni yaratmoqdamiz.

Tovar aylanmasi hajmini oshirish maqsadida istisno va cheklovlarsiz to'laqonli erkin savdo zonalarini tezroq shakllantirish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan, mintaqada barqaror savdo-logistika zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi hududlarida savdo va kooperatsiya markazlarini ochish va kengaytirish, o'zaro savdo bo'yicha qonunchilikni uyg'unlashtirish va bu boradagi to'siqlarni bartaraf etish, bojxona ma'murchiligi, sanitar va fitosanitar nazorat, tovarlarning qayerdan olib kelinayotganini sertifikatlash bo'yicha yagona elektron platformalar yaratish, mintaqaviy elektron savdo maydonini

ishga tushirishni ko'zda tutadigan kompleks mintaqaviy dasturni qabul qilishni taklif etamiz.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tashqi savdo faoliyati bo'yicha mas'ul bo'lgan vazirlarning doimiy uchrashuvini o'tkazish mexanizmini ishga tushirishni taklif qilamiz.

### **Ikkinci. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish.**

Bizda bu sohada muvaffaqiyatli sheriklik bo'yicha tajriba bor. Bu – yengil avtomobillar, maishiy texnika, to'qimachilik mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va shuningdek, Ozarbayjon bilan chegaraoldi hududlari kooperatsiyasidir.

Uchinchi davlatlarga eksport qilishni ko'zlagan holda, mineral o'g'itlar, polimerlar, metalldan tayyor buyumlar, tayyor to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi texnikalarini yig'ish hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va yirik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar bo'lishi mumkin.

Bizning birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tizimli tus olishi uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarning uzoq istiqbolga mo'ljallangan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni taklif etamiz.

### **Uchinchi. Transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik.**

Anciy tashqi bozorlarдан jo'g'rofti jihatdan uzoqligini hisobga olganda, bizning mamlakatlarimizda yuklarni tashish uchun ketdigan xarajatlar uhushni tovarlarning so'nggi qiymatiga nisbatan 30 foizgacha yetmaysa.

Ayni vaqida danayodagi oracha ko'satichka 11 foizdan oshmaydi. Nafizada bichumning isposobiyetimiz rivojlangan davlatlarning ko'ra 2-3 marta ko'p transport xarajatini ko'tarishga majbur bo'lmasa.

Namlikxonalarning transport sohasidagi salohiyatini yanada ushbu sh. mazosibda turmosa xonim uchrashuvini deansida Mar-

kaziy Osiyoda Transport va tranzit haqidagi bitimni ishlab chiqish, biznes uchun qulay bo'lgan oraliq tariflarni qo'llagan holda, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga chiqish uchun samarali transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlarni shakllantirish, Transport xizmatlari bozorini liberallashtirish va ruxsat etishga doir tartib-taomillarni optimallashtirish chora-tadbirlari dasturini tayyorlash, Xalqaro tashuvlarning integratsiyalashgan raqamli platformasini yaratish imkoniyatlari mavjud, deb hisoblaymiz.

Bizning birgalikdagi faoliyatimizga ozarbayjonlik sheriklarni faol jalg etishni taklif qilaman.

#### **To'rtinchi. Energetika sohasida xavfsizlikni ta'minlash.**

Afsuski, mintaqada energetika infratuzilmalarini rivojlantirish sur'atlari sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari, shuningdek, demografik o'sishdan orqada qolmoqda. Bugungi kunda ushbu omil mamlakatlarimizning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi yo'lidagi jiddiy tahdiddir.

Biz bunday sharoitda tarmoq vazirliklari va milliy kompaniyalarimizning geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli konlarni o'zlashtirish, energiya resurslarini saqlash va yetkazib berish bo'yicha mavjud infratuzilmalarni kengaytirish va zamonaviy infratuzilmalarni yaratish sohasidagi hamkorligini yanada kuchaytirish tarafborimiz.

Bundan tashqari, elektr energiyasini yetkazib berish uchun yangi magistral tarmoqlarni barpo etish hamkorligimizning muhim yo'nalishiga aylanishi lozim.

Bizning mintaqamiz, shuningdek, gidroenergetika sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Biz Tojikistonda Zarafshon daryosida GES qurish leyihasini burligida ishlab chiqmoqchumiz. Qirg'izistondu Qarbaron GES-1 leyihasini amalga oshirish masalasini faol hal etmoxdumiz.

Shu bilan birga, energiya manbalarini diversifikatsiya qilmasdan, muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni jalb etmasdan va “yashil” vodorodni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymasdan turib, mintaqani barqaror rivojlantirish mumkin emas, deb hisoblaymiz.

### **Beshinchi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash.**

Biz yaqinda Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti shafeligidida dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan vazir va ekspertlar ishtiroki-da xalqaro konferensiya o‘tkazdik. Bo‘lib o‘tgan bahs-munozaralar davomida bizning mintaqamizdagi zaif nuqtalar yana bir bor qayd etib o‘tildi.

Bular – agrar sektoring ilmiy-texnologik jihatdan yetarlicha rivojlanmagani, suv resurslari borasidagi o‘tkir taqchillik, qo‘shimcha qiymat yaratishning uzoq va samarasiz zanjirlari, iqlim inqirozi va logistikadagi uzilishlar oldidagi beqarorlik, sog‘lom ovqatlanish masalalaridir.

Bu sohada sa’y-harakatlarni birlashtirish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ko‘magida mintaqaviy Sheriklik dasturini tayyorlash muhim, deb hisoblaymiz.

Ta’kidlab aytmoqchimanki, bizning mamlakatlarimiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan nafaqat mintaqaning ichki bozoridagi mavjud ehtiyojlarni to‘liq qoplash, balki ularni eksport qilishdek muhim imkoniyatga ham egadir.

### **Oltinchi. Iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish mintaqaning barqaror rivojlanishini ta’minlashning eng muhim omiliga aylanmoqda.**

Shu munosabat bilan, kelgusi yil bahor faslida Samarqanda Markaziy Osiyodagi iqlim o‘zgarishlariga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazmoqchimiz. Mintqa mamlakatlari delegatsiyalarini ushbu anjuman ishida faol ishtirok etish uchun taklif qilaman.

Forum yakunlari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" deb nomlangan rezolutsiyasi loyihasi tayyorlanadi.

Shuningdek, Iqlim o'zgarishlariga moslashish masalalari bo'yicha mintaqaviy strategiyani qabul qilish ham iqlim barqarorligini va "yashil" taraqqiyotni ta'minlashga qo'shilgan amaliy hissa bo'lishi mumkin.

Mintaqaning iqlimga oid yagona kun tartibini shakllantirish va birgalikda ta'sirchan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun biz ekologiya vazirlari darajasida "Iqlim bo'yicha Markaziy Osiyo mu-loqoti" ko'p tomonlama platformasini ta'sis etishni taklif qilamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Umumiy tarix, urf-odat, madaniyat va qadriyatlarga – Markaziy Osiyoning noyob sivilizatsiyasi mushtarakligi va rang-barangligiga asoslangan madaniy-gumanitar hamkorlik bizning eng muhim an'anaviy ustuvor yo'nalishimizdir.

Birgalikdagi madaniyat, san'at va kino kunlari, do'stlik kechalarli, yoshlar forumlari, ijodkor ziyolilarning uchrashuvlari, ilmiy simpozium va sport musobaqalarini o'tkazish ezgu an'anaga aylanishi lozim. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning tizimliligini ta'minlash maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlarining madaniy-gumanitar hamkorligini chuqurlashtirish bo'yicha Harakatlar rejasini qabul qilishni taklif etamiz.

Ayni vaqtida bizning noyob madaniy-tarixiy va ma'naviy mero-simizni xalqaro maydonda keng targ'ib etishda ommaviy axborot vositalari va nohukumat tashkilotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan faol foydalanish zarur. "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati: yagona o'tmish va umumiy kelajak" xalqaro media platformasini yaratish bu yo'nalishdagi amaliy qadam bo'ladi. Bunda umumiy mintaqaviy kontentni shaklamaliy qadam bo'ladi.

lantirish uchun olimlar va keng jamoatchilik vakillarini jalg etishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bularning barchasi bir-birini o'zaro tushunish va umummin-taqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qadrli sammit ishtirokchilari!

Hech shubhasiz, bizning kelajagimiz – bu bizning yoshlarimizdir. Shu ma'noda, bugun imzolanadigan Markaziy Osiyo davlatlari yoshlar siyosatining umumiyo yo'nalishlari to'g'risidagi bitim alohida ahamiyatga egadir.

Yoshlarning bilim va malakasini rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarimizni birlashtirish, ularni yetuk malakali kadrlar qilib tayyorlash va bandligini ta'minlash maqsadida shu yo'nalishdagi xalqaro tashkilotlar ishtirokida Markaziy Osiyo yoshlari imkoniyatlarini kengaytirish va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish markazini tashkil etishni taklif etamiz.

Shuningdek, mamlakatlarimizdagi iste'dodli yoshlar uchun ilm-fan va ta'lif sohasida Al-Xorazmiy, Forobiy, Jomiy, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov kabi Markaziy Osiyo mintaqasidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, alloma va faylasuflar nomidagi mintaqaviy grant va stipendiyalar ta'sis etish muhim, deb hisoblaymiz.

Yosh avlodni ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish maqsadida yoshlarning radikallashuviga qarshi kurashish sohasida hamkorlik bo'yicha Mintaqaviy kompleks dastur ishlab chiqish zarur, deb bilamiz.

Hurmatli davlat rahbarlari!

Xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirishni faoliyatimizning muhim yo'nalishlaridan biri, deb hisoblaymiz. Umumiy tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha jamoaviy qarorlar ishlab chiqish uchun biz doimiy ravishda va o'zaro ishonch asosida fikr almashib turishimiz lozim.

Shu munosabat bilan xavfsizlik masalalari bo'yicha davlatlarimizning Xavfsizlik kengashlari kotiblari tomonidan muvofiqlashtirib boriladigan muntazam yig'ilishlarni o'tkazish haqidagi taklifni qo'llab-quvvatlaymiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari chegaralarini himoya qilish va mustahkamlash bo'yicha Davlatlararo dasturni ishlab chiqishga kirishishni taklif etamiz.

Xavfsizlikka nisbatan an'anaviy va yangi xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasidagi ssenariylarni amalda qo'llash bo'yicha qo'shma harbiy-o'quv mashqlarini davom ettirish muhimdir.

Favqulodda vaziyatlar yuzasidan prognozlar qilish, ularning oldini olish, barvaqt ogohlantirish va ularga birgalikda qarshi turish borasida Mintaqaviy tizimni shakllantirish bugungi kun talabi, deb hisoblaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng asosiy omillardan biri Afg'onistonning vaziyatdir.

Afg'onistonning bugungi hokimiysi bilan doimiy va ochiq mu-loqot, ushbu mamlakatni mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish g'oyat muhimdir.

O'zbekiston bundan buyon ham afg'on xalqiga zarur yordam ko'rsatadi, shu maqsadda Termizdagi xalqaro xabni gumanitar ko'mak uchun taqdim etadi, afg'on fuqarolarini maxsus tashkil etilgan ta'lim markazida o'qitishni davom ettiradi.

Transafg'on temiryo'lini barpo etish loyihasini ilgari surish bilan birga, Afg'onistonning ichki transport yo'llarini tiklash o'ta muhim, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, afg'on tomoni bilan chegaralar xavfsizligi, suvdan foydalanish va savdo-sotiqni rivojlantirish masalalari bo'yicha muloqot muhimdir.

Afg'oniston hokimiyati bilan hamkorlik bizning manfaatlarimizni umumiy tushunishdan kelib chiqishi va o'zaro kelishilgan holda bo'lishi zarur.

Buning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillari darajasida Muloqot guruhini tashkil etishni taklif qilamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bizning uchrashuvlarimiz va erishgan kelishuvlarimizni amalda joriy etish samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan Maslahat uchrashuvlari ishlari bo'yicha Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashini ta'sis etish haqidagi taklifni qo'llab-quvvatlaymiz.

Bundan tashqari, kun tartibidagi savdo-iqtisodiy masalalarining butun kompleksi bo'yicha amaliy hamkorlikni kengaytirish uchun Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy kengashini tashkil etishni taklif qilamiz.

So'zimning yakunida bugungi uchrashuvimiz natijalari mamlakatlarimiz o'ttasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga, keng miqyosdagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, deb ishonch bildiraman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining  
Maslahat uchrashuvidanagi nutq*

2023-yil 14-sentabr

---

## **OROLNI QUTQARISH BO‘YICHA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK BORASIDAGI NOYOB TAJRIBA**

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Tojikiston Respublikasi Prezidenti hurmatli Emomali Sharipovich Rahmonga iliq qabul hamda uchrashuvimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Barcha hamkasblarimni Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan chin dildan tabriklayman.

O‘tgan davrda Jamg‘arma ekologik tahdidlarga qarshi kurash masalalarida umumiy manfaatlarimizni ilgari surish uchun muhim maydon sifatida g‘oyat zarurligini ko‘rsatdi.

Ana shu vaqt mobaynida Orol dengizi havzasi bo‘yicha keli-shilgan yondashuvlar ishlab chiqildi, qo‘shma qaror va dasturlar qabul qilindi va amalga oshirildi.

Tojikistonning Tashkilotimizga raisligi davridagi samarali nati-jalarni alohida ta’kidlashni istardim. Xususan, Jamg‘arma doirasi-da amaliy hamkorlikni rivojlantirish uchun katta ishlar bajarildi. Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan aloqalar kengaydi.

Shu yil mart oyida hurmatli Emomali Sharipovichning hamraisligida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida tashkil etilgan Global suv konferensiyasi muvaffaqiyatli o‘tganini ham alohida qayd etmoqchiman.

Ushbu tarixiy tadbir yakunlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning suv sohasidagi hayotiy muhim masalalari va muammolariga butun xalqaro hamjamiyat e’tiborini jalg etishga erishildi.

Hurmatli hamkasblar!

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi – bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o‘tkir muammo-lardan birini yechish bo‘yicha ko‘p tomonlama hamkorlik borasida-gi noyob tajribasidir.

Shuni alohida qayd etmoqchimanki, Jamg‘arma suv va ekologi-ya sohasida mintaqaviy hamkorlikning eng muhim platformasiga aylandi.

Suv xo‘jaligi bo‘yicha Davlatlararo komissiya hamda “Amudar-yo” va “Sirdaryo” havzasi tashkilotlari suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanishni tartibga solish masalalari yuzasidan ke-lishish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Ilmiy-axborot markazi barcha xalqaro sheriklar uchun ochiq bo‘lgan, keng ko‘lamli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan sal-moqli tahliliy bazani shakllantirdi.

Davlatlararo komissiyaning barqaror rivojlanish bo‘yicha faoli-yati atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Jamg‘arma bir qator mintaqaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirmoqda, xalqaro institutlar va donor tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

Tuzilmamizning o‘mi va ahamiyati global iqlim o‘zgarishlari oqibatida vujudga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar sharoitida yanada ortib bormoqda.

Muzliklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o‘sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasi-da yuzaga kelayotgan texnogen omillar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog‘liq vaziyat yomonlashib borayotgani va uning oqibatlari alohida xavotir uyg‘otmoqda.

Hamkasblarim yaxshi biladi, Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o‘tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, hozirning o‘zidayoq mintaqasi davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag‘ yo‘qotmoqda.

Bularning barchasi Jamg‘arma doirasida uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan kelishilgan yangi qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Bugun bizning oldimizda ko‘p tomonlama sheriklik samaradorligini huquqiy va institutsional jihatdan ta’minalash bo‘yicha muhim vazifalar turibdi.

Shu munosabat bilan, sammitning kun tartibiga mos holda, quyidagi takliflarimizni bildirishni istardim.

**Birinchi.** O‘zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish tarafdiridir.

Xususan, biz asosiy hujjatlar va bitimlarni xatlovdan o‘tkazish, jumladan, 1990-yillarda qabul qilingan Jamg‘arma nizomini qayta ko‘rib chiqish, amaldagi tuzilma faoliyatini bирgalikda tahlil qilish va Jamg‘arma tarkibidagi tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va samarasini oshirish borasida takliflar tayyorlash, uning faoliyati va hamkorlik masalalarini aniq tartibga soluvchi “Qoida va tartib-taomillar”ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Jamg‘armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlararo tamoyil asosida, ya’ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda, “suv – energetika – oziq-ovqat” tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish muhimdir.

Bundan tashqari, Tuzilmaning asosiy hujjatlarida transchegaraviy daryolar suv resurslarini boshqarish va foydalanish sohasida umume'tirof etilgan me'yorlar, prinsiplar va o'zaro majburiyatlar o'z ifodasini topishi lozim.

Biz, shuningdek, Jamg'armaning amaldagi tuzilmalari samarasini kadrlar va texnik salohiyatni kuchaytirish, kompetensiyani kengaytirish hisobidan tubdan oshirish tarafдоримиз.

**Ikkinci.** Bugungi uchrashuvimiz arafasida biz Jamg'arma doirasidagi loyihalar bo'yicha o'tgan 30 yil davomida olib borilgan faoliyat natijalarini tahlil qildik.

Asosiy dasturiy hujjatlarimizdagи qoidalarda va loyihalarni bajarish borasidagi aniq oldinga siljishni ko'rsatadigan natijalarimizda farqlar borligi o'z-o'zidan ravshan, albatta.

Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha to'rtinchi dasturning ijrosi bilan bog'liq holat ham bizning barcha mamlakatlarimizni tashvishga solishi kerak, deb o'ylayman.

Bu boradagi ishlар, asosan, milliy rejalar yo'nalishida amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan Jamg'arma boshqaruviga amaldagi Dasturni tanqidiy qayta ko'rib chiqish topshirig'ini berishni taklif etaman. Bunda har bir mintaqaviy loyihaning hajmini va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda, "yo'l xaritalari"ni, shuningdek, ularning ijrosi bo'yicha kelishilgan jadvalni tayyorlashni nazarda tutish lozim.

**Uchinchi.** Ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Shu munosabat bilan ba'zi takliflarni ilgari surmoqchiman.

*Birinchidan*, mamlakatlarimizning har biri aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilagan holda, mintaqaviy loyihalarga chetdan ko'makni jalb etish bo'yicha o'ziga majburiyat olishi lozim.

Raislik qiluvchi tomonning muvofiqlashtirishi asosida investitsiyalarni va texnik ko'makni jalg qilish va taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

*Ikkinchidan*, xorijiy sheriklar, yetakchi xalqaro institutlar va donor tashkilotlarni jalg etgan holda, qo'shma loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish maqsadida maxsus mintaqaviy konferensiya o'tkazishni taklif etamiz.

**To'rtinchi.** Jamg'armaning ishchi organlariga xalqaro konsultantlar ishtirokida Amudaryo va Sirdaryo havzalarini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan rejalar ishlab chiqish topshirig'ini bersak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu daryolar havzalarida vaziyatning rivojlanishi bo'yicha turli ssenariylarni modellashtirishni nazarda tutish muhimdir.

Bunday strategik hujjatlarning qabul qilinishi mintaqamizda suv-energetika resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish siyosatini muvofiqlashtirishga imkon beradi, deb ishonaman.

**Beshinchi.** Suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda, yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ushbu masalalarni ko'rib chiqishda Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz faol jalg etilishiga aminmiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Ekotizimlar tanazzuli yanada kuchayishining oldini olishda, eng avvalo, Orol dengizi hududidagi hamkorlik masalalariga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda Orolbo'yidagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini qayd etmoqchiman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi

deb e'lon qilish to'g'risida"gi rezolutsiyasi asosida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish bo'yicha Harakatlar rejasi va Chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda.

So'nggi bir necha yil davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar o'rmonzorlar yaratildi. Yaqin ikki yilda yana 400 ming gektar yashil hududlar barpo etish rejalashtirilmoqda.

Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Orolbo'yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi.

Bugungi kunda Orolbo'yi mintaqasida qo'riqlanadigan hududlarning umumiy maydoni 4,6 million gektarni tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha katta miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oxirgi 7 yil mobaynida mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning to'rtdan bir qismini tashkil etadigan 1 million gektardan ortiq maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida biz suvni tejash bo'yicha milliy dasturni ishlab chiqish niyatidamiz.

Biz suvni tejash sohasini Jamg'arma faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, bu borada hamkorligimizni kuchaytirishimiz mumkin.

Kelgusi yili Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Xalqaro iqlim forumi doirasida jahoning yetakchi kompaniyalarining suvni tejash borasidagi texnologiyalari ko'rgazmasini tashkil etmoqchimiz.

Ana shu masalalarning barchasini kompleks ko'rib chiqish maqsadida mamlakatlarimiz suv resurslari, energetika, ekologiya va iqtisodiyot vazirlarining doimiy uchrashuvlari bo'yicha Mintaqaviy platformani ta'sis etishni taklif qilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

“Qo‘shtepa” kanali qurilishi bo‘yicha ham o‘z fikrimni bildirib o‘tmoqchiman.

Mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida bizning mamlakatlarimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog‘lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo‘ldi.

Afg‘on tomoni kanalni qurish bo‘yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz.

Uning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin.

“Qo‘shtepa” kanalining qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta’siri bilan bog‘liq barcha jihatlarni mamlakatlarimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o‘rganish bo‘yicha Qo‘shma ishchi guruhini shakllantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Afg‘oniston vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha mintaqaviy muloqotga jalb etish masalasini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

So‘zimning yakunida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevni Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi raisligini qabul qilayotgani munosabati bilan tabriklayman.

Ishonchim komilki, bugungi sammitimizda ilgari surilayotgan tashabbuslar va qabul qilinayotgan hujjatlarning amalga oshirilishi Jamg‘arma doirasida xalqlarimiz farovonligi va butun Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi yo‘lida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi  
ta’sischi davlatlari rahbarlari  
kengashi majlisidagi nutq*

2023-yil 15-sentabr

---

## **MARKAZIY OSIYONI TINCH VA BARQAROR TARAQQIY TOPAYOTGAN HUDUDGA AYLANTIRISH – USTUVOR MAQSADIMIZ**

Hurmatli rais janoblari!

Hurmatli Bosh kotib janoblari, delegatsiyalar rahbarlari, xonimlar va janoblar!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining bugungi sessiyasi xalqaro munosabatlar tizimida fundamental o‘zgarishlar yuz berayotgan bir sharoitda bo‘lib o‘tmoxda.

Jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilmoqda. Global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me’yorlaridan chekinish kuchaymoqda. Va bularning barchasi keng ko‘lamdagi keskinlik ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Geosiyosiy qarama-qarshiliklar tufayli savdo, investitsiya va innovatsiya sohalarida erkin almashish yo‘lida yangi to‘silqlar vujudga kelmoqda. Hatto iqlim o‘zgarishlari, ochlik va tengsizlikka qarshi kurash singari butun bashariyat taqdiriga daxldor bo‘lgan masalalarda ham o‘zaro muloqot izdan chiqqani sezilmoqda.

Bunday murakkab sharoitda amaliy hamjihatik va hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo‘ygan holda, mamlakatlarni jipslashtirish g‘oyasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda.

**Biz o‘tgan yili umumiylar xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan “Samarqand birdamlik tashabbusi”ni ilgari surdik. Asosiy maqsadimiz mamlakatlarimiz va xalqlarimizning bugungi kuni va istiqboli uchun mas’uliyatni har tomonlama chuqr angash,**

**ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalb qilishdan iborat.**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusi bilan kelgusi yil Kelajak sammiti o'tkazilishi xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishga, Tashkilotimizning ta'siri va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda.

Joriy yil aprel oyida milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari ni belgilab beruvchi yangilangan Konstitutsiya bo'yicha O'zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz berganlarning 90 foizdan ziyodi ushbu chinakam xalq Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatladi. Shu tariqa islohotlarimizning ortga qaytmaydigan muqarrar tus olishi ta'minlandi.

Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

Mana shunday huquqiy asosda "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un bo'lib, biz o'z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to'la va qat'iy bajarmoqdamiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Izchil davom etayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti, global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o'sish sur'atlari ni namoyon etmoqda. So'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko'paydi. Bizning bosh maqsadimiz – 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir.

Iqtisodiyotimizni liberallashtirish yo‘lidagi yana bir ustuvor vazifamiz – yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lishdir.

Xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag‘allik ikki barobarga kamaydi. Biz 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirishni reja qilganmiz. Aholini ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minalash ko‘lamini bir necha bor oshirishni belgilaganmiz.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan “Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori” borasidagi tashabbusni qo‘llab-quvvatlaymiz. Mazkur tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo‘l” butunjahon konferensiyasini yurtimizda o‘tkazishni taklif etaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilar!

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha e’tiborga loyiq natijalarga erishdik. Mamlakatimizda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga to‘liq barham berildi.

Bir asr mobaynida O‘zbekistonda millionlab insonlar paxta terimiga majburiy ravishda jalb etib kelindi. Har yili sentabr oyidan dekabrgacha aholining asosiy qismi – o‘qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar, eng achinarlisi, maktab o‘quvchilari va talabalar paxta terimiga safarbar qilinar edi. Buning natijasida o‘zbek paxtasiga boykotlar e’lon qilingan, mamlakat esa yillar davomida “qora ro‘yxat”larga kiritilgan edi.

Qat’iy irodamiz tufayli endi bularning barchasi o‘tmishga aylandi. Xalqimiz paxta qulligidan butkul ozod bo‘ldi.

Yangi Konstitutsiyamizda majburiy mehnat taqiqlanishi kafolatlab qo‘yildi va buning uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashni butun dunyo miqyosi-

da kuchaytirish zarur, deb hisoblayman. Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, bunga chek qo'yish imkoni bor.

Xonimlar va janoblar!

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir.

Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'llimni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'llim tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'llimdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'llimda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliy-gohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo yaxshi qo'shnichilik, barqarorlik, o'zaro hamkorlik va rivojlanish yo'lidan bormoqda.

Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli O'zbekiston barcha qo'shnilar bilan davlat chegaralari, transport koridorlari va suvdan foydalanish bo'yicha muammolarni bartaraf etishga muvaffaq bo'lmoqda.

Mintaqa davlatlari o'rtasida o'zaro savdo ikki yarim barobardan ziyod, qo'shma korxonalar soni esa besh marta o'sdi. Mintaqamiz iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan transport-kommunikatsiya ko'prigiga aylanib, unga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi – mintaqqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki ke-

lajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mush-tarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas!

**Aminmanki, xalqaro hamjamiyatning qo‘llovi bilan Markaziy Osiyo birdamlik yo‘lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylanti-rish O‘zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo‘lib qoladi.**

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan Yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim imzolandi.

Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ix-tisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish, boshqa mintaqalarning ilg‘or tajriba va yutuqlarini o‘rganishdan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etishni taklif qilaman. Uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030” dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’milashdan iborat.

Gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlarni olib bor-moqdamiz. Jumladan, o‘tgan yili oliygochlarga qabul qilingan ta-

labalarning 49 foizini qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetdi. Ayollar va voyaga yetmaganlarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilindi.

Biz "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdormiz. Birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashtish uchun kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazishni taklif etamiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Hozirgi vaqtida dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmoqda. Sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilm-a-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda.

Ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda.

Global muammo bo'lган Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari darajasida harakat qilmoqda. So'nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million hektar maydonda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklardan iborat yashil hududlar barpo etildi. Bu sa'y-harakatlarimizni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim.

Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga ko'tarildi. Bu – dunyodagi o'rtacha isishdan ikki karra ko'pdır. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darjasasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda.

Agar o‘z vaqtida ta’sirchan choralarni ko‘rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vaki li lavozimi ta’sis etilishini qo‘llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari” mexanizmini ishga solib, eng ilg‘or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdomiz.

Biz mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqdamiz. Bunday sherklik manfaatlarimizga birdek mos bo‘lib, iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan. Bu borada “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”ni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolusiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo‘lib o‘tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etamiz.

Shu o‘rinda ta’kidlashni istardimki, O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish biz uchun strategik vazifa bo‘lib qoladi.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Biz ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlarning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun bирgalikdagi harakatlarimizni kuchaytirishimiz zarur.

O‘tgan yil mart oyida Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkilotining terrorizmga qarshi global strategiyasini Markaziy Osi-

yoda amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi qabul qilindi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Milliy strategiyamiz doirasida bir masalaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. U ham bo'lsa, ilgari ekstremizm g'oyalari ta'sirida bo'lgan shaxslarni sog'lom hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirish masalasidir.

Biz bu borada o'ziga xos tajriba orttirdik, besh marta "Mehr" insonparvarlik missiyasini o'tkazdik. Uning doirasida 530 nafardan ziyod fuqaroni, avvalo, ayollar va bolalarmi Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytardik. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko'rsatildi.

Xalqaro jamoatchilik joriy yilning iyun oyida mana shu yerda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida mamlakatimizga olib kelingan va yangi hayot boshlagan shaxslarning tarixini ularning o'zlaridan eshitdi.

Biz bu yo'nalishdagi harakatlarni davom ettirish va doimiy tajriba almashishni yo'lga qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafeligida urush hududlaridan qaytganlar bilan tizimli ishlash bo'yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashini tuzishga qaratilgan amaliy qadamlarni tashladik.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda yanada birlashib, harakat qilishlari kerak.

Yana bir muhim fikrni ta'kidlashni istardim. So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islamofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etishi ni taklif qilamiz.

Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ulug' alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Shunday buyuk olimlarning boy merosini o'rganish, islamning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yil O'zbekistonda "Islom – tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusini ilgari suramiz.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Xalqaro xavfsizlik Afg'onistonidagi jarayonlar bilan bevosita bog'-liqidir. Ushbu mamlakatda yangi vaziyat vujudga kelgan bo'lib, u af'gon masalasini hal etishda o'ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda.

Afg'onistonni o'z muammolari bilan yana yolg'iz qoldirish – bu katta xato bo'ladi. Inkor qilish, yakkalab qo'yish va sanksiyalar qo'llash oddiy afg'on xalqining ahvolini yanada og'irlashtirmoqda.

Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik lozim, deb hisoblaymiz. Afg'onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz. Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jaryonlarida ishtirok etadigan, qo'shnilarini va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg'oniston kerak.

Men bugun ushbu nufuzli minbardan turib, dunyo hamjamiyatini Afg'oniston muammosini hal etish yo'lida birlashishga chaqiraman. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg'oniston bo'yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilash prinsipial jihatdan muhim, deb hisoblayman.

Hurmatli rais!

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Biz barchamiz hozirgi tarixiy tub burilish pallasida kelgusi avlodlarga sayyoramizni qanday holda qoldirish haqida o'ylashimiz lozim.

**Mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkin. Bizga o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko‘proq zarur.**

So‘zimning yakunida O‘zbekiston shu yo‘lda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari va barcha davlatlar bilan keng ko‘lamli va uzoq muddatli sheriklikni chuqurlashtirishga tayyor ekanini yana bir bor ta’kidlamoqchiman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti  
Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutq*

*2023-yil 19-sentabr*

lik forumi bo‘lib o‘tayotgani ham bejiz emas. Nega deganda, Rish-ton nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoda kulol-chilik markazi sifatida ma’lum-u mashhurdir.

Albatta, mana shunday anjumanlar xalq amaliy san’atiga daxl-dor qadimiylar merosimizni asrab-avaylash, uni dunyo miqyosida keng targ‘ib etish, yoshlarimizni nodir kasb-hunarlargaga hurmat va mehr ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga egadir.

Shu ma’noda, bugun ochilayotgan ushbu festival san’at va do’stlik, iste’dod va mahorat bayrami sifatida barcha ishtirokchilar va xalqimiz qalbida yorqin iz qoldiradi, deb ishonaman.

Siz, hurmatli festival qatnashchilariga sihat-salomatlik, oljanob faoliyattingizda yutuq va omadlar, anjuman doirasidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Xush kelibsiz, qadimiylar va betakror O‘zbekistonga, xush kelibsiz, go‘zal Qo‘qon shahriga!

*2023-yil 21-sentabr*

---

## “IPAK YO‘LI DURDONASI” XV TOSHKENT XALQARO KINOFESTIVALI ISHTIROKCHILARIKA

Hurmatali kinofestival qatnashchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, siz, azizlarni – dunyoning turli mamlakatlaridan diyorimizga tashrif buyurgan kino san’atining mohir ustalari, taniqli madaniyat va san’at arboblarini “Ipak yo‘li durdonasi” XV Toshkent xalqaro kinofestivalining ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

O‘zbek xalqi azaldan o‘zining qadimiy tarixi, boy madaniyati, nafosat va go‘zallikka mehr va e’tibori, jumladan, kino san’atini munosib qadrlashi bilan nom qozonib keladi. Milliy va jahon kino san’atining yetuk namoyandalari tomonidan yaratilayotgan yusakkak saviyali filmlar yurtimizda odamlarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va tafakkurini insonparvarlik, do’stlik va hamjihatlik g‘oyalari asosida shakllantirishdek ezgu ishga katta hissa qo‘shmoqda.

Biz aynan mana shu omillarni hisobga olgan holda, 2021-yilda Toshkent xalqaro kinofestivalini “Ipak yo‘li durdonasi” degan yangi nom bilan qayta tiklab, uni **“Tinchlik, ma’rifat va taraqqiyot uchun”** shiori ostida o‘tkazishni yo‘lga qo‘ydik.

O‘tgan qisqa vaqt ichida el-yurtimiz, millionlab tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olgan ushbu festivalning navbatdagi anjumanini mamlakatimizda milliy kino san’atimizning 115 yillik sanasi keng nishonlanayotgan bir paytda bo‘lib o‘tayotgani ramziy ma’noga

ega. Eng muhimi, Toshkent xalqaro kinofestivaliga bo‘lgan e’tibor va qiziqish dunyo miqyosida tobora ortib bormoqda.

Bu galgi kinoforumda jahoning 50 dan ortiq davlatidan qariyb 300 nafar iste’dodli kino ustalari, qator xalqaro tashkilotlarning vakillari ishtirok etayotgani ham shundan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda barcha yo‘nalishlar qatori kinematografiya sohasini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratilib, uning zamonaviy infratuzilmasi va mustahkam moddiy-technik bazasi yaratilmoqda.

Kino san’ati vakillari, tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish, sohada nodavlat sektorni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlар ham ijobiy natijasini bermoqda.

Bugun o‘z ishini boshlayotgan XV Toshkent xalqaro kinofestivali doirasida o‘tkaziladigan filmlar namoyishlari, ijodiy uchra-shuv va muloqotlar barcha ishtirokchilarga qizg‘in ijodiy kayfiyat va ilhom bag‘ishlab, ularni yangi-yangi rejalar sari ruhlantiradi, deb umid bildiraman.

Shuningdek, navqiron kinoijodkorlar o‘rtasida qisqa metrajli filmlar yaratish bo‘yicha tashkil etiladigan ijodiy tanlov ular uchun o‘ziga xos tajriba va mahorat maktabi vazifasini o‘tashi shubhasiz.

Festival davomida sizlar O‘zbekistonda nafaqat kinematografiya sohasida, balki barcha ustuvor yo‘nalishlarda inson qadri va manfaatlarini ta’minalash yo‘lida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan ham bevosita tanishish, san’atsevar xalqimiz bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lasizlar.

Siz, azizlarni XV Toshkent xalqaro kinofestivalining tantanali ochilishi bilan yana bir bor qutlab, ushbu anjuman chinakam san’at bayrami, tinchlik va do’stlik ramziga aylanadi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga mustahkam salomatlik, ijodiy yutuqlar, kinofestival ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

---

## O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, sizlarni, ta'lif-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlari va faxriyalarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugun biz mamlakatimizda millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir inson o'z qobiliyati va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yobga chiqara oladigan ijtimoiy davlat barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda barcha kuch va imkoniyatlarimizni yoshlarimizning intellektual va jismoniy kamoloti, ularning sifatli ta'lif olib, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun safarbar etmoqdamiz.

Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ta'lif sohasidagi islohotlarimiz ushbu nufuzli tashkilotning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un va hamohang ekani e'tirof etilgani barchamizni, albatta, xursand qiladi.

Bu yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta'lif tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilgani beziz emas. Chunki jamiat hayotida o'qituvchining o'mi va ta'siri oshsa – muktabning obro'yi oshadi, ilm-fan, ta'lif va tarbiya sohasining qadri ko'tariladi. Muallimning obro'-e'tibori esa bu millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir.

So'nggi yillarda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli mamlakatimizda ko'plab yangi bog'chalar, muktab va oliygohlar barpo etilmoqda. Ta'lif-tarbiya va ilm-fan muassasalarining moddiy-technik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodи yaratilmoqda.

Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va rag‘batlantirish doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga, olygohlarimiz sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug‘imizdir.

Ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilgan dasturlarimiz asosida keyingi vaqtida 261 ta yangi o‘rta ta’lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo‘s Shimcha 700 mingta o‘quvchi o‘rnini yaratilganini ta’kidlash lozim.

Bu yil xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisи maktablarimizda ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3 barobar oshiramiz, 10–11-sinflarda bir qator fanlarni o‘quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o‘qitishni yo‘lga qo‘yamiz.

Ta’lim sohasi xodimlarining o‘rtacha ish haqi 2 barobar ko‘paytiriladi. Ming nafar tarbiyachi va o‘qituvchilar xorijiy mamlakatlariga malaka oshirish va stajirovkaga yuboriladi. O‘qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham takomillashtiriladi. Biz farzandlarimizni milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Qadrli do’stlar!

Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta’limini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish umummilliylar harakatga aylanib bormoqda. Xususan, navoiylik Abdukarim Saksonov, samarqandlik Quyosh Haqberdiyev, Ilhom Rustamov, buxorolik Oybek Namozov, qashqadaryolik Nurbek Ergashev kabi o‘nlab tadbirkorlarimiz o‘z hududlarida yangi maktablar qurgani, ta’lim dargohlarini kapital rekonstruksiya qilib, zamonaviy asosda jihozlab bergani, ohangaronlik oqsoqol shoirimiz Barot ota Isroilov esa hovlisida kutubxona ochib, uni o‘z hisobidan 10 mingta kitob bilan ta’minlab, bu

ma'rifat maskanini qishloq o'quvchilariga sovg'a qilgani har qancha tahsinga sazovor.

Saflari tobora ko'payib borayotgan mana shunday insonlar siyimosida biz jadid bobolarimizning munosib davomchilarini, ularning ushalayotgan orzu va intilishlarini, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini ko'ramiz.

Imkoniyatdan foydalanib, bunday fidoyi, saxovatli yurtdoshlarimizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Taraqqiyotimiz dasturi bo'lmish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sizlar bilan birga ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi maqsad va rejalar ni belgilab oldik.

Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g'ayrat, azm-u shiyoat bilan mehnat qilishni talab etadi.

Mana shunday sharafli vazifani ado etishda men siz, muhtaram ustoz va murabbiylarga har tomonlama yordam va ko'mak berishga tayyor ekanimni yana bir bor izhor etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, oliyjanob faoliyatningizda ulkan muvaffaqiyatlar, xonardonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, muhtaram ustozlar!

2023-yil 30-sentabr

---

## XITOY XALQ RESPUBLIKASIDA BO'LIB O'TGAN XIX YOZGI OSIYO O'YINLARIDA ISHTIROK ETGAN O'ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI A'ZOLARIGA

Hurmatli sportchi va murabbiylar!

Qadrli farzandlarim!

Avvalo, Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida munosib ishtirok etib, yuksak natijalarni qo'lga kiritganingiz bilan siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarning jonajon O'zbekistonimiz sharafini himoya qilish yo'lida keskin kurash olib borib, ulkan yutuqlarga erishganingiz, hech shubhasiz, barchamizni, ko'p millatli xalqimizni cheksiz quvontirdi.

Bepoyon qit'amiz miqyosida har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan ushbu nufuzli sport anjumanida yurtdoshlarimiz sizlarning har bir chiqishingizni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali katta qiziqish va hayajon bilan kuzatib bordi. Butun O'zbekiston ahli sizlarni qo'llab-quvvatlab, Yaratgandan omad va zafarlar tiladi!

Osiyo qit'asining 45 ta davlatidan 11 ming nafar sportchi ishtirok etgan bu musobaqalarda milliy terma jamoamiz a'zolari o'zlarining beqiyos mahorati, g'ayrat va matonatini, g'alabaga bo'lgan yuksak intilish va irodasini namoyon etib, 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza medalni qo'lga kiritganlari har qanday tahsinga sazovordir.

Oltin medallar 31 nafar sportchimiz tomonidan qo'lga kiritilgan bo'lsa, ularning teng yarmi – qizlarimiz hissasiga to'g'ri kelganini alohida mammuniyat bilan ta'kidlashni o'rinali deb bilaman.

132 nafar vakilimiz jami 71 ta medalni qo‘lga kiritib, o‘tgan Osiyo o‘yinlariga nisbatan rekord natijani qayd etganlari ham bar-chamizni quvontiradi.

Ayniqsa, g‘ayrat-shijoatli o‘g‘il-qizlarimiz Xitoy Taypeyi, Bah-rayn, Shimoliy Koreya, Gonkong, Eron, Indoneziya, Qozog‘iston, Qatar, Singapur, Malayziya, Vyetnam, Kuvayt kabi sport sohasida rivojlangan davlatlarni ortda qoldirib, umumjamoa hisobida Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindistondan keyin faxrli beshinchchi o‘rinni egallaganliklari O‘zbekiston sporti tarixida yana bir yorqin sahifa ochdi, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bo‘lib o‘tgan qizg‘in bellashuvlarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilgan Bahodir Jalolov, Jalgasbay Berdimuratov, Ulug‘bek Rashitov, Hasanboy Do‘smatov, Abdumalik Xalakov, Diyora Keldiyorova, Taxmina Ikromova, Sevinch Rahimova, Vilana Savadyan, Evelina Atalyants, Sharifa Davronova, Safina Sa’dullayeva, Muzaffar To‘raboyev, Olga Zabelinskaya, Shohmurod Xolmurodov, Nurislom To‘xtasin o‘g‘li, Umid Esonov, Artyom Shturbabin, Hilola Ortiqboyeva, Muhsin Hisomiddinov, Zaynab Dayibekova, Pliego Lara Mariya Paola, Xerrera Lara Luiza Fernanda, Guliston Perdebayeva, Anna Prakaten, Shehroz Hakimov, Dilshodjon Xudoyberdiyev, Davirjon Davronov, Alisher Turdiyev, Murodjon Yo‘ldoshev va boshqa sportchilarimizning nodir iste’dodi, mahorati va qobiliyatiga barcha sport muxlislari yana bir bor tan berdi.

O‘zbek qilichbozlik sportining iftixoriga aylangan **Zaynab Dayibekova** sablya jamoa dasturida Osiyo qit’asida tengsizligini, **Anvar Klevleyev** esa slalomda eshkak eshish bellashuvida aksariyat raqiblaridan kuchli ekanini amalda namoyon etdilar.

Ayni vaqtda navqiron farzandlarimiz kurash, dzyudo, boks, yengil atletika, badiiy gimnastika bo‘yicha tengsiz, taekvondo, velosport, og‘ir atletika, futbol musobaqalarida esa yetakchilar safida ekanliklarini amalda isbotladilar.

Osiyo o‘yinlarida erishilgan bunday yutuqlar biz uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, sizlar shu tariqa milliy sport maktabimizning shon-shuhratini, O‘zbekiston yoshlarining qanday buyuk ishlarga qodir ekanini jahonga namoyon etdingiz.

O‘z navbatida, 2024-yil Parijda bo‘lib o‘tadigan 33-olimpiya o‘yinlarida ham yuksak cho‘qqilarni zabit etishingizga ishonaman!

Hech shubhasiz, sizlarning yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, yuqori o‘rinlarni egallaganingiz mamlakatimizda sog‘lom va barkamol, vatanparvar yosh avlodni – Yangi O‘zbekiston buniyodkorlari ni voyaga yetkazish, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish maqsadida olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning yana bir amaliy natijasi sifatida barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi, millionlab tengdoshlariningiz uchun o‘rnak va namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, sizlar kabi salohiyatli, irodasi mustahkam, el-yurtga sadoqatli yoshlarni tarbiyalab kamolga yetkazgan mehribon ota-onalariningizga, sizlar bilan yonma-yon turib, yuksak cho‘qqilarni zabit etishingizga munosib hissa qo‘sghan mohir va jonkuyar ustoz-murabbiylaringizga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chin dildan tashakkur izhor etaman.

Yirik xalqaro sport bellashuvi – Osiyo o‘yinlarida qo‘lga kiritgan tarixiy natijalaringiz bilan sizlarni yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga sihat-salomatlilik, kelgusi faoliyatiningda yangi-yangi zafarlar, oilalaringizga baxt-u saodat tilayman.

Doimo baxtingiz va omadingizni bersin, aziz farzandlarim!

2023-yil 8-oktabr

---

## **O'ZBEKISTON MDH DAVLATLARI DOIRASIDA KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHDAN HAR TOMONLAMA MANFAATDOR**

Qadrli hamkasblar!

Avvalo, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sadir Nurg'ojoyevich Japarovga an'anaviy iliq qabul va sammitni yuskak darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Biz O'zbekistonda Qirg'izistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga raisligining samarali yakunlarini yuksak baholaymiz.

Bu davrda mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi, ko'p tomonlama qator muhim hujjatlar, jumladan, Xizmatlarning erkin savdo zonasi to'g'risidagi bitim qabul qilindi.

Biz, shuningdek, kun tartibini va ushbu yig'ilish uchun tayyorlangan qarorlar loyihamalarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Bizning uchrashuvimiz global geosiyosiy keskinlik kuchayayotgan bir sharoitda o'tmoqda. Barcha hamkasblarim o'z chiqishlarida oldimizda turgan umumiy tahdid va xavf-xatarlarni qayd etib o'tdilar.

Ming afsuski, dunyoning turli mintaqalaridagi keskinlashib borayotgan ziddiyatlarning oqibatlari barcha mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday vaziyatda biz MDH bo'yicha sheriklarimiz bilan hamkorlikning yangi yo'llari va mexanizmlarini izlashda davom etamiz.

Gap, avvalo, muqobil savdo-logistika yo‘nalishlarini shakllantirish, qo‘shilgan qiymatning qisqa va yanada samarali zanjirlarini yaratish, mamlakatlarimiz iqtisodiyotidagi bir-birini to‘ldiradigan zaxiralardan imkon qadar yuqori darajada foydalanish, biznes aloqalarini rag‘batlantirish haqida bormoqda.

Biz paydo bo‘ladigan xavf-xatarlarni birgalikda baholash, muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar va nostandard qarorlarni qabul qilish uchun MDH doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning noyob platformasi to‘liq ishga solinishidan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Hamdo‘stlikning uzoq muddatli yangi kungartibini ishlab chiqish uchun mamlakatlarimizning yetakchi tahlil markazlari va ekspertlari ishtirokida konferensiya tashkil etish imkoniyatini ko‘rib chiqishni taklif qilaman.

Qadrli hamkasblar!

Joriy yil boshidan buyon O‘zbekistonning Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan tashqi savdosi hajmi atigi 5 foizga oshdi. Shu bilan birga, o‘sish sur’atlarining sekinlashish tendensiyasi kuzatilmogda.

Yuqori darajadagi ekspertlarimiz uchrashuvlari natijalari to‘laqonli erkin savdo zonasini shakllantirish yo‘lida hali ham ko‘plab to‘siqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Biz quyidagilarni taklif etamiz:

**birinchidan**, Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi shartnomaning tovarlarni olib qo‘yishga doir qoidalarini qayta ko‘rib chiqish.

Shartnoma imzolanganidan buyon yetarlicha vaqt o‘tdi hamda ushbu hujjatni bizning asosiy maqsad va vazifalarimiz bilan to‘liq muvofiqlashtirish vaqtি keldi;

**ikkinchidan**, import o‘rnini bosishga qaratilgan milliy dasturlarni o‘zaro uyg‘unlashdirish;

**uchinchidan**, davlat xaridlari bozoriga imtiyozli kirish huquqini o‘zaro kelishuv asosida taqdim etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

**to‘rtinchidan**, qo‘shma ulgurji taqsimlash va logistika markazlarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash dasturini qabul qilish;

**beshinchidan**, elektron savdoni rivojlantirishni, jumladan, mavjud platformalarni kengaytirish yo‘li bilan rag‘batlantirish.

**Yana bir muhim jihat** – bu o‘zaro savdodagi texnik to‘silqlar va muvofiqlikni baholash bo‘yicha ishlar natijalarini tan olish to‘g‘risidagi MDH bitimlarining qabul qilinishini jadallashtirishdan iborat.

Ushbu masalalarning barchasi Hamdo‘stlik Iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishi kun tartibiga kiritilishi zarur.

Sanoat kooperatsiyasi istiqbollari masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmochchiman.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari bilan qo‘shma investitsiya loyihalariga doir portfeliimiz hajmi 25 milliard dollardan oshdi.

Yaqinda qabul qilingan Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, Hamdo‘stlikka a’zo davlatlarning Sanoat siyosati bo‘yicha kengashi doirasida o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish va loyihalarni ilgari surish hamda texnoparklarni tashkil etish bo‘yicha Qo‘srimcha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif qilaman.

Bunda xaridlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, sug‘urta hisobidan qoplab berish va off-teyk xarid masalalarini puxta o‘ylab ko‘rish muhimdir.

Kelgusi yilning aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan “INNOPROM” sanoat haftaligi doirasida MDH mamlakatlarining sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini o‘tkazishga ham tayyormiz.

Energetika sohasida MDHga a’zo har bir mamlakatning elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, energiya tizimlarimiz yaxlit holda ishlay oладиган шароитларни юратиш зарур, деб исоблајмиз.

**Yana bir ustuvor vazifa** – Hamdo‘stlik davlatlarida iste’mol-chilarni yuqori sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalashdan iborat.

Shu munosabat bilan agrosanoat komplekslari, logistika va “ekspress” koridorlarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish, tarmoq-

ni texnologik modernizatsiya qilish va tizimli ilm-fan almashinuvi masalalarini hal etish talab etiladi.

Amaldagi tarmoq kengashi doirasida Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yangilangan hamkorlik dasturini va Agrosanoat sektorida kooperatsiyaning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitimni tayyorlashni taklif qilamiz.

Hududlararo hamkorlik juda katta imkoniyatga ega ekanini ta’kidlab o‘tmoxchiman. Bunday sheriklikni qo‘llab-quvvatlash choralarini o‘z ichiga olgan alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, jumladan, hududlarning birinchi Forumini, ko‘rgazma va yarmarkalarni hamda ishbilarmon doiralar vakillarining o‘zaro tashriflarini o‘tkazish zarur, deb hisoblaymiz.

Transport sohasida quyidagi imkoniyatlarni yaratish taraf-dorimiz:

- transportning barcha turlarida multimodal tashuvvlarni tashkil etish orqali transport koridorlarini rivojlantirish;
- asosiy mintaqaviy koridorlar orqali yuklarni tashishda biznes uchun jozibador shartlarni shakllantirish;
- yo‘lovchi va yuk tashishda boshqarish jarayonlarini va ko‘rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish;
- transport infratuzilmasi va harakat tarkibini modernizatsiya qilish dasturlari va loyihalarini amalga oshirish.

Biz, shuningdek, MDHning Davlatlararo ekologik kengashiga O‘zbekistonning qo‘shilishi to‘g‘risida qaror qabul qildik.

Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Samarqandda o‘tkazilishi rejalashtirilgan Xalqaro iqlim forumi doirasi-da Hamdo‘stlik davlatlari hududidagi ekologik tahdid va xavf-xatrlarga bag‘ishlangan maxsus yalpi sessiyani o‘tkazishni taklif qilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qadimiy Samarqand shahriga 2024-yilda “**Hamdo‘stlikning madaniyat poytaxti**” maqomini berish masalasini qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun sizlarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Shu munosabat bilan kelgusi yil bahorda Samarqandda MDH davlatlarining madaniyat, san'at va kino haftaligini o'tkazishni taklif qilamiz.

Yoshlar siyosati sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga egadir.

Biz yangi qo'shma loyihamiz doirasida kelgusi yilda "**Hamdo'stlikning yoshlar poytaxti**" deb e'lon qilingan Toshkent shahrida tadbirlarga boy dasturni tayyorlayapmiz.

Shuningdek, "**Hamdo'stlik kubogi**" futbol turnirini qayta tiklash va yoshlarimiz jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilaman.

Xalqaro rus tili tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani qabul qilishni qo'llab-quvvatlaymiz.

Rus tilida ta'lif beradigan texnik mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash dasturini ishlab chiqishni muhim, deb hisoblaymiz.

Hamdo'stlikning yagona turistik makonini targ'ib qilish doirasida qo'shma dasturlar va turistik mahsulotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga tayyormiz.

Qadrli hamkasblar!

Rossiya Federatsiyasi tomonidan kelgusi yil uchun Hamdo'stlikka raislikning qabul qilib olinishi munosabati bilan hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin nomiga bildirilgan tabrik so'zlariga qo'shilaman.

Ushbu muhim va mas'uliyatli vazifani bajarishda chin dildan omadlar tilayman.

So'zimning yakunida O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqlayman.

*Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi  
Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutq*

2023-yil 13-oktabr

---

## TURIZM MAMLAKATLARIMIZNING UMUMIY FAROVONLIGI VA BARQAROR TARAQQIYOTINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILIDIR

Hurmatli Bosh kotib janoblari!

Hurmatli delegatsiya rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiya-sining ochilish marosimida barchangizni samimiy qutlashdan baxti-yormen.

Tashkilotimizning yubiley yig‘ilishi Buyuk ipak yo‘lining durdonasi, Yangi O‘zbekistonning yirik sayyoqlik maskani bo‘lgan ushbu qadimiy shaharda o‘tkazilayotgani chuqur ramziy ma’noga ega.

Jahon sivilizatsiyalari chorrahasida joylashgan bu betakror shahar asrlar mobaynida Sharq va G‘arbni o‘zaro bog‘laydigan, savdo, ilm-fan va madaniyatning chinakam markazi bo‘lib kelgan. Mashhur Rimga tengdosh bo‘lgan ushbu boqiy zamin ulkan sultanatlar poytaxti, ulug‘ alloma va mutafakkirlar, aziz avliyo zotlar kamol topgan yurt sifatida bizga hamisha g‘urur bag‘ishlaydi.

“Yer yuzining sayqali” deya shuhrat qozongan, Sharqning ikki buyuk Uyg‘onish davri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Samarqand bugungi kunda jahonning zamonaviy sayyoqlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Nufuzli xalqaro tadbirimizning aynan bu azim shaharda tashkil etilayotgani ham fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Xush kelibsiz ko‘hna va hamisha navqiron Samarqandga, aziz mehmonlar!

Hurmatli anjuiman ishtirokchilari!

Ma'lumki, turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari insonlarning dunyo bo'ylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Butunjahon turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra, koronavirus pandemiyasidan avval jahon yalpi mahsulotining taxminan 10 foizi, eksportining esa 7 foizi sayyohlik sektoriga to'g'ri kelgan.

Afsuski, pandemiya ushbu tarmoqqa jiddiy zarba berdi. Natijada turizm eksporti daromadlari sezilarli darajada qisqardi, millionlab ish o'rirlari yo'qotildi.

Butunjahon turizm tashkiloti va sizlar vakillari bo'lgan davlatlar hukumatlari tomonidan olib borilgan tizimli ishlar natijasida bugungi kunda global turizm qayta oyoqqa turmoqda. Barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlari va yaqin hamkorligi tufayli ushbu tarmoq yangi muammo va tahdidlar qarshisida o'zining moslashuvchan va barqarorligini namoyish etmoqda.

O'tgan yili dunyo miqyosida salkam bir milliard turist xoriga sayohat qildi. Bu pandemiyaga qadar bo'lgan ko'rsatkichning salkam 70 foizini tashkil etdi. Joriy yilda ushbu raqam yanada o'sishi kutilmoqda.

Ko'plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o'z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Global raqobat muhiti kuchaymoqda. Bu, albatta, bejiz emas: sohaga kiritilayotgan har bir dollar kelgusida 3–4 barobar daromad keltirishini barchangiz yaxshi bilasiz.

Yaratilayotgan har bir yangi ish o'rni esa boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi.

Shu ma'noda, turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omilidir, de-sak, mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda u jahon xalqlari o'rtasida

madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vositadir.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Biz Tashkilotimizning turizmni dunyoning barcha mintaqalarida jadal rivojlantirish va uni jahon iqtisodiyoti drayverlaridan biriga aylantirish yo'lidagi faol sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Uning sohadagi yangicha yondashuvlari, xizmatlar sifatini keskin oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlari hamda infratuzilma loyihalariga katta urg'u berayotgani tahsinga sazovordir.

Ayniqsa, Tashkilotning global kun tartibida turizmning asosiy o'rinni egallashi, ta'lim salohiyatini oshirish, kambag'allikni qisqartirishda sayyoqlik sohasi ulushini oshirish, ko'p tomonlama sheriliklik aloqalarini kuchaytirishga qaratilgan intilishlari barchamizning mushtarak maqsadlarimiz bilan uyg'undir.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Butunjahon turizm tashkiloti Yangi O'zbekistonning sayyoqlik salohiyatini to'liq ro'yoga chiqarishda ishonchli va uzoq muddatli strategik hamkoriga aylandi.

O'tgan davrda mamlakatimiz uchun xavfsiz turizm bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar ishlab chiqildi, startap loyihalari amalga oshirilmoqda. Shaharlarimizda Tashkilotning mintaqaviy anjumanlari o'tkazib kelinmoqda.

Yaxshi xabardorsizlar, biz so'nggi yillarda O'zbekistonda keng ko'lamli, ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshiryapmiz. Unda asosiy e'tiborni demokratik jamiyat institutlarini mustahkamlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirishga qaratmoqdamiz.

Olib borayotgan "ochiq eshiklar" siyosatimizda turizm tar-mog'iga ustuvor ahamiyat beryapmiz.

Salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga viza-siz kirish tizimini qo'llayapmiz. Yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Biz sayyohlik biznesining barcha turlarini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratdik. Soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etdik, kredit va moliyaviy yordamni kuchaytirdik. Yangi mehmonxonalar qurish va xalqaro brendlarni jalb etish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Shu tufayli pandemiya cheklovlariga qaramasdan, biz ikki yil davomida 800 ta infratuzilma loyihasini amalga oshirdik.

Birgina Samarcand shahrining o‘zida turistik infratuzilmani yaxshilash uchun 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ investitsiya siyatida kiritildi. Bugungi anjumanimiz o‘tkazilayotgan “Ipak yo‘li” sayyohlik markazi ana shunday yirik loyihalardan biridir.

Bundan tashqari, sayyohlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi.

“Amirsoy” qishki kurorti, “Afsonalar vodiysi”, “Zomin” va “Chorvoq” zonalari ko‘plab xorijiy sayyohlar e’tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi.

An’anaviy turmush tarzi va noyob hunarmandchilikka ega bo‘lgan turizm qishloqlari tashkil etilmoqda.

Sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida mehmonxona o‘rinlari soni 140 mingtaga yetkazildi, 70 ta yangi sayyohlik marsshruti ochildi, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi.

Sayyohlik sohasida professional kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor beryapmiz. O‘zbekistondagi 35 ta oliy ta’lim muassasasida xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Samarqandda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida 19 ta mamlakatdan kelgan talabalar tahsil olmoqda.

O‘zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko‘paydi. Turizm eksportidan tushayotgan daromad 4 barobar o‘sdi. Misol uchun, sayyohlar soni bu yil Yaponiyadan – 5 barobar, Hindiston va Italiyadan – 3,5 barobar, AQSHdan – 2 barobarga ortdi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda mamlakatimizga jami 7 million sayyoҳ tashrif buyuradi. Ushbu ko‘rsatkichni 2030-yilga borib 15 millionga, ichki turizm oqimini esa 25 millionga yetkazishni reja qilyapmiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Keng ko‘lamli ishlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan alohi-da e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Butunjahon turizm tashkilotining “eng tez rivojlanayotgan turizm maskanlari” ro‘yxatida, shuningdek, mashhur “Gellop” ijtimoiy tadqiqot mar-kazining “Sayyoҳlik uchun eng xavfsiz davlat” reytingida yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz AQSHning “National geographic traveler awards” ro‘yxatida “Yil yangiligi” hamda “Gastronomik turizm” nominatsiyalari g‘olibi bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘tgan yili “Jahon musulmon sayyoohlari indeksi”da “eng kuchli sayohat yo‘nalishi” sifatida tan olindi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz o‘z oldimizga juda katta maqsad va rejalarни qo‘yanamiz va bu borada sizlar bilan yaqindan hamkorlik qilishga tayyormiz. Jumladan, Turizmni kompleks rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan strategiyani ishlab chiqmoqdamiz.

Bu boradagi asosiy yo‘nalish sifatida zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

“Toshkent – Samarqand” va “Navoiy – Buxoro” yo‘nalishlari uchun yana 6 ta tezyurar poyezd olib kelinadi, yurtimizda 600 kilo-metr qo‘sishimcha temiryo‘llar quriladi.

2025-yildan boshlab “Toshkent – Xiva” tezyurar poyezdi qatno-vi yo‘lga qo‘yiladi, 2026-yildan esa ushbu yo‘nalish Nukus shahri-gacha uzaytiriladi.

Shuningdek, “Toshkent – Samarqand” va “Toshkent – Andijon” yo‘nalishlarida xususiy sheriklik asosida pullik avtomagistrallar

quriladi. Natijada ushbu yo‘nalishlarda manzilga yetib borish vaqtı 2 barobar qisqaradi.

2030-yilga qadar yana 56 ta zamonaviy avialayner olib kelamiz va aviaparkimizdagi samolyotlar sonini 100 taga yetkazamiz. Bundan tashqari, aviaqatnovlar soni 4 barobar oshiriladi. Barcha aeroportlarda “ochiq osmon” rejimi joriy qilinadi, hududlardagi 6 ta yirik aeroport xususiy sheriklik asosida yangilanadi.

Shuningdek, katta shahar va sayyoohlar ko‘p boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasteri tashkil etiladi.

Biz yurtimizning madaniy turizm salohiyatini oshirishga ham katta e’tibor qaratamiz.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud. UNESCOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga 200 dan ziyod moddiy va 6 ta nomoddiy obyektimiz kiritilgan.

“Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturi doirasida turistlarni o‘ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5 mingtaga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros obyekti restavrasiya qilinadi, 20 ta me’moriy yodgorlikda “ochiq osmon ostidagi muzey”lar tashkil etiladi.

Ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hoziridan uch barobar ko‘proqqa oshiramiz. Ana shu ezgu maqsadda tabarruk ziyorat maskanlarining geografiyasi kengaytirilib, ularning yagona xaritasi yaratilmoqda.

Samarqandda ulug‘ mutafakkir bobomiz Imom Buxoriy hazratlari xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilayotgan muhtasham me’moriy majmua bu boradagi ulkan loyihalarimizdan biri bo‘lishiga ishonaman.

Mintaqamiz davlatlari bilan qo‘shma sayyoqlik yo‘nalishlarini yaratish, Markaziy Osiyoda transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, “Bir tur – butun mintaqa” dasturini amalga oshirish diqqatimiz markazida bo‘lmoqda.

Muxtasar aytganda, tibbiy, ekologik, gastronomik, etno, eks-tremal va boshqa turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz hisobidan kelgusida kamida 1 millionta yangi ish o‘rni yaratishni maqsad qilganmiz.

Hurmatli forum qatnashchilar!

Dunyo turizm industriyasining e’tiborga molik yirik tadbiri – Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasining Samarqandda o‘tkazilishi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun katta tarixiy voqeadir.

Ishonchim komilki, ushbu anjuman Tashkilotimizga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va unga yangi shiddat bag‘ishlashga xizmat qiladi.

Aloqalarimizni har tomonlama chuqurlashtirish uchun quyidagi takliflarni bildirmoqchiman.

**Birinchidan**, global turizmnning eng dolzarb muammosi – bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta’minlashdir.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan nizo va beqaror vaziyatlar soha rivojiga pandemiyadan ham ko‘ra ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ming afsuski, bu jarayonlar oqibatida jozibador va an’naviy yo‘nalishlarda turizm salohiyati va sayyoohlар soni keskin pasaymoqda, xavfsiz turizm uchun doimiy tusga ega bo‘lgan xatar va tahlidlar ortmoqda, ularning salbiy ta’siri qo‘shni mintaqalarga ham tobora keng tarqalmoqda, butunjahon madaniy meros obyektlari va ko‘hna arxitektura yodgorliklari vayron qilinmoqda va hatto ayrimlari Yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketmoqda.

Bunday ayanchli holatlarning oldini olish uchun barchamiz hamjihat va yakdil bo‘lib, bor kuch va sa’y-harakatlarimizni birlashtirishimiz kerak.

Hozirgi murakkab vaziyatni inobatga olgan holda, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadi-

da Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etaman.

**Ikkinchidan**, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbdir.

Shuningdek, Tashkilotimizning "Yashil" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etishni taklif qilamiz.

Tashkilot ko'magida yaqinda ish boshlagan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarganddagi "Ipak yo'li" xalqaro universiteti hamkorligida Global "yashil" turizm startaplari laboratoriyasini yaratmoqchimiz.

Biz eng yaxshi innovatsion yechimlarni yaratish maqsadida grant mablag'larini ajratishga tayyormiz. Barcha a'zo davlatlar va xalqaro tashkilotlarni ushbu loyiha qo'shilishga taklif etamiz.

**Uchinchidan**, imkoniyati cheklangan sayyoohlarni uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish va inkluziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida biz Tashkilotimiz doirasida 2025-yilni "Butun jahon inkluziv turizm yili" deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz.

**To'rtinchidan**, Butunjahon turizm tashkiloti huzurida Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu platforma madaniy meros obyektlariga sayyoohlarni oqimini ko'paytirish, tarixiy yodgorliklarni asrash bo'yicha eng ilg'or tajribalar bilan almashish, tavsiya va samarali yechimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Kengashning birinchi yig'ilishini qadimiy Buxoro shahrida tashkil etishga tayyormiz.

**Beshinchidan**, bugun biz Samarqandda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, dunyo-

da o‘xhashi yo‘q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasini ochdik.

Ishonchim komilki, ushbu Akademiya global ta’lim xabiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘sadi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi va davlatlaringiz vakillarini bu dasturda faol ishtirok etishga chaqiradi.

**Oltinchidan**, Tashkilotimiz bilan yaqin hamkorlikda Jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkentda o‘tkazish haqidagi tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaysiz, degan umiddaman.

Aminmanki, ushbu forum yoshlarimiz uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g‘oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadi.

**Yettinchidan**, “Ipak yo‘li” brendini rivojlantirishga qo‘shtigan hissasi uchun Tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta’sis etish tashabbusini bildiramiz.

Ushbu rejani amalga oshirishda biz bugun Butunjahon turizm tashkiloti bilan hamkorlikda ochgan “Ipak yo‘lida turizm” tematik ofisi faol shug‘ullanishi mumkin, deb hisoblaymiz.

**Yana bir masala.** E’tiboringizni turizm sohasining faol targ‘ibotchilari – jurnalistlar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari vakillariga qaratmoqchiman.

Tashkilotimiz qo‘srimcha platformalar yaratish orqali bu iqtidorli va jonkuyar ijodkorlarning katta kuch va salohiyatini birlashtirishda faol rol o‘ynashi lozim.

Shu munosabat bilan yetakchi ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o‘zida birlashtiradigan Global media kampusini tashkil etish vaqtি keldi, deb hisoblaymiz.

Bunday media forumlarni har ikki yilda bir marta Tashkilot Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyalari doirasida o‘tkazish

maqsadga muvofiqdir. Birinchi media kampusni yurtimizda qabul qilishga tayyormiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Sizlar anjuman davomida Samarqandning qadimiy tarixi, boy madaniyati, uning betakror go'zalligi, xalqimizning urf-odat va an'analari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lasizlar.

Bu azim shahar dunyoning barcha mintaqalaridan tashrif buyuradigan millionlab sayyoohlarni o'ziga jalb etayotgan Buyuk ipak yo'lining chinakam javohiridir.

Siz, azizlar, Samarqandni "Madaniy turizmning xalqaro poytaxti" deb e'lon qilish va tegishli deklaratsiyani qabul qilishga doir tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaysiz, deb ishonaman.

Bu yuksak maqom asrlar bo'yli o'z tarovati va beqiyos merosini bezavol saqlab kelayotgan, bag'rikengligi va mehmondo'stligi bilan butun dunyoda shuhrat qozongan Samarqandning mo'tabar nomiga har tomonlama munosib bo'lar edi.

Hurmatli do'stlar!

Hech shubhasiz, bo'lib o'tayotgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida qabul qilinadigan hujjatlar va kelishuvlar global turizm industriyasining jadal rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Bosh Assambleya sessiyasi doirasida o'tkaziladigan investitsiya va ta'lim forumlari jahoning barcha turoperatorlari, oliygohlar va yirik kompaniyalarning o'zaro muloqoti uchun samarali maydon bo'lishiga aminman.

Ushbu forumlarda barcha hududlarimiz o'zlarining boy tarixiy va madaniy salohiyatini, sayyoqlik imkoniyatlarini to'liq namoyish qiladi hamda istiqbolli investitsiya loyihalari paketini taqdim etadi.

Bu tadbirlarda sizlarni faol ishtirok etishga chaqiraman.

Barchangiz Yangi O'zbekistonni o'zingiz uchun kashf etishiningzga, ushbu tashrif qalblaringizda unutilmas taassurotlar qoldirishi-ga ishonaman.

Siz, aziz do'stlarimiz uchun O'zbekiston eshiklari hamisha ochiq va barchangiz biz uchun doimo qadrli mehmonsiz.

Bosh Assambleya sessiyasining ishiga muvaffaqiyat va omadlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Butunjahon turizm tashkiloti  
Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutq*

*2023-yil 16-oktabr*

---

## **“BIR MAKON, BIR YO‘L” TASHABBUSI: XALQARO HAMKORLIKNING YANGI MODELI**

Hurmatli Guterrish janoblari!

Hurmatli Xan Chjen janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblariga “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumida ishtirok etishga taklif qilgani hamda iliq qabul uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

“Makon va yo‘l” tashabbusining o‘n yilligi munosabati bilan xitoylik do‘stilarimiz hamda tadbirning barcha ishtirokchilari nomiga bildirilgan tabrik so‘zlariga qo‘shilaman.

Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashga qaratilgan ulug‘vor g‘oya tarixan qisqa davrda ko‘plib tarafdarlariga ega bo‘ldi va xalqaro hamkorlikning yangi modeliga aylandi. U umumiy taraqqiyot va farovonlikka erishish yo‘lidagi zaruriy, inkluziv va ochiq platformaga aylandi.

Jahondagi yetakchi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch inqirozi tufayli vujudga kelgan hozirgi geosiyosiy beqarorlik sharoitida ushbu dasturning o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xitoyning har tomonlama strategik sherigi sifatida O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib “Makon va yo‘l” tashabbusini qo‘llab-quvvatlaganini alohida ta’kidlashni istardim. Biz mazkur tashabbusning asosiy maqsad va vazifalarini yanada ilgari surishning qat’iy tarafdomiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xitoyning “Yashil ipak yo‘li” tashabbusi mohiyat e’tibori bilan umumiy “yashil” kelajak kun tartibini shakllantiradi, deb hisoblay-

miz. Ushbu g‘oya Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblari tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda e’lon qilingani chuqur ramziy ma’noga ega.

O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o‘zgarishi oqibatlaridan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biri ekanini ta’kidlamoqchiman.

Hozirgi vaqtida bizning mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanishi, bioxilma-xilikning yo‘qolishi ko‘rinishida namoyon bo‘layotgan jiddiy tahdidlarini o‘zida to‘liq his etmoqda.

Birgina misol – ko‘p yillik kuzatishlar bugungi kunda Markaziy Osiyoda o‘rtacha havo haroratining oshib borishi dunyodagi umumiy ko‘rsatkichlardan ikki marta yuqori ekanini ko‘rsatmoqda.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida qabul qilingan maxsus rezolutsiya doirasida Orolbo‘yida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududlarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturni amalga oshirmoqdamiz.

O‘zbekiston joriy yilning sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusiga ko‘ra bo‘lib o‘tgan Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ulkan vazifalar sammitini ham yuqori bholaydi hamda mazkur anjuman yakunlarining tezroq amalga oshirishiga umid bildiradi.

Biz 2024-yil Markaziy Osiyoda “yashil” taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo‘lida fikr almashish va sa’y-harakatlarni birlashtirish uchun Samarqand xalqaro iqlim forumini o‘tkazish niyatidamiz.

Umid qilamizki, ushbu forum barqaror rivojlanish yo‘lidagi global xavf-xatarlarga javob topish uchun “Kelajak uchun – Samarqand muloqoti”ni tashkil etishda amaliy qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

O'zbekiston "Yashil ipak yo'li" doirasida keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor.

Shu munosabat bilan Xitoy hamda "Makon va yo'l" sammitining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha fikrlarimiz bilan o'rtoqlashmoqchiman.

**Birinchidan**, birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni yanada ya-qindan muvofiqlashtirish maqsadida "Markaziy Osiyoning "yashil" kun tartibi" va "Yashil ipak yo'li" konseptual tashabbuslarining o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi tarafдоримиз.

Quyidagi muhim vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamdagi "Yashil taraqqiyot dasturi"ni ishlab chiqishni taklif etamiz: iqtisodiyot tarmoqlarini "yashil" taraqqiyot talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilmani yaratish, "yashil" sanoat quvvatlarini ishga tushirish, kambag'allikni qisqartirish va "aqlii" qishloq xo'jaligini rivojlantirish.

**Ikkinchidan**, "yashil" ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarini rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirishni muhim, deb hisoblaymiz.

Xitoyning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda va boshqa xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, "yashil texnologiyalar"ni keng joriy qilish asosida sanoat sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan dasturlarni amalga oshirish uchun Orolbo'yi mintaqasida Maxsus namunali texnologik parkni tashkil etishga tayyormiz.

**Uchinchidan**, Xitoyning "Makon va yo'l" dasturining "yashil investitsiyalar tamoyillari" borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va uni amalga oshirishda ishtirok etish niyatidamiz.

O'zbekistonda "Yashil moliyalashtirish" jamg'armasini ta-sis etishni taklif qilamiz. Ushbu jamg'arma kam uglerodli iqtisodiyot va "toza" texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, mintqa-

mamlakatlarida yuqori ekologik standartlarni joriy etish uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilishning ta'sirchan vositasiga aylanadi.

**To'rtinchidan**, biz "Makon va yo'l" dasturida ishtirok etayotgan mamlakatlarni "yashil" mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'zaro savdosidagi cheklov va to'siqlarni kamaytirishga chaqiramiz.

**Beshinchidan**, "yashil" energiyaga o'tish bo'yicha muloqotni faollashtirish va "Makon va yo'l" tashabbusiga qo'shilgan mamlakatlar vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazishni muhim, deb bilamiz.

Aminmizki, bu qayta tiklanadigan energiya sohasida xalqaro kun tartibini kengaytirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

**Oltinchidan**, Orolbo'yi xalqaro innovatsiyalar markazi negizida "yashil" bilim va yechimlarni transfer qilish bo'yicha ilmiy-axborot platformasini ishga tushirishni taklif etamiz.

**Yettinchidan**, biz Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti negizida "Yashil" taraqqiyot va ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik almashevni rivojlantirish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish taraf-dorimiz.

Bu borada Xitoy hamda "Makon va yo'l" tashabbusining boshqa ishtirokchi mamlakatlari yetakchi oliygohlari va ta'lim markazlari bizning sheriklarimiz sifatida ishtirok etishlari mumkin.

**Va nihoyat**, biz jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish bo'yicha an'anaviy qadriyatlarni qaror toptirmasdan turib, "yashil" taraqqiyotga o'tish mumkin emas, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasiда "yashil" madaniyatni rivojlantirish bo'yicha Global dasturni ishga tushirishni va unda etno-ekologik festivallar, forumlar, mam-

lakatlarimizdagи taniqli jamoat arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyandalari ishtirokida taqdimotlar va tadbirlarni o'tkazishni nazarda tutishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Donishmand xitoy xalqining maqolida aytilganidek, "**Kelgusi asrning baxti ushbu asrda quriladi**".

Bugun biz sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan va kuchaytirgan holda, insoniyatning "yashil" kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratmoqdamiz.

Ishonchim komilki, bugungi uchrashuvimiz yakunlari, bildirilgan g'oya va takliflar bizning ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lidagi umumiy aniq hissamiz bo'ladi.

Barchangizga muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*"Bir makon, bir yo'l" uchinchi  
xalqaro forumidagi nutq*

2023-yil 18-oktabr

---

## XAVFSIZLIK SOHASIDAGI TAHDIDLARGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHISH – TINCHLIK VA TARAQQIYOT ASOSIDIR

Hurmatli Xavfsizlik kengashlari kotiblari!

Muhtaram Bosh kotib!

Hurmatli delegatsiya a'zolari!

Turkiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan Toshkent shahriga tashrif buyurgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblari ikkinchi yig'ilishining barcha ishtirokchilarini chin qalbimdan qutlayman.

Avvalo, sizlarning timsolingizda hamkasblarim – Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlariga o'zimning chuqur hurmat-ehtiromimni hamda O'zbekiston raisligini qo'llab-quvvatlaganlari uchun samimi minnatdorligimni bildiraman.

Turkiy davlatlar tashkilotining jadal o'sib borayotgan salohiyati va obro'-e'tibori – bu bizning do'stligimiz va birdamligimiz kuch-qudratining hamda faqat birgalikda sezilarli va ulkan natijalariga erisha olishimizning yaqqol tasdig'idir.

Samarqandda bo'lib o'tgan tarixiy sammit yakunlari Tashkilot rivojida yangi davrni boshlab berdi. Qator muhim hujjatlar, jumladan, savdo va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda Investitsiya fondini tashkil etish to'g'risidagi bitimlar qabul qilindi.

So'nggi yilda Turkiy davlatlar tashkilotida O'zbekiston raisligida muhim ahamiyatga molik va keng qamrovli ishlar amalga oshirildi, hamkorligimiz yanada kengaydi hamda yangi yuksalish sur'atiga ega bo'ldi.

Bugungi kunga kelib ko'p tomonlama hamkorlikning barcha yo'nalish va sohalarini qamrab olgan o'ttizdan ortiq yirik tadbirlar o'tkazildi.

Tashkilotimizni institutsional jihatdan isloh qilish, "yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni"ni yaratish, transport sohasida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonning raisligi doirasida mamlakatlarimizning iqtisodiyot, savdo, sog'liqni saqlash, ta'lim, kosmos, energetika vazirliklari va idoralari hamda maxsus xizmatlari rahbarlarining qator muhim uchrashuvlari o'tkazildi.

Turkiy dunyoning ilm-fan, madaniyat va san'at sohalaridagi taraqqiyotiga hissa qo'shgan atoqli shaxslarni taqdirlash uchun ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi mukofot birinchi marta topshirildi. O'zbekiston Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'ldi, TURKSOY tashkil etilganining o'ttiz yilligi tantanali ravishda nishonlandi.

Biz Tashkilot zaxiralaridan imkon qadar samarali foydalanish hamda turkiy mamlakatlarning integratsiya borasidagi salohiyatini barcha sohalarda oshirish bo'yicha izchil ish olib boramiz.

Qadrli yig'ilish ishtirokchilari!

Bugungi anjuman Tashkilot kun tartibidagi o'ta muhim voqealardan biridir. Chunki vakolatli idoralarning xavfsizlikka qarshi zamonaviy tahdidlarni bartaraf qilish va mamlakatlarimizni barqaror taraqqiy ettirish yo'llarini izlash bo'yicha hamkorlikdagi ishlari alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bunday formatdagi uchrashuv xavfsizlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashish hamda bugungi notinch dunyodagi umumiylah tahdid va xavf-xatarlarga qarshi bиргаликда javoblar ishlab chiqish uchun samarali maydon bo'lib xizmat qiladi.

O'tgan yili Anqara shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining birinchi yig'ilishida erishilgan samarali natijalarni yuqori baholaymiz.

Ishonchim komilki, turkiy tilli mamlakatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblari darajasidagi ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmi Turkiy davlatlar tashkiloti makonida xavfsizlik sohasidagi muloqotni mutlaqo yangi darajaga olib chiqadi.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari va a'zolari!

Ushbu yig'ilish xalqaro miqyosda murakkab vaziyat hukm surayotgan bir sharoitda bo'lib o'tmoqda. Bugungi kunda jahon prognoz qilish qiyin bo'lgan va hatto oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarni keltirib chiqaradigan fundamental o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Xalqaro maydonda o'zaro ishonch va bir-birini tushunish inqirozi keskin sezilmoqda. Global va mintaqaviy xavfsizlikka qarshi tahlidlar kuchaymoqda va yangi xavf-xatarlar vujudga kelmoqda.

Shu munosabat bilan sizlar rahbarlik qilayotgan tuzilma va idoralarga alohida mas'uliyat yuklatilmoqda.

Sizlar ishtirok etayotgan yig'ilish kun tartibi juda sermazmun, birgalikda qarorlar qabul qilishni hamda o'zaro hamjihatlikda faoliyat yuritishni talab etadigan muhim masalalar sizlarning e'tiborin-gizga havola qilinmoqda.

Bugun sizlar terrorizm, ekstremizm va yoshlarning radi-kallahuvi, kiberjinoyatchilik, narkotik vositalarning tarqalishi, transchegaraviy jinoiy guruhlari faoliyatiga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamdagi dolzarb vazifalar yuzasidan fikr almashasiz.

Ushbu anjuman mamlakatlarimiz va mintaqadagi xavfsizlikka nisbatan tahidlarni bartaraf etishda o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlar samaradorligini oshirish imkonini beradigan sermahsul fikr

almashuvlar hamda yangi taklif va tashabbuslarga boy bo‘lishini tilayman.

O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Mamlakatimizga tashrifingiz mazmunli va samarali bo‘lsin!

*Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar  
Xavfsizlik kengashlari kotiblarining  
ikkinchi yig‘ilishi ishtirokchilariga  
yo‘llangan murojaat*

*2023-yil 20-oktabr*

---

## ONA TILIMIZ – BUYUK VA BEBaho Ma'naviy BOYLIGIMIZDIR

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, jonajon yurtimizda keng nishonlanayotgan qutlug‘ ayyom – O‘zbek tili bayrami kuni bilan chin qalbimdan samimiyy muborakbod etaman.

Hech shubhasiz, azaliy qadriyatlarimiz gultoji bo‘lgan ona tilimiz asrlar sinovidan bezavol o‘tib kelayotgan buyuk va bebaho ma’naviy boyligimizdir.

Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o‘zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug‘ kelajagimizni ta’minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo‘lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo‘llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko‘zgusiga aylanmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda o‘zbek tili nufuzli xalqaro anjumanlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan muntazam yangrab kelayotgani barchamizga g‘urur-iftixor bag‘ishlash bilan birga, dunyoda ona tilimizni o‘rganishga intilayotgan insonlar safini ham tobora kengaytirmoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Bugungi quvonchli ayyomda jahondagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tilining obro‘-e’tibori va nufuzini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz haqida so‘z yuritib, kelgusidagi muhim vazifalarimizni belgilab olishimiz tabiiydir.

Bu haqda gapirganda, avvalo, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyati zamon talablari asosida tashkil etilib, barcha sohalarda davlat tilida ish yuritish sifatini yaxshilash, xususan, axborot-kommunikatsiya yo‘nalishida uni faol qo‘llash borasida ijobiy natijalarga erishilayotganini ta’kidlash lozim.

Ma’lumki, har qanday tilni o‘rganish va rivojlantirishda, birinchi navbatda, uning nazariy-metodik asoslari katta o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Alisher Navoiy qomusi”, “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”, “Falsafa” qomusiy lug‘ati, “O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi”, “Islom ensiklopediyasi”, “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati”, “Pedagogika: ensiklopediya”, “Tarix atamalari lug‘ati”, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”, “Yuridik atamalar lug‘ati” kabi 40 dan ziyod fundamental kitoblar nashr etilgani bu yo‘ldagi muhim qadam bo‘ldi.

Shular qatorida o‘zbek tilining elektron milliy korpusi va das-turiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini internet tarmog‘ida ommalashtirish va munosib o‘rin egallashini ta’minalash, davlat tilini o‘rgatishga hamda matn tahririga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish bo‘yicha ham jiddiy ishlar olib borilayotganini qayd etish zarur.

Mamlakatimizda o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash hajmi hamda ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Hozirgi kunda jami 33 ta oliygohda ushbu mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida 7 ming nafardan ziyod fan nomzodlari va doktorlari, professor-o‘qituvchilar o‘zbek tili va adabiyotidan dars bermoqda.

Agar 1992–2012-yillarda, ya’ni 20 yil mobaynida bu ixtisoslik bo‘yicha 730 ta ilmiy ish himoya qilingan bo‘lsa, so‘nggi 10 yilda bu raqam 792 tani tashkil etdi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshidagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘rgatish va malaka oshirish markazida vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari o‘zbek adabiy tili me’yorlari va imlo qoidalari bo‘yicha muntazam o‘qitilmoqda.

Universitetda tashkil etilgan “O‘zbek maktabi”da esa yuzlab xorijlik fuqarolar ona tilimiz va milliy madaniyatimiz asoslarini katta qiziqish bilan o‘rganmoqda. Bu borada keyingi yillarda nashr etilgan o‘zbekcha-xitoycha, o‘zbekcha-englizcha, o‘zbekcha-fransuzcha, o‘zbekcha-nemischa, o‘zbekcha-arabcha, o‘zbekcha-forscha lug‘at va so‘zlashgichlar muhim rol o‘ynamoqda.

Lotin grafikasi asosidagi alifbomizni takomillashtirish ishlari ham davom etmoqda. Ushbu masala yuzasidan xalqimiz, jamoatchiligidimiz tomonidan bildirilgan barcha taklif va tavsiyalar jiddiy o‘rganilib, muhokamadan o‘tganidan so‘ng tegishli qonun loyihasini yana bir bor ko‘rib chiqib, parlamentga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Aziz do‘stlar!

Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘ramiz.

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim 7 tilda olib borilmoqda. Respublikamizdagi mavjud 1453 ta ommaviy axborot vositasi hamda yuzlab veb-saytlar orqali qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, koreys, turk, arab, ingliz, nemis va boshqa tillarda ham materiallar e’lon qilinmoqda.

Biz O‘zbekistonni tenglik, do‘stlik va bag‘rikenglik diyoriga aylantirish maqsadida turli millatga mansub fuqarolarimizning til sohasidagi huquqlarini ta’minalashga qaratilgan ishlарimizни bundan buyon ham izchil davom ettiramiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

O‘tgan asr boshlarida ma’rifatparvar jadid bobolarimiz “**Tilda, fikrda, ishda birlik**” degan ezgu g‘oya asosida maydonga chiqib,

xalqimizni mustamlaka zulmidan xalos qilish, uni zamonaviy ilm-fan, kasb-hunar va madaniyatga oshno etish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirgan edilar.

Ana shunday mushtarak maqsadlar, umummilliy birlik va ahillik bugun biz uchun har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi o'ta keskin va tahlikali zamonda faqatgina shu asosda o'z milliy manfaatlarimizni qat'iy himoya qilishga, jumladan, ona tilimizni asrab-avaylash va boyitish, uni ilm-fan, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, axborot-kommunikatsiya, diplomatiya va boshqa muhim yo'nalishlarda ta'sirchan muloqot vositasiga aylan-tirib, taraqqiyot sur'atlariga uyg'un holda rivojlantirishga, xalqaro nufuzini munosib darajaga ko'tarishga erisha olamiz.

Binobarin, ulug' shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, "**Ona tili – umummillat mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy bo'lib, bu yolg'iz tilshunoslarning emas, butun millatning ishi**" ekanini doimo yodda tutishimiz lozim.

Fursatdan foydalanib, ana shu haqiqatni chuqur anglab, bu yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan, o'zbek tilining haqiqiy fidoyisi va do'sti bo'lgan barcha zahmatkash va jonkuyar insonlarga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni 21-oktabr – O'zbek tili bayrami bilan yana bir bor samimi qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik tilayman.

Mana shunday buyuk ma'naviy boylikni yaratgan xalqimiz doimo omon bo'lsin!

*O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan  
yo'llangan tabrik*

2023-yil 21-oktabr

---

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli ichki ishlar tizimi xodimlari!

Qadrli ofitser va generallar, serjant va safdorlar!

Muhtaram faxriylar!

Avvalo, siz, azizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz – O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarning o‘z zimmangizdagи g‘oyat muhim vazifalarni mas’uliyat bilan ado etib kelayotganingizni alohida ta’kidlashni istardim.

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlarini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish, aholi uchun barcha shahar va qishloqlarda xavfsiz yashash va mehnat sharoitini yaratish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng quyi bo‘g‘indagi vaziyat va muammolarni chuqur o‘rganish asosida har qaysi mahallani jinoyatdan xoli hududga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda 350 dan ziyod mahallada huquq-tartibot maskanlari tashkil etildi, 9,5 mingga yaqin mahallada profilaktika inspektorlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yildan boshlab “mahalla yettiligi” tizimi tashkil etildi. Endi profilaktika inspektori ana shu tizimning eng faol a’zosiga aylanib, vaziyatni xonardonlar kesimida o‘rganadi. Birinchi navbatda, huquqbazarlik sodir etish yoki undan jabr ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘lgan fuqarolarni aniqlab, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini “mahalla yettiligi” imkoniyatlaridan foydalangan holda hal etish choralarini ko‘radi.

Eng muhimmi, joylarda voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy ongini oshirish, ularni sog'lom turmush tamoyillari asosida tarbiyalash orqali ijtimoiy jihatdan xavfli xatti-harakatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish bo'yicha amaliyat yo'lga qo'yiladi.

Biz Yangi O'zbekiston sharoitida "**Barcha islohot va o'zgarishlar – inson qadrini yuksaltirish uchun**" degan ezgu tamoyilga sodiq qolgan holda, shu yo'lda boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bu borada o'tgan davrda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yaratilgan mustahkam huquqiy ba-zaga tayanamiz.

Ichki ishlar organlari sohasiga raqamli texnologiyalar, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslangan zamonaviy ish yuritish vositalari, sun'iy intellekt yordamida faoliyat ko'rsatadigan axborot-ma'lumot tizimlari jadal tatbiq etilmoqda. Jamoat joylarida vaziyatni onlayn kuzatish, fuqarolarning murojaatlarini masofadan turib qabul qilish, huquqbazarliklarni inson omili ishtirokisiz qayd etish amaliyoti bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aziz do'stlar!

Barchamiz yaxshi bilamizki, hamma sohalarda bo'lgani kabi ichki ishlar tizimida ham yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan, o'z kasbiga, Vatanimiz va xalqimizga sodiq kadrlar islohotlar taqdirini belgilab beradi. Shu ma'noda, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga ko'tarilayotgan bugungi sharoitda har bir xodimdan yetarli bilimga ega bo'lish, muloqot va muromala madaniyatini oshirish, har qanday murakkab vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilib, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarish uchun o'z ustida tinimsiz ishlash talab etiladi. Barchamiz uchun xalqimiz hayoti eng katta mакtab ekanini hech qachon unutmaylik. Shu maktabda bilim olib, toblanib, el-yurt manfaatlari uchun kurashib yashash – bu eng oliy saodatdir.

Shuning uchun joriy yilda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi" da

ayni shunday qoida va tamoyillar soha xodimlari faoliyatining bosh mezoni ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Ishonchim komil, o‘z vazifasini halol va vijdonan ado etadigan ichki ishlar organi xodimi el-yurt o‘rtasida albatta munosib obro‘-e’tibor topadi.

Ma’lumki, keyingi yillarda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratildi. Jumladan, bo‘lajak xodimlarni bolaligidan boshlab vatanparvarlik ruhida, yuqori malakali huquqshunos sifatida tayyorlash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Har bir xodim navbatdagi unvonni olishi uchun majburiy tarzda kasbiy malakasini oshirishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi uchun Ichki ishlar vazirligi akademiyasining boshqaruv magistraturasida tahsil olishi belgilangan va bunday tajriba o‘z ijobjiy samarasini bermoqda.

Hurmatli soha xodimlari!

Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, aholi osoyish-taligini ta’minlashga qaratilgan ishlarimiz bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

Xususan, ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining 80 foizi elektron shaklga o‘tkazilib, tizimda byurokratiya va fuqarolarni sarson qilish holatlari bartaraf etiladi. Har bir faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha ijtimoiy fikrni o‘rganish va ja-moatchilik tomonidan monitoring qilib borish amaliyotini “mahalla – tuman – viloyat – respublika” tamoyili asosida tashkil etish choralarini ko‘rishimiz lozim.

Muxtasar aytganda, ichki ishlar tizimidagi islohotlarimizning amaliy natijasini sohaning har bir xodimi, birinchi navbatda, xalqimiz o‘z kundalik hayotida sezishi shart.

Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga o‘z burchingizni chuqur anglab, amalga oshirayotgan fidokorona mehnatingiz uchun samiyy minnatdorlik bildiraman. Sizlarning mashaqqatli va sharafli faoliyatizingizni munosib rag‘batlantirish bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markazida bo‘ladi.

El-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida halok bo‘lgan mard va jasur xodimlarning xotirasini hurmat bilan yod etib, ularning oilalari va farzandlariga bayram tabrigimiz hamda ezgu tilaklari-mizni izhor etamiz.

Sizlarni bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, mas’uliyatli xizmatingizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

2023-yil 25-oktabr

---

## **KO'P TOMONLAMA VA UZOQ MUDDATLI ALOQALARNI YANADA KENGAYTIRISH YO'LIDA YANA BIR ULKAN QADAM**

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelovich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, siz, azizlar bilan yana diydor ko'rishib turganidan g'oyat mammunman.

Bugungi sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun Qozog'iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

So'zimni buyuk ajdodimiz – qadimiylar turk davlati asoschilaridan biri Bilga Xoqonning quyidagi da'vati bilan boshlamoqchiman: "**Ey turkiy elim, o'zligingga qayt, o'zingni angla – yanada yuskalgaysan!**"

Ushbu ibratli so'zlar bugungi shiddatli zamonda – Turkiy davlatlar tashkiloti o'z faoliyatini tobora takomillashtirib borayotgan bir davrda, albatta, chuqur ma'noga ega. Tili, dini va yuraklari bir-biriga chambarchas bog'langan qardosh xalqlarimiz ovozi endilikda dunyo bo'ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangramoqda.

Fursatdan foydalanib, do'st Qozog'iston elini yaqinda keng nishonlangan mamlakat milliy bayrami – Respublika kuni munosabati bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Shuningdek, Turkiya Prezidenti, qardoshim Rejep Tayyip Erdogan Janobi Oliylarini va butun turk xalqini Respublika e'lon qilingan kunning qutlug' 100 yillik tantanalari bilan samimiy tabriklayman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Barchangiz yaxshi bilasiz, turkiy dunyoda do'st Ozarbayjon xalqi o'zining munosib o'rni va katta obro'-e'tiboriga ega. So'nggi yillarda Ozarbayjon xalqi qadrli birodarim Ilhom Haydarovich yetakchiligida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Tarixiy adolat qaror topib, mamlakatning ajralmas qismi bo'lgan Qorabog' hududini bunyodkorlik makoniga aylantirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda.

Men avgust oyida Shusha va Fuzuliy shaharlarida bo'lib, keng ko'lamli o'zgarishlarga, zamonaviy infratuzilma barpo etilayotgani, vayron bo'lgan madaniy meros obyektlari qayta tiklanayotganiga shaxsan guvoh bo'ldim.

Ozarbayjon xalqini buyuk g'alaba – mamlakat hududiy yaxlitligi to'liq tiklangani bilan yana bir bor chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda. 160 million aholini qamrab olgan Tashkilotimiz hududi katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni hamdir.

Bizning mamlakatimiz Tashkilotning barcha a'zolari bilan strategik sheriklik aloqalari o'rnatganini katta mammuniyat bilan ayтиб о'tmoqchiman.

O'tgan yili "**Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari**" shiori ostida bo'lgan Samarqand sammitida imzolangan hujjatlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

O'zbekiston raisligi davrida yuzdan ortiq turli tadbirlar o'tkazildi, muhim tashabbuslar ilgari surildi. "**Turkiy nigoh – 2040**" konseptual dasturi asosida amaliy hamkorlikning yangi va yanda samarali mexanizmlari yaratildi. Jumladan, Turkiy davlatlar Kasaba uyushmalari tashkiloti, Fazo tadqiqotlari akademiyasi, Jo'g'rofiy kengash, Qurg'oqchilikni bartaraf etish instituti, Notarial

idoralar uyushmasi kabi yangi tuzilmalar ish boshladi. Qator nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning turli ixtisoslashgan institutlari, Islom hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha ken-gash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan yaqin sheriklik aloqalari o'rnatildi.

Global iqtisodiy inqiroz kuchayib borayotganiga qaramasdan, olib borayotgan tizimli ishlarimiz natijasida o'zaro savdo hajmi o'smoqda.

O'zbekistonning raisligi davrida bizga faol ko'mak ko'rsatgan barcha davlatlarga va Tashkilot Kotibiyatiga yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Barchamiz guvoh bo'lyapmiz, bugungi kunda jahon miqyosida ishonch inqirozi tobora avj olmoqda. Global xavfsizlikni ta'milashda yangi muammolar yuzaga kelmoqda va xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari kuchaymoqda.

Ayniqsa, Yaqin Sharqda uzoq vaqtidan buyon davom etayotgan Falastin – Isroil muammosining nihoyatda xavfli tus olgani bar-chamizni jiddiy xavotirga solmoqda. Qurolli to'qnashuvda tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbanlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda.

Shu munosabat bilan tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlariga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqiramiz.

Mazkur muammoning yagona va eng adolatli yechimi – nizoni "**ikki xalq uchun ikki davlat**" tamoyili asosida hal etishdir.

Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolutsiyalari-da belgilanganidek, mustaqil davlat barpo etish huquqiga ega. Biz Tashkilotimiz doirasida bu boradagi yakdil va qat'iy pozitsiyamizni butun dunyoga e'lon qilishimiz zarur.

Hurmatli sammit qatnashchilari!

“Turkiy davr” shiori ostida o‘tayotgan bugungi sammitimizda ko‘p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarimizni yanada kengaytirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman.

**Birinchidan**, Tashkilot doirasida o‘zaro hurmat, ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash, birgalikda turli to‘siqlarni samarali yengib o‘tish bosh maqsadimizdir.

Shu munosabat bilan Turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o‘tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan “Turkiy dunyo xartiyasi”ni ishlab chiqish zarur, deb hisoblayman. Ushbu o‘ziga xos ramziy qomusni sohaning yetuk olimlari va ekspertlar ishtirokida tayyorlashni taklif qilaman.

**Ikkinchidan**, shu kunlarda Turkiy investitsiya fondi o‘z ishini boshlaydi. Davlatlarimiz o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida keyingi bosqichda Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini ham faollashtirishimiz kerak. Ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirishga tayyormiz.

**Uchinchidan**, Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot marmazini tashkil etish bo‘yicha boshlangan amaliy ishlarni to‘liq ma’qullaymiz. Kelgusida Markaz imkoniyatlaridan unumli foydالangan holda, birgalikda savdo to‘siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko‘paytirish bo‘yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur.

**To‘rtinchidan**, global logistika zanjirlari va transport yo‘laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tar-mog‘ini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Yuk tashuvlariga o‘sib borayotgan talabni qondirish maqsadida O‘rta koridor salohiyatini kengaytirish choralarini qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, qo‘srimcha ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakat-

larimiz orqali o'tadigan koridorlarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish tarafomiz.

Davlatlarimiz Temiryo'l idoralari kengashini ta'sis etishni va bu tuzilmaning direksiyasini yurtimizda joylashtirishni taklif etamiz.

**Beshinchidan**, ekologiya sohasida keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdormiz.

Qadimdan ajdodlarimiz ona tabiat bilan uyg'un va hamohang bo'lib yashaganlar. Afsuski, bugungi kunda tabiatga nisbatan iste'molchilik kayfiyati kuchayib bormoqda. Iqlim o'zgarishlari tufayli yuzaga kelayotgan turli muammolardan butun insoniyat qattiq aziyat chekmoqda. Bunday holat barchamizdan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda.

Vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumining tuzilishi bu yo'lda muhim qadam bo'lishi, shubhasiz. Bunday ta'sirchan mexanizm Tashkilotimiz faoliyati sa-maradorligini oshirishga qaratilgan rejalarimizga mosdir.

**Oltinchidan**, turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish g'oyasi texnologik taraqqiyot va ilg'or bilimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bevosita bog'liqdir.

Ijodiy fikrلaydigان, iste'dodli va shijoatli yoshlarimiz istiqbolda turkiy dunyoning yangi Renessansini barpo etishiga ishonchim komil. Bu yo'lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy kashfiyotlar va ma'naviy meros mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash o'rinniki, o'tgan asrda yashagan jadid bobolari-mizning ibratli faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish yuzasidan a'zo mamlakatlarda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "**Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari**" mavzusidagi xalqaro an-jumanda vakillaringizni faol ishtirot etishga taklif etamiz.

Shu bilan birga, yangilikka intilib yashaydigan, tashabbuskor o'g'il-qizlarni rag'batlantirish uchun O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p millatli Afg'oniston zaminida tinchlik va osoyishtalik o'matish mintaqamizda strategik barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartidir. Biroq dunyoning boshqa nuqtalarida nizo va urushlar avj olayotgan hozirgi sharoitda ushbu muammo xalqaro hamjamiyat e'tiboridan tobora chetda qolmoqda.

Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz.

Bizga mintaqaviy sheriklik va barcha qo'shnilar bilan iqtisodiy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirot etadigan, tinch va barqaror Afg'oniston kerak.

Biz ilgari surayotgan Transafg'on temiryo'lini barpo etish tashabbusi aynan mana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

O'zbekiston afg'on xalqiga bundan buyon ham zarur yordamni berib boradi. Termizdag'i logistika xabi orqali gumanitar ko'mak ko'rsatishni, ta'lim markazida esa afg'on fuqarolarini o'qitishni faol davom ettiramiz.

Qadrli do'star!

Fursatdan foydalanim, Davlat rahbarlari kengashida raislikni qabul qilib olayotgan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga ulkan zafarlar tilayman.

Bugun qabul qilinayotgan muhim hujjatlar va qarorlar, jumladan, sammit deklaratsiyasi hamda Ostona akti mamlakatlarimizning yorqin turkiy kelajak sari navbatdagi dadil qadamlari bo'lishiga ishonaman.

O‘z tarixi davomida ko‘p-ko‘p sinovlarni boshidan kechirgan va ularga birgalikda yechim topgan qardosh xalqlarimiz kelgusida ham buyuk ishlarni amalga oshirishi, shubhasiz.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Turkiy davlatlar tashkiloti  
Davlat rahbarlari kengashi  
majlisidagi nutq*

*2023-yil 3-noyabr*

---

## HAMKORLIKDA IQTISODIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT SARI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli Bosh kotib!

Anjuman ishtirokchilari!

Avvalambor, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida sizlar bilan uchrashib turganimdan behad xursandman.

O'zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Bugungi oliy darajadagi uchrashuvimiz bizning umumiylara taraqqiyot yo'lida ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirishga bo'lgan qat'iy intilishimizning yaqqol dalilidir.

Bugun ko'z o'ngimizda dunyo siyosiy arxitekturasi tom manzuda o'zgarmoqda va global qayta qurilishi sodir bo'lmoqda.

Bu murakkab jarayonlarda o'zining katta o'mniga ega bo'lgan Tashkilotimiz davlatlari birgalikda hamjihat bo'lib harakat qilishi, vujudga kelayotgan xavf-xatarlarga qarshi samarali yechimlar topishi muhimdir.

**"Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari"** shiori ostida o'tayotgan sammitimizda siz, aziz hamkasblarim bilan ko'p tomonlama aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqish va eng dolzarb masalalar bo'yicha bat afsil fikr almashamiz.

Barchangizga bugungi tadbirimizda ishtirok etayotganingiz va o'zaro manfaatlil munosabatlarimiz ravnaqiga qo'shayotgan ulkan hissangiz uchun alohida tashakkur bildiraman.

Fursatdan foydalaniib, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevni Tashkilotimizdagi muvaffaqiyatli raisligi bilan samimiyl tabriklayman.

Ozarbayjon raisligi doirasida “Yashil o‘tish va o‘zaro bog‘liqlik yili”da o‘tkazilgan qator tadbir va tashabbuslar amaliy sherkligimizni kengaytirishga salmoqli hissa qo‘shdi.

Kelgusi yilda Tashkilotimizga raislik qiladigan Eron Islom Respublikasining mintaqaviy savdoni rivojlantirish orqali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish borasidagi reja va maqsadlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilar!

Bundan roppa-rosa ikki yil oldin Ashxobod shahrida Tashkilotimizning o‘n beshinchi sammitini muvaffaqiyatli o‘tkazgan edik. Turkmanistondagi yig‘ilishimizda qabul qilingan muhim qarorlar tuzilmamiz faoliyatiga yangi nafas olib kirdi.

Tashkilotni isloh qilish va uning samaradorligini oshirish, xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, transport vazirlarimiz qabul qilgan Toshkent deklaratasiyasining muhim ahamiyatini alohida qayd etmoqchiman.

Boku shahrida Toza energiya markazini tashkil etish va mintaqaviy elektr energiyasi bozorini yaratish masalasi bo‘yicha amaliy ishlar qilinmoqda. Ekologiya sohasida yuqori darajadagi muloqot platformasi tuzildi. Turizm hamkorligini yanada kengaytirish maqsadida birinchi bor Tashkilot turoperatorlari tarmog‘i yaratildi va Xavfsiz turizmni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Qadri delegatsiyalar rahbarlari!

Tashkilotimiz a’zolarini mushtarak tarix va muqaddas islam dinimiz, boy madaniyat va o‘xhash qadriyatlar chambarchas bog‘lab turadi.

Yarim milliard aholi yashaydigan keng mintaqamiz savdo-iqtisodiy, sanoat, investitsiya va innovatsiyalar, transport sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

Tahlillarga ko‘ra, jahondagi global inqirozga qaramasdan, bizning iqtisodiyotlarimiz barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ortga qaytmas islohotlar jadal amalga oshirilayotganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. Biz iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada yuksaltirishga asosiy e'tiborni qaratyapmiz.

Yangi O'zbekistonda so'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim barobar ko'paydi. 2030-yilga qadar ushbu iqtisodiy ko'rsatkichni yana ikki barobarga oshirishni mo'ljallayapmiz. Bunga, avvalo, "yashil" iqtisodiyot va zamonaviy infratuzilmani barpo etish, xususiy sektorni rag'batlantirish va yangi ish o'rirlari yaratish, xorijiy investitsiyalarini faol jalb etish hisobidan erishish ko'zda tutilmoqda.

Bu borada xalqaro maydonda o'z ovozi va nufuziga ega Tashkilotimizning barcha a'zolari bilan samarali ishlashga tayyormiz. Zero, yaqin va yaxshi qo'shni bo'lган mamlakatlarimiz iqtisodiyotlari bir-birini to'ldira oladi. Umumiy savdo-transport koridorlari va energetika tarmoqlari esa davlatlarimizni uzviy bog'laydi. Biz yangi "o'sish nuqtalari"ni birgalikda izlab topish orqali kelgusida salmoqli natijalarga albatta erishamiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

O'zbekiston Tashkilotimizning asosiy hujjati bo'lган "Istiqbollar – 2025" ijrosini sarhisob qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Hozircha ishga solinmayotgan katta imkoniyatlarning chuqur tahlili asosida Tashkilotimizning kelajakdag'i ustuvor soha va tarmoqlarini belgilab beruvchi "**Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035**" konseptual hujjatini ishlab chiqish vaqtি keldi, deb hisoblaymiz.

Ushbu muhim hujjatda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

**Birinchidan**, o'zaro savdoni rag'batlantirish. O'tgan yili mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo ko'rsatkichi 85 milliard dollarni tashkil etdi. Bu Tashkilotga a'zo davlatlar umumiy tashqi savdosining atigi 8 foizi demakdir. Afsuski, imtiyozli savdo bitimini tu-

zish bo'yicha ko'p yillik urinishlar kutilgan samarani bermayapti. To'siqsiz savdoni shakllantirish yo'lida hali-hamon ko'plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda.

Bu holatlarni ochiq tan olishimiz va ularni ijobjiy tomonga o'zgartirish uchun vaziyatga yangicha qarash bilan yondashishimiz kerak. Shu munosabat bilan ekspertlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilishga chaqiraman.

Ushbu hujjatda tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib o'zaro savdo hajmlarini kamida ikki barobar ko'paytirish mumkin.

**Ikkinchidan**, o'zaro transport-kommunikatsiya bog'liqligini kuchaytirish. A'zo davlatlarning aksariyati dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga, Osiyo – Tinch okeani, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalarining yirik bozorlari bilan bog'laydigan va bizning hududlarimiz orqali o'tadigan transkontinental transport yo'laklari salohiyatidan to'liq foydalanishimiz zarur.

Kelgusida "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" va Transafg'on multimodal yo'llarining ishga tushirilishi barcha a'zo davlatlar manfaatlariga mos keladi.

Toshkentda 2-noyabrda bo'lib o'tgan transport vazirlarining yig'ilishida "O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya" transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatga boshqa a'zolarni ham qo'shilishga, o'zaro tarif va yig'imlarni maqbullashtirishga chaqiraman.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan yuk tashish hujjatlarini raqamlashtirdi, shuningdek, bunday loyihalar boshqa davlatlar bilan ham amalga oshirilmoqda.

Bu kabi zamonaviy tizimlarni keng joriy qilish hamda samarali muvofiqlashtirish uchun Toshkent shahrida Tashkilotning Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashabbusini bildiraman.

**Uchinchidan**, sanoat kooperatsiyasi hamda ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish, industrial xablarni shakllantirish.

Biz o'zaro investitsiyalar oqimini ko'paytirish, ularni himoya qilish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha Qo'shma harakatlar dasturini ishlab chiqib, Tashkilotimiz Kotibiyatiga taqdim etdik. Mazkur hujjatda kimyo, energetika, geologiya, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika va qurilish sohalarida yangi qo'shma loyihalarni ilgari surish maqsad qilib qo'yilgan. Bu ezgu yo'lida Tashkilotning Savdo va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish tarafдоримиз.

Kecha Toshkentda o'tgan Savdo-sanoat palatalari va ko'plab kompaniyalarimiz rahbarlari ishtirokidagi beshinchi biznes-forum xususiy sektorda katta salohiyatga ega ekanimizni yaqqol ko'rsatdi. Biz Tashkilotimiz doirasida hududlararo sanoat ko'rgazmasini tashkil etish va uning dastlabki tadbirini 2024-yilda yurtimizda o'tkazish taklifini ilgari suramiz.

**To'rtinchidan**, energetika xavfsizligini kafolatli ta'minlash. Milliy energetika strategiyalarini uyg'unlashtirish, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, "yashil" energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshmoqda.

Biz Tashkilotning energetika sohasida hamkorlik strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. 2030-yilgacha 25 gigavatt quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishni va balansimizda ularning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz. Shu yilning o'zida 2 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushiryapmiz. Shuningdek, "yashil" vodorod ishlab chiqarish sohasida ham ilk qadamlarni qo'ymoqdamiz. Ushbu

yo‘nalishlarda barcha davlatlar bilan ochiq muloqot va tajriba almashishga tayyormiz.

Hamkorlik masalalarini batafsil muhokama qilish va ishlarni tizimli asosda olib borish uchun Tashkilotimiz doirasida alohida Energetika vazirlari kengashini ta’sis etishni taklif etamiz.

**Beshinchidan**, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha aloqalarni jadallashtirish. Hozirgi vaqtida bizning davlatlarimiz bu o‘tkir muammolarning og‘ir oqibatlariga duch kelmoqda. Muzliklarning erishi, suv resurslari taqchilligi, cho‘llanish, chang bo‘ronlari, tuproq yemirilishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi jarayonlar qattiq xavotir uyg‘otmoqda.

Tuzilmamiz doirasida Ekoliya masalalari bo‘yicha yuqori darajali platforma yaratish bo‘yicha g‘oyamizni qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun tashakkur izhor etaman. Uning birinchi anjumanini 2024-yili Samarqand iqlim forumi doirasida tashkil etishga tayyormiz.

Shuningdek, kelgusi haftada yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi bajarilishini ko‘rib chiqish bo‘yicha qo‘mita yig‘ilishida vakillarингни faol ishtirok etishga chorlaymiz. Hozirgi vaqtida tobora jiddiy muammoga aylanib borayotgan qum-chang bo‘ronlariga qarshi kurashish maqsadida Samarqand deklaratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga chaqiramiz.

**Oltinchidan**, turizm sohasida hamkorlikni kuchaytirish. Yaqinda 140 dan ortiq davlatlar ishtirokida Samarqandda bo‘lib o‘tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasi mintaqamiz sayyohlik salohiyatiga butun dunyo e’tiborini jalb etish borasida tarixiy voqeа bo‘ldi.

Bugungi kunda Tashkilot makonida UNESCOning 90 ga yaqin Butunjahon merosi obyektlari joylashgan bo‘lib, mamlakatlarimizga har yili salkam 80 million xorijiy sayyoh tashrif buyurmoqda.

Transchegaraviy yo‘nalishlar tobora ommalashayotganini hisobga olib, qo‘shma turistik marshrutlarni joriy etish hamda “Ipak yo‘li” sayyohlik brendi ostida umumiy sayyohlik dasturlarini ko‘paytirishni taklif etaman.

Tashkilotimiz Kotibiyati huzurida a’zo mamlakatlarning turizm ma’muriyatlari va yetakchi ekspertlardan iborat alohida Turizm bo‘yicha maslahat qo‘mitasini tashkil etish taklifini bildirmoqchiman. Uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Tashkilotimizning turizm poytaxti deb e’lon qilingan Shahrisabz shahrida o‘tkazishga tayyormiz.

Shuningdek, a’zo davlatlarni Samarqandda ochilgan Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga chaqiramiz.

**Yettinchidan**, madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirish orqali do‘sit xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish. Har yili mamlakatlarimizda navbat bilan Madaniyat, san’at va kino haftaliklarini o‘tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo‘lga qo‘yish, fundamental ilmiy yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish aloqalarimiz rivojiga kuchli turtki bag‘ishlaydi.

Hurmatli sammit qatnashchilar!

Global tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan Yaqin Sharqdagi Falastin – Isroil urushi barchamizda katta tashvish uyg‘otmoqda. Ming affuski, bu qonli nizo oqibatida avvalo, tinch aholi vakillari, ayniqsa, ayollar, bolalar va keksalar ko‘plab qurban bo‘lmoqda. Urushning mintaqqa bo‘ylab yoyilib ketish xavfi tobora real tus olmoqda.

Qarama-qarshilikning keng ko‘lamli nizoga aylanib ketishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biz tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarni to‘xtatishga, tinch muzokaralarni boshlash, oqilona murosaga kelishga chaqiramiz.

Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolutsiyalari bilan tasdiqlangan huquqqa, ya'ni o'zining mustaqil davlatini barpo etish huquqiga ega, degan qat'iy pozitsiyamizni yana bir bor bildiramiz.

Shuningdek, bugungi sammit Tashkilotimiz a'zolaridan biri bo'lган Afg'oniston ishtirokisiz o'tayotganiga diqqatingizni qaratmoqchiman.

Asrlar davomida bizga yon qo'shni bo'lган ko'п millatli Afg'oniston xalqini bugungi murakkab muammolari qarshisida yolg'iz qoldirib bo'lmaydi. Ushbu mamlakatni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy shartidir.

Barchangizni afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni ko'paytirishga, ushbu mamlakatdagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni jamoaviy mas'uliyat va maqbul mexanizmlar asosida hal etishga chaqiraman.

Hurmatli hamkasblar!

Nutqimning yakunida alohida ta'kidlamoqchimanki, bugungi tarixiy sammit va uning natijalari Tashkilotimizni samarali va ta'sirchan tuzilmaga aylantirishga, ko'п qirrali sherikligimizni yangi marralarga olib chiqishiga ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining  
o'n oltinchi sammitidagi nutq*

2023-yil 9-noyabr

---

## O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA

Hurmatli tibbiyot xodimlari!

Avvalo, o'z hayotini el-yurt salomatligini asrashdek olivjanob ishga bag'ishlab kelayotgan siz, azizlarni qutlug' kasb bayramingiz – Tibbiyot xodimlari kuni bilan samimiy muborakbody etaman.

Biz Yangi O'zbekistonda inson qadri va manfaatlarini ta'minlashni o'z oldimizga ezgu maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bu yo'lda xalqimiz salomatligini mustahkamlash eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lishi tabiiydir.

Ayni shu maqsadda keyingi yillarda O'zbekiston sog'lqn ni saqlash tizimi tubdan isloq qilinmoqda. Sohaning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Tizimga ilg'or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda.

Ana shunday sa'y-harakatlarimiz tufayli birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bormoqda. Buning tasdig'ini shu yilning o'zida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokorlik punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Bu haqda so'z yuritganda, 8 million 600 ming nafar aholi profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 685 ming nafari ambulator, 72 ming nafari esa statsionar sharoitda sog'lomlashtirilgani, skrining tekshiruvlari orqali 167 ming nafar yurtdoshimizda yurak-qon tomir, 52 ming nafarida qandli diabet kasalligi aniqlanib,

ularning salomatligini tiklash choralari ko‘rilganini ta’kidlash lozim.

Ayniqsa, tug‘ma yurak nuqsoni bo‘lgan 2 ming nafar bolarning davlat hisobidan operatsiya qilingani yosh avlodga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishning yana bir yorqin namunasi bo‘ldi.

Sohaga davlat tibbiy sug‘urtasi va raqamlashtirish mexanizmlari bilan birga xususiy tibbiyot muassasalari faoliyati ham keng joriy etilmoqda. Shifoxonalarni zamonaviy transport va tibbiy jihozlar bilan ta’minlash darajasi keskin yaxshilanmoqda.

Aynan ana shunday o‘zgarishlar, jonkuyar shifokorlar, yuqori malakali tibbiyot mutaxassislari, hamshiralarning mashaqqatli mehnati tufayli yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari nafaqat poytaxtimiz va viloyatlar markazlarida, balki tumanlarda ham muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda va minglab bemorlar o‘z dardiga shifotopmoqda.

Soha xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ish haqini oshirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. So‘nggi 7 yilda ushbu tizimda samarali xizmat qilib kelayotgan yurtdoshlarimizdan 727 nafari Vatanimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlandi.

Bugungi bayram munosabati bilan ularning safiga yana ko‘plab tibbiyot xodimlari qo‘shilganini alohida qayd etmoqchiman. Fursatdan foydalananib, ushbu fidoyi yurtdoshlarimizni yuksak mukofotlar bilan tabriklab, barchasiga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Aziz do’stlar!

Biz “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida tibbiyot sohasida ham ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirishni reja qilganmiz. Jumladan, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, buning uchun tibbiyotga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmini 2 barobar oshirish, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo‘llari kasallikkleri bo‘yicha erta o‘limni 2,5 barobar kamay-

tirish, O'zbekistonni sil xastaligidan xoli mamlakatga aylantirish ustuvor vazifamiz bo'ladi.

Shuningdek, 350 ming nafar diabet va 1 million 500 ming nafar yurak-qon tomir kasalligi bilan og'rigan bemorlarni davolash, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etish, bemorlarni gemodializ o'rnlari bilan to'liq qamrab olish bo'yicha ham amaliy ishlarni boshlaymiz.

Aholi o'rtasida mustahkam salomatlik garovi bo'lgan sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Qadrli tibbiyot xodimlari!

Barchamiz birgalikda harakat qilib, tibbiyot sohasini chinakam xalqchil tizimga aylantirish bo'yicha oldimizda turgan ulkan vazifalarni, albatta, muvaffaqiyatli ado etamiz.

O'z qasamyodiga, kasbi va burchiga sadoqat bilan mehnat qila-yotgan, Abu Ali ibn Sinodek buyuk ajdodlarimiz an'analarining davomchilari bo'lgan siz, azizlar bundan buyon ham shu ezgu yo'lda bor bilim va tajribangizni safarbar etasiz, deb ishonaman.

Sizlarni Tibbiyot xodimlari kuni bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, g'oyat sharafli va mas'uliyatli faoliyatningizda sihat-salomatlik, yutuq va omadlar, oilaviy baxt-saodat tilayman.

2023-yil 10-noyabr

---

## “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI VA “NAVOIYURAN” DAVLAT KORXONASI JAMOALARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilgani va yurtimizda uran sanoatiga asos solinganining 65 yilligi bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan bepoyon Qizilqum bag'ridan qazib olinayotgan, dunyo miqyosida yuksak e'tirof etilayotgan oltin, tabiiy uran va boshqa nodir qazilma boyliklar mam-lakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda beqiyos strategik ahamiyatga ega ekani barchamizga yaxshi ma'lum.

Shu ma'noda, 40 dan ortiq millatga mansub qariyb 50 ming nafar yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassislar mehnat qilayotgan mazkur kombinat va 3 yil oldin uning tarkibidan ajralib chiqqan “Navoiyuran” korxonasi milliy sanoatimiz faxri, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Keyingi yillarda soha rivojiga qaratilayotgan ulkan e'tibor hamda ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar jadal joriy etilayotgani tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o'rindan 4-o'ringa ko'tarildi. “Muruntov” koni esa xalqaro reytinglarda yuqori pog'onalarini egallab kelmoqda.

Qisqa muddatda kombinatda 23 ta yirik investitsiya loyihasi, jumladan, 5, 6 va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o'mi yaratilgani diqqatga sazovordir. Ana shunday

sa'y-harakatlar natijasida bu yil oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 25 foiz, tabiiy uran 20 foiz, kumush esa 46 foizga oshganini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston uran qazib olish bo'yicha dunyoda 5-o'rinni egallab turibdi. "Navoiyuran" davlat korxonasi o'z mahsulotini yuz foiz eksportga yo'naltirmoqda.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur asbob-uskuna va jihozlar hududning o'zida ishlab chiqarilmoqda. Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yiliga o'rtacha 15 ming turdan ziyod import o'rnini bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqlaydi.

Soha uchun malakali muhandis kadrlar yetkazib berish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining moddiy-texnika bazasi va ilmiy-pedagogik salohiyati mustahkamlanmoqda. Murakkab texnologik jarayonlarni, asosan, ana shunday oliygohlarimizda ta'lim olgan azm-u shijoatli yoshlarimiz boshqarayotgani barchamizni quvontiradi.

Ishchi va xizmatchilar mehnatini rag'batlantirish, ularning mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Ko'plab konchilarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Bugungi bayram munosabati bilan yana bir guruh soha vakillari faxriy unvon, orden va medallarga sazovor bo'ldilar. Ularni ana shunday yuksak mukofotlar bilan chin dildan tabriklab, kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmatli do'stlar!

Biz "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ushbu sohada ham ko'plab ishlarni amalga oshirishni reja qilganmiz. "Oqtov" konini o'zlashtirish, ko'plab yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda uran qazib olish va qayta ishlash hajmini uch barobar ko'paytirish shular jumlasidandir.

O‘z hayotini shunday muhim sohaga bag‘ishlagan siz, azizlar jamoalaringizdagi shonli mehnat an’analarini munosib davom et-tirish, mamlakatimiz kon sanoati shuhratini yanada oshirish uchun bundan buyon ham katta kuch-g‘ayrat bilan mehnat qilasizlar, deb ishonaman.

Sizlarni bugungi qutlug‘ ayyom bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, oliyjanob faoliyatizingizda ulkan zafarlar tilayman.

*2023-yil 17-noyabr*

---

## **SPEKA – MINTAQAVIY HAMKORLIKNING SAMARALI MEXANIZMI**

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi – SPEKAning ilk sammitini tashkil etish tashabbusi va ko‘rsatilayotgan samimiy mehmondo‘stlik uchun Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyev nomiga bildirilayotgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Shuni alohida aytib o‘tmoqchimanki, Ozarbayjonning samarali raisligida Dasturimiz doirasidagi mintaqaviy hamkorligimiz mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bu yil Jenevada o‘tgan vazirlar uchrashuvi, shu kunlarda Bokuda bo‘layotgan “SPEKA haftaligi” va albatta, bugungi tarihiy sammitimiz keng mintaqamizni global ahamiyatga molik o‘zaro bog‘liqlik markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, hurmatli hamkasblarimni, Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuqori martabali vakillarini va tadbirning baracha ishtirokchilarini qo‘shma Dasturimiz ta’sis etilganining 25 yilli-gi bilan chin dildan tabriklayman.

Kuni kecha SPEKAning ushbu qutlug‘ sanasiga bag‘ishlangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining alohida rezolutsiyasi qabul qilinganini katta mammuniyat bilan ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilar!

Toshkentda asos solingan mazkur muhim platforma Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy sheriklikning

amaliy mexanizmi sifatida o‘zining nihoyatda zarurligini yaqqol ko‘rsatdi. Uning doirasida tijorat, kommunikatsiya, transport va logistika, raqamlashtirish, energetika, suv resurslari, ekologiya, gender tengligi va boshqa sohalarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 400 dan ortiq loyihalar hayotga tatbiq etilgani, savdoni soddalashtirish va innovatsion rivojlanish strategiyalari qabul qilingani ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik va ishonch muhiti kuchayib, integratsiya chuqurlashayotganini katta mamnuniyat bilan ta’kidlayman. Biz muhtaram hamkasblarimiz bilan birgalikda qanday qiyin masala va murakkab muammolarni samarali hal qilganimizni barchangiz yaxshi bilasiz.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya va Vengriya bilan sanoat kooperatsiyasi va infratuzilma bo‘yicha yirik dasturlarni amalga oshirmoqdamiz. Qo‘shma investitsiya kompaniyalarini tashkil etib, moliyalashtirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘ydik. Chegara hududlarida zamonaviy savdo-logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalar barpo etilmoqda.

Shu o‘rinda hurmatli Ilhom Haydarovich rahbarligida tarixiy adolat tiklangan va ozod etilgan Ozarbayjon hududlarida olib borilayotgan misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlarini alohida e’tirof etmoqchiman.

Albatta, bu xayrli va keng ko‘lamli o‘zgarishlar mintaqaviy hamkorligimizni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochishiga ishonaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hozirgi global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mamlakatlari-  
miz qanday og‘ir xavf-xatarlarga duch kelayotganini juda yaxshi  
his qilib turibmiz. Zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish  
mintaqaviy hamkorligimizni yanada kuchaytirishni, bir-birimizni  
har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda.

Bu borada quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan**, O‘zbekiston SPEKA dasturini iqtisodiy hamkorligimizni kengaytirish borasida ochiq va yanada ta’sirchan mintaqaviy platformaga aylantirish tarafidir.

Shu maqsadda sherikligimizning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ishchi guruhlar faoliyati samaradorligini keskin oshirish, Dasturimizning institutsional asoslarini mustahkamlash vaqtি keldi, deb hisoblayman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda ESKATO ekspertlari bilan birgalikda “SPEKA–2030” taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etamiz.

**Ikkinchidan**, dasturimiz doirasida Mintaqaviy savdoni rag‘balantirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

So‘z, eng avvalo, mavjud to‘sqliarni bartaraf etish va eksport-import operatsiyalarini texnik tartibga solish choralarini uyg‘unlashtirish borasida jahondagi eng ilg‘or tajriba va amaliyotlarni joriy etish haqida ketmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, davlatlarimiz o‘zaro savdo aylanmasini hozirgi 52 milliarddan 2030-yilga borib 100 milliard dollarga, uning tarkibidagi sanoat mahsulotlari ulushini esa 70 foizga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

**Uchinchidan**, hamkasblarim ta’kidlaganidek, SPEKAning Maqsadli jamg‘armasini tashkil etishni tezlashtirish va kelgusi yilning o‘zida uning amaliy ishini yo‘lga qo‘yish kerak.

Jamg‘arma faoliyati, birinchi navbatda, “yashil” iqtisodiyot, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, logistika, muqobil energetika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaratish va boshqa sohalardagi yirik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Jamg'arma xalqaro taraqqiyot institutlari bilan faol ishlashi, ustuvor loyiha va dasturlarga moliyaviy resurslar va grant mablag'larini eng maqbul shartlarda jalg etishi lozim.

O'zbekiston ham uni shakllantirish uchun o'z moliyaviy hissasini qo'shishga tayyor.

**To'rtinchidan**, bugun qabul qilinayotgan Transkaspiy multimodal yo'lagi bo'yicha ma'lumot va hujjatlar almashish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan "yo'l xaritasi"ni hayotga to'liq ttabiq etish tarafdomiz.

Bu borada kelgusi yilning boshida O'zbekistonda mamlakatlarimiz transport vazirlari, logistika kompaniyalari, yuk tashuvchilari, yirik sanoat korxonalari rahbarlari hamda sohaning yetakchi ekspertlari ishtirokida "Raqamli transport marshrutlari" xalqaro forumini o'tkazishga tayyormiz.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan institutlari bilan mintaqamizda transport bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha yirik loyihalarni faol ilgari surish niyatidamiz.

**Beshinchidan**, oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi maxsus ishchi guruhini tuzishni va uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Samarqandda o'tkazishni taklif etamiz.

Ushbu tadbirning kun tartibidan yetakchi agrosanoat korxonalarimiz o'rtaida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish, ilmiy-texnologik almashuvlarni rag'batlantirish va resurslarni tejaydigan ilg'or yechimlarni joriy etish, "ekspress" yo'laklarni ishga tushirish kabi masalalar asosiy o'rinn egallaydi.

**Oltinchidan**, suv, energetika, ekologiya va qishloq xo'jaligi sohalari o'zaro uzviy bog'liq ekanidan kelib chiqib, SPEKAning keng ko'lamli yangi konseptual hujjatini – ko'p tomonlama "Yashil strategiyasi"ni qabul qilish vaqt keldi, deb hisoblaymiz.

Tabiiyki, bunday o'tkir va tobora avj olib borayotgan muammo-larni mintaqamizdag'i hech bir davlat yakka holda o'z kuchi bilan hal qila olmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tahlillariga ko'ra, suv taqchilligi tufayli mintaqamiz davlatlari har yili qariyb 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmoqda. Bunday murakkab jarayon yanada kuchaysa, muammolar kompleks hal etilmasa, kelgusida aholi jon boshiga suv bilan ta'minlash ko'rsatkichi 25 foizga, hosildorlik esa 40 foizga qisqarib ketishi mumkin.

**Yettinchidan**, SPEKA doirasida ishbilarmon xotin-qizlarning faol tashabbuslarini va aniq rejalarini doimiy va tizimli rag'batlan-tirish maqsadida SPEKA Tadbirkor ayollarini kengashini tuzish bo'yicha taklifimizni ko'rib chiqishingizni so'rayman.

Sammitimiz arafasida o'tgan biznes uchrashuvlari bunday mulo-qotlar do'st xalqlarimiz uchun naqadar muhim ekanini yana bir bor isbotladi.

Shuningdek, Kengash doirasida mamlakatlarimiz ravnaqi va iqtisodiy taraqqiyotiga, umumiy hamkorligimizga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan ayollarni "SPEKA e'tirofi" xalqaro mukofoti bilan taqdirlashni taklif etaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Ma'lum sabablarga ko'ra, bugungi uchrashuvimiz Markaziy Osiyoning ajralmas qismi bo'lgan va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblangan Afg'oniston davlati vakillari ishtirokisiz o'tmoqda.

Barcha hamkasblarimga, Yevropa iqtisodiy komissiyasi va ESKATO rahbariyatiga murojaat etib, ularni SPEKA dasturi doirasida afg'on tomoni bilan ishchi aloqalarni o'rnatish va hamkorlikni qayta tiklashga chaqiraman.

Ushbu mamlakatni o'z muammolari bilan yakka qoldirish mumkin emas. Amaldagi hukumat bilan xalqaro muloqot o'rnatilmasa, hech qanday ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Hurmatli hamkasblar!

Fursatdan foydalanib, ikki kun muqaddam Parijda qabul qilin-gan, UNESCOning Bosh Assambleyasi sessiyasini ilk bor Markaziy Osiyoda – qadimiy Samarqand shahrida 2025-yilda o’tkazish bo‘yi-cha tarixiy qarorni qo‘llab-quvvatlaganining uchun sizlarga alohida tashakkur izhor etaman.

Ushbu muhim xalqaro anjuman doirasida mintaqamiz xalqlari-ning buyuk sivilizatsiya salohiyatini butun jahonga to‘liq namoyish etish uchun birgalikda qo‘shma tadbirlar rejasini ishlab chiqishni taklif etaman.

So‘zimning yakunida O‘zbekiston xalqlarimizning barqaror ta-raqqiyoti va farovonligini ta’minlash maqsadida Birlashgan Millat-lar Tashkiloti mintaqaviy dasturi doirasidagi ko‘p tomonlama she-riklikka sodiqligini yana bir bor tasdiqlayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Birlashgan Millatlar Tashkilotining  
Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus  
dasturi – SPEKA sammitidagi nutq*

2023-yil 24-noyabr

## **BARQAROR, FAROVON VA XAVFSIZ KELAJAK YO'LIDA**

Hurmatli delegatsiya rahbarlari!

Bugungi tarixiy sammitga taklif etilganimiz hamda anjuman-ning yuqori darajada tashkil qilingani uchun Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayon A'lo Hazratlari-ga bildirilgan samimiy minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Biz Amirliklarning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi global tashabbuslari va "yashil" taraqqiyotga qo'shayotgan katta hissasini olqishlaymiz.

Fursatdan foydalanib, Birlashgan Arab Amirliklari xalqini Milliy bayrami bilan chin dildan qutlayman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tah-didga aylanib ulgurdi.

Bu xavf-xatarlar, hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda.

Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rta-cha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi.

Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi

muammolar tobora avj olmoqda. Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

“Yashil” iqtisodiyotga o’tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O’zbekistonning ustuvor strategik vazifasidir. So’nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko‘paydi.

Biz 2030-yilga borib 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini barpo etamiz. “Yashil” vodorod ishlab chiqarish bo‘yicha ilk amaliy qadamlarni tashladik. “Yashil makon” tashabbusi doirasida mamlakatimizda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million hektar maydonda o‘rmonlar barpo etdik. Biz Iqlim o‘zgarishiga qarshi faqat birdamlik va keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kurashishimiz mumkin.

Bu borada quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman.

**Birinchidan**, Parij shartnomasi doirasida Iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmni tezroq kelishish tarafborimiz.

Biz Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasini ishlab chiqmoqdamiz. Kecha “Yo‘qotish va zararlar” jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan muhim qarorni yuksak baholaymiz.

**Ikkinchidan**, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o’tish adolatli, shaffof va inkluziv bo‘lishi zarur.

Bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari, albatta, inobatga olinishi shart. Bu muammoning “Katta yettilik” va “Katta yigirmalik” formatlarida doimiy ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

**Uchinchidan**, biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolutsiyasi asosida Orolbo‘yi hududini ekologik ofat zonasidan “innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirmoqchimiz.

Bu yerda Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini yaratishda yaqin hamkorlikka taklif etaman.

**To‘rtinchidan**, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim.

Toshkentdagи “Yashil universitet” negizidagi “Iqlim ilmiy forumi”da davlatlaringiz yetakchi olim va ekspertlarini ishtirok etishga chaqiraman.

Yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari Forum kun tartibidan joy oladi, deb ishonaman.

**Beshinchidan**, BMT bilan 2024-yili O‘zbekistonda “Iqlim miqratsiyasi” konferensiyasini o‘tkazish niyatidamiz.

Xalqaro mehnat tashkiloti bilan “Yashil” bandlik dasturini ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etishni taklif qilaman.

COP Yoshlar konferensiyasini mamlakatimizda yuqori darajada tashkil etishga tayyormiz.

Hurmatli do‘sstar!

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha umum-bashariy g‘oyalarga doimo sodiqdir.

Bu ezgu maqsadda kelgusi yili Samarqand xalqaro iqlim forumi o‘tkazish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining alohida rezolutsiyasini qabul qilish tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlashga chaqiraman.

Ishonchim komil, bugungi sammitimiz sayyoramizning yanda barqaror, farovon va xavfsiz kelajagini ta’minalash yo‘lida do‘sst xalqlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Birlashgan Millatlar Tashkilotining  
Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP28)dagи nutq*

2023-yil 1-dekabr

---

## **ASOSIY QONUNIMIZ – KENG KO‘LAMLI ISLOHOTLARIMIZNING MUSTAHKAM HUQUQIY POYDEVORI**

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni **8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni** bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbod etaman.

Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning jonajon O‘zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Albatta, bu yilgi bayram ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mammakatimiz rivojida alohida ma’no-mazmunga ega. Bu, avvalo, shu yil **30-aprelda** milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilingani bilan bog‘liq, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Hech shubhasiz, tom ma’noda xalqchil qomus bo‘lgan **Asosiy qonunimiz** Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda **O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoziy davlat** ekani qat’iy belgilab qo‘yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga yetishda Asosiy qonunimizda muhrlangan barcha qoida va tamoyillarni amalga

oshirmoqdamiz. Jamiyatimizda Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash, **davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda** yo'lga qo'yishning ahamiyatini chuqur anglagan holda, bu borada tizimli ishlarni boshladik. Xususan, Asosiy qonunimizdan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, qisqa muddatda **30 dan ziyod** qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilganini ta'kidlash lozim.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyili – bu barqaror taraqqiyotning asosiy mezoni. So'nggi yillarda barcha islohotlarimizni ayni shu tamoyil asosida amalga oshirdik.

Yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi oxirgi 6 yilda **1,5 martadan** ortiq, tadbirkorlar soni **2 barobar** va sanoatdagi o'sish **40 foizdan** ziyod oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, joriy yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lar **134 trillion so'mni** tashkil etib, **2016-yilga** nisbatan **5,6 barobar** ko'paydi.

Keng ko'lamli va tizimli islohotlarimiz natijalari xalqaro maydonda ham keng e'tirof etilmoqda. Jumladan, **O'zbekiston Korrupsiyaga murosasiz munosabat bo'yicha xalqaro indeksda** 32 pog'onaga, Matbuot erkinligi indeksida 28 pog'onaga, **Huquq ustuvorligi indeksida** 13 pog'onaga ko'tarildi.

Aziz do'stlar!

Biz inson qadr-qimmati va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha boshlagan islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yana-da qat'iy davom ettiramiz. Xalqimizning xohish-irodasiga binoan **Asosiy qonunimizda o'z aksini topgan tamoyillarni to'liq ro'yobga chiqarishimiz va hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz** lozim.

Shu munosabat bilan oldimizda turgan eng muhim ustuvor vazifalarni qayd etmoqchiman.

**Birinchidan**, Konstitutsiyamizda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir, deyilgan. Ana shu qoidadan kelib chiqib, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlarimiz izchil davom ettiriladi.

**Ikkinchidan**, Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jahalarida to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita qo‘llash amaliyatiga o‘tishimiz zarur. Shundagina xalqimiz Asosiy qonunimizning hayotbaxsh kuchi va ta’sirini teran his etadi.

Bu borada barcha davlat idoralari, jumladan, sudlar faoliyatida konstitutsiyaviy normalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llashni joriy etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘riladi.

**Uchinchidan**, sud-huquq islohotlari yangi konstitutsiyaviy makkonga uyg‘unlashtiriladi. Bu jarayonda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

**To‘rtinchidan**, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashda mutanosiblikni ta’minalash bo‘yicha konstitutsiyaviy prinsipni ro‘yobga chiqarish maqsadida qonun hujjalardagi 150 dan ortiq ana shunday choralar to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi. Jumladan, ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va jazo turlarini o‘zgartirish, fuqaroviylar qilishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshiriladi.

**Beshinchidan**, Konstitutsiyamizda qat’iy belgilab qo‘yilganidek, insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz bo‘lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarni qaratilgan islohotlarni joriy etishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshiriladi.

Ushbu yo‘nalishda asosiy e’tiborimiz bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etish-

ga, shuningdek, **Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmani va boshqa inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi.**

Oltinchidan, barcha islohotlarimizda inson va uning manfaatlari markaziy o'rinda turishi va xalqimiz farovonligi hamda qulay hayot kechirishini ta'minlash davlat organlari uchun bosh maqsad bo'lishi lozim. So'nggi yillarda shu maqsadda **300 ga** yaqin davlat xizmatlari to'liq raqamlashtirildi va aholiga **50 milliondan** ortiq xizmatlar ko'rsatildi.

Shu bois fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda mavjud byurokratik to'siqlarni keskin qisqartirish hamda ushbu jarayonlardagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirishimiz kerak.

**Yettinchidan**, biz "**Yangi O'zbekiston – ma'rifiy jamiyat**" konsepsiyasи asosida konstitutsiyaviy ta'lif masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Parlament tomonidan **Konstitutsiyani o'qib-o'rganish bo'yicha Milliy faoliyat** dasturi qabul qilindi. Asosiy qonunimizni o'rganishni bolalar bog'chasidan boshlash, barcha darajadagi ta'lif muassasalari, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, davlat xizmatchilari ushbu jarayonga to'liq jalb etilishi lozim. Shuning uchun **davlat xizmatiga ishga kirishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihonlar o'tkazish tizimini** amalda tatbiq etishimiz zarur.

**Sakkizinchidan**, Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlashda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu masalada fuqarolik jamiyatni institutlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor beramiz. Xususan, so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarning soni qariyb **40 foizga** oshdi va ularni qo'llab-quvvatlashga **700 milliard** so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz lozim hamda nodav-

lat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha aniq amaliy choralarmi ko'rishda davom etamiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Dunyoning turli mintaqalarida **ziddiyat** va **qarama-qarshiliklar**, **qurolli to'qnashuvlar** tobora avj olib bormoqda. Oldimizda yangi-yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Hozirgi o'ta murakkab va tahlikali vaziyatda barchamiz yanada birlashishimiz kerak. Tangan yo'limizdan qat'iy olg'a borishimiz zarurligini asrlar davomida ko'plab og'ir sinov va mashaqqatlardan munosib o'tgan mard va donishmand xalqimiz, albatta, yaxshi tushunadi.

Aminmanki, O'zbekiston Respublikasining **yangilangan Konstitutsiyasi** biz uchun bu yo'lda ulkan ishonch, kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Biz Asosiy qonunimizga tayangan holda, mana shunday noyob Konstitutsiyamizning **asosiy ijodkori bo'lgan ko'p millatli**, bag'rikeng va oliyjanob xalqimiz bilan birga ulkan maqsadlarimizga, albatta, yetamiz!

**Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!**

Siz, aziz vatandoshlarimni Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, hammangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo'lsin!

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
kuni munosabati bilan yo'llangan tabrik*

2023-yil 7-dekabr

---

## O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatal dehqon va fermerlar, qishloq xo'jaligi xodimlari!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlar orqali o'z hayotini qishloq xo'jaligi sohasiga bag'ishlagan barcha zahmatkash insonlarni, butun xalqimizni qutlug' bayram – **Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni** bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, hozirgi o'ta murakkab iqlim sharoitida ko'plab sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan, yerdan mo'l hosil yetishtirish – bu chinakam jasorat va matonat namunasidir.

Xalqimiz sizdek mirishkor dehqon va fermerlar, mohir suvchi va irrigatorlar, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan mexanizator va agronomlar, tajribali chorvador va pillakorlar, jonkuyar olim va tad-qiqotchilar, klaster xodimlari timsolida ana shunday fidoyi insonlarni ko'radi va el-yurt dasturxonini to'kin qilish yo'lidagi sharafli va olivjanob mehnatingizni yuksak qadrlaydi.

Aynan sizlarning sa'y-harakatlaringiz bilan qadimiy an'analarga ega bo'lgan o'zbek dehqonchilik maktabi rivojlanmoqda, agrar soha taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buning tasdig'ini bu yil mamlakatimizda ilk bor 8 million 200 ming tonna g'alla, 3 million 800 ming tonna paxta, 15 million tonnadan ortiq sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 26 ming tonna pilla yetishtirilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

**Ana shunday fidokorona mehnat va ulkan natijalar uchun sizlarga el-yurtimiz nomidan har qancha tahsin va tasannolar aysak arziydi, albatta.**

Aziz do'stlar!

Xabaringiz bor, keyingi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizda asosiy e'tiborni suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish, xo'jalik va korxonalarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng muhimi, dehqon va fermerlarning og'irini yengil qilishga qaratmoqdamiz. Shu maqsadda 800 dan ziyod agroklasterlar tashkil etildi. Bugungi kunda paxta va g'allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizdan ortig'i aynan ular tomonidan yetishtirilmoqda.

Bu yil dala mehnatkashlariga 10 ming 500 dan ortiq yuqori unumli texnika va agregatlar yetkazib berildi. Sohaga raqamlash-tirish jarayonlari, tomchilatib sug'orish texnologiyalari, innovatsiyalar jadal kirib bormoqda.

Cho'llanish, yerlarning sho'rланishi va degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproq unumdorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kungacha 500 ming hektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilib, 3 milliard kub metr suv iqtisod qilingani va qariyb 1 million hektar yerning suv ta'minoti yaxshilangani ana shunday sa'y-harakatlarimiz natijasidir. Joriy yilda qo'shimcha ravishda 100 ming hektar yer foydalanishga kiritilib, oziq-ovqat ekinlari ekilgani, mevali bog' va tokzorlar barpo etilgani yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sohadagi ana shunday o'zgarishlar jarayonida aholi daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda oxirgi ikki yilda 200 ming hektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, 670 ming nafar yurtdoshimizga tanlov asosida berildi. Nati-jada 2 milliondan ortiq doimiy va mavsumiy ish o'rirlari yaratilib, qo'shimcha 3 million tonna mahsulot yetishtirildi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida** barcha sohalar qatori qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ham muhim vazifalarni belgilab oldik. Jumladan, resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot tannarxini 30–35 foizga tushirish, suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlarni 1 million 500 ming gektarga yetkazish, sifatli va serhosil navlarni, zotdor chorva naslini ko‘paytirishga, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Biz ana shunday mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirishda sizlar kabi katta bilim va tajribaga ega, mirishkor va omilkor insonlariga tayanamiz.

O‘z navbatida, davlatimiz va jamiyatimiz sohani yanada ravnaq toptirish, sizlarning sharaflı mehnatingizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qishloq ahlining hayotini obod va farovon qilish uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etadi.

Siz, azizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor qutlab, jonajon yurtimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish yo‘lidagi ezgu faoliyattingizda ulkan yutuqlar tilayman.

Xonadonlaringizni xursandchilik, tinchlik-xotirjamlik va fayz-u baraka hech qachon tark etmasin!

Doimo sog‘-omon bo‘ling, azizlar!

2023-yil 9-dekabr

---

## **“JADIDLAR: MILLIY O‘ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK G‘OYALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Qadrli mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni o‘tgan asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun muslimmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadidchilik harakatini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro anjumanning ochilishi bilan chin qalbdan tabriklayman.

Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

Bugungi anjumanimizga tashrif buyurgan nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillariga, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlarga ushbu anjumanni tashkil etish tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaganliklari uchun samimiyl tashakkur bildiraman.

Aziz do‘srlar!

Dunyoning bir qator mamlakatlarida o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasi-

ning shakllanishi va taraqqiyotiga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shtan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroficha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renaissance ni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega.

Barchamizga ayonki, “**Tilda, fikrda, ishda birlik**” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallahsha, deb bildilar.

Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnal-lar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Afsuski, o‘sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishga yo‘l bermadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir.

Shu bois xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Yurtimizda ushbu yo'nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31-avgust – Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

"Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo'limlari faoliyat olib bormoqda.

Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda.

Bu murakkab davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, "Tarixning noma'lum sahifalari", "Qatag'on qurbanlari" nomli ko'p jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiylar, ko'rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o'tkazilmoqda.

Atoqli ma'rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta'lim muassasalari, muzeylar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda.

Keyingi yillarda mustabid tuzum qatag'oniga uchragan 1030 dan ziyod vatandoshimiz nomi O'zbekiston Oliy sudi tomonidan oqlangan tarixiy adolatni tiklash yo'lidagi yangi qadam bo'ldi.

Ayni vaqtida yurtimizda har yili avgust oyini "Qatag'on qurbanlarini yod etish oyi" sifatida o'tkazish, fidoyi vatandoshla-

rimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadon-larga yodgorlik lavhalari o'rnatish, ularning vorislari hamda ya-qin kishilariga hurmat-e'tibor ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Mahalla idoralarida "Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari" va "Mahalla xotira kitoblari"ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag'on qurboni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to'plam tayyorlash rejalashtirilgan.

Ushbu muhim mavzuda arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun maqsadli grantlar e'lon qilish, yangi badiiy va publitsistik asarlar yaratish, xorijiy ilm-fan markazlari, fondlar va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish choralar ko'rilmoxda.

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Fursatdan foydalanib, taniqli tarixchi olim, AQSHdagi Michigan universiteti professori, vatandoshimiz Temur Xo'ja o'g'liga mamlakatimiz tarixi, jumladan, jadidlar merosi bilan bog'liq no-yob hujjatlarni O'zbekistonga taqdim etayotgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Bugungi nufuzli anjuman har birimizni ma'naviy uyg'oqlik va ogohlikka chorlab, qalblarimizda ulug' ajdodlarimizga xos azm-u shijoat tuyg'ularini yuksaltirishga, xalqlarimiz va davlatlari-

miz o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va qardoshlik ruhini, ilmiy-madaniy aloqalarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Siz, muhtaram anjuman ishtirokchilariga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

*2023-yil 11-dekabr*

---

## O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI JAMOASIGA

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli ilm-fan sohasi vakillari!

Avvalo, siz, azizlarni – zahmatkash olim va akademiklar, iqtidordi – tadqiqotchilar, doktorant hamda aspirantlarni, yurtimizdag'i barcha ilmiy xodimlarni bugungi qutlug' sana – O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganining 80 yilligi bilan chin qalbimdan samimi muborakbod etaman.

Ulug' alloma Mahmud Koshg'ariyning “**Olimning yostig'i toshdandir**”, degan so'zlarida ilm ahli izlanib, mashaqqat chekib bo'lsa-da, doimo odamlarga nur ularshib yashaydi, degan hikmat mujassam ekanini sizlar, albatta, yaxshi tushunasiz.

Biz sizlarning timsolingizda bamisoli igna bilan quduq qazib, yangi tadqiqot va ishlanmalar yaratayotgan, Yangi O'zbekistonning ilmiy-intellektual salohiyatini yuksaltirib kelayotgan ana shunday fidoyi insonlarni ko'ramiz.

Ushbu qutlug' ayyomda 80 yil mobaynida g'oyat murakkab va sharafli yo'lni bosib o'tgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi yurtimizda yuzlab atoqli olim va akademiklarni tarbiyalab, ilm-fan sohalari bo'yicha nufuzli ilmiy maktablar yaratishga katta hissa qo'shganini minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Mustaqillik davrida, ayniqsa, keyingi yillarda sizlar ana shunday yutuqlarni buyuk ajdodlarimiz asos solgan shonli an'analarga uyg'un holda boyitib, mamlakatimizda ilm-fan rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqdasiz.

Akademiya tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, uning tarkibida yangi ilmiy tashkilotlar ochilib, tizimdag'i muassasalar soni qariyb 1,5 barobar ko'paydi. Ularni to'g'ridan to'g'ri davlat budgetidan moliyalashtirish tartibi yo'lga qo'yildi.

Yetakchi olimlar, iste'dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash, jamiyatda ilm-fan namoyandalarining obro'-e'tibori va nufuzini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Soha vakillarining ish haqi hamda doktorantlarning stipendiyasi 3 barobar, akademiklarning gonorari 2 martadan ziyod oshirilgani, ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlarning maoshiga 60 foizgacha ustama haq to'lash tizimi joriy etilgani buni tasdiqlaydi.

Fanlar akademiyasi a'zolarining ijtimoiy-maishiy sharoitini yaxshilash, sog'lig'ini tiklash bo'yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tizimda faoliyat ko'rsatayotgan tadqiqotchilar uchun imtiyozli asosda kvartiralar ajratildi, oilali yosh doktorantlar bepul uy-joylar bilan ta'minlandi.

Akademianing nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlardagi ilmiy markazlar bilan hamkorligi kuchayib, ular bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami ikki-uch barobar kengaydi.

Stajor-tadqiqotchilik instituti qayta tiklanib, iste'dodli yosh tadqiqotchilarni tayyorlash sifati yaxshilandi. Hozirgi paytda O'zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan 30 mingdan ortiq tadqiqotchilarning yarmidan ortig'ini aynan yoshlar tashkil etayotgani sohaning kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beradi.

Aziz yurtdoshlar!

Ma'lumki, milliy tariximizda yorqin iz qoldirgan birinchi va ikkinchi Renessanslar zamirida, avvalo, ilm-fan yutuqlari mujassamdir. Bugun biz barpo etayotgan Uchinchi Renessans poydevori ham,

hech shubhasiz, inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya va yangi kashfiyotlar asosida bunyod qilinadi.

Shu bois “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ilmiy va innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmalar yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarni belgilab oldik. Xususan, ilm-fanga yo‘naltiriladigan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2025-yilga qadar 6 marta, 2030-yilgacha esa 10 marta oshirishni rejalashtirganmiz.

Bunday strategik vazifalarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, sizlar kabi ilm-fan namoyandalarining ulkan salohiyatiga tayanamiz. Biz yurtimizdagi barcha olim va tadqiqotchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ilmiy muassasalarining moddiy-teknik bazasini yanada mustahkamlash uchun bundan buyon ham zarur kuch va imkoniyatlarni ishga solamiz.

Muhtaram bayram ishtirokchilar!

Sizlarni, sizlarning timsolingizda mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha yurdoshlarimizni bugungi quvonchli ayyom bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

G‘oyat sharaflи va mas’uliyatli vazifalarni ado etishda sizlarga kuch-g‘ayrat, mustahkam salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuq va omadlar tilayman.

*2023-yil 12-dekabr*

---

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HAR BIR INSON HAMDA DEMOKRATIK JAMIYAT VA DAVLATNING MUQADDAS BURCHIDIR**

Hurmatli Amir A'lo Hazratlari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Bugun azim Toshkent shahrida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimida sizlarni ko'rib turganimdan behad xursandman.

Yangi O'zbekiston zaminiga xush kelibsiz, aziz mehmonlar!

Avvalambor, ushbu tantanali tadbirni yurtimizda o'tkazish bo'yicha takliflari va yaqindan ko'rsatgan ko'maklari uchun mazkur nufuzli mukofot asoschisi, qadrli birodarim Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy A'lo Hazratlariga hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasiga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Fursatdan foydalanib, anjumanda ishtirok etayotgan qatarlik do'stlarimizni va ular siyemosida ushbu mamlakat xalqini kecha keng nishonlangan Mustaqillik bayrami bilan samimiy muborakbod etaman.

Ta'kidlash o'rinniki, Amir A'lo Hazratlarining oqilona rahbarligi ostida so'nggi yillarda Qatar Davlati yangilanish ruhi bilan yashamoqda, mamlakatda katta o'zgarishlar amalga oshirilayapti, olamshumul va buyuk yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Bunga betakror Dohaga tashrifim chog'ida o'zim shaxsan amin bo'ldim.

Yuksak saviyada o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon championati, Kam rivojlangan davlatlar bo'yicha xalqaro konferensiya va "Eks-

po Doha – 2023” butunjahon ko‘rgazmasi, ko‘plab xalqaro tashabbuslar Qatarning global hamkorlik va diplomatiya markaziga aylanib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu o‘rinda, davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar bizning faol muloqotlarimiz natijasida mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida mammuniyat bilan qayd etmoqchiman. Biz birgalikda katta loyihalarni boshladik. Bugungi tadbir aynan yurtimizda o‘tkazilayotgani esa maqsadlarimiz uyg‘un va hamohang ekanining yorqin ramziy ifodasidir.

**Hurmatli anjuman ishtirokchilari!**

Albatta, shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida global mukofotning ta’sis etilgani va uni topshirishga bag‘ishlangan marosimlar barcha qit’alarda o‘tkazib kelinayotgani yuksak e’tirofga sazovordir.

Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir.

Ushbu nufuzli mukofot orqali korrupsiyaga qarshi kurashishga o‘zining munosib hissasini qo‘shayotgan jahondagi eng faol shaxslarning e’tirof etilishi bundan roppa-rosa 20 yil avval qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi talablarini hayotga izchil va to‘liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

**Hurmatli xonimlar va janoblar!**

Bashariyat tarixiga nazar solsak, korrupsiya illati, hatto eng qudratli va eng kuchli davatlarni ham jar yoqasiga olib kelganiga va to‘liq parokanda qilganiga guvoh bo‘lamiz.

Korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdiddir

va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejalarimizga ham jiddiy putur yetkazadi.

Tahlillarga ko'ra, hozirda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda. Ammo men bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rيلayotgan real zararning aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi, deb hisoblayman. Eng yomoni – jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamin hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

Mazkur o'tkir muammoning oqibatlarini chuqur anglagan holda, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqdamiz.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy va institutsional islohotlarni tizimli amalga oshirmoqdamiz. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunni qabul qilib, maxsus vakolatli Agentlikni tashkil etdik. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni amaliyotga keng joriy etyapmiz. Xususan, barcha davlat idoralarida komplaens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi.

O'zbekiston 2021-yilda Xalqaro Ochiq ma'lumotlar xartiyasiiga a'zo bo'ldi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlari, boshqa ko'plab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda. G'arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog'ining Kotibiya vazifasini bajarmoqda.

Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksilkorrupsiya forumi o'tkazib kelinmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimiz "Transparency International" indeksida 42 pog'onaga ko'tarildi va bu borada mintaqamizda eng

yuqori o'rinni egallamoqda. 2030-yilga qadar mazkur reytingdagi o'rnimizni yana 50 pog'onaga yaxshilash maqsadini ko'zlaganmiz. "Open Data Inventory" reytingida esa joriy yilda 30-o'runga ko'tarildik. Ochiq ma'lumotlar manbalari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rindan joy olgan.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Demokratik islohotlar ortga qaytmas tus olgan Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ham katta reja va vazifalarni o'z oldimizga qo'yganmiz.

Bu mas'uliyatli va murosasiz kurash yo'lida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi va barcha xalqaro hamkorlarimiz bilan birgalikda bor kuchimizni safarbar etishga tayyormiz.

**Birinchidan**, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etamiz. Davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida urg'u beramiz.

**Ikkinchidan**, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi mintaqaviy va global tashabbus va yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlaymiz va ularda faol qatnashamiz. Bu borada o'tgan oyda Toshkentda ishga tushgan Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining Mintaqaviy platformasidan keng foydalanmoqchimiz.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarini faol jalg etgan holda, o'zaro tajriba almashish va muloqotlarni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida Korrupsiya muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etishni taklif etaman.

**Uchinchidan**, biz Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining xorijiy turdosh muassasalar bilan yaqin hamkorligini kuchaytirish orqali uning salohiyat va imkoniyatlarini yanada oshiramiz. Eng ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan yangi mexanizmlar tatbiq qilina-

di, jumladan, korrupsiya holatlari bo'yicha "dastlabki o'rganish" – korruption surishtiruv instituti joriy etiladi.

**To'rtinchidan**, ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifa-mizdir. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiya-ga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O'zbekistonda keng joriy etishdan manfaatdormiz.

**Beshinchidan**, korrupsiya qarshi kurashishdek murakkab jarayonlarda eng oldingi saflarda borayotgan ommaviy axborot vositalarining o'rnini alohida qadrlaymiz.

Shu ma'noda, bizning korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha jurnalistlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish va ular ta'sirini yanada oshirish uchun Global media forumni o'tkazish taklifimizni sizlar qo'llab-quvvatlaysiz, deb ishonamiz.

Hurmatli do'stlar!

Mazkur xalqaro mukofot bilan taqdirlangan barcha shaxslar ilk bor bir joyga jamlangani va ular ishtirokida tashkil etilayotgan G'oliblar uchrashuvi ham katta ahamiyatga molik voqelikdir.

O'z taraqqiyot yutuqlarini va foydali sarmoyalarini dunyo xalqlari bilan baham ko'rayotgan, korrupsiya qarshi kurashda g'ayrat va shijoat ko'rsatayotgan Qatar Amirining global darajadagi sa'y-harakatlari barchamizning ezgu intilishlarimiz bilan birlashib, albatta, o'zining ulkan ijobiy natijalarini beradi.

Ushbu mavzuga bag'ishlab o'matilgan monumentdagи korrupsiyanı to'xtatish uchun ko'tarilgan ochiq qo'llar kabi bugungi anjumanda ishtirok etayotgan,adolat yo'lidagi qat'iyatli va tolmas qahramonlarimiz qo'llarini pok qalb va vijdon amrimiz bilan mahkam tutamiz. Olib borayotgan sharafli ishlaringizda sizlar bilan doimo birgamiz.

Fursatdan foydalanib, nufuzli mukofotning barcha sovrindorlarini chin qalbimdan qizg'in tabriklayman.

Anjumanimizda qatnashayotgan xorijiy mehmonlarimizga yana  
bir bor chuqur tashakkur izhor etaman.

Barchangizga mas'uliyatli faoliyatningizda kuch-g'ayrat, yangi  
muvaffaqiyatlar, baxt va omadlar yor bo'lishini tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida  
yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutq*

*2023-yil 19-dekabr*

---

## **MA'NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK**

Assalomu alaykum, hurmatli Kengash a'zolari!

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan g'oyat muhim masalalarni muhokama qilish va ular yuzasidan zarur yechimlar topish uchun yig'ildik.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yig'ilishida Oliy Majlis hamda Vazirlar Mahkamasi rahbarlari, hurmatli deputat va senatorlar, vazirlar, hokimlar bilan birga milliy ma'naviyatimiz faollari, madaniyat, adabiyot va san'at sohasi vakillari ham ishtirok etmoqda.

Barchangizga ayon, yurtimizda Prezident ushbu Kengash rai-si hisoblanadi. Hududlarda esa birinchi rahbarlar bu masala uchun mas'ul etib belgilangan.

Nima uchun shunday yo'l tutdik? Chunki ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat biz uchun ustuvor masaladir.

Albatta, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun, avvalo, uning mustahkam iqtisodiy, moddiy-texnik asoslarini yaratish kerak. Bugun shu yo'lda xalqimiz bilan birlilikda amalga oshirayotgan ishlarmizda barchangiz faol ishtirok etmoqdasiz.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda iqtisodiyotni chinakam bozor munosabatlari asosida tashkil etyapmiz. Barcha soha va tarmoqlarda davlat ishtiroki kamaytirilib, xususiy mulk va investitsiyalariga, davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga keng yo'l ochilmoqda. Tadbirkorlar, fermer va klasterlar uchun qulay sharoitlar yaratib beryapmiz. O'zbekistonda "majburiy mehnat", "bolalar mehnati"ga

butunlay chek qo‘yildi. Davlat buyurtmasi tizimini ham optimal holatga keltiryapmiz.

Barcha sohalarga raqamlashtirish, “yashil” va innovatsion texnologiyalar jadal kirib bormoqda. Yurtimizda yangi-yangi zamonaviy sanoat va energetika majmualari, avtomobil va temiryo‘llar, texnopark va IT parklar, “aqlii” va elektron boshqaruvi tizimlari barpo etilmoqda.

Shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimiz qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda. Qisqa muddatda maktab, maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim, sport va turizm sohalarini rivojlantirish bo‘yicha ulkan qadamlar qo‘ydik. Tibbiyat sohasida ham chuqur islohotlar olib borilmoqda.

Aholini zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlash borasida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan natijalar qo‘lga kiritilmoqda.

E’tibor qiling, bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p – 134 trillion so‘m mablag‘ ajratildi. Bu – 2016-yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan **O‘zbekiston – ijtimoiy davlat** degan qoidaning hayotimizdagи amaliy tasdig‘ini birgina ana shu misolda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu ishlar dastlabki qadamlar bo‘lib, kelgusida yanada kengayib boradi.

Xabaringiz bor, bu yil “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda o‘z oldimizga aniq maqsadlar qo‘yib, marrani baland oldik. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobar oshirib, 160 milliard dollarغا, aholi jon boshiga daromad miqdorini esa o‘rtacha 4 ming dollarга yetkazishni reja qilganmiz.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtida azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli

markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz.

Afsuski, bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti.

Ana shunday g‘oyat murakkab va tahlikali vaziyatda O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to‘g‘ri yo‘lni topish, albatta, oson bo‘lmayapti. Biz dunyodagi uzoq-yaqin barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilyapmiz.

Tarixdan ma’lum: vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik.

Yaqinda “Milliy tiklanish” gazetasida O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Jadidlar” degan she’rini o‘qib qoldim. Hurmatli shoirimiz “Jadidlar yetishmayapti, jadidlar”, deb, bugungi kunda ko‘pchilik xalqimizni, jumladan, meni ham qiynayotgan savollarga javob izlagan.

Chindan ham, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur.

Yaqinda poytaxtimizda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otganidan barchangiz xabardorsiz.

Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida alohida Prezident qarori qabul qilinadi. Jumladan, Bu-

xorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi buniyod etiladi.

Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

Ana shu ishlarimizni davom ettirish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, "Shahidlar xotirasi" jamg'armasi hamda jamoatchilik vakillarining "Jadid" nomli yangi gazeta va uning elektron versiyasini tashkil etish haqidagi tashabbusini biz albatta qo'llab-quvvatlaymiz.

Aziz do'stlar!

O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?

Mana, bugun ma'naviy-ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug'dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi.

Albatta, biz dunyo miqyosidagi iqtisodiy inqiroz va pandemiya ta'siriga qaramasdan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyyolilar bilan uchrashuv hamda 2021-yil 19-yanvardagi Kengash yig'ilishidagi muloqotlar davomida sizlar bilan ko'plab masalalar bo'yicha aniq yechimlarni topgan edik.

Bu haqda gapirganda, Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar insti-

tuti tashkil etilganini aytish o'rinnlidir. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag'batlantirish choralar ko'rildi. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash uchun har yili 45 milliard so'mdan mablag' ajratyapmiz.

Markaz tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda joylarda ko'plab tadbirlar o'tkazmoqda. Xususan, "Ma'rifat ulashib" va "Kitob karvoni" aksiyalari doirasida 200 mingga yaqin nomdagi kitoblar aholiga bepul tarqatildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, uning hududiy bo'linmalari tomonidan 11 mingdan ortiq media mahsulotlari tayyorlandi.

Bu boradagi ishlarimizni yanada jadallashtirish uchun 2024-yil dan boshlab har yili 100 milliard so'mdan mablag' ajratiladi.

Milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan madaniyat, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo'yicha ham katta ishlarni amalga oshirdik. Ayniqsa, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunni qabul qilganimiz, 15-aprel sanasini Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilaganimiz soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Milliy an'analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, "Bahor" raqs ansamбли, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'tgan davrda 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar mu'siqa va san'at maktabi, 5 ta oliygoh, jumladan, yangi avlod jurnalistlarini tayyorlash maqsadida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.

Shu o'rinda muhim bir raqamga e'tibor berishingizni so'rayman. Madaniyat va san'at sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 karra oshib, 2023-yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Biz boy va betakror madaniy merosimizni dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha alohida tizim yaratdik. Mamlakatimizda muntazam o‘tkazib kelinayotgan “Maqom”, “Baxshichilik”, Hunarmandchilik, “Lazgi” kabi xalqaro festivallar shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Bu boradagi katta ishlارимиздан yana biri – 24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, qo‘sni davlatlarda ham “O‘zbekiston madaniyatini kunlari” yuqori saviyada o‘tkazildi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Saudiya Arabistonni kabi davlatlarda namoyish etilgan milliy madaniyatimizning noyob namunalari dunyo jamoatchiliгини hayratga solgани va ular O‘zbekistonni o‘zlari uchun yangitdan kashf etgани barchamizni quvontiradi.

Bu ishlarni, albatta, davom ettiramiz va kelgusida Italiya, Buyuk Britaniya, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklarida ham ana shunday ko‘rgazmalar tashkil qilinadi.

Keyingi yillarda UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi, Buxoro shahri “Ijodkor shaharlar tarmog‘i”ga kiritilganini ta’kidlash lozim. Shu yil sentabr oyida UNESCO Bosh qarorgohida buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani ham muhim voqeа bo‘ldi.

Xalqaro maydonda madaniy diplomatiyamizning o‘rni tobora ortib bormoqda. Xabaringiz bor, UNESCO Bosh konferensiysi sessiyalari qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda o‘tkaziladi. 2025-yilda esa bu konferensianing sessiyasini birinchi marta boshqa shaharda, ya’ni Samarqandda o‘tkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a’zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi.

Hech shubhasiz – bu O‘zbekiston uchun katta ishonch, ayni paytda mas’uliyat hamdir. Shu sababli bu yirik xalqaro tadbiriga hozirdan puxta tayyorgarlik ko‘rishni boshlashimiz kerak.

Bu yil Toshkent shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning 30 yillik yubileyi yuqori saviyada o‘tkazildi.

Bir asrdan ziyod tarix va an'analarga ega bo'lgan o'zbek kino san'ati ham taraqqiyot yo'liga chiqib bormoqda. Eng muhi-mi, xalqimizga manzur bo'ladigan kino asarlari paydo bo'lyapti. Buyuk sarkarda va davlat arboblarimiz, ulug' allomalar, madaniyat namoyandalarimiz haqida tarixiy filmlar yaratilmoqda.

Qariyb chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tikladik. 2021-yildan buyon har yili jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab kinoijodkorlar O'zbekistonga tashrif buyurmoqda. Alisher Navoiy nomidagi kino saroyi zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi, yangi "Renessans" kino uyi barpo etildi. Milliy filmlar yaratish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham tobora ortib bormoqda.

Aziz do'stlar!

Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini, ezgu g'oyalarni tarannum etishda o'zbek adabiyoti boshqa madaniyat sohalari uchun hamisha mustahkam zamin bo'lib kelgan.

Biz zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda Adiblar xiyobonini, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosini barpo etdik. O'l kamizning bahavo hududlarida yangi ijod uylarini qurdik. Samarali ijod qilayotgan adiblarimiz imtiyozli asosda yangi uy-joylar bilan ta'minlandi. Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash uchun har yili qariyb 25 milliard so'm ajratilmoqda.

Yosh iste'dod egalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminari qayta tiklandi. Navqiron shoir va yozuvchilarning birinchi kitoblari katta tirajlarda nashr etilmoqda. Atoqli ijodkorlarimizning tavallud sanalarini keng nishonlash yaxshi an'anaga aylandi.

Birinchi marta nashr etilgan 100 jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari", 30 jilddan iborat "Mustaqillik davri navoiyshunosligi", "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari", "Mard askarga sovg'a" singari adabiy majmualar ma'naviy hayotimizda muhim voqeа bo'ldi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz bu yig‘ilishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdik. Milliy ma’naviyatimiz va madaniyatimizni rivojlantirish bo‘yicha taniqli olimlar, shoir va adiblar, san’atkorlar, rassom va jurnalistlar, ekspert va mutaxassislarning fikrlarini oldik.

Mening topshirig‘imga binoan, Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir A. Aripov rahbarligida bu masalalarni sinchiklab o‘rganib chiqdi. Tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, madaniyat sohasi faollari bilan alohida yig‘ilish ham o‘tkazildi. Ko‘pgina masalalar o‘sha majlisning o‘zida hal qilindi va yana ba’zi muammolar ham aniqlandi.

Men bugungi majlis uchun tayyorlangan barcha tahliliy materiallar bilan batafsil tanishib chiqdim. Shu asosda eng muhim vazifalarga qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Avvalo**, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqishimiz lozim. Bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarur. Mana, biz Asosiy Qonunimizdagи fundamental prinsiplardan kelib chiqib, **Dunyoviy davlat konsepsiyasini ishlab chiqyapmiz**.

Nima uchun bunga zarurat tug‘ilmoqda?

O‘zingiz ko‘ryapsiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, chetdan, ba’zan, hatto mamlakatimizning o‘zida ham Konsitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda.

Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo‘yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo‘lmoqda. Ko‘p xotinlik, ayol kishi ishlamasdan uyda o‘tirishi, o‘qimasligi kerak, dunyoviy qadriyatlar harom, degan soxta “da’vat”lar yangramoqda.

Ulug‘ ma’rifatparvar Ibrat domlaning: “Millatni kim isloh etar? Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur”, degan hikmatli so‘zlarida chuqr ma’no bor.

Fursatdan foydalanib, men muhtaram ulamolarimiz, din pesh-volarini inson qadrini ulug‘lash, tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarimizda faol bo‘lishga, o‘zlarining ma’naviy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak ko‘rsatishga chaqiraman.

Ma’lumki, keyingi yillarda haj, umra ziyoratlariga keng yo‘l ochilyapti. Minglab fuqarolar mana shunday qutlug‘ ziyoratlarga borib kelayotganiga hammamiz guvohmiz.

Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: hajga, umraga borib kelgan har bir yurtdoshimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak. Afsuski, hamma joyda ham shunday bo‘lmayapti. Ziyorat bahona o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, manmanlikka berilish kabi bizga yarashmaydigan xunuk holatlar ko‘zga tashlamoqda. Bular, albatta, bar-chamizni o‘ylantirishi kerak.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi, xususan, muftiy hazratlari, hurmatli shayx Nuriddin Xoliqnazarovning diniy ma’rifat sohasida olib borayotgan sa‘y-harakatlarini barchamiz qo‘llab-quvvatlaymiz.

Xabaringiz bor, keyingi paytda korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha tezkor tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zini “ko‘cha” deb ataydigan jinoiy guruhlar bo‘ladimi, korrupsiyaga berilgan mansabdor shaxslar bo‘ladimi, kim qonunga bepisand munosabatda bo‘lib, davlat va jamiyatga zarar yetkazadigan bo‘lsa, biz bunga hech qachon jim qarab tuolmaymiz. Ko‘chalarimiz, mahallalarimiz, hayotimiz tom ma’noda tinch va toza, jinoyatdan xoli bo‘lishi kerak.

Shu munosabat bilan mahalla faollari, hurmatli ayollarimiz va muhtaram nuroniyalarimizga, ayniqsa, katta orzu-umidlar bilan hayotga kirib kelayotgan yoshlارimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

**Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan noplak kimsalardan ogoh bo‘laylik!**

**Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik!**

**Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q.**

**Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz.**

**Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo‘lishi shart va albatta, shunday bo‘ladi.**

**Ikkinchidan**, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hokimlarning mas’uliyatini keskin oshirishimiz zarur. Hududlar rahbarlari bir haqiqatni bilib olsin: sizlarning faoliyatizingizga ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning sifati va samarasiga qarab baho beriladi.

Shu yil noyabr oyida mening topshirig‘im bilan markazdan borgan mas’ul shaxslar ishtirokida 14 ta hududda Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining yig‘ilishlari o‘tkazildi. Afsuski, aksariyat hokimlar o‘zлari rahbarlik qilayotgan hududdagi ma’naviy tarbiya ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan. Masalan, Andijon viloyati Xonobod shahri hokimi Tojiboyevning respublika ishchi guruhiga ochiqdan ochiq “Ma’naviyat men uchun oxirgi o‘rindagi masala” deganini qanday tushunish mumkin?

Yana bir misol, 2021–2023-yillarda 195 ta tuman va shaharda Ma’naviyat va ma’rifat maskanini barpo etish bo‘yicha manzilli ro‘yxatni tasdiqlagan edik. Bu borada Sirdaryo viloyatida 11 ta, Surxondaryo viloyatida 15 ta maskanning barchasi foydalanishga topshirilib, Prezident qarori ijrosi to‘liq bajarilganini qayd etish lozim. Lekin ayrim joylarda bu ishlar oxiriga yetkazilmagan. Misol uchun, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent, Andijon, Jizzax viloyatlari va Toshkent shahrida qaror ijrosi to‘liq bajarilmaganini qanday izohlash mumkin?

Bosh vazir A. Aripov Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorov, Prezident Administratsiyasi departament rahbari Q. Qurонboyev, hududlar rahbarlari bilan birgalikda bir oy muddatda har

bir tumanda Ma’naviyat maskani qurish va uning ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni chuqur o‘rganib, ularni reja-jadval asosida ishga tushirish choralarini ko‘rsin.

**Ta’kidlab aytmoqchiman: bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o’n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!**

Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlari o’rtasida ma’naviyat ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim. Yaqinda Surxondaryo viloyatida bo‘lgan uchrashuvda ziyojolarimiz tomonidan bildirilgan taklif asosida hududlarda faoliyat olib borayotgan 4 ta sektorga qo’shimcha ravishda ma’naviyat sektorini tashkil etamiz.

Ta’kidlash kerakki, ma’naviyat sektori mahalliy davlat hokimiyyati hamda joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu sektor faoliyati uchun ma’naviyat va ma’rifat kengashlari rahbarlari, ya’ni hokimlar shaxsan mas’ul va javobgar bo‘ladi.

Biz bu tashabbusni kelgusi yili Surxondaryo viloyatida sinovdan o’tkazamiz. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (Hojimatov) 10 kun muddatda ma’naviyat sektorining tashkiliy tuzilmasi va nizomini ishlab chiqsin. 2024-yil yanvardan boshlab respublika seminarini o’tkazib, mart oyiga qadar Surxondaryo viloyatida ushbu sektor faoliyatini to‘liq ta’minlasin.

**Uchinchidan**, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g‘oyalari asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san’atining katta o‘rni bor. Hozirgi kunda mamlakatimizda 40 ta teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har yili 40 ta yangi spektaklga davlat buyurtmasi berilmoqda. Buning uchun shu yilning o‘zida 15 milliard so‘m ajratildi.

Joriy yilda teatr va kino dramaturgiyasini rivojlantirish maqsadida respublika “Nigoh” ijodiy seminari o’tkazildi.

Ayni paytda joylarda madaniyat maskanlari, xususan, teatrlarning ahvoli qanday, hokimlarimiz ularning holidan xabardormi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Agar hozir “Qani, oxirgi bir oyda qaysi teatrga boardingiz, qanday yangi kitob o‘qidingiz?”, deb so‘rasam, o‘ylaymanki, aksariyat rahbarlar xijolat bo‘lib qolishi mumkin. Holbuki, rahbar-yetakchilar ijtimoiy dunyoqarash, madaniy saviya bo‘yicha boshqalarga o‘rnak bo‘lishlari kerak.

Shu maqsadda, barcha korxona va muassasalarda oyning bir kunini “Teatr kuni” deb e’lon qilib, xodimlarning teatrlarga borishini yo‘lga qo‘ysak, o‘ylaymanki, har tomonlama foydali bo‘ladi.

Teatr san‘atini rivojlantirish bo‘yicha Madaniyat vazirligiga (O. Nazarbekov) bir oy muddatda dastur loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish vazifasi topshiriladi. Ushbu dasturda tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha 20 ta eng yaxshi pyesa uchun ijodiy buyurtma berish orqali dramaturglarga 50 million so‘mdan qalam haqi to‘lash tizimini joriy etish, 50 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrlarida mahorat oshirishini yo‘lga qo‘yish, yosh rejissorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish va g‘oliblarni munosib taqdirlash kabi tadbirlar aks ettirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Bunga qo‘srimcha ravishda, besh yillik dasturga binoan, teatrlar to‘liq ta’mirlanib, eng ilg‘or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi. Bu ishlarga Bosh vazir A. Aripov mas’ul etib belgilanadi.

**To‘rtinchidan**, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda mamlakatimizdagи mavjud 837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim.

So‘nggi yillarda yurtimizda 43 ta madaniyat markazi yangidan qurildi, 344 ta madaniyat markazida ta’mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda bunday markazlarda 4 mingga yaqin to‘garak faoliyat ko‘rsatmoqda, ularda 120 mingdan ortiq yoshlar shug‘ul-lanmoqda. Masalan, Farg‘ona shahar madaniyat markazidagi 81 ta

to‘garakka 1000 ga yaqin farzandlarimiz qamrab olingani e’tiborga loyiq.

Afsuski, hamma joyda ham markazlar faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Respublika bo‘yicha 167 ta madaniyat markazi o‘z binosiga ega emas, 283 ta bino avariya holatida, jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj mavjud. Oqibatda 4 mingta mahallada yashayotgan aholi madaniy xizmatlardan foydalana olmayapti.

Endi bu tizimni tubdan o‘zgartiramiz. Ya’ni joylardagi madaniyat markazlari uchun hokimlar bevosita javob beradi. Kelgusi yildan boshlab har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari mavjud bo‘lgan 1 tadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilib, bunga 100 milliard so‘m yo‘naltiramiz.

**Beshinchidan**, maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish, mavjud ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an’analarni ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytiramiz.

Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo‘schiqlari “oltin fond”ga yozib olindi. Maqom san’atini rivojlantirish, uni qorong‘ilikdan yorug‘likka olib chiqish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatayotgan san’atkorlarimizga har qancha rahmat aysak, arziydi.

Xalq og‘zaki ijodi durdonalarini keng targ‘ib etib kelayotgan baxshilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Madaniyat vazirligiga san’atimizning “oltin fond”iga kiritilgan mumtoz va estrada musiqa asarlarini, folklor namunalarini raqamlashtirib, internetda keng targ‘ib etish choralarini ko‘rish topshiriladi.

Kuni kecha nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishga doir muhim bir qarorni imzoladim. Unda, jumladan, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlari

hamda Farg‘ona – Toshkent, Xorazm, Buxoro maqom yo‘llaridagi musiqa asarlarini ilmiy tadqiq etishga 28 ta maqsadli grant ajratish bo‘yicha vazifalar aniq belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Yana bir muhim yangilik – maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adres, kulolchilik va zargarlik kabi 12 ta noyob madaniy meros namunalari bo‘yicha an’analarni davom ettiradigan matablar yaratiladi.

**Oltinchidan**, milliy madaniyatimiz rivojida muhim o‘ringa ega bo‘lgan musiqa va raqs san’atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, “Bahor” raqs ansamblini bino bilan ta’minalash bo‘yicha O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi bildirgan taklifni qo‘llab-quvvatlaymiz. Bundan buyon “Bahor” jamoasi ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroysida faoliyat yuritadi.

Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari ko‘paytiriladi. Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi.

Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosini ta’mirdan chiqarish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ko‘riladi. Bosh vazir A. Aripov bu masala bo‘yicha 1 oy muddatda qaror loyihasini kiritsin.

**Yettinchidan**, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomiyyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyoohlarga keng tanishtirish ishlarini yangi bosqichga ko‘taramiz.

Kelgusi yili Toshkentda kreativ iqtisodiyotga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyanı, Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumanini o‘tkazamiz.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha alohida qonun qabul qilish ham kun tartibidagi dolzarb masaladir.

Buxoroning tarixiy hududida 2025-yilda ilk bor xalqaro tasviriy san'at anjumani o'tkaziladi. UNESCO mezonlari asosida bu qadimiy shaharning master va menejment rejalarini ishlab chiqamiz.

Umuman olganda, 2024-yildan boshlab yurtimizda madaniyat va san'at festivallari va boshqa tadbirlarni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etamiz. Barcha festivallarimiz tom ma'noda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yuksaltirish va yurdoshlarimizning madaniy saviyasini oshirishga xizmat qilishi lozim.

**Yana bir masala.** Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Eksponatlarni saqlash va muhofaza qilish bo'yicha barcha muzeylar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi va eng noyob eksponatlar markirovka qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida Tarix muzeyi hamda San'at muzeyining zamonaviy yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta'mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinci Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo'yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi.

Fransiya davlati bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyatini yo'lga qo'yamiz. Bugungi kunga qadar xorijiy restavratorlar bilan birga 238 ta madaniy boylik restavratsiya qilindi.

Muqaddas kitob – Usmon Qur'oni sahifalari ham konservatsiya va restavratsiya qilinadi.

Yurtimizning ko'hna tarixiga bag'ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiramiz. Shuningdek, Samarqandda sohibqiron Amir Temur bog'lari qayta tiklanadi, "Buyuk Ipak yo'li" muzeyini barpo etamiz va Bibixonim majmuasini restavratsiya qilamiz.

**Sakkizinchidan**, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar davom ettiriladi.

Hozirgi vaqtida “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o’tmishiga bag‘ishlangan 50 ta badiiy film yaratish bo‘yicha Farmon loyihasi tayyorlanmoqda. Shu asosda tarixiy filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur ijrosiga nafaqat mahalliy, balki xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar jalb etiladi.

Butun dunyoda kino nafaqat ijod, balki iqtisodiyot tarmog‘i hamdir. Ushbu ikki yo‘nalish o‘zaro uyg‘un rivojlanishi uchun tegishli ishlarni amalga oshirish kerak.

Buxoro viloyati hokimi B. Zaripov, Samarcand viloyati hokimi E. Turdimov, Toshkent viloyati hokimi Z. Mirzayev ikki hafta muddatda o‘z viloyatlarida erkin iqtisodiy kinohududlar barpo etish bo‘yicha loyihalarni boshlasin.

Vazirlar Mahkamasi (A. Aripov), Kinematografiya agentligi (F. Abduxoliqov) tegishli vazirlik va hokimliklar bilan birgalikda 1 oy muddatda yuqorida ko‘rsatilgan barcha masalalarni hal qilish bo‘yicha qaror loyihasini kiritsin. Unda, jumladan, buyuk ajdodlarimizning ibratlari hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animatsion filmlar yaratish nazarda tutilsin. Keyinchalik ushbu filmlar qahramonlarini o‘yinchoqlar, o‘quv daftarlari va boshqa mahsulotlarda aks ettirib, farzandlarimiz ongiga singdirishimiz lozim.

Hozirgi vaqtida dunyo media olamida tele- va kinoseriallar jadal rivojlanmoqda. Dastlab ko‘ngilochar va maishiy mavzularda paydo bo‘lgan seriallar bugungi kunga kelib, turli davlat va millatlarning muayyan maqsadlarini targ‘ib etish vositasiga aylanib bormoqda.

Savol tug‘iladi: xalqimiz televizorni eng ko‘p ko‘radigan paytlarda, ya’ni “praym-taym” vaqtida xorijiy serialarga katta o‘rin berayotganimiz qanchalik to‘g‘ri?

Albatta, bularning barchasi oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, milliy seriallar ishlab chiqarish bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo‘nalishda ijodkorlarimizni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Aynan shu yo'l bilan milliy seriallarimizni g'oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali, hamma qiziqib ko'radigan darajaga yetka-zish mumkin.

Shu maqsadda Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasini yaratish zarur. Unda, avvalambor, mahalliy ijodkorlarimizga, xususan, ijrochi san'atkorlar, dramaturg va rejissorlarimiz uchun zamonaviy sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratish o'rinni bo'ladi, deb o'ylayman. Buning uchun IT park kabi erkin iqtisodiy zona – Cinema park tashkil etish lozim.

Shu munosabat bilan Bosh vazir A. Aripov Cinema park uchun davlat-xususiy sheriklik asosida Toshkent viloyati hududidan 50 hektar yer maydoni ajratish bo'yicha taklif kiritsin.

Vazirlar Mahkamasi (A. Aripov), Prezident Administratsiyasi departament rahbarlari O. Abdurahmonov, K. Allamjonov 1 oy muddatda Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiysi loyihasini tayyorlab kiritsin.

**To'qqizinchidan**, tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilamiz. Ushbu dastur asosida, jumladan, Markaziy ko'rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinadi va jihozlanadi, poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi.

Tanlov asosida 20 nafar iste'dodli yosh rassom va haykaltarosh, san'atshunos va muzeishunoslar xorijiy mamlakatlarga stajirovka-ga yuboriladi.

Xattotlik va miniatura san'ati ta'limini amaliyat bilan bog'lash maqsadida milliy usulda qog'oz tayyorlash bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

**Yana bir muhim masala** – madaniyat va san'at sohasida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha jiddiy o'zgarish qilishimiz shart. Ayni vaqtida respublikamizdagi 323 ta musiqa va san'at maktabida

14 mingdan ortiq o‘qituvchi va konsertmeyster faoliyat yuritmoqda. Lekin ularning oylik ish haqi miqdori umumta’lim maktablari pedagoglarining maoshidan 1,5 barobar kam.

Ota-onalar tomonidan to‘lanadigan pullar maktablarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va o‘quvchilarning ijodiy tanlov-larda ishtirokini ta’minalash uchun yetmaydi. O‘tgan 10 oyda shunday to‘lovdan tushgan 61 milliard so‘mning 40 foizi yoki 25 milliard so‘mi kommunal xarajatlarga sarflangan.

Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorov, madaniyat vaziri O. Nazarbekov ikki hafta muddatda musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning communal xarajatlarini budgetdan qoplash bo‘yicha taklif kirlitsin.

Umuman olganda, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeyslar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklarini bos-qichma-bosqich oshirish yuzasidan zarur choralar ko‘riladi. Jumladan, ularning ish haqi 2024-yil 1-apreldan 20 foizga, 2025-yil 1-yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi. Buning uchun davlat budgetidan 2024-yilda qo‘srimcha ravishda 150 milliard so‘m, 2025-yilda esa 200 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun yangi yilda qo‘srimcha ravishda 100 milliard so‘m ajratiladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi paytda mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ishlarimizni davom ettirgan holda umumta’lim maktabalrida o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish masalasiga bundan buyon ham alohida e’tibor qaratamiz.

Hech shubhasiz, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarini ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘srimcha haq bilan ta’milanishi kerak. Bu, albatta, adolatdan bo‘ladi.

Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to‘lanadi. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda qo‘srimcha 10 milliard so‘m, 2025-yilda esa 30 milliard so‘m ajratiladi.

Shuningdek, boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish bo‘yicha ham alohida mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, ular bu borada maxsus sertifikatga ega bo‘lsa, o‘qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilidan boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi. O‘zbek tili bo‘yicha ham xalqaro fan olimpiadasini o‘tkazamiz. Olimpiadaning g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Shuningdek, ular mamlakatimiz oliygohlarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Hurmatli do‘stlar!

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha boshlagan ishlarimiz davom ettiriladi. Kelgusi yildan milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ko‘p ming nusxalarda chop etish va barcha kutubxonalarga yetkazib berish choralari ko‘riladi.

Shu bilan birga, har yili eng yaxshi badiiy asarlar yaratish, tarjima qilish uchun ijodiy buyurtmalar berilib, muallif va tarjimonlarga munosib qalam haqi to‘lanadi.

Yaqinda “Yoshlar uchun – ming kitob” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha alohida qaror qabul qildik. Unga ko‘ra, kelgusi yildan boshlab farzandlarimizga rag‘bat beradigan eng mashhur ilmiy-ommabop kitoblarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, mакtab va kutubxonalarga bepul tarqatish yo‘lga qo‘yiladi.

Albatta, bilimdon, zukko olimlarimiz, dunyo madaniyatiga juda katta hissa qo‘sheyotgan vatandoshlarimiz ko‘p. Lekin, afsuski, ular bolalar olamiga yaqin emas. Vaholanki, dunyoga mashhur olimlarining ko‘pchiligi bolalarga atab kitoblar ham yozishgan. Masalan,

Albert Eynshteyn o‘zining murakkab nazariyasini bolalar uchun maxsus sharhlab, alohida kitob chiqargani ma’lum.

Biz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz haqidagi ko‘p gapiramiz. Ammo bolalarimiz ularning qaysi asarini o‘qiy oladi? Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi deymiz, lekin ularning bolalik davrini kim biladi?

Demak, ana shunday allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerak.

Fursatdan foydalanib, men o‘z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimizni adiblar va noshirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishga chaqiraman. Bu ishlarni rag‘batlantirish, yangi bosqichga ko‘tarish uchun kelgusi yili mamlakatimizda Xalqaro bolalar adabiyoti ko‘rgazmasini tashkil etamiz.

Yurtimizda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, turli yo‘nalish va mavzudagi adabiyotlarni chop etishni ko‘paytirish uchun nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash zarur. Shu maqsadda ushbu korxonalar 5 yilga soliplardan ozod qilinadi. Shuningdek, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Albatta, bu zalda o‘tirgan adiblarimiz tarjima san’atining naqadar mashaqqatli ish ekanini yaxshi biladilar. Mana shunday mas’uliyatlari mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun ulug‘ shoir va tarjimon Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etsak, nima deysizlar?

So‘nggi yillarda kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishga katta e’tibor beryapmiz. Ayniqsa, Respublika bolalar kutubxonasi rekonstruksiya qilinganidan so‘ng bu yerda yangi ma’rifiy hayot boshlandi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu ezgu ishlarimizni davom ettirib, kelgusi yilda Samarqanddagagi bolalar kutubxonasini rekonstruksiya qilamiz. Hududlardi boshqa bolalar kutubxonalarini ham bosqichma-bosqich bolajonlarimizning sevimli maskaniga aylantiramiz.

So'nggi paytlarda o'z hisobidan kutubxona barpo etayotgan tashabbuskor insonlar ko'payib borayotgani barchamizni mamnun etadi. Tasavvur qiling, 100 nafardan ziyod yurtdoshimiz bunday xayrli ishga qo'l urgan. Masalan, Marhamat tumanida tadbirkor Qobiljon Obidov 50 mingdan ziyod kitob fondiga ega uch qavatli zamonaviy kutubxona tashkil etgan, bu ziyo maskanida 300 mingta elektron kitob ham mavjud.

Mana shunday insonlar jadidlarning munosib davomchilari, bugungi kun qahramonlari emasmi? U kishi davlatimizning nufuzli ordeni bilan taqdirlangani ham shundan dalolat beradi. Biz bar-chaga ibrat bo'layotgan bunday yurtdoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbari Asad Xodjayev 1 oy muddatda xususiy kutubxona tashkil etgan fuqarolar va tadbirkorlarni rag'batlantirish bo'yicha qaror loyihasini kiritsin.

Bugungi kunda mamlakatimizda internet adabiyotini rivojlantirish ham muhimdir. Shu maqsadda internetda "O'zbek madaniyati" portalini yaratib, uning tarkibida adabiyot, kino, tarix, san'at, folklor portali kabi platformalarni tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta'minlash zarur. Buning uchun Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbari Asad Xodjayev, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Saidov, Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Minhojiddin Hojimatov mas'ul va javobgar etib belgilanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 2 yilda ko'plab xorijiy mamlakatlarda yurtimiz olim va ijodkorlarining 150 ga yaqin kitoblari, folklorimiz namunalari nashr etilgan. Ayni vaqtda adabiyotimiz xazinasida dunyoga namoyish etishga arziydigan asarlar ko'p.

Bu yo'nalishda ham ishlarni tizimli yo'lga qo'yib, chet ellik noshir va tarjimonlar bilan mustahkam hamkorlik o'mnatish maq-

sadida Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Saidov, Fanlar akademiyasi prezidenti Behzod Yo'ldoshev, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbari Asad Xodjayev alohida da'stur ishlab chiqishi lozim.

Qadrli yurtdoshlar!

Ma'lumki, ko'plab xorijiy davlatlarda metsenatlik harakati keng yoyilgan. Bunday ezgu tajriba bizning hayotimizga ham kirib ke-layotganini albatta olqishlash kerak.

Ma'lumki, 2017-yildagi uchrashuvimizdan so'ng ijodiy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin "Do'stlar klub'i" tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda bu yo'nalishda 85 milliard so'm homiylik yordami ko'rsatilgan.

Afsuski, keyingi vaqtarda "Do'stlar klub'i" faoliyati ba'zi yo'nalishlar bo'yicha to'xtab qoldi. Bosh vazirning menga bergen axborotiga ko'ra, yuqorida zikr etilgan yig'ilishda bu masala ham atroflicha muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar ko'rilib. Shundan so'ng homiylar tomonidan madaniyat muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun 38,5 milliard so'm mablag' o'tkazib berilgan.

Fursatdan foydalaniib, madaniyat va san'atimizning sadoqatli do'stlari bo'lgan ushbu tashkilotlarga, ularning mehnat jamoalariga sizlarning nomingizdan, o'z nomimdan tashakkur bildiraman.

Endi bu tajribani doimiy ishlaydigan tizimga aylantirish zarur.

Hozirgi vaqtda matbuot nashrlarining obunasi bilan bog'liq ayrim muammolar mavjudligini bilamiz. 2022-yil 27-iyundagi Prezident qarorida budget tashkilotlariga kutubxona fondi xarajatlari orqali davriy bosma nashrlar, ularning elektron shakli va elektron ommaviy axborot vositalariga obuna bo'lish uchun mablag' yo'naltirishga ruxsat beriladi, deb ko'rsatilgan.

Demak, masalaning aniq yechimi bor. Faqat buni amalga oshirishimiz kerak.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, bugungi uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar faqat ma'naviyat, madaniyat va ijod sohalari rahbarlariga tegishli emas. Bularni – qayerda, qaysi lavozimda ishlamaylik, barchamizga bir-dek daxldor vazifalar, deb qabul qilishimiz lozim.

Shu bois har bir vazir va hokim o'zining bu boradagi mas'uliyatini chuqur his etishi, bugun bu yerda ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ishlarni boshlashi zarur.

Bosh vazir A. Aripov madaniyat va san'atni rivojlantirish bo'yicha ishlarning holatini har chorakda Hukumat rayosatida tarmoq va hududlar kesimida muhokama qilib boradi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugun sizlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat, adabiyot va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha ochiq gaplashib oldik.

Bu borada bildirilgan fikrlar, ana shu muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaganingiz, taklif va tavsiyalaringiz uchun barchangizga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Albatta, bugun ushbu zalda aytilgan fikr-mulohaza va tashabbuslarning har biri chuqur o'rganib chiqiladi. Eng muhim va dolzarb masalalar bo'yicha tegishli Farmon va qarorlar qabul qilib, ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni ko'ramiz.

Shu ma'noda, bugungi uchrashuv ma'naviy hayotimizda yangi islohotlar davrini boshlab beradi, deb ishonaman.

Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim. Hayot bor ekan – jaholat ham, ma'naviy tahdidlar ham bo'lishi tabiiy. Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolik.

Tinch va farovon hayot qurish uchun, avvalo, odamlar qalbi-da bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo'lishi zarur.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatan-ga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirishda siz, madaniyat ahlining o‘rningiz va ta’siringiz beqiyosdir.

Sizlar yuksak iste’dod va mahoratingiz, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtirokingiz bilan yangi Uyg‘onish davrini barpo etishga, albatta, munosib hissa qo‘sasizlar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni yaqinlashib kelayotgan yangi – 2024-yil bilan chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman.

Doimo sog‘-omon bo‘ling!

*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining  
kengaytirilgan majlisidagi nutq*

2023-yil 22-dekabr

---

## MAMLAKATIMIZ TARIXIDA YANGI VA YORQIN SAHIFA

Hurmatli tantanali marosim ishtirokchilari!

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz, azizlarni shunday qutlug' kunlarda, Yangi yil arafasida Yangi O'zbekiston hayotidagi ulkan tarixiy voqea – “yashil” energetika sohasidagi yirik qo'shma loyihalarni ishga tushirishga bag'ishlangan tantanali marosimda ko'rib turganimdan beni-hoya baxtiyorman.

Yaxshi xabardorsiz, biz bundan besh yil muqaddam qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish bo'yicha oldimizga juda katta maqsad va vazifalarni qo'yib, amaliy ishlarni boshlagan edik.

Biz sohani isloh etishni, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshladik.

Bir qator qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog'ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasini yaratdik. Sohada ma'muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o'tdik. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratdik.

Energetika vazirligi, shuningdek, har bir alohida yo'nalish bo'yicha mas'ul va javobgar bo'lgan yangi tashkilotlar tuzildi.

Xalqaro maslahatchi va konsalting kompaniyalarini yollab, ikki yil davomida mamlakatimizda quyosh, shamol va gidroenergetikani

rivojlantirish imkoniyatlarini puxta o'rgandik hamda eng samarali hududlar xaritasini tuzdik.

Natijada chet ellik investorlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishi va ishonchi keskin oshdi.

Ilk bor 100 foiz to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan Karmana va Nurobod tumanlarida 2 ta quyosh stansiyasi ishga tushirilib, shu kunga qadar 1 milliard kilovatt-soat "yashil" elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Bugun esa mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochadigan muhim hodisa – umumiy quvvati ikki ming to'rt yuz megavatt bo'lgan oltita yirik quyosh hamda shamol stansiyalari tarmoqqa ulanmoqda. Jumladan, O'zbekistonning yaqin do'sti va keng qamrovlili hamkor bo'lgan Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari da uchta quyosh elektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi.

Bundan tashqari, ushbu nufuzli kompaniya tomonidan Tomdi tumanida barpo etilayotgan zamonaviy shamol stansiyasining 100 megavatti ishga tushirilmoqda. "Gezhouba" kompaniyasi bilan esa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi.

Eng e'tiborli jihat – ushbu barcha loyihalar davlat-xususiy sherklik asosida, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi.

Umumiyligi 2 milliard dollarlik bu loyihalar hisobidan yiliga 6 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, ikki milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. 2 million xonodon uzliksiz va kafolatli elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Bizning strategik sheriwigimiz va yirik savdo hamkorimiz bo'lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilmagan juda qisqa muddatda – 9 oy ichida ishga tushirilganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchiman.

Jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog'liq muammolar qanchalik murakkab ekaniga qaramasdan, biz bu borada "Goldwind", "Sungrow", "Jolywood", "Longi" kabi kompaniyalar bilan samarali ish olib bordik.

Fursatdan foydalanib, bugungi tadbirimizda hozir bo'lib turgan "Masdar" kompaniyasi rahbari Muhammad al Ramahiy janoblariga, "China Energy" vitse-prezidenti Vu Yun janoblariga, "Gezhouba" kompaniyasi raisi Lin Syaodan janoblariga, bunyodkorlik ishlari-da faol ishtirok etgan "Dongfang", "CMЭK", "SEPCO" va boshqa kompaniyalar rahbarlariga, nufuzli xalqaro bank-moliya institutlari-ga, mazkur loyihalarni amalga oshirishga munosib hissa qo'shgan barcha xorijiy va mahalliy mutaxassislariga, quruvchi-muhandislariga butun xalqimiz nomidan samimiyl minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli tadbir qatnashchilari!

Biz nima uchun "yashil" energetika rivojiga bu qadar katta rag'bat va e'tibor qaratayapmiz? Chunki, biz, **eng avvalo**, 2030-yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirishni, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni ko'zlayapmiz.

Bu ulug'vor niyatlarimizga erishish uchun bizga kafolatli va barqaror energiya resurslari suv bilan havodek zarur. Hisob-kitoblarimizga ko'ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasi-ga bo'lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt-soatga o'sishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplaymiz.

**Ikkinchidan**, biz global muammoga aylangan iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tinimsiz izlanyapmiz. Xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslarni faol ilgari suryapmiz. Yaqinda Dubayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiysi doirasida dunyo mamlakatlari "yashil" generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib oldi.

O‘zbekiston ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi.

**Uchinchidan**, mamlakatimizda “yashil” energetika bo‘yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Yaratganning o‘zi bergen bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo‘naltirishimiz zarur.

Sohani rag‘batlantirish maqsadida quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonodon” tizimini yo‘lga qo‘ydik. Shu yilning o‘zida yurtimizda 50 ming xonodon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o‘rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor yaratishini alohida qayd etmoqchiman.

**To‘rtinchidan**, hozirgi kunda global miqyosda “yashil” energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilmoqda. “Yashil energiya” sertifikati keng joriy qilinmoqda.

O‘zbekiston kelgusida aniq reja va qat’iy sa’y-harakatlar orqali “yashil” energiyani Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozoriga ham yetkazib berish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashlayapti.

**Beshinchidan**, ushbu soha sanoatning boshqa tarmoqlari va servisi rivojlantirishga juda katta ijobiy turki beradi. Bugungi loyihamlar doirasida 100 million dollarlik elektr jihozlari va qurilish materiallari mahalliy korxonalar tomonidan yetkazib berilgani ham bu fikrimizning yaqqol tasdig‘ idir.

Hozirgi vaqtida yurtimizda to‘rtta korxona quyosh panelari, yana ikkita korxona metall konstruksiyalar ishlab chiqarishni boshladi. “Yashil” energiya sohasidagi ellikka yaqin loyihamlar esa qo‘srimcha 500 million dollarlik kabel bozorini yaratmoqda.

Biz xorijiy hamkorlarimizni butlovchi va ehtiyyot qismlar ishlab chiqarishda mahalliy korxonalar bilan yaqin kooperatsiya aloqalari ni yanada kuchaytirishga chaqiramiz.

Hurmatli do'stlar!

Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar tarmoqda boshlagan katta islohotlarimizning yana bir yaqqol amaliy natijasidir. Bu chora-tadbirlarni izchil davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o'tib boramiz. Xususan, bu yo'lda yaqinda energetika bozori regulatorini tashkil etish bo'yicha muhim qarorni qabul qildik.

Hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyasini qurish loyihalari ustida jadal ishlayapmiz. Shu bilan birga, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazish uchun infratuzilmani yanada yaxshilashga alohida urg'u beryapmiz.

Kelgusi besh yilda jami 70 ming kilometr past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 ming dona transformator, 100 dan ortiq podstansiyalar to'liq yangilanadi. Shuningdek, 10 ming kilometr yuqori kuchlanishli yangi magistral tarmoqlar barpo etiladi.

Hech shubhasiz, sizlar bilan kelajakda yangi tashabbuslarni aniq loyihalarga aylantirish yo'lidagi sermahsul hamkorligimizni yanada kengaytirib boramiz. Biz uchun ustuvor bo'lgan bu kabi loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga barcha sharoit va zarur imtiyozlarni yaratib beramiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizni kirib kelayotgan 2024-yil bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat va olib bora-yotgan sharaflı ishlariningizda ulkan omadlar tilayman.

Yangi yilimiz ham mana shunday quvonchli va fayzli lahzalarga boy bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat!

*"Yashil" energetika sohasidagi yirik qo'shma loyihalarni ishga tushirishga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq*

2023-yil 27-dekabr

---

## O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Aziz vatandoshlar!

Jonajon diyorimizga yangi – 2024-yil kirib kelmoqda.

Mana shu shukuhli damlarda duogo'y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singillarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azm-u shijoatli yoshlariimizni, chet ellardagi qadrli vatandoshlarimizni – ko'p millatli butun xalqimizni ushbu qutlug' ayyom bilan chin qalbimdan samimiyl tabriklayman.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo'lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aqlzakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o'tishga qodir.

Shu ma'noda, 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat va killari o'rtaida do'stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.

Tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida yan-gilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "**O'zbekiston – 2030**" strategiyasini amalga oshirishni boshladik.

Ko'plab nufuzli anjumanlarni yuqori saviyada o'tkazdik.

Xalqaro maydonda muhim tashabbuslarni ilgari surdik.

Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishdik.

Respublikamizda yuqori texnologik zamonaviy sanoat korxonalarisi, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog'cha va maktablar, madaniyat va sport obyektlari barpo etildi. Yangi-yangi ish o'rirlari.

ochilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib, aholi hayot da-rajasи yuksalib bormoqda.

Birgalikdagи mehnatimiz tufayli Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylanmoqda. Barcha erishgan yutuqlarimiz uchun siz, aziz vatandoshlarimga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda "**Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili**" deb e'lon qildik.

Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Yangi ish o'rinnari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhitoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etamiz.

Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin!

Go'zal Vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

2023-yil 31-dekabr

---

## “JADID” GAZETASI JAMOASI VA MUSHTARIYLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlarini, ilm-fan va madaniyat ahlini, barcha muhtaram ziyolilarimizni ijtimoiy-ma'naviy hayotimizdagi muhim voqeа – “Jadid” gazetasining birinchi soni nashr etilishi bilan chin qalbimdan samimi y muborakbod etaman.

Ma'lumki, o'tgan asr boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy sharoitda milliy ozodlik, uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari bilan maydonga chiqqan ma'rifatparvar ajdodlarimiz o'zlarining benazir sa-lohiyati, noyob insoniy fazilatlari bilan fidoyilik va jasorat namunasini ko'rsatdilar. Ularning tabarruk xotirasini e'zozlash, boy merosi, ibratli faoliyatini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha yurtimizda katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

O'tmishda jadidlik harakati markazlaridan biri sifatida shuhrat qozongan Vatanimizda bugun shu nomda yangi gazetaning faoliyat boshlayotgani bu boradagi ishlarimizning yana bir amaliy natijasi, tarixiy adolat tantanasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

O'lkamizda ilk milliy matbuot nashrlariga asos solgan ma'rifat-parvar jadid bobolarimiz gazetani “butun dunyodagi madaniy millatlarning hayot yo'llari, olamdagи darajalari hamda insoniyat taraqqiysining eng yuqori pog'onasiga erishmoq uchun lozim bo'lgan sa'y va harakatlari to'g'risida bir-birlari bilan maslahat va kengash qilmoq uchun bag'oyat zarur bir vosita” deb bilganlar.

“Jadid” gazetasi ana shunday ezgu an'analarni davom ettirib, ulug' ajdodlarimizning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi

bilan mushtarak bo‘lgan g‘oya va dasturlarini atroficha yoritish, bu qutlug‘ merosni el-yurtimiz, birinchi navbatda, yoshlarimizning qalbi va ongiga yetkazishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda o‘ziga xos erkin minbar bo‘ladi, deb ishonaman.

Ana shunday sharafli va mas’uliyatli vazifani ado etishda gazeta jamoasi va uning mualliflariga yantuq va omadlar, barcha mushtariylariga esa yuksak ijtimoiy tafakkur yor bo‘lishini tilayman.

2024-yil 1-yanvar

---

## PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli prokuratura xodimlari!

Muhtaram faxriylar!

Avvalo, siz, aziz qonun posbonlarini 8-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirayotgan barcha islohotlarimizda qonun ustuvorligini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

**Qonun hukmron bo‘lgan jamiyatda, albatta, adolat, siyosiy ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va yuksalish bo‘ladi, inson qadri, huquq va manfaatlari ta’milanadi.**

Bunday muhim maqsadlarga erishishda prokuratura organlari va ushbu tizimda xizmat qilayotgan, o‘z kasbi va burchiga sodiq, vatanparvar insonlarning roli katta ekanini bugun alohida ta’kidlashimiz o‘rinlidir.

Qadrli do‘stlar!

Sizlarga ma’lumki, so‘nggi yillarda prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish, o‘z nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo‘lgan tizimni shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniylikni ta’minlash,

jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholi muammolarini chuqur o‘rganish va hal etish, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish soha xodimlarining eng asosiy va kundalik vazifasiga aylandi.

Prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish faoliyati tubdan o‘zgartirildi. Ilgari qonun buzilishi holatlarini aniqlash va jazolashga asosiy o‘rin berilgan bo‘lsa, endi asosiy e’tibor bunday holatlarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilmoqda.

Eng muhimi, prokuratura tizimi ham, odamlarimizning unga nisbatan munosabati ham o‘zgarmoqda. Bugungi kunda el-yurtimiz prokuratura timsolida “jazolovchi idorani” emas, balki aholi va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga ko‘maklashadigan, ularning dardiga sherik, madadkor bo‘lishga harakat qiladigan xalqparvar tuzilmani ko‘rmoqda.

Buni keyingi yetti yilda prokuratura organlari tomonidan 2 milionga yaqin murojaat ijobiy hal etilib, 300 mingdan ortiq fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangani, 148 mingga yaqin tadbirkorning muammolariga yechim topilgani ham tasdiqlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish, shuningdek, tergov hamda huquqni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Bosh prokuratura akademiyasi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi** tashkil etildi.

Bugungi kunda tadbirkorlik va investitsiya, qurilish yo‘nalishlarida, yer resurslaridan foydalanishda qonun buzilishining oldini olish, xotin-qizlar va yoshlar huquqlarini ta’minlash hamda ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, yoqilg‘i-energetika va ekologiya, madaniy meros va sport sohalarida qonun ustuvorligini

ta'minlashga qaratilgan prokuror nazorati samarali tizimi yo'lga qo'yildi va o'z ijobjiy natijalarini bermoqda.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kуrashish departamenti tomonidan o'tgan davrda 53 mingdan ziyod huquqbazarlik va jinoyatga chek qo'yildi, davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 4,7 trillion so'm zarar undirildi, 15 mingdan ortiq shaxsning faoliyatiga qonuniy tus berilib, ularning tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi ta'minlandi.

Prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosining tashkil etilishi ijro ishini yuritish bo'yicha mavjud tartibsizliklarga barham berib, qat'iy intizom o'rnatishga imkon yaratdi. Birgina o'tgan yil davomida 36 trillion so'mlik sud hujjatlarining ijrosi ta'minlandi.

Hurmatli soha xodimlari!

Mamlakatimizda "**Qonun – ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar**" degan ezgu tamoyil asosida qonuniylikni ta'minlash borasidagi ishlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda har bir prokuratura xodimi bir haqiqatni chuqur anglab yetishi zarur. Qachon odamlarimiz hayotida xotirjamlik, ro'zg'orida farovonlik va halovat bo'ladi, qachon ularda ertangi kunga ishonch ortadi? Qachonki yurtimizda qonunlar qog'ozda emas, balki amalda qat'iy bajarilgan, islohotlar har bir xonadon, har bir mahallaga kirib, yurdoshlarimiz ularning amaliy samarasini o'z kundalik hayotida his etgan taqdirda bu maqsadga to'la erishish mumkin.

Xalqimizning og'irini yengil qilish, yangi ish o'rirlari yaratish, kambag'allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlarimiz ijrosini izchil tashkil etish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrash, tibbiyot, ta'lim kabi sohalar-dagi islohotlarimizni davom ettirish va bu borada qonun buzilishi-ga murosasiz bo'lish – prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy keburchi va eng asosiy vazifasidir. Buni hech kim unutmasligi kerak. Aminmanki, yurtimizda korrupsiya illatiga qarshi kurashish jarayoni umumxalq harakatiga aylanayotgan bugungi kunda

**prokuratura xodimlari alohida jonbozlik ko'rsatib, o'z tashabbuslari bilan barchaga namuna bo'ladilar.**

Ana shu maqsadlarda prokuratura organlari faoliyatiga ilg'orish uslublarini va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, qonunlar ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarini muntazam takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va tergov ishiga zamonaviy ilm-fan hamda amaliyot yutuqlarini tatbiq etish, xodimlarning bilim darajasi va ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ularning fidokorona mehnatini munosib qadrlash kelgusida ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ishonchim komil, prokuratura xodimlari **qonun himoyasi – bu xalq va Vatan himoyasi kabi muqaddas burch** ekanini chuqranglab, zimmalaridagi g'oyat mas'uliyatli va sharafli vazifani bundan buyon ham samarali ado etadilar.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, baxt va omad, xonardonlaringizga fayz-u baraka, qonun vaadolat ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman.

2024-yil 8-yanvar

---

## QUROLLI KUCHLARIMIZ – MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI, TINCHLIGI VA BARQARORLIGINING ISHONCHLI KAFOLATI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni mamlakatimiz ha-yotidagi muhim sana – O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etil-ganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan chin qal-bimdan samimiy muborakbod etaman.

**Xalqimiz sizlar kabi mard va jasur harbiyalarimiz timsolida Vatanni himoya qilishdek dunyodagi eng ulug‘ ishni sharaf bilan ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an’analarini munosib davom ettirib kelayotgan ona yurtimizning chinakam qalqon-larini ko‘radi.**

Mana shu qutlug‘ ayyomda barchamiz sizlarning metin irodangiz, jangovar ruhingiz va shiddatingizga qarab, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayoti, sarhadlarimiz daxlsizligi mustahkam ishonchli qo‘llarda ekanini yanada chuqr his etmoqdamiz.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida erishayotgan barcha yutuq va marralarimizda Qurolli Kuchlarimiz va ularning saflarida o‘z vazifasini sidqidildan ado etayotgan ming-minglab harbiyalarimizning munosib hissasi bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Xalqimizning asl o‘g‘lonlariga xos fazilatlar ulug‘lanadigan mana shu unutilmas lahzalarda Vatan oldidagi burchini bajarish

chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan botir jangchilarimizni yod etib, ularning o‘lmas xotirasi oldida ta’zim qilamiz.

Ishonchim komil, ular o‘zlarining jasorati va o‘chmas nomlari bilan el-yurtimiz qalbida hamisha barhayot yashaydi, jangovar saflarda ularning o‘rni, aziz xotirasi hech qachon yo‘qolmaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi yillarda “**Xalq va armiya – bir tan-u bir jondir**” degan ezgu g‘oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar sa-lohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma’noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarimiz muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarimizning professional matorati va obro‘-e’tibori jahon miqyosida ham yuksalib bormoqda. Buni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari vakillarining nufuzli xalqaro harbiy musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Ana shunday sa’y-harakatlarimiz hamda Milliy armiyamiz va xalqimizning faol hamkorligi tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolatiga, chinakam jasorat va matonat mакtabiga aylanmoqda, deb aytishga barcha asoslарimiz bor.**

Qadrli do‘stlar!

Dunyo miqyosidagi hozirgi o‘ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta’minlash yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda.

Shuni hisobga olgan holda, “O‘zbekiston – 2030” strategiya-sida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta’minlash, yurtimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi.

Shu asosda mamlakatimizning harbiy-ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlash, qo‘sishinlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga yanada ulkan ahamiyat qaratamiz.

Buyuk Amir Temur bobomiz aytganlaridek, **g‘alaba taqdirini, avvalo, qo‘sinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma’naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi.**

Shu bois milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qo‘rmas va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhni oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Aziz Vatan himoyachilar!

Sizlarni bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor samimiylab, tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, oliyanob va mas’uliyatli faoliyattingizda ulkan zafarlar tilayman.

Azm-u shijoatli O‘zbekiston harbiylari – Vatanimiz posbonlari-ga shon-sharaflar bo‘lsin!

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilarini kuni munosabati bilan yo‘llangan bayram tabrigi*

2024-yil 13-yanvar

---

## **ATROF-MUHIT VA BIOXILMA-XILLIKNI ASRASH UCHUN BARCHAMIZ MAS'ULMIZ**

Hurmatli delegatlar!

Xonimlar va janoblar!

Atrof-muhit va bioxilma-xillikni saqlash yo'lidagi muhim xalqaro tadbir – Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiya yig'ilishining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy tabriklayman.

Avvalambor, Konvensiya kotibiyati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha dasturiga ushbu nufuzli anjumanni mamlakatimizda o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, beba ho me'morchilik durdonasi hisoblangan ko'hna Samarqandga xush kelibsiz!

So'nggi yillarda ushbu qadimiylar va betakror shahar qator dolzarb muammolar bo'yicha muloqotlarning global markaziga aylanib bormoqda. Mazkur forum Samarqandning ekologik diplomatiyaning ta'sirli markazlaridan biri sifatidagi maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda 2023-yilning dekabr oyida bu yerda cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazilganini, joriy yil aprel oyida esa Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan yirik forum tashkil etilishini alohida ta'kidlamoqchiman.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Barchangizga yaxshi ma'lumki, hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari sayyoramiz ekotizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Afsuski, hozirgi kunda ular iqlim o'zgarishi, yashash joylarining yaroqsiz holga kelishi, noqonuniy ov va savdo kabi jiddiy tahdidlar bilan to'qnash kelmoqda.

Natijada hayvonlarning genetik resurslari qisqarmoqda, ularning nodir va noyob turlari, tabiiy uyg'unlik va ekotizimlar yo'qolib bormoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, Yer yuzidan so'nggi 50 yilda ularning 100 dan ortiq turi, Markaziy Osiyoda esa 26 turdag'i qushlar, 12 turdag'i sutevizuvchilar, jumladan, Turon yo'lbarasi, Osiyo qoploni va boshqa endemik turlar butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Bioxilma-xillikni kelajak avlodlar va barqaror rivojlanish uchun saqlash, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligini ta'minlash – bizning umumiy maqsadimiz. Bu butun xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirishni, muvofiqlashtirilgan va kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

### Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O'zbekistonda yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda, eng avvalo, sohaning huquqiy bazasi takomillashtirildi, yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ularning samarali ijrosi ta'minlanmoqda. Davlat boshqaruv organlari, biznes va fuqarolik jamiyatlarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirishni qamrab olgan institutsional tizim mustahkamlanmoqda.

Mazkur sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarning eng ilg'or maktabi bo'lgan Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti o'z faoliyatini qayta tikladi. Qisqa muddatda ko'chib yuruvchi turlarni ishonchli himoya qilishni ta'minlovchi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar uch karra oshirilib, mamlakatimiz umumiy maydonining 14 foiziga yetkazildi. O'zbekistonning nodir tabiat landshaftlari UNESCOning Butunjahon tabiiy meros ro'yxati, Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog'iga va Ramsar konvensiyasi obyektlari ro'yxatiga kiritildi.

Yovvoyi hayvonlarni parvarish qilish uchun yangi pitomniklar tashkil etildi. Noyob qush turlari va sutemizuvchilarining o‘z yashash makonlarida ko‘payishini qayta tiklash bo‘yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmonlar yaratilgani o‘simgiliklar xilma-xilligini va hayvonot dunyosini qayta tiklash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston 2024–2027-yillarda Konvensiyaga raisligi davrida ko‘chib yuruvchi hayvon turlarini himoya qilishga o‘zining butun kuch va salohiyatini to‘liq safarbar qilishga tayyordir. Biz Samarqandda bu borada kelgusidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan 2024–2032-yillarga mo‘ljallangan Yangi strategik reja tasdiqlanayotganini olqishlaymiz.

Shuningdek, Hayvonlarning ko‘chishiga to‘siqlardan xoli ekologik yo‘laklarni yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Infratuzilma obyektlari – avtomobil va temiryo‘llar, gaz quvurlari va chegara inshootlarining qurilishi yovvoyi hayvonlar migratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini kamaytirish uchun ekologik baho berilishi bo‘yicha talabni kuchaytirish muhim, deb hisoblaymiz.

Hozirgi vaqtida O‘zbekiston transchegaraviy tabiiy parklar yaratish bo‘yicha mintaqalari mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda va ular sonini keskin ko‘paytirish niyatidamiz.

Bir vaqtlar Ustyurt platosi kengliklarida yashagan va inson omili ta’sirida yo‘qolib ketgan Osiyo qoploni populatsiyasini qayta iqlimlashtirishni boshlash niyatidamiz. Olimlar va ekspertlarni bu yo‘nalishda hamkorlikka chorlab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Toshkentda o‘z vakolatxonasini ochish bo‘yicha qarori uchun alohida tashakkur aytmoqchiman. Biz tashkilotning mintaqamiz flora va faunasini saqlab qolishdek xayrli faoliyatiga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatishga tayyormiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bugungi konferensiyada qabul qilinayotgan qarorlarning hayotga tatbiq etilishi ko'chib yuradigan yovvoyi hayvonlarni saqlash bo'yicha xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu yo'ldagi sharaflı va mas'uliyatlı ishlaringizda sizlarga katta omadlar, kuch-g'ayrat va yangi muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilayman.

*BMTning yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini  
saqlab qolishga doir konvensiyasiga a'zo tomonlar ishtirokidagi  
konferensiyaning 14-yig'ilishi ishtirokchilariga tabrik*

2024-yil 12-fevral

---

## **MAMLAKATIMIZ XOTIN-QIZLARI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO'LIB QOLADI**

Assalomu alaykum, hayotimiz quvonchi, fayz-u farishtasi bo'lgan muhtarama onaxonlar, hurmatli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday tantanali anjumanda uchrashib, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollarini Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan qutlash men uchun ulkan sharaf va saodatdir.

Barcha-barchangizga samimiyl mehrim va cheksiz hurmatimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

O'zlarining kabi go'zal bayramingiz muborak bo'lsin!

Muhtaram vatandoshlar!

Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siyosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero, inson qad-rini ulug'lash, avvalo, aziz-u mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi.

Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning, jannat bog'i-dan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin, degan so'zlarini biz eng ezgu da'vat sifatida qabul qilamiz.

Biz hayotimizning ma'no-mazmuni, butun borlig'imizni siz, qadrli opa-singillarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz. Sizlar biz uchun hamisha go'zallik va nazokat, mehr va sadoqat, qanoat va shukronalik timsoli bo'lib kelgansiz va doimo shunday bo'lib

qolasiz. Mana shunday oliyjanob fazilatlarining bilan bizlarga hamma vaqt kuch-g'ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag'ishlab ke layotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.

Hurmatli opa-singillar!

Yurtimizda mehnatkash, oliyjanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, “**O‘zbekiston – 2030**” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayol larning huquq va manfaatlarini ta’minalash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligidan takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdig‘ini birgina misol, ya’ni Saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo‘lishi zarurligi mustahkamlab qo‘yilganida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bugun ushbu muhtasham zalda hurmatli deputat va senator ayollarimizni ko‘rib turganimdan xursandman. Mamlakatimizda qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarimizning adolatli va ta’sirchan bo‘lishida ularning ham, albatta, hissasi katta. Buning uchun xalq vakillari bo‘lgan bu ayollarimizga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz.

Hozirgi vaqtida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani, ayniqsa, e’tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko‘rsatayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta’kidlash lozim.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ham salmoqli nati-jalarga erishilmoqda.

So‘nggi 5 yil ichida O‘zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan zi-yod tadbirkorlik loyihamariga 13 trillion so‘mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tad-birkorlikka o‘qitildi. Eng asosiysi, 400 mingdan ortiq opa-singilla-rimiz ish bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so‘mlik ipote-eka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oilalar o‘z uyiga ega bo‘ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar ayolga uy-joy sharoitini yaxshi-lash va kreditning boshlang‘ich badalini to‘lash uchun 200 milliard so‘m subsidiya ajratilganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘tgan yilning o‘zida “Ayollar daftari” bo‘yicha 1 trillion 234 mil-liard so‘m hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muam-mosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faol-larining ishtiroki kuchayib borayotgani, ayniqsa, muhimdir. Ular tomonidan “xonadonbay” o‘rganishlar natijasida ijtimoiy yordam-ga muhtoj 690 mingdan ziyod oilaga manzilli yordam ko‘rsatil-gani, 116 mingta notinch oilada muhit sog‘lomlashtirilganini bugun alohida e’tirof etamiz.

Qadrli do‘sstar!

Mamlakatimizda bo‘lg‘usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo‘l-mish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta’lim olishi, zamonaviy

kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda oliyohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pi – e'tibor bering, yarmidan ko'pi, ya'ni 653 ming nafardan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlарimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu – jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani.

Joriy o'quv yilida ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliyohlarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy budjetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliyohlarining magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari budgetdan to'lanmoqda.

Eng muhimi, qizlarimiz o'rtasida zamонави bilim va kasb-hunarlarga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya'ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan.

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o'z sohalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko'rish mumkin. Birgina 2023-yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mamnun etadi.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko'rsatmoqda. Oliyohlarda esa 14 mingdan zi-

yod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda.

Bu raqamlar nimadan dalolat beradi?

Bu, avvalo, qizlarimiz, opa-singillarimizning intellektual salohiyati naqadar balandligidan, agar tegishli sharoit va imkoniyat yaratib bersak, ular har qanday yuksak marrani zabit etishga qodirligidan dalolat beradi.

Albatta, oila yumushlari, farzand tarbiyasi bilan birga, turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilayotgan opa-singillarimizning mehnatini munosib qadrlash doimo davlatimiz e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida hurmatli ayollarimizdan 17 nafari “O‘zbekiston Qahramoni” degan oliy unvonga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, ularning 7 nafari fan, ta’lim va san’at sohasi vakillari ekanini alohida ta’kidlash lozim. 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya’ni akademik unvoniga sazovor bo‘lgani, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlanib kelayotgani el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasidir.

Aziz vatandoshlar!

Hammamizga ma’lumki, bugun dunyoda murakkab va og‘ir vaziyat, iqtisodiy inqiroz hukm surmoqda. Tabiiyki, bu holat mammakatimizga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bunday sharoitda ijtimoiy sohalar uchun budgetdan mablag‘ ajratish, albatta, oson bo‘layotgani yo‘q. Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasisin, biz qo‘srimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, xotin-qizlarimizning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdamiz va bu ishlarimiz albatta davom etadi. Chunki ayollarning, xususan, qiz bolaning o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Opa-singillarimiz salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xalqimiz genofondini mustahkamlash inson qadrini ulug‘lashning o‘zak masalasidir. Shu maqsadda 2023-yili 6 million 500 ming nafardan ziyod ayollar tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilib, ularga zarur maslahat va amaliy yordam ko‘rsatildi.

Bu kabi ezgu ishlarimizning davomi sifatida Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili davlat dasturi doirasida xotin-qizlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning bandligini ta‘minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish vazifalari alohida belgilab qo‘yildi.

Bu borada mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko‘tarish, ularning bandligiga ko‘maklashish maqsadida, Senat Raisi T. Norboyeva boshchiligidagi maxsus komissiya tashkil etiladi. Ushbu komissiya kelgusi yil 8 martga qadar har bir hududa “favqulorra holat” rejimida ishlab, xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qiladi.

Mazkur komissiyada “Xalq banki” raisining o‘rinbosari G. Rashidova xotin-qizlarning biznes g‘oyalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun mas’ul bo‘ladi. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi, “Biznesni rivojlantirish banki” va “Mikrokreditbank”da ham ayollar tadbirkorligiga ko‘maklashish bo‘yicha alohida rais o‘rinbosarlari ish boshlaydi. Ana shu rahbarlar har bir viloyat, har bir tuman, har bir mahallada yangi biznes g‘oyalariga ega xotin-qizlarni aniqlash, ularning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, loyihamalarini sifatli ishlab chiqish va amalga oshirishga har tomonlama ko‘mak beradilar.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari, hokimlarning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari hamda faol ayollar komissiya bilan birgalikda joriy yilda 9 ming 442 ta mahalladagi 580 ming na-

farga yaqin ishsiz ayollarning bandligini ta'minlash uchun mas'ul etib belgilanadi.

Bu borada mahallalarda oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning kamida 40 foizi ayollar taklif etgan loyihalarga yo'naltiriladi. Shu maqsadda har bir hududda xotin-qizlar uchun hunarmandchilik, tadbirkorlik markazlari va klasterlari tashkil etiladi. Ushbu maskanlarda 205 ming nafar opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga tayyorlanadi hamda tadbirkorlik asoslariga o'rgatiladi.

Shuningdek, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 8 ming nafar xotin-qizga o'z biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratiladi. 50 ming nafar yosh ayollar uchun malakali mutaxassislar ishtiroki-da "Biznes marafon" loyihasi tashkil etiladi. Ushbu loyiha doirasida yuzlab qobiliyatli qizlarimizga o'z biznesini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy yordam beriladi.

Umuman, bir oy muddatda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha alohida dastur qabul qilinib, loyihalarni amalga oshirish uchun 15 trillion so'm, jumladan, oilaviy tadbirkorlik loyi-halariga 6 trillion so'm ajratiladi. Bundan tashqari, Saudiya Arabiston, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyadagi elchilarimiz ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 100 million dollarlik grantlarni jalb qiladi.

Sog'liqni saqlash sohasida ham bir qator muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, murakkab jarrohlik operatsiyasi o'tkazishga muhtoj 2 ming nafar xotin-qiz davlat budgeti va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan davolanadi.

Shu bilan birga, 1 million nafar homilador ayol hamda 1 million 500 ming nafar emizikli ona yod preparati, qariyb 6 million nafar reproduktiv yoshdagi ayollar temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlanadi.

Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 4 ming nafar xotin-qizga uy-joy ajratiladi. Shu toifadagi 3 ming nafar ayol uchun murakkab tibbiy operatsiyalar bepul o‘tkaziladi.

Yurtimizda “Qizlar akademiyasi” platformasi yaratilib, 100 ming nafar opa-singillarimizga moliyaviy, huquqiy, psixologik, reproduktiv bilim berish yo‘lga qo‘yiladi.

Bunday amaliy ishlarimiz ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

### Qadrli anjuman ishtirokchilar!

Yaqinda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etilganidan xabaringiz bor. Bu esa aholining, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz muammolarini hal etish bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Ayniqsa, “Mahalla yettiligi” tarkibidagi xotin-qizlar faollaridan biz katta natijalarni kutib qolamiz. Opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, muammolariga yechim topish, kerak bo‘lsa, oilaviy masalalarda ayollarimizning yaqin sirdoshiga aylanish ular uchun birinchi darajali vazifa bo‘lishi lozim.

Dunyoda o‘xshashi bo‘limgan bunday tizimni joriy etishdan maqsad ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini quyi bo‘g‘indan boshlab samarali himoya qilish ekanini siz, azizlar, albatta, yaxshi tushunasiz. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatni qurish yo‘lida tashlangan yangi bir amaliy qadam, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

### Aziz yurtdoshlar!

Vatanni sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, el-yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalash – bu dunyodagi eng ulug‘ va sharaflı ishdır. Mehribon va oqila, jonkuyar ayollarimiz bu borada hamisha fidoyilik ko‘rsatib kelmoqdalar.

Ma’lumki, har yili aholimiz soni qariyb 900 ming nafarga ko‘paymoqda. Joriy o‘quv yilida 733 ming nafar farzandlarimiz birinchi sinfga qadam qo‘ydi. Ertaga hayotimizga qudratli to‘lqin

bo'lib kirib keladigan ana shunday navqiron avlodimiz timsolida biz Yangi O'zbekiston buniyodkorlarini ko'ramiz.

Shu bois o'g'il-qizlarimizni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish barchamizning asosiy burchimizga aylanishi zarur.

Bugungi tahlikali zamonda jahon miqqosida kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, hayotga yengil-yelpi, iste'molchilik kayfiyati bilan qarash kabi xatarlardan yoshlarimizni himoya qilish o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagи barcha ayollarga murojaat qilmoqchiman.

**Aziz opa-singillar, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborni kuchaytiraylik, bog'cha, maktab va oliygochlarga kirib boraylik.**

O'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, farzand va nabiralarimizning o'qishi, davomati masalasi, axloq-odobi bilan qiziqaylik.

**Bolalarimizni bilimli va aqli, ojni qoradan ajrata oladigan, el-yurtimizga sodiq, hayoli va iboli, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalash uchun barchamiz birgalikda harakat qilaylik.**

Biz ma'naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz kerak. "Ezgulik – shiorimiz, ma'rifat – qurolimiz" degan g'oya asosida bu jarayonni, avvalo, oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim.

Zotan, hadisi sharifda aytildiganidek, "Ota-onan o'z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirolmaydi".

Muhtarama opa-singillarimiz, duogo'y onaxonlarimizning mas'uliyati – aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Chindan ham, jondan aziz bolalarimiz hamma havas qiladigan ta'lim va tarbiya olsa, bilasizlarmi, jamiyatimiz, hayotimiz qanday o'zgaradi?

Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu vazifani ado etishda biz, avvalo, siz, azizlarga ishonamiz va tayanamiz.

Qadrli do'stlar!

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha to'plangan milliy tajriba xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Jahan bankining kuni kecha e'lon qilingan indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi **eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat** qatorida qayd etildi.

"Ayollar, biznes va qonun" deb nomlangan ushbu yillik hisobotda dunyoning 190 ta davlatidagi holat 10 ta ko'rsatkich bo'yicha baholab boriladi. Yangi indeksda mamlakatimizda mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilgan. O'zbekiston bu borada yaxshi natijaga erishgani e'tirof etilgan.

O'tgan yili Toshkent va Samarcand shaharlarida o'tkazilgan nufuzli xalqaro xotin-qizlar forumlarida ham mustaqil tahlilchi va ekspertlar tomonidan ayni shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilgani bezjiz emas.

Bularning barchasi, albatta, biz birgalikda qo'lga kiritgan katta yutuq bo'lib, bu ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim.

Joriy yilda mamlakatimiz yana bir yirik anjuman – **Osiyo xotin-qizlar forumiga** mezbonlik qiladi. Mazkur anjuman "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Bu forum gender siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish bo'yicha samarali muloqot maydoni bo'ladi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning hurmatli elchilarini va xalqaro tashkilotlar vakilalarini ham samimiy qutlaymiz. Ularning mamlakatlari va xalqlariga chin dildan tinchlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Hurmatli do'stlar!

Xabaringiz bor, har yili 8-mart ayyomida turli sohalardagi dastlabki yutuqlari uchun buyuk o'zbek shoirasi – Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan iste'dodli qizlarimizni muborakbos etamiz.

Bugungi bayram tadbirimiz ana shu qizlarimiz, ularning otonalari, ustozlari uchun, o'ylaymanki, unutilmas tarixiy voqeab o'lib qoladi.

Siz, aziz farzandlarimni yuksak mukofot bilan o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimi tabriklayman. Bunday ulkan e'tirofni kelajakda katta-katta yutuqlar bilan, albatta, oqlaysizlar, deb ishonaman.

Ayni vaqtida bugungi bayram arafasida mehnat va jamoatchilik faoliyatida muhim natijalarga erishgan, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan hurmatli ayollarimizdan katta bir guruh davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlandilar.

Barchamiz ularni chin qalbdan qutlab, kelgusi ishlariga yangi muvaffaqiyat va omadlar tilaymiz.

Muhtarama opa-singillar!

Siz, azizlarni bugungi bahor va nafosat bayrami bilan yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlilik, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, fayz-u baraka tilayman.

Har biringizga hamisha oilangiz, farzand-u nabiralaringiz, el-yurtimiz ardog'ida bo'lish nasib etsin!

Katta rahmat sizlarga!

*Xalqaro xotin-qizlar kuniga  
bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq*

2024-yil 7-mart

---

## **MUBORAK RAMAZON OYI KIRIB KELISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON XALQIGA TABRIK**

Qadrli vatandoshlar!

Butun Yer yuzidagi islom ummati bilan birga jonajon O'zbekistonimizning barcha mo'min-musulmonlari ham qutlug' va muborak Ramazon oyini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Dunyo musulmonlari uchun eng aziz va qadrli bo'lgan, barcha ezgu niyatlar ijobat bo'ladigan Ramazoni sharifning kirib kelishi bilan siz, azizlarni, butun xalqimizni chin yurakdan muborakbod etib, barchangizga o'zimning yuksak ehtiromim va samimiyl tilaklarimni izhor etaman.

Avvalo, qalblarimizga iymon nurini bag'ishlaydigan ushbu ulug' ayyomni yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik muhitida, oilamiz, el-yurtimiz davrasida kutib olayotganimiz uchun Parvardigori olamga cheksiz shukronalar aytamiz.

Ma'naviy poklanish, sabr-qanoat, xayr-u saxovat fazilatlari zi-yoda bo'ladigan mohi Ramazonni milliy an'ana va qadriyatlarimizga mos, yuksak darajada o'tkazish, yurtimiz musulmonlarining ibodat amallarini emin-erkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi.

"Inson qadri – ulug'" degan oliyjanob tamoyilimizdan kelib chiqqan holda, mazkur fazilatlari oyda xalqimiz manfaatlarini ta'minlash, yosh avlodimizni bilim-ma'rifat, yaxshi xulq-odob sohiblari etib tarbiyalash, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatimiz, el-yurtimiz o'rtaida mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash, muqaddas qadam-

jo va ziyoratgohlar, qabristonlarni obodonlashtirishga qaratilgan savobli ishlarimiz yanada ziyoda bo‘ladi, deb ishonamiz.

Zero, hadisi shariflarda zikr etilganidek, bu oyda qilingan birgina yaxshilik o‘n karra mukofot bo‘lib qaytadi.

Ming afsuski, bugun dunyoning bir qancha mintaqalarida notinchlik, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda, begunoh insonlarning qoni to‘kilmoqda. Biz butun xalqimiz bilan birga yaratgan Egamdan dunyoda tinchlik va osoyishtalik qaror topishini, go‘zal diyorimizdagi tinch-osuda hayat bardavom bo‘lishini chin dildan so‘rab, Qadr kechalarida ixlos bilan duolar qilamiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu shukuhli lahzalarda dunyo mo‘min-musulmonlarini, do‘sst va hamkorlarimizni muqaddas Ramazon oyi bilan samimiyl qutlab, ularning davlatlari va xalqlariga tinchlik-omonlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Ramazoni sharif el-yurtimizga qut-baraka, har bir xonadonga shod-u xurramlik, yangi yutuq va omadlar olib kelsin!

Ramazon oyi yana bir bor barchamizga muborak bo‘lsin!

2024-yil 11-mart

---

## NAVRO‘Z – SHARQONA YANGI YIL DEBOCHASI, YASHARISH VA YANGILANISH AYYOMI

Assalomu alaykum, aziz va muhtaram vatandoshlar!

Uzoq-yaqindan tashrif buyurgan hurmatli mehmonlar!

Siz, qadrdonlarimni, ko‘p millatli butun O‘zbekiston xalqini barchamiz sog‘inib kutgan Navro‘zi olam bilan samimiyl muborak-bod etishdan baxtiyormen.

Bugun fasllar almashib, yer-u ko‘kda ilohiy mo‘jizalar yuz ber-moqda. Yangi kun, yangi mavsum, yangi hayat nafasi boshlanmoqda. Tabiat uyg‘onishi bilan zimiston kechalardan zerikkan ko‘ngil-lar yasharib-yayramoqda.

Albatta, bugungi shodiyona bayramni el-yurtimiz bilan muaz-zam “Yangi O‘zbekiston bog‘i”da o‘tkazishni niyat qilgan edik. Lekin hammamiz ko‘rib turibmiz – so‘nggi kunlarda havo sovib, harorat biroz pasayib qoldi. Bugun obi rahmat yomg‘irlari bilan os-monidan rizq-u ro‘z, qut-baraka yog‘moqda. Hammamiz bu holatni shukronalik bilan qabul qilamiz.

Mana shu muhtasham saroyda turib, barcha-barchangizga eng ezgu va samimiyl tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Xush kelibsan yurtimizga, go‘zal Navro‘z!

Olam sen bilan nurga to‘lsin!

Sharqona Yangi yil hammamizga muborak bo‘lsin!

Qadrli do‘stlar!

Mana shu quvonchli kunlarda ona zaminimiz, jonajon O‘zbekistonimiz bamisoli ulkan va muhtasham bir sayilgohga aylanmoqda. Farg‘ona vodiysi-yu Surxon va Qashqadaryo tog‘larida, Xorazm

va Qoraqalpoq diyorida, Samarqand-u Buxoro, Navoiyning go'zal bog'larida, Jizzax-u Sirdaryo kengliklarida, Toshkent vohasining yam-yashil adirlarida, azim poytaxtimiz maydonlarida el-yurtimiz sayil-tomoshalar o'tkazib, Navro'zni shod-u xurramlik bilan kutib olmoqda.

Navro'zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog'lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko'rish mumkin. "**Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!**" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan xalqimizning oliy-janob mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaviy korxonalar, shinam uy-joylar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yurtimiz qiyofasi kundan kunga obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimizga mehr va e'tibor ko'rsatish faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Mamlakatimizdagi do'stlik va hamjihatlik muhiti, yaxshi qo'sh-nichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonimizning obro'-e'tibori yuksalmoqda.

Navro'zi olamning insonparvarlik, tinchlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlariga uyg'un va hamohang bunday ishlarimizni biz kelgusida yanada kengaytiramiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Navro'zi olam bizni butun borliqni, avvalambor, yer va suv, hayvonot va o'simlik dunyosini, sof havoni asrab-avaylab, ona tabiatga mehribon farzand bo'lib yashashga da'vat etadi.

Ana shunday ezgu chorlovga javoban bugungi kunda yurtimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda, Navro'z hasharlari o'tkazilmoqda. Jumladan, "**Yashil makon**" loyihasi doirasida millionlab mevali va manzarali ko'chatlar ekilmoqda, yangi bog'-u rog'lar barpo etilmoqda.

**Qadimiy qo'shiqlarimizda Navro'z xazinalar ochiladigan baraka ayyomi**, deb tarannum etiladi.

Mana, bugun mirishkor dehqon va fermerlarimiz, bog'bon va chorvadorlarimiz yangi mehnat mavsumini boshlamoqda.

Ilohim, bobodehqonlarimizning omadini, baxtini bersin!

Daryolarimiz suvgaga to'lib, hosilimiz mo'l bo'lsin!

Aziz do'stlar!

**Yoshlik – inson umrining bahori, uning Navro'z bayramidir. Yoshlik – odamzod kamolot osmonida yulduzdek charaqlaydigan bebaho davrdir.**

Yangi O'zbekiston farzandlari – yuzlab, minglab o'g'il-qizlarimiz turli sohalardagi yutuqlari bilan bu fikrni amalda isbotlamoqdalar. Ularning kuch-g'ayrati, ezgu harakatlariga qanot berish maqsadida biz joriy yilni mamlakatimizda "**Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili**" deb e'lon qildik.

Chunki doimo izlanish, tashabbus va yangilikka, o'zligini namoyon etishga intilish yoshlik va tadbirkorlikka xos fazilatlar hisoblanadi.

Bu haqda gapirganda, bir fikrga alohida urg'u berishni istardim. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik azal-azaldan xalqimizning qonida, ong-u tafakkurida yashab kelmoqda. El-yurtimiz qadim zamonlar-dayoq qo'li gul usta va hunarmandlari, mirishkor dehqonlari, yetti iqlimni kezgan savdogarlari, noyob mahsulotlari va noz-ne'matlari bilan butun dunyoga dong taratgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda yangi tadbirkorlar avlodi ana shu an'anani munosib davom ettirib, dadil maydonga chiqmoqda. Eng muhimi, biznes sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizda ham hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Biz ishbilarmonlik muhiti rivoji uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib beramiz. Joriy yilda qabul qilingan davlat dasturidagi maqsadlarga 36,5 trillion so'm va 460 million dollar mablag' yo'naltirish belgilangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Oilaviy tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish dasturlari doirasida 50 mingdan ziyod yurtdoshlarimizga Biznesni rivojlantirish banki orqali zarur moliyaviy va moddiy yordam ko‘rsatiladi. Jumladan, ularga garov talabisiz 100 million so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bundan tashqari, o‘rtta biznes vakillariga 1,5 milliard so‘mga cha bo‘lgan imtiyozli kreditlar 7 yil muddatga beriladi. Umuman, joriy yilda barcha turdagи tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 millionga yaqin aholiga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatiladi.

Muxtasar aytganda, Yangi O‘zbekistonni tadbirkorlik va biznes uchun eng qulay va jozibador mamlakatlardan biriga aylantirish yo‘lida yangi amaliy qadam qo‘yamiz.

Bugungi kunda yurtimiz yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida, madaniyat va san’at, IT va sport yo‘nalishlaridagi nufuzli tanlov va festivallarda faol ishtirok etib, g‘olib va sovrindor bo‘lib kelayotganlari barchamizni quvontiradi.

Birgina misol. Navqiron sportchilarimiz o‘tgan yili **Osiyo o‘yinlarida 22 ta oltin, 18 ta kumush, 31 ta bronza medalni** qo‘lga kiritib, O‘zbekistonning ushbu musobaqalardagi rekordini yangiladilar.

Xabaringiz bor, yaqinda mashhur shaxmat grossmeysteri – Nodirbek Abdusattorov Praga xalqaro turnirida muddatidan oldin g‘alaba qozonib, jahondagi eng kuchli to‘rtta shaxmatchining biriga aylandi.

Kelinglar, shu ulug‘ ayyom kunda barchamiz astoydil niyat qilaylik: Nodirbekka Vatanimizga jahon shaxmat tojini olib kelish nasib etsin! Sen bunga, albatta, qodirsan, Nodirbek o‘g‘lim! Butun el-yurtimiz sendan shu buyuk g‘alabani kutmoqda.

Eng quvonarlisi, bunday yuksak marralarni zabt etishda qizlarimiz ham o‘g‘lonlarimizdan qolishmayapti. Xususan, iste’dodli qizimiz Zaynab Dayibekova qilichbozlik bo‘yicha Peruda bo‘lib o‘tgan jahon kubogi o‘yinlarida O‘zbekiston sporti tarixida birinchi marta bronza medalni qo‘lga kiritdi.

Yana bir mahoratli qizimiz Shahina Yigitaliyeva esa Paraosiyo o‘yinlarida nayza otish bo‘yicha oltin medalga sazovor bo‘lib, mazkur musobaqalar rekordini yangiladi.

Aziz sportchi farzandlarim, sizlarni oldinda g‘oyat muhim va ulkan sinov – Parij Olimpiadasi va Paralimpiya o‘yinlari kutmoqda. Jahonning eng zo‘r sportchilari bellashadigan ana shu musobaqlarda O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarib, yurtimizga qo‘sha-qo‘sha medallar, yutuq va sovrinlar olib kelasiz, deb ishonaman.

Barchangizga g‘alaba yor bo‘lsin!

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Navro‘zning o‘lmas ruhi, ayniqsa, mahallalarimiz hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Barchangiz guvohsiz, keyingi ikki-uch oyda bu sohada qanday katta o‘zgarishlar yuz berdi! Mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etildi. Hamma soha va yo‘nalishlar bo‘yicha “mahalla yettiligi” tizimi samarali faoliyat olib bormoqda.

Albatta, bu tizimni tashkil etganimiz, shu boradagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadini oshirish, kambag‘alilikni qisqartirishga qaratilgan dasturlarimiz zamirida katta hayotiy ma’no bor.

Ana shu ishlarimizni kuchaytirish maqsadida Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida yangi tajriba joriy etilmoqda.

Bu borada, ayniqsa, tomorqa yerlaridan unumli foydalanish, tomorqa egalarini zarur vosita va resurslar bilan ta’minlash, ular yetishtirgan mahsulotga bozor topib berish uchun ko‘maklashish, har qaysi oila va mahallada kichik-kichik ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish, servis va xizmat turlarini ko‘paytirish asosiy maqsadimizga aylanmoqda.

O‘zingiz tasavvur qiling, hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo‘yicha besh yarim millionta xonadonda 510 ming hektar – e’tibor bering –

510 ming hektar tomorqa yerlari bor. Bu – hali to‘la ishga solinmagan ulkan imkoniyat, katta boylikdir.

Barchamizga ayonki, O‘zbekiston sharoitida ana shunday imkoniyatlardan foydalanib, astoydil mehnat qilgan odam hech qachon kam bo‘lmaydi.

Mana, so‘nggi ikki yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 17 foizdan 11 foizga tushirishga erishdik. Albatta, bu natijalar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Shu davrda 900 mingga yaqin aholiga qariyb 20 trillion so‘m imtiyozli kredit, 200 mingdan ziyod fuqarolarga 1,5 trillion so‘m subsidiya, qariyb 700 ming oilaga esa dehqonchilik uchun 200 ming hektar yer ajratib berilgani bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Eng asosiysi, tadbirkorlik, jumladan, tomorqadagi mehnat odamni, ayniqsa, yoshlarni jismoniy va ma’naviy tarbiyalaydi, ularni o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonib yashashga o‘rgatadi.

Ta’kidlab aytmoqchiman: davlatimiz bunday faol insonlarni doimo qo‘llab-quvvatlaydi.

Masalan, xonardonlardagi tomorqada yetishtiriladigan mahsulotlarni sotib oluvchi, qayta ishlovchi, shu mahsulotlarni eksport qiluvchi tadbirkorlarga 300 million so‘mdan 1 milliard so‘mgacha grant beriladi. Bundan tashqari, bo‘sh yerdarda sanoatbop daraxtlar o‘stirish, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik uchun qo‘srimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz iqtisodiyot kompleksining barcha rahbar va xodimlari mahalla darajasiга tushib, ishni tashkil etishga mas’ul va javobgar bo‘ladi.

Ro‘zayi ramazon kunlarida yaxshi niyat bilan Sayxunobodda boshlangan tajriba butun yurtimiz bo‘ylab keng tarqaladi, deb ishonaman.

Albatta, bu oson ish emas. Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, o‘z kasbinining ustasi va fidoyisi bo‘lgan xalqimiz, tog‘ni ursa tolqon qি-

ladigan azamat yoshlarimiz bilan barchamiz birqalikda bu vazifani amalga oshirishga qodirmiz.

Tabiiyki, bu borada fuqarolik jamiyatining noyob namunasi bo‘lgan mahalla yetakchi o‘rin tutadi.

Shu bois mahallani qo‘llab-quvvatlash, uni yanada rivojlantirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Chunki **mahalla** – bu mehr va ahillik qo‘rg‘onidir. **Mahalla** – oqko‘ngil, bunyodkor xalqimiz qalbining ko‘zgusidir.

Fursatdan foydalanib, 22-mart kuni mamlakatimizda nishonlanadigan **Mahalla tizimi xodimlari kuni** bilan barcha yurtdoshlarimizni, jonkuyar va fidoyi mahalla faollarini chin yurakdan tabriklab, ularning ishlariga muvaffaqiyat tilaymiz.

Qadrli do‘sstar!

Dunyodagi vaziyat tobora murakkab va tahlikali tus olayotgan hozirgi kunda Navro‘z Yer yuzida turli xalqlar va millatlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashdek ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Bugungi davramizda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diplomatik korpus namoyandalarini ko‘rib turganimdan g‘oyat mammunman. Fursatdan foydalanib, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilarini, xalqaro tashkilotlar vakillarini samimiy qutlab, ularning mamlakatlari va xalqlarini **21-mart – Xalqaro Navro‘z kuni** bilan muborakbos etib, barchalariga qizg‘in salom va tabriklarimizni yo‘llaymiz.

Bu yilgi Navro‘z bayrami fazilatli Ramazon oyida bo‘lib o‘tayotgani uning fayz-u tarovatini yanada ziyoda qilmoqda.

Ushbu muborak ayyomda mamlakatimiz mo‘min-musulmonlarini, butun islam ummatini yana bir bor qutlab, ularning chin dildan qilayotgan duolari ijobat bo‘lishini Parvardigori olamdan so‘raymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Mana shu bahoriy lahzalarda barchamiz ulug‘ ajdodlarimizning tilaklariga qo‘silib, ilohim, har kunimiz **Navro‘zdek go‘zal, Navro‘zdek fayzli va mazmunli bo‘lsin**, deb niyat qilamiz.

Barchangizga sihat-salomatlik, yangi yutuq va zafarlar, oilaviy baxt va farovonlik tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

*Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan  
tantanali marosimdag'i nutq*

2024-yil 21-mart

---

## **RAMAZON HAYITI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON XALQIGA TABRIK**

**Qadrli vatandoshlar!**

Avvalo, muqaddas dinimiz buyurgan ibodat va amallarni muborak Ramazon oyida chin dildan, ixlos bilan ado etib, bugun hayat ayyomini katta shod-u xurramlik bilan kutib olayotgan siz, azizlarni, yurtimizdagи jamiki mo'min-musulmonlar, butun xalqimizni samimiy tabriklab, barchangizga o'zimning yuksak ehtiromim va eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Shunday saodatli damlarga yetkazgani uchun Alloh taologa behisob shukronalar bo'lsin!

Sidqidildan qilgan duo va niyatlarimiz, ehson va amallarimizni Parvardigori olam o'z dargohida qabul aylasin!

Inson qadrini ulug'laydigan savobli ishlarimiz bardavom bo'lsin!

**Aziz yurtdoshlar!**

Hammamizga ayonki, islom dini – tinchlik, ezgulik va inson-parvarlik dinidir. Muqaddas kitoblarimizda "Tinchlik-omonlik, o'zaro do'stlik va ahillikka intilib yashash – chin mo'minga xos fazilatdir", deb ta'kidlangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bu yilgi Ramazoni sharif kunlarida ana shu qadriyatlar hayotimizda yanada yorqin namoyon bo'ldi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar dinimizning asl mohiyati bilan, uning oliyjanob g'oya va tushunchalari bilan uyg'un va mushtarak ekanini barchamiz yana bir bor chuqur his etdik.

Pok niyatlar ijobat bo'ladigan ushbu oyda diyorimiz musulmonlari diniy amallarni emin-erkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar

yaratildi. Bemorlar, nogiron va keksa insonlar, kam ta'minlangan oilalar, ehtiyojmand qatlamlarga mehr va e'tibor yanada kuchaydi. Buni birgina misol, ya'ni ko'makka muhtoj insonlar uchun 20 milliard so'mdan ziyod moddiy yordam ko'rsatilib, mahalla va xayriya tashkilotlari tomonidan barcha hududlarimizda iftorlik va ehson marosimlari o'tkazilgani ham tasdiqlaydi.

Ayniqsa, 25-mart oqshomida Namanganda Farg'ona vodiysida-gi uchta viloyat jamoatchiligi vakillari ishtirokida o'tkazilgan, butun mamlakatimiz mahallalarini qamrab olgan iftorlik marosimlari ko'p millatli O'zbekiston xalqini bamisoli bir dasturxon atrofida birlashtirib, ushbu oyga xos ezgu fazilatlarning yana bir mujassam ifodasi bo'ldi.

Qutlug' Ramazon kunlarida bir guruh ulamolarimiz xorijiy mamlakatlarga borib, vatandoshlarimizga xalqimizning samimiyl salomi va ezgu tilaklarini yetkazib, ularni islom ma'rifatidan bahramand etganlari, ayniqsa, e'tiborga sazovordir.

Hurmatli do'stlar!

Yangi O'zbekistonda yurtimizdagi barcha millat va konfessiya vakillari uchun vijdon erkinligini ta'minlash, ularning tili, madaniyati va urf-odatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, yangi masjidlar barpo etilmoqda, ulug' allomalar, aziz-avliyolarimizning qadamjolari obod qilinmoqda, milliy va diniy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Muborak haj va umra ziyoratlari uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

Mana, bu yil ham Ramazon hayiti munosabati bilan yurtimizda uch kunlik dam olish e'lon qilindi. Bu esa bayramni yanada fayzli va mazmunli o'tkazishga, o'zaro mehr-muruvvat rishtalarini bog'lashga xizmat qiladi, albatta.

Hech shubhasiz, bu boradagi ishlar kelgusida ham davom ettiladi. Buning uchun hozir dunyoda yuzaga kelgan g'oyat murakkab va tahlikali vaziyatda diyorimizdagi tinch va osoyishta hayotni ko'z qorachig'idek asrab, yanada hamjihat bo'lib, xalq manfaatini

ta'minlashga qaratilgan islohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish zarurligini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi anglaymiz.

Nuroniyalar, diniy-ma'rifiy soha vakillari, ko'p millatli do'stlik jamiyatlarining namunali hamkorligi va ularning "Yashil makon" umummilliy loyihasidagi faol ishtirokini alohida mammuniyat bilan e'tirof etamiz.

Ayni vaqtda yoshlarimizni azaliy qadriyatlarimiz bilan birga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, Vatan tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilib yashaydigan insonlar etib tarbiyalash asosiy burchimiz ekanini doimo yodda tutishimiz lozim. Jumladan, "Ezgulik – shiorimiz, ma'rifat – qurolimiz" degan da'vat asosida ta'lim maskanlari va mahallalarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishimiz kerak.

Bu borada haj va umra safarlariga borib kelgan yurtdoshlarimizning "mahalla yettiligi" va faollarimiz bilan birga alohida o'rnak ko'rsatish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaymiz. Yaratganning rahmati va mag'firati ziyoda bo'lib turgan ushbu munavvar lahzalarda xorijdagi yurtdoshlarimizni, uzoq va yaqin davlatlardagi barcha musulmon ummatini Ramazon hayiti bilan sidqidildan muborakbod etamiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Qalblarimiz quvonchga to'lgan mana shu mo'tabar ayyomda sizlarni muborak Ramazon hayiti bilan yana bir bor chin yurakdan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xonardonlarin-gizga fayz-u baraka tilayman.

Ilohim, barcha ezgu niyatlarimiz amalga oshsin!

Yaratganimizning o'zi el-yurtimizni panohida asrasin!

Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

2024-yil 9-aprel

---

## FUTBOL BO‘YICHA O‘ZBEKISTON YOSHLAR TERMA JAMOASIGA

Aziz farzandlarim!

Shu kunlarda Qatar davlatida futbol bo‘yicha yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan Osiyo kubogida muvaffaqiyatli ishtirok etib, bir yo‘la final yo‘llanmasi hamda shu yil yozda Parijda o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasini qo‘lga kiritganingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Jonajon O‘zbekistonimizning futbol tarixida birinchi marta erishilgan bunday yorqin g‘alabani, hech shubhasiz, mamlakatimizdag‘i barcha sport muxlislari, ko‘p millatli butun xalqimiz cheksiz quvonch va g‘urur bilan kutib oldi. Zero, bu el-yurtimizning necha yillik buyuk orzusi edi.

Bu orzuni amalga oshirish aynan sizlarga – Yangi O‘zbekistonning navqiron farzandlariga nasib etgani bilan har qancha faxrlansangiz, arziydi.

Albatta, sizlar erishgan bu tarixiy g‘alaba zamirida keyingi yillarda mamlakatimizda sport sohasini, jumladan, futbolni rivojlan-tirishga berilayotgan ulkan e’tibor va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli amaliy ishlar mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Shu bilan birga, sizdek azm-u shijoatli yoshlarimizning tajriba-li murabbiy va mutaxassislar rahbarligida mazkur musobaqaga puxta tayyorgarlik ko‘rib, har bir o‘yinda chinakam mahorat, jasorat va matonat namunasini ko‘rsatganingiz, albatta, yuksak tahsinga munosibdir.

Osiyo qit’asidagi eng kuchli jamoalar bilan qizg‘in kurashlar ostida bo‘lib o‘tgan 5 ta o‘yinda ham jamoamiz darvozasini daxlsiz

saqlab, raqiblar darvozasiga 14 ta javobsiz to‘p kiritganingiz ham futbolimiz tarixida misli ko‘rilmagan natijadir.

Ishonchim komilki, sizlar bu yutuqdan yanada ruhlanib, final bellashuvida “Osiyo championi” degan sharaflı nom uchun munosib kurash olib borasiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizga, sizlarning mehribon ota-onalariningiz, ustoz-murabbiylaringizga ham chin qalbimdan minnat-dorlik bildiraman.

Butun O‘zbekiston xalqi sizlarga hamisha baxt va omadlar, por-loq g‘alabalar tilaydi, aziz bolalarim!

*2024-yil 30-aprel*

---

## **INVESTITSIYALAR MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIGA YANGI KUCH, YANGI NAFAS OLIB KIRADI**

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etayotgan siz, azizlarni chin qalbimdan samimiyl qutlashga ijozat bergaysiz.

Shuni mammuniyat bilan ta'kidlashni istardimki, yildan yilga yaxshi an'anaga aylanib borayotgan ushbu format doirasida yurtimizda dunyoning barcha qit'alaridan yangidan yangi ishonchli hamkorlarimiz jam bo'lmoqda.

O'tgan uch yil davomida mazkur forum ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Bugungi tadbirimizga 93 ta davlatdan ikki yarim mingdan ortiq xorijiy mehmonlar kelgani ham forumning ahamiyati tobora ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda ortga qaytmas tus olgan islohotlarga, o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga bo'lgan ulkan qiziqishdan dalolat beradi.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Bugungi anjumanimiz global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo'lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to'g'ri kelmoqda.

Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar,

xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi – vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko'rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari so'nggi uch yil davomida pasaymoqda. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamaydi.

Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o'zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolaveradi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Biz mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashladik. Aynan shu bois har bir sarmoyador o'zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiryapmiz.

Sizlar yaxshi bilasiz, bundan yetti yil muqaddam biz uchun oson bo'limgan, lekin katta marralarni ko'zlagan tizimli islohotlarni boshlagan edik. Biz iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirishni asosiy maqsadimiz etib belgiladik.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha bu o'sish 6 foizni tashkil qildi. Inflatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko'rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valuta bozori va oltin-valuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolimmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining

14 milliard dollardan ortiq mablag‘lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

O‘tgan yilning o‘zida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar ko‘paydi. Shu o‘rinda energetika sohasida “ACWA Power”, “Masdar”, “Total Eren”, “Voltalia”, “Çalık” va “Aksa”; kimyo sanoatida “Air Products”, “Indorama” va “CAMCE”, tog‘-kon va metallurgiyada – “Orano” va “DANIELI”; avtomobilsozlik va elektrotexnika yo‘nalishlarida “BYD”, “Kia” va “Samsung”; qurilish sohasida “Koç” va “KNAUF” kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihalari ishga tushirilgani va yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratilganini katta mammuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Bugungi forum doirasida dunyoning ilg‘or kompaniyalari hisoblangan “Linde”, “Orascom”, “DataVolt”, “Bonafarm”, “PASHA Holding” va boshqa sheriklarimiz ishtirokida yangi yirik loyihalarga start beramiz.

Fursatdan foydalanib, bu ishga o‘zining munosib hissasi ni qo‘shayotgan xorijiy investorlarga, barcha hamkorlarimizga o‘zimming chuqur va samimi minnatdorligimni izhor etaman.

Biz tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida boshqa ustuvor yo‘nalishlarda qator aniq choralarni ishlab chiqqanmiz.

Endilikda xorijiy sarmoyadorlar aksiyalardan olinayotgan dividendlar bo‘yicha soliqlardan uch yil muddatga ozod etiladi.

Yaqinda Xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunni qabul qildik. 250 ta yirik korxonaning davlat ulushini va salkam 1000 ta ko‘chmas mulk obyektlarini sotish, 12 ta korxona aksiyalarini fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) uchun yangi dastur ham ishga tushirildi.

Tadbirkorlar barqarorligi reytingi joriy etildi. Yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlari uchun soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi.

Energetika yo‘nalishidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tajribasini ijtimoiy va boshqa infratuzilma sohala-

rida ham keng tadbiq etishni rejalashtirganmiz. Xususan, Xitoyning "CITIC" va "CAMCE" kompaniyalari bilan irrigatsiya va avtomobil yo'llari, Fransiyaning "Suez" va "Veolia" kompaniyalari bilan ichimlik suv ta'minoti, "Inter Health" va "Pure Health" arab kompaniyalari bilan zamonaviy tibbiyot muassasalarini qurish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Sanoat zonalari infratuzilmasini budget mablag'lari hisobidan rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz. Tadbirkorlariga yer ajratishning zamonaviy shaffof tamoyillari – ya'ni auksion savdo tizimi yo'lga qo'yildi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish doirasida qonunchilikni uyg'unlashtirishga qaratilgan 60 dan ortiq normativ hujjatlar qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilib, 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiya ishlab chiqilmoqda. O'tgan yili Toshkentda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tadbirlarni o'tkazdik.

Nizolarni adolatli hal etish maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Uning tarkibida Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlardan 90 dan ortiq nufuzli hakamlar o'rinn olgan.

Investorlar uchun yana bir muhim ko'rsatkich. Oxirgi yetti yilda oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga oshdi, oliy o'quv yurtlari soni 200 tadan ortdi.

O'zbekistonda 90 dan ortiq davlatlarga vizasiz rejim joriy etildi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bizning asosiy maqsadimiz – O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir.

Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiy mulk daxl-

sizligi va sud tizimining mustaqilligi ta'minlanishini o'z zimmasiga olmoqda.

Biz bu tamoyillarni o'tgan yili umumxalq referendumida qabul qilingan yangi Konstitutsiyamizda qat'iy muhrlab qo'ydik.

Sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida bugun sizlarga qator aniq takliflarni bildirmoqchiman.

**Birinchidan**, yangi tahrirdagi "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonunni qabul qilamiz. Ushbu hujjat Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalari va standartlariga muvofiq ishlab chiqildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga bu boradagi yaqin hamkorligi uchun alohida minnatdorlik izhor etmoqchiman.

**Ikkinchidan**, tez orada mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi ish boshlaydi. Ushbu sud O'zbekiston sud-huquq tizimida alohida o'runga ega bo'ladi. Buning uchun yaqin muddatlarda maxsus qonunni qabul qilamiz. Protsessual kodekslarga ushbu xalqaro tijorat sudi qarorlari to'laqonli ijro etilishiga oid me'yorlarni ham kiritamiz.

**Uchinchidan**, yaqin vaqtida sanoat zonalari tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlarni joriy etamiz.

Yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Sanoat zonalini boshqarishda xususiy operatorlar, jumladan, yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalg qilish amaliyoti kengaytiriladi. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatlari bo'yicha cheklovlar ham bekor qilinadi.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijara berish muddati 25 yildan 49 yilgacha, ya'ni ikki barobar uzaytiriladi. Bunda qonunlar bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to'liq saqlab qolinadi.

Bu masalalarining barchasini ertaga Xorijiy investorlar ken-gashining navbatdagi yig‘ilishida bat afsil muhokama qilamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilar!

Tizimli islohotlarni davom ettirish, kuchli va farovon davlat qu-rish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha 100 ta aniq vazifa o‘z aksini topgan.

2030-yilga borib, aholi daromadlarini ikki barobar oshirish va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

Iqtisodiyotda chuqur transformatsiya jarayonlarini, qulay investitsiya va biznes muhiti hamda sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatni yaratishni izchil davom ettiramiz.

Shu o‘rinda o‘zaro manfaatli hamkorligimizni kengaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tmochiman.

**Birinchi yo‘nalish: “yashil” energetika.** Energetika tarmog‘i samaradorligini oshirish butun mintaqamiz uchun dolzarbdir. Bu borada mamlakatimizda 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda.

Biz 2030-yilgacha 20 gigavattdan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz.

O‘tgan yilning o‘zida 1,4 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini strategik sheriklarimiz bo‘lgan “Masdar”, “Gezhouba”, “China Energy” kompaniyalari bilan ishga tu-shirdik. Shuningdek, “ACWA Power” bilan “yashil vodorod” ishlab chiqarish loyihasini ham boshlab yubordik.

Eng e’tiborli jihat – ushbu muhim loyihalari davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Bugun forum doirasida siz, investorlarimiz uchun qo'shni Qirg'iziston va Tojikistondagi gidroelektr stansiyalarini birlashtirish uchun qurish loyihalari taqdimotini o'tkazamiz. Ushbu yo'nalishda barcha davlatlar yetakchi kompaniyalarini ochiq muloqot va amaliy hamkorlikka taklif etamiz.

*Ikkinchi yo'nalish: bank-moliya sohasi.* So'nggi yillarda mammalakatimizda ko'plab xususiy banklar ochildi. Bozorimizga Yevropaning yetakchi banklari kirib keldi. Qator raqamli banklar o'z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning yirik banklaridan biri bo'lgan "Asakabank"ni xususiy lashtirish bo'yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan boshqa yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiy lashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

Moliyaviy resurslarga talabni qondirish uchun kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar qayta ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekistonda xalqaro moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ boshqaruv sifati oshishi, yangi yetakchi bank-moliya institutlari kirib kelishini kutib qolamiz.

*Uchinchi yo'nalish: foydali qazilmalar.* O'zbekiston – mineral resurslar va muhim metallarning katta bazasiga ega mammalakatdir. Yurtimizda oltin, mis, volfram, kumush, uranning ulkan zaxiralari mavjud. Nodir va noyob minerallar qatorida litiy, magniy, molibden, germaniy, vanadiy va indiy kabi 30 dan ortiq metallarning zaxiralari alohida e'tibor qaratishni istardim.

O'tgan oyda Yevropa Ittifoqi bilan o'ta muhim xomashyo sohasida strategik hamkorlik o'matildi. Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya bilan ham shunday bitim ustida ish olib boryapmiz.

Bu borada zamонавиyl xalqaro tajriba asosida yangi tahrirdagi "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi. Shu o'rinda, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga bu ishdagi salmoqli hissasi uchun alohida rahmat aytmoqchiman.

Strategik xomashyolarni chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun yetakchi kompaniyalarni O'zbekistonga taklif etamiz.

*To'rtinchi yo'naliш: mamlakatning IT transformatsiyasi.* Bir yil ichida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti ikki barobar oshdi. Keljakda bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazishni reja qilganmiz.

IT park rezidentlari soni o'n barobar ko'payadi, kelgusida 100 ming yangi ishchi o'mi yaratiladi. Bundan tashqari, uning bazasida xorijiy kompaniyalar uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi yaratilmoqda.

Bu borada Saudiya Arabistonining "DataVolt" kompaniyasi bilan "yashil" energiya asosida ishlaydigan "Ma'lumotlar markazi"ni barpo etyapmiz. Bu mamlakatimizni raqamli iqtisodiyotga o'tkazish va sun'iy intellekt asosida texnologiyalarni joriy etishga ulkan turtki bag'ishlaydi, deb hisoblaymiz.

*Beshinchi yo'naliш: transport infratuzilmasini rivojlantirish.* Qulay va zamonaviy transport tizimlarini yaratish vazifasiga ustuvor e'tibor qaratyapmiz.

Temiryo'l sohasida tub islohotlar olib borilmoqda, tarmoqqa xususiy investorlarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Pullik avtomobil va tezyurar temiryo'llarni qurish bo'yicha qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Toshkent, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarini rivojlantirish va yangilarini qurish bo'yicha salohiyatli xorijiy investorlar bilan hamkorlik loyihalari tayyorlanmoqda.

Ma'lumki, biz xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston va O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston temiryo'llarini qurish bo'yicha dastlabki ishlarni boshladik.

Ushbu strategik loyihalar mintaqadagi geoijtisodiy vaziyatni butunlay o'zgartirib, Markaziy Osiyon Shimol va Janub, Sharq va G'arb bilan bog'laydigan global tranzit markaziga aylantiradi.

Biz investorlarni va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga, Buyuk Ipak yo‘lini zamonaviy asosda qayta tiklashga taklif qilamiz.

Aziz do‘srlar!

Yangi O‘zbekiston – beqiyos imkoniyatlarga ega, adolatli va jadal rivojlanayotgan dunyoviy mamlakatdir.

Biz har kuni hayotga tatbiq etayotgan ulkan g‘oya va buyuk orzularimizning asosiy ilhom manbai – bu, eng avvalo, mehnatkash va olıyanob xalqimizdir.

Shuni alohida ta’kidlashni istar edimki, bugun bu yerda yig‘ilgan investorlar o‘zlarining eng ilg‘or texnologiya va tajribalari, yangi taklif va yondashuvlari bilan bizni faqat olg‘a yurishga undaydi.

Sizlarga muhim bir fikrni yetkazmoqchiman: har bir tashabbus, har bir loyihangiz bo‘yicha davlatimiz, hukumatimiz a’zolari sizlarga yelkadosh bo‘lib, yoningizda turib, ularni to‘liq amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Shunday qilsak, sizlarga ma’qul bo‘ladi, deb o‘ylayman.

**Investitsiyalar** – bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir.

Hech shubhasiz, bugungi Xalqaro investitsiya forumi va sermahsul muzokaralar amaliy hamkorligimizni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishiga ishonaman.

Barchangizga anjumanimizda ishtirok etayotganingiz uchun yana bir bor tashakkur izhor etaman.

E’tiboringiz uchun katta rahmat.

*Uchinchi Toshkent xalqaro  
investitsiya forumidagi nutq*

2024-yil 2-may

---

## **MAMLAKATIMIZDA MUVAFFAQIYATLI BIZNES YURITISH UCHUN BARCHA SHAROITLARNI YARATAMIZ**

Hurmatli kengash ishtirokchilari!

Hurmatli Reno-Basso xonim!

Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisida ishtirok etayotgan siz, azizlarni chin qalbimdan qutlayman.

Bugungi yig‘ilishimizda jahoning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari bo‘lgan yaqin hamkorlarimiz va yangi sheriklarimizni ko‘rib turganimdan g‘oyat mammunman.

Kengash o‘tgan davrda o‘zining samarali faoliyatini yaqqol namoyon etdi. Sizlarning sidqidildan ko‘rsatayotgan ko‘magingiz va alohida e’tiboringiz natijasida islohotlarimizga katta yordam beradigan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilgari surayotgan g‘oya va tashabbuslaringiz hayotimizning barcha jabhalarida faol tatbiq etilmoqda. Sizlar kecha qatnashgan xalqaro forum esa nihoyatda sermazmun o‘tdi, unda qator muhim takliflar ilgari surildi, juda muhim bo‘lgan ko‘plab kelishuvlarga erishildi.

Fursatdan foydalanib, sizlarga – mamlakatimizning yaqin do‘stlariga Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga qo‘shayotgan munosib hissangiz uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Barchangizga yaxshi ma’lum, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida beqarorlik tobora kuchayib, energetika, oziq-ovqat sohalari va ekologik tizimda inqirozlar o‘tkir tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda sizlar bilan bamaslahat, o‘zaro kengashib, aniq ama-

liy qadamlar tashlasak, ko‘zlagan yuksak marralarimizga albatta erishamiz.

Men kecha o‘z nutqimda Yangi O‘zbekistonning investitsiya siyosati bo‘yicha erishilgan natijalar va kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlarga bat afsil to‘xtaldim. Bugun esa ko‘proq sizlarni tinglash niyatidaman.

Ayniqsa, hurmatli Reno-Basso xonim, sizning qimmatli fikr-mulohazalaringiz men uchun g‘oyat muhimdir. Anjumanlarimizda bevosita ishtirokingiz va Kengash ishini faol qo‘llab-quvvatlab kelayotganingiz bizni albatta ruhlantiradi hamda ushbu platforma doirasida ochiq, konstruktiv va samarali muloqot olib borishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda Investitsiyalar va Maxsus erkin zonalar to‘g‘risidagi qonun loyi halarini tayyorlashga hissa qo‘shgan ishchi guruhi faoliyatini alohida mammuniyat bilan ta’kidlab o‘tmochiman.

Ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu muhim hujjatlar mamlakatimizda qulay investitsiya va biznes muhitini takomillash-tirishda ulkan qadam bo‘lishiga aminman.

Bundan tashqari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti jamoasi tomonidan boshlanayotgan investitsiya siyosati tahlili biz uchun juda muhimdir. Ushbu loyiha mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilash borasida asosiy yo‘nalishlarni belgilab olishga va samarali mexanizmlarni yaratishga xizmat qiladi.

Biz bu tashkilotning mamlakatimizni doimiy qo‘llab-quvvatlayotgani va amalga oshirib kelayotgan chuqr tahillarini yuksak baholaymiz hamda bundan buyon ham u bilan yaqin hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz.

Hukumat hamda investorlar o‘rtasida ochiq va samarali muloqotning yo‘lga qo‘yilgani barqaror iqtisodiy taraqqiyotning asosiy kalitidir.

Albatta, hali oldimizda birgalikda amalga oshirishimiz zarur bo‘lgan ulkan vazifa va maqsadlar turibdi. Shu sababli bugungi zamон

bilan hamnafas qadam tashlab, o‘z oldimizga aniq rejalarmi qo‘yishga va sa’y-harakatlarimizni yanada uyg‘unlashtirishga chaqiraman.

Kengashimiz doirasida quyidagi yo‘nalishlarda ishchi guruuhlar tashkil etish va ularni to‘liq amalga oshirishda sizlarni faol ishtirot etishga taklif etaman.

**Birinchidan**, kapital bozorini rivojlantirish. Bu yo‘nalishda xorijiy investorlarning talablariga to‘la javob beradigan xalqaro moliya markazini rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni keng jalg etishga asosiy e’tiborni qaratish lozim.

**Ikkinchidan**, mas’uliyatli biznes yuritish. Bu borada iqtisodiyot barqarorligi, shaffofligi va ochiqligini ta’minlashga qaratilgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tegishli tamoyilla-rini keng joriy etish dolzarb vazifadir.

**Uchinchidan**, muqobil investitsiyalarni rag‘batlantirish. Bunda startap, innovatsion loyihalar, birqalikdagi sarmoyalarni ko‘paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida “Vençur investitsiyalar to‘g‘risida”gi yangi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish katta ahamiyatga ega.

**To‘rtinchidan**, investorlar bilan ishlash tizimini raqamlashtirish. Xorijiy investorlar bilan davlat organlari o‘rtasidagi barcha xizmatlarni amalga oshirish uchun mukammal elektron platformani ishlab chiqish va amaliyatga keng joriy etish vaqtি keldi, deb o‘ylayman. Bu investorlarni qiynayotgan kompleks muammolarni o‘z vaqtida va tizimli hal etishga imkon beradi.

Sizlarning boy bilim va tajribangiz, zamonaviy yondashuvlarinigiz biz uchun nihoyatda muhimligini yana bir bor ta’kidlamoqchiman. Ishonamanki, O‘zbekiston sizlarning qizg‘in qo‘llab-quvvatlashtingiz orqali jadal o‘sish sur’atlarini namoyish etishda davom etadi.

Men barchangizni bugungi muhokamalar va yangi tashabbuslarni ishlab chiqishda faol ishtirot etishga taklif etaman. Sizlar bilan hamjihat bo‘lib, yelkama-yelka turib harakat qilsak, xalqimiz tur-

mush darajasini oshirishga va O'zbekistonning farovon kelajagini ta'minlashga qodirmiz.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Afsuski, tadbir reglamenti va protokol sizlar ilgari surgan barcha takliflar bo'yicha alohida, batafsil to'xtalishimizga imkon bermaydi.

O'zbekiston bilan uzoq muddatli hamkorlikni va konstruktiv muloqotni kengaytirish borasidagi qat'iy intilish va niyatlariningizni yuksak qadrlayman.

Takror aytaman: mamlakatimizda biznesingizni muvaffaqiyatli yuritish, o'zingizni erkin va ishonchli his etishingiz uchun sizlarga barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz.

Ishontirib aytmoqchimanki, aytilgan barcha tashabbus va tavsiyalariningizni to'liq inobatga olamiz.

Fursatdan foydalanib, hurmatli Reno-Basso xonimga islohot va o'zgarishlarimizni doimiy qo'llab-quvvatlab kelayotgani, qo'shma dasturlarni samarali amalga oshirayotgani uchun yana bir bor tashakkur izhor etmoqchiman.

Bugundan boshlab, Kengash faoliyatida butunlay yangi tizim joriy etamiz.

Ushbu zalda o'tirgan hukumatimiz a'zolari, vazirlarimiz, Prezident Administratsiyasining mas'ul xodimlari sizlar bilan har oy uchrashadi va muloqotlarimizni izchil davom ettiradi.

Kiritilgan har bir taklif, aytilgan har bir loyiha bo'yicha alohida "yo'l xaritasi" qabul qilinadi. Ularni shaxsan o'zim qat'iy nazoratga olaman.

So'zimning yakunida sizlarga sihat-salomatlik, professional faoliyatingiz va shaxsiy hayotingizda ulkan muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilab qolaman.

E'tiboringiz uchun rahmat!

*Xorijiy investorlar kengashining  
ikkinchi yalpi majlisidagi nutq*

2024-yil 3-may

---

## QAHRAMON AJDODLARIMIZNING JASORATI BIZ UCHUN VATANPARVARLIK TIMSOLIDIR

Aziz vatandoshlar, muhtaram faxriylar!

Bugungi shonli bayram – 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabaning 79 yilligi munosabati bilan mo‘tabar faxriylarimizni, ko‘p millatli butun xalqimizni samimiyl muborakbod etib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Ushbu qutlug‘ kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat ko‘rsatib, bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, g‘alabani ta‘minlashga munosib hissa qo‘sghan mard va olivjanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom bajo keltiramiz.

Jang maydonlaridan omon qaytib, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lda fidokorona xizmat qilgan, bugungi kunda ezgu duolari bilan hayotimizning fayz-u farishtasi bo‘lib kelayotgan qadrli urush va mehnat faxriylariga cheksiz tashakkurimizni izhor etamiz.

Ayni vaqtida mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o‘z xizmat burchini ado etish yo‘lida halok bo‘lgan jasur harbiyalarimiz xotirasini minnatdorlik bilan esga olamiz.

Qadrli do‘stlar!

Bugun barcha shahar va qishloqlarimizda o‘tkazilayotgan tadbirlarda bu mudhish urush el-yurtimiz uchun qanday mislsiz talafot va musibatlar olib kelganini yana bir bor yodga olishimiz tabiiydir. O‘sha og‘ir yillarda frontga safarbar etilgan **1 million 950 mingdan ziyod o‘zbekistonlik jangchilardan 538 mingdan ko‘prog‘i halok**

bo‘lgani, **158 mingdan** ortig‘i bedarak yo‘qolgani, **870 mingdan** oshig‘i turli jarohatlar olgani, **60 ming** nafardan ziyodi esa nogiron bo‘lib qaytgani bu g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shu qirg‘inbarot urush xalqimiz qalbi-da qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsada, hamon unutib bo‘lmaydi.

Urush davrida **214 ming** askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani, ularning **301 nafari** Sovet It-tifoqi Qahramoni unvoniga, **70 nafari** uchala darajadagi “Slava” (“Shuhrat”) ordeniga sazovor bo‘lgani biz uchun, hech shubhasiz, buyuk g‘alabaning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Metin irodali xalqimiz o‘sha tahlikali yillarda front ortida sabot va matonat bilan mehnat qildi. Sanoat korxonalarining faoliyati front ehtiyojlari uchun yo‘naltirildi. Urush alangasi ichida qolgan hududlardan mamlakatimizga **170 dan** ortiq zavod va fabrika ko‘chirib keltirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. El-yurtimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berdi.

O‘zbekiston aholisi 1941–1943-yillarda mudofaa fondiga **475 million** rubldan ortiq mablag‘ni, **22 million** rubllik qimmatba-ho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirgani g‘alabani ya-qinlashtirishga yana bir muhim hissa bo‘lib qo‘sildi.

Xalqimiz yuksak odamiylik fazilatini namoyon etib, urush hududlaridan evakuatsiya qilingan **1 million 500 mingga** yaqin insonga boshpana berdi. Ota-onasidan judo bo‘lgan **250 ming** nafar yetim bolaga mehr-oqibat ko‘rsatib, so‘nggi burda nonini ham ular bilan baham ko‘rdi.

Aziz vatandoshlar!

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining timsoli sifatida bunyod qilingan muhtasham “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug‘ qadamjoga aylandi.

Shu kungacha bu yerga **2 million 200 ming** nafardan ziyod ziyoratchi tashrif buyurib, uni katta qiziqish va e'tibor bilan tomosha qilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Majmua jamoasi tomonidan **ellikka** yaqin kitob-albom va monografiyalar, noyob hujjatlar to'plamlari yaratilib, hozirga qadar noma'lum bo'lgan yuzlab tarixiy faktlar aniqlanib, jamoatchilikka yetkazildi.

"Bobomni izlayman" loyihasi doirasida urushda ishtirok etgan **2 million** nafarga yaqin vatandoshlarimiz ro'yxati shakllantirildi. Yurtdoshlarimizdan kelib tushgan **300 dan** ziyod murojaatlar bo'yicha urushda bedarak ketgan **200 nafar** jangchining taqdiriga oid muhim ma'lumotlar to'plandi.

Muhtaram do'stlar!

Bugungi bayram munosabati bilan jonajon O'zbekistonimizda xotira marosimlari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, "uch avlod uchrashuvlari" o'tkazilmoqda. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining oila a'zolariga tabrik va sovg'alar topshirishga bag'ishlangan marosimlar tantanali vaziyatda o'tkazilmoqda.

Muhtaram urush faxriylari xalqimizning doimiy e'tibori va e'zozida bo'lib kelmoqdalar. Jumladan, yolg'iz yashayotgan urush va mehnat faxriylari, istiqlolimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning uy-joylari ta'mirlanib, obod qilinmoqda. Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga patronaj xizmati va zarur tibbiy muolajalar ko'rsatilmoqda. Ular o'z xohishlariga ko'ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Hech shubhasiz, biz bugungi ozod va erkin hayot uchun aziz jonini ayamasdan kurashgan bunday ulug' insonlar oldida doimo qarzdormiz, ular uchun bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

Hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlарimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, bebahо boyligimiz bo'lган tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do'stlik va ahillikni asrashdek o'ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylарimizning jasorati, shonli an'analari biz uchun hamisha ibrat mактabi bo'lib xizmat qiladi. Biz ulardan ruh va kuch olib, Vatan himoyachilari, tinchlik posbonlari, Yangi O'zbekiston bунyodkorlari bo'lishdeк yuksak burchimizni albatta sharaf bilan ado etamiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Siz, azizlarni bugungi ulug' ayyom bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo'lsin!

*Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan  
O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi*

2024-yil 8-may

---

## SAVDO-IQTISODIY ALOQALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RAG'BATLANTIRISH – DOIMO E'TIBORIMIZ MARKAZIDA

Muhtaram hamkasblar!

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Avvalambor, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga kirish-gani munosabati bilan hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin nomiga yo'llangan samimiy qutlovlар va ezgu tilaklarga qo'shilaman.

Saylovchilar yuqori faollik bilan ishtirok etgan mazkur saylov-larda erishgan ishonchli g'alabangiz ko'p millatli Rossiya xalqining Sizga bo'lgan yuksak ishonchini, Siz olib borayotgan siyosat va mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lami dasturlarni qat'iy qo'llab-quvvatlashini yana bir bor namoyon etdi.

Sizga kelgusida yanada ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Ushbu majlisda ishtirok etayotgan barcha hamkasblarimizni muhim sana – fashizm ustidan qozonilgan Buyuk G'alabaning 79 yilli-gi hamda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tashkil etilganining o'n yilli-gi bilan qutlayman.

Bugun tongda Moskvaga uchishdan oldin men Ikkinchи jahon urushida qatnashgan faxriyalarimiz bilan uchrashdim. Ming afsuski, ularning soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ular sizlar orqali urush va front ortida mehnat qilgan barcha faxriylarga samimiy tabriklarini, birodar xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq so'rab bildirgan tilaklarini yetkazishni iltimos qilishdi.

Sizlarga ulkan mammuniyat bilan faxriyalarimizning iltimosini yetkazaman.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Hozirgina hamkasblarimning nutqlarida dunyodagi bugungi murakkab vaziyatga baho berildi, zamonaviy tahdidlarni bartaraf etish uchun hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Yuzaga kelgan hozirgi sharoitda mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, kooperatsiya loyihalarini ilgari surish hamda o'zaro investitsiyalarning o'sishi uchun sharoit yaratish birinchi darajadagi vazifa, deb hisoblayman.

O'tgan oyda Toshkentda muvaffaqiyatli o'tgan an'anaviy "Innoprom" xalqaro ko'rgazmasi bunday hamkorlikka yorqin misoldir. Ko'rgazmada mamlakatlarimizning ikki mingdan ortiq yetakchi korxonalari qatnashdi, yangi kooperatsiya loyihalari bo'yicha yuzlab kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda ushbu xalqaro forum O'zbekistonning Rossiya va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo boshqa davlatlar bilan biznes sohasidagi muloqotlarini rivojlantirishda samarali platformaga aylandi. Biz ushbu muloqot maydonini yanada kengaytirish, ishtirokchilar sonini oshirish, jumladan, Kuba, Eron, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Mo'g'uliston, Vyetnam va Indoneziya kabi hamkor mamlakatlar kompaniyalarini bu jarayonga jalb etish niyatidamiz.

Umuman, O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomidagi uch yillik hamkorligi davrida o'zaro tovar ayriboshlash hajmi 60 foizga oshdi. Bunga, avvalambor, sanoat mahsulotlarini yetkazib berishni ko'paytirish hisobidan erishildi. Ayni vaqtda milliy valatalardagi hisob-kitoblar ulushi ortib bormoqda.

Mingdan ziyod qo'shma korxona va loyihalar ishga tushirildi. Yuk tashish hajmi o'smoqda, muntazam aviaqatnovlar soni ikki barobar ko'paydi.

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan birqalikda yuqori darajadagi Ishchi guruhning uchta yig'ilishi o'tkazildi, Qo'shma hamkorlik rejasidagi tadbirlar to'liq amalga oshirildi.

Biz, shuningdek, savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijorat, iqlim o'zgarishi sohalaridagi tarmoqlarga oid loyiha va dasturlarga ham qo'shildik.

Muhtaram hamkasblar!

Mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o'zaro manfaatli hamkorligining ustuvor yo'nalishlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ruxsat bergaysiz.

**Birinchidan**, O'zbekiston YOII ni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari doirasida amaliy sheriklikni kengaytirish va tarmoqlarda ko'p tomonlama hamkorlik loyihalarini amalga oshirishda yana-da faol ishtirok etishdan manfaatdor.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o'rta muddatdagi istiqbolga mo'ljallangan Qo'shma tadbirlarning yangi kompleks rejasini tayyorlashni taklif etamiz.

Ishonchim komilki, kuzatuvchi davlatlarning loyihalarda to'la-qonli ishtirok etishini tartibga soladigan mexanizmning tezroq qabul qilinishi ushbu hujjatni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Ikkinchidan**, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo mamlakatlar bilan o'zaro savdo-sotiqdagi to'siq va cheklovlarni birgalikda bar-tarf etishga tayyor ekanimizni tasdiqlaymiz.

2009-yilda qabul qilingan Tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash qoidalariiga O'zbekistonning qo'shilish jarayoni boshlandi.

Bojxona chegaralarimiz orqali olib o'tiladigan tovar va transport vositalari haqidagi ma'lumotlarning elektron almashinuvini yo'lga qo'yish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya nazorati borasida-gi axborot tizimlarini integratsiya qilish, texnik jihatdan tartibga solish choralarini o'zaro moslashtirish va elektron sertifikatlashni qo'llash rejasini qabul qilish ushbu yo'nalishdagi aniq amaliy qadamlar bo'lishi mumkin.

**Uchinchidan**, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari bozorlari bilan bog‘lovchi “Shimol – Janub” transport yo‘lagini rivojlantirish bo‘yicha yaqin muloqotni davom ettirish muhimdir.

Shu borada transport idoralari rahbarlarining Termiz shahrida aprel oyida bo‘lib o‘tgan Belarus – Rossiya – Qozog‘iston – O‘zbekiston – Afg‘oniston – Pokiston multimodal marshruti ni rivojlantirish bo‘yicha birinchi uchrashuvi samarali bo‘lganini mammuniyat bilan ta’kidlaymiz.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida tranzitga doir tartib-taomillarni sod-dalashtirish maqsadida joriy etilayotgan YOII bojxona tranzitining yagona tizimi bilan Raqamli hamkorlik bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish tarafdomiz.

**To‘rtinchidan**, sanoat kooperatsiyasi sohasidagi loyihalar va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish das-turlarini kelgusida ham faol qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilganmiz.

Bu yo‘nalishda, mamlakatlarimiz hududlarida birgalikda yara-tilayotgan sanoat zonalari va texnoparklarda yangi quvvatlarni joy-lashtirishni nazarda tutgan holda, alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishni taklif qilaman. Bunday loyihalarga biznesni keng jalb etish masalalarini joriy yilda Samarqandda bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va YOII Ishbilarmonlik kengashining birinchi uchrashuvida ko‘rib chiqish mumkin.

Bundan tashqari, Birlashma doirasida sanoat kooperatsiyasi das-turlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus mexanizm imkoniyat-laridan foydalanishdan ham manfaatdormiz.

**Beshinchidan**, quyidagi muhim yo‘nalishlarda ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi organlari bilan ham-korlikni kengaytirish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tmoxchiman:

– Yevroosiyo Agroekspresmini rivojlantirish, “yashil” va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, qo‘shma agrosanoat klasterlari va logistika markazlarini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash;

- iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalarida umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va yaqin hamkorlik qilish. Bunda tegishli Ishchi guruhining navbatdagi majlislaridan birini O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etamiz;
- mamlakatlarimizda mehnat migrantlari faoliyati uchun raqamli platformalarga ulangan holda, qulay sharoit va ijtimoiy kafolatlarni shakllantirish;
- sayyoohlар almashinuvini keskin oshirishga qaratilgan qo‘shma turistik dastur va mahsulotlarni ishlab chiqish.

Ushbu yo‘nalishlarning barchasi hamkorlikning o‘rta muddatdagi istiqbolga mo‘ljallangan yangi Rejasida o‘z aksini topishi mumkin, deb hisoblayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So‘zimning yakunida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga an’anaviy do‘stona va iliq qabul uchun samimiyl minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komilki, ushbu uchrashuvimiz natijalari o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va sheriklikni mustahkamlash yo‘lda yana bir amaliy qadam bo‘ladi.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi  
majlisidagi nutq*

2024-yil 8-may

---

## OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum qatnashchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz azizlarni – dunyoning olis va yaqin mintaqalaridan tashrif buyurgan muhtaram mehmonlarimizni Osiyo xotin-qizlari forumining ochilishi munosabati bilan chin qalbimdan samiy muborakbod etaman.

Sizlarni qadimiy va navqiron Samarqand shahrida qizg‘in qutlash hamda o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni yo‘llashdan g‘oyat baxtiyormen.

Ushbu tashabbusimizni faol qo‘llab-quvvatlagan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Kotibi janob Antoniu Guterrishga, anjumanni birgalikda tashkil etib, unda bevosita ishtirok etayotgan BMT Bosh kotibi o‘rbbosari, “BMT–Ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus xonim, BMTning Jenevadagi bo‘linmasi rahbari Tatyana Valovaya va Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chungong janoblariga o‘zimning chuqur minnatdorligimni izhor etaman.

Bugungi forumda xalqaro tashkilotlar va Osiyo mamlakatlari parlamentlari rahbarlari, senator va deputatlar, hukumatlar a’zolari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, ko‘plab ishbilarmon va olima ayollar qatnashayotganini katta mammuniyat bilan ta’kidlashni istardim.

Sizlarning sa’y-harakatingiz bilan yurtimizda ilk bor o‘tkazila-yotgan xalqaro anjuman xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi faolligini yanada oshirish, o‘zarotajriba almashish va do’stona hamkorlik aloqalarini mustahkam-lashga munosib hissa qo‘sadi, deb ishonaman.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda jadal rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asining barcha mamlakatlari va xalqlari asrlar davomida yagona keng makonda uyg'un va hamjihatlikda rivojlanib, turli sohalarda yaqin hamkorlik aloqalarini olib borganlar.

Buyuk Ipak yo'lining savdo chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi ming yillar mobaynida turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar taraqqiyoti uchun qudratli kuch bag'ishlagan, yuksak umumbashariy qadriyatlarning ulkan ma'naviy beshigi bo'lgan.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda Osiyo qit'asining barcha mamlakatlari bilan uzoq muddatli, keng qamrovli va o'zaro manfaatli aloqalarni izchil chuqurlashtirib borishga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas, albatta.

Sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pi istiqomat qilayotgan Osiyo mamlakatlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'liq erishish, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli va tasirini keskin oshirish borasida salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Bizning mamlakatimizda ham ayollar jamiyatimizning ajralmas bo'g'ini bo'lib, ularning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari yangi qabul qilingan Konstitutsiyamiz, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o'zining to'liq ifodasini topgan.

So'nggi yetti yilda O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko'tarildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a'zolarining 25 foizi ayollardan iborat. Bugun har bir mahallamizda ham ularning o'z vakillari bor.

Ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Salkam yarim million nafar

singillarimiz ish bilan ta'minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarning yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda.

Bu borada olib borayotgan tizimli chora-tadbirlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib e'tirof etilmoqda. Xususan, Jahon banki indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etilgani, ochiq gender ma'lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy olgani bizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi.

Qadrlı do'stlar!

Biz Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, rahbarlik qobiliyatini va tadbirkorlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ularga zamonaviy bilim berish, kasb-hunarga o'rgatish va bandligini ta'minlash, ehtiyojmand va ko'makka muhtoj ayollarning muammolarini tizimli hal qilish bo'yicha boshlagan katta ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz.

Zero, bugungi tarixiy o'zgarishlarning faol ishtirokchisi bo'layotgan muhtarama ayollarimiz – ortga qaytmas tus olgan demokratik islohotlarimiz va jadal taraqqiyotimizni amalga oshirishda bunyodkor kuch, biz qurayotgan adolatli va tinchliksevar, ko'p millatli va farovon mamlakatning mustahkam asosidir.

O'ylaymanki, sizlar ushbu forumni har ikki yilda o'tkaziladigan an'anaviy muloqot maydoniga aylantirish bo'yicha taklifimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlaysiz.

Bugungi anjuman natijasida qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasi asosida kelgusida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to'g'risida"gi rezolutsiyasining qabul qilinishi barchamizning bu boradagi ezgu intilishlarimizning yorqin amaliy ifodasi bo'ladi.

Fursatdan foydalanib, barchangizga yana bir bor sihat-salomatlik, baxt va omad, forum ishiga ulkan muvaffaqiyat tilab qolaman.

*Osiyo xotin-qizlari forumi ishtirokchilariga yo'llangan tabrik*

2024-yil 13-may

## BUYUK SAN'ATKORGA YUksAK EHTIROM

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli madaniyat va san'at namoyandalari!

Bugun yurtimizda katta shodiyona – san'at va madaniyat bayrami. Azim Toshkent shahrining qoq markazida xalqimizning ardoqli farzandi, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlab muazzam haykal ochilmoqda.

Mana shu quvonchli voqeа munosabati bilan siz, azizlarni, rahmatli Botir Zokirovning yaqinlari, shogird va muxlislarini, butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Muhtaram do'stlar!

Muqaddas yurtimiz zaminidan asrlar davomida ne-ne buyuk alloma va shoirlar, adib va me'morlar, muhandis va rassomlar, hofiz va bastakorlar yetishib chiqqanini yaxshi bilamiz. XX asrda ana shunday ulug' zotlarning munosib davomchisi bo'lib Botir Zokirov san'at maydoniga chiqdi.

Barchamizga ma'lumki, u O'zbekiston xalq artisti Karim Zokirov va xonanda Shohista Saidova oilasida, ziyoli bir muhitda tug'ilib, voyaga yetgan edi.

Taqdir Botir Zokirovning zimmasiga o'zbek estrada san'atining asoschisi bo'lishdek ulug'ver bir vazifani yukladi va bu vazifani u sharaf bilan ado etdi.

U san'at olamiga qadam qo'yganida respublika va sobiq ittifoq sahnalarida biri biridan buyuk va betakror xonandalar shuhrat cho'qqisiga ko'tarilib ulgurgan edi. Ana shunday mashhur san'at darg'alari orasida munosib o'rin egallash oson emas edi.

Ammo Alloh taoloning o‘zi Botir Zokirovga ato etgan benazir iste’dod va insoniy fazilatlar tufayli u san’at olamida chinakam mo‘jizalar yaratdi.

Bunday yuksak darajaga erishish uchun u, avvalo, xalqimizning qadimiylarini tarixi va boy madaniyatiga, mumtoz musiqa merosimiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayandi.

Botir Zokirov hayot mashaqqatlaridan qo‘rqmaydigan, har qanday sharoitda ham faqat ezgu maqsad sari intiladigan beqiyos iroda va matonat sohibi edi.

Xonanda 1955-yilda, ayni kuchga to‘lgan paytida og‘ir dardga yo‘liqdi. Xastalik tufayli bir necha marta g‘oyat murakkab tibbiy operatsiyalarni boshidan o‘tkazdi. Shifokorlar hofizning hayotini saqlab qolish uchun unga qo‘shiq aytishni taqiqlashga majbur bo‘ldilar.

Ammo “**Kuylamoq – yashamoq demakdir**” degan e’tiqodni hayot mazmuni deb bilgan, ismi jismiga mos o‘zbek o‘g‘loni qo‘shiq aytishdan to‘xtamadi. Qalbidagi ezgu tuyg‘ularni yanada to‘lib-toshib kuyladi. Hech shubhasiz, bunday jasorat, san’atga bunday fidoyilik cheksiz hayrat va tahsinga loyiqdirdi.

Aziz yurtdoshlar!

Botir Zokirov yashab ijod qilgan murakkab zamonda uning iste’dodi, shon-shuhuratiga g‘arazli ko‘z bilan qaraydigan kimsalar ham, afsuski, yo‘q emasdi. Lekin hayotni kurash maydoni deb bilgan bu matonatli inson barcha to‘siqlarni mardona yengib o‘tdi.

Betakror hofizning billurdek tiniq ovozida xalqimizning asriy orzu-armonlari, yorug‘ kunlarga ishonchi baralla yangradi. U qisqa muddatda sobiq sho‘ro makonida millionlab ixlosmandlarga ega bo‘lgan sevimli san’atkorga aylandi. Botir Zokirov SSSRdagি barcha yirik shaharlar, dunyoning manaman degan madaniyat poytaxtlarida o‘zbek san’atini zo‘r muvaffaqiyat bilan namoyish etdi.

Xonandaning ijodiy repertuari uning go‘zal va hassos qalbi singari keng edi. Uni hindlar – hind deb, fransuzlar – fransuz, arablar – arab qo‘shiqchisi deb qabul qilishar edi.

Ayniqsa, 1966-yili Parijga qilgan ijodiy safari Botir Zokirovga olamshumul shuhrat keltirdi. Ushbu shahardagi mashhur “Olimpiya” teatri sahnasiga ko’tarilib, ikki marta kuylash – e’tibor bering, ikki marta kuylash – dunyoda kamdan kam ijrochiga nasib etgan. Noyob iste’dodi bilan jahonni zabit etgan bunday afsonaviy san’atkorimiz bilan har qancha faxrlansak, g’ururlansak arziydi.

Qadrli marosim qatnashchilar!

Botir Zokirov juda qisqa – bor-yo‘g‘i 49 yil umr ko‘rdi. 29 yoshida O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘ldi. Salkam 30 yillik faoliyati davomida o‘zidan rang-barang va boy ijodiy meros qoldirdi. O‘lmas hofizimizning sehrli ovozi yurtimizdagi har bir xonadonga kirib borib, san’atimiz oltin fondidan, xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin egalladi.

U umr bo‘yi yangilikka intilib yashagan, izlanishdan charchamaydigan, odamlarga mehribon, oliyanob bir inson edi. Sharq folklori va zamonaviy estrada san’atini uyg‘unlashtirib, “Myuzik-xoll” ijodiy jamoasini tashkil etgani, xonanda va kompozitor sifatida ko‘plab iste’dodli yoshlarga mehr ko‘rsatib ustozlik qilganini alohida ta’kidlash lozim.

Xususan, respublikamizda xizmat ko‘rsatgan “Yalla” ansamblining tashkil topishida Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir. Mana, 50 yildirki, ushbu musiqiy jamoa va uning rahbari, 6 ta mamlakatning “Xalq artisti” degan sharaflı unvonga sazovor bo‘lgan mashhur xonandamiz Farrux Zokirov jonajon O‘zbekistoni-miz shuhratini butun dunyoga tarannum etib kelmoqda.

Bugungi davramizda O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirovani, Ravshan va Bahodir Zokirovlarni, Zokirovlar sulolasining boshqa ko‘plab vakillarini ko‘rib turganimdan xursandman. Ayniqsa, Gavhar Zokirovaning ma’naviyatimiz fidoyisi sifatida ko‘plab shahar-qishloqlarimizni kezib amalga oshirayotgan ezgu ishlari, yosh avlod tarbiyasi yo‘lidagi katta xizmatlari uchun chin qalbim-dan tashakkur bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

Botir Zokirov tom ma'noda vatanparvar inson edi. Ona O'zbekistonimizni, azim Toshkentni cheksiz farzandlik mehri bilan sevar, mahoratli rassom, talantli adib va aktyor sifatidagi faoliyatida ham Vatanga muhabbat tuyg'usi jo'sh urib turar edi.

U o'tgan asrning 70-yillarida xalq qahramoni Spitamen haqidagi "So'g'd elining qoploni" opera librettosini yaratgan va bu asar Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatrda muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan edi.

Bularning barchasi Botir Zokirovning olmosdek serqirra istedod egasi bo'lganini tasdiqlaydi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Inson qadrini ulug'lash – Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalişidir. Ayni shu maqsadda buyuk san'atkorimiz Botir Zokirovning so'nmas xotirasini e'zozlash, uning ijodiy merosini o'rghanish bo'yicha mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yili alohida qaror qabul qilinib, xonandaning 85 yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi.

Botir Zokirov tahsil olgan O'zbekiston davlat konservatoriysi joylashgan mana shu go'zal va obod ko'chaga u kishining tabarruk nomi berildi. Ulug' hofizimiz nomidagi milliy mukofot ta'sis etildi, estrada ijrochilarining respublika ko'rik-tanlovi muntazam o'tkazib kelinmoqda. Botir Zokirov haqida ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratilmoqda, ilmiy anjumanlar, ijodiy uchrashuv va kechalar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston davlat konservatoriysi huzurida, ko'rib turganingizdek, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti barpo etildi. Ushbu oliygohda tahsil olayotgan navqiron yoshlarimiz orasidan Botir Zokirov kabi ulug' san'atkorlar albatta yetishib chiqadi, deb ishonamiz va ularning barchasiga omad va zafarlar tilaymiz.

Yaqinda Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan, u kishining do'stlari bo'lmish atoqli san'atkorlar ishtirokida katta shodiyna sifatida o'tkazildi.

Ushbu musiqiy anjuman xalqimizning o'z ardoqli farzandiga bo'lgan yuksak ehtiromining yana bir yorqin namoyoni bo'ldi.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, bugun sizlarning ishtirokingizda ochilayotgan ushbu muhtasham haykal Botir Zokirov xotirasiga o'matilgan ramziy bir timsoldir.

Ayni paytda Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'atni ravnaq toptirish yo'lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug' ijodkorga eng munosib yodgorlik bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Hozirgi kunda yurtimizdagi yuzlab musiqa va san'at maktablarida, texnikum va kollejlar, madaniyat yo'nalishidagi institutlarimizda, konservatoriymizda minglab iste'dodli yoshlarimiz bilim va tarbiya olmoqda. Biz ana shunday iqtidorli o'g'il-qizlarimizni milliy san'atimiz vorislari, barkamol, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazsak, atoqli san'atkorumizning ruhi albatta shod bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san'atimiz tarixida butun boshli bir davrni tashkil etadi.

Ulug' san'atkorumizning xotirasini abadiylashtirish, boy mersini chuqur o'rganish va jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ushbu masala bo'yicha yangi qaror loyihasini tayyorlash topshiriladi.

Qarorda, jumladan, Toshkent shahrida Botir Zokirov memorial muzeyini barpo etish, estrada san'ati bo'yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko'rik-tanlov tashkil qilish, madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun Botir Zokirov nomidagi davlat stipendiyasini joriy etish, "Botir Zokirov" badiiy filmini yaratish.

tish, Botir Zokirov nomidagi jamg‘arma va Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar ko‘zda tutilishi lozim.

Fursatdan foydalanib, ushbu hududni obod etishga munosib hissa qo‘shtgan barcha yurtdoshlarimizga, qo‘li gul quruvchi va muhandislar, haykaltarosh va me’morlarga samimiyl minnatdorlik bildiraman.

Barchangizni bugungi shodiyona kun bilan yana bir bor tabrik-  
layman. Bu joy poytaxtimiz aholisi va mehmonlari uchun qutlug‘  
ziyoratgohga aylanadi, deb ishonaman.

Dunyoga Botir Zokirovdek buyuk zotlarni bergen xalqimiz  
omon bo‘lsin!

Milliy san’atimiz doimo gullab-yashnasin!

*O‘zbekiston xalq artisti  
Botir Zokirov haykalining ochilishiga  
bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutq*

2024-yil 16-may

---

## ADABIYOT YASHASA – MILLAT YASHAR

Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram adiblar, qadrli yoshlarimiz!

Avvalo, barchangizni elimizning suyukli farzandi, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning betakror ijodiga bag'ishlangan bugungi festival – o'ziga xos adabiyot va san'at bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Ma'lumki, xalqimizning aql-zakovati va azm-u shijoati bilan barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonda milliy adabiyot, madaniyat va san'atni rivojlantirish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi.

Zotan, ma'rifatparvar shoirimiz Abdulhamid Cho'lponning *"Adabiyot yashasa – millat yashar"* degan hikmatli so'zlarida chuqur ma'no bor.

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o'rganish va keng targ'ib qilish, uni bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda milliy o'zligimizni anglash, azaliy ezgu qadriyatlarimizni saqlash va boyitish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday o'ta muhim vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning Erkin Vohidov kabi buyuk va ardoqli farzandlarining qutlug' va o'lmas merosi albatta beqiyos o'rinn tutadi.

O'ylaymanki, bu mo'tabar zotni ortiqcha ta'riflab o'tirishning hojati yo'q. Ulkan shoir va dramaturg, mohir tarjimon va o'tkir publitsist, taniqli jamoat arbobi sifatida Erkin Vohidovning asar-

lari milliy adabiyotimizning “oltin fondi”dan, yurtimiz va chet el-lardagi ming-minglab adabiyot muxlislarining qalbidan munosib va mustahkam o‘rin olgani bilan har qancha g‘ururlansak, arziydi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda ulug‘ shoirimiz xotirasini e’zozlash va boy ijodiy merosini o‘rganish bo‘yicha katta ishlar qilinmoq-da. Xususan, Marg‘ilon shahrida ijodkorlar bog‘i bunyod qilinib, sevimli adibimizning haykali va muzeyi ochildi. Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi tashkil etildi. Poytaxtimizning Adiblar xi-yobonida u kishiga bag‘ishlab muhtasham yodgorlik obidasi qad rostladi. Shoir tavalludining 80 yilligi yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi.

Men Erkin Vohidovdek serqirra iste’dod egasi, haqiqiy vatan-parvar va millatparvar inson bilan zamondosh va maslakkosh bo‘lib yashash nasib etganidan baxtiyorman.

Yurtimizda ma’naviy-ma’tifiy sohalarda olib borilayotgan bugungi jo‘shqin islohotlarimizda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf singari betakror ijodkorlarimizning o‘rni har qadamda sezilib turadi. Ammo hozirgi kunda yetishib kelayotgan iste’dodli yoshlarimiz – mening aziz va qadrli farzandlarim buyuk ustozlarining yo‘lini munosib davom ettirayotgani bizga taskin beradi.

Bugungi ijodiy anjuman doirasida ardoqli shoirimizning ota-shin va dilbar she’rlari yangrayotgani, u kishining g‘azallari asosida aytilgan qo‘shiqlar tanlovi o‘tkazilayotgani, bu so‘lim maskanda Erkin Vohidov nomida bog‘ barpo etilayotgani tahsinga sazovordir.

Biz ushbu adabiy festivalni har yili an’naviy tarzda o‘tkazish taklifini qo‘llab-quvvatlaymiz. Zero, buyuk tarixga ega bo‘lgan, o‘z o‘tmishidan g‘ururlanib, ayni vaqtda, kelajakka yuksak ishonch bilan intilayotgan bugungi o‘g‘il-qizlarimiz ma’naviy buloqlari-mizdan bahramand bo‘lib, Yangi O‘zbekistonning chinakam bunyodkorlari bo‘lib voyaga yetishida mana shunday anjumanlar-ning o‘rni va ta’siri beqiyos, albatta.

Fursatdan foydalaniб, ushbu tadbir tashkilotchilari – Toshkent viloyati hokimligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “UzReport” telekanali va “Turonbank” mutasaddilariga, shoirning farzandlari va barcha muxlislariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Festival qatnashchilarini, uning g‘olib va sovrindorlarini, turli hududlardan kelgan yoshlarimizni yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sog‘lik-salomatlik, ijodiy ishlaringizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

*Erkin Vohidov ijodiga bag‘ishlangan adabiy  
festival qatnashchilariga yo‘llangan tabrik*

2024-yil 23-may

---

## MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O'G'IL-QIZLARIMIZGA

Qadrlar farzandlarim!

Bugun o'z bilim va iste'dodi, kuch-g'ayratini Yangi O'zbekiston buniyodkori, jonajon yurtimizga munosib farzand bo'lishdek ezgu maqsadga baxsh etishga bel bog'lagan sizlar kabi navqiron yoshlarni maktab ta'llimini muvaffaqiyatli tugatayotganingiz bilan chin qalbimdan samimi tabriklayman.

Mehribon ustozlaringiz va ota-onalaringiz sizlarga oq yo'l tilab turgan mana shu qutlug' kunda mamlakatimizdagi barcha maktablarda "so'nggi qo'ng'iroq"lar jaranglab, siz kabi minglab yoshlarimiz katta hayotga yo'llanma olmoqdalar.

Haqiqatan ham, bugun sizlar ulkan imkoniyatlar taqdim etadi-gan butunlay yangi hayot ostonasida turibsiz. Bu yo'lda tinimsiz izlanib, yangi marralar sari talpinish, dadillik va o'zingizga qat'iy ishonch hissi doimo hamrohingiz bo'lishi lozim.

Hamisha yodingizda tuting, har biringiz o'ziga xos iste'dod sohibisiz, ularni ro'yobga chiqarish esa, avvalo, o'zingizga, tinimsiz intilish va izlanishlaringizga bog'liq.

Shu o'rinda, sizning safingizda o'qishni oltin va kumush medal-lar bilan tamomlayotgan yuzlab o'g'il-qizlarimiz borligini ta'kid-lash o'rinlidir.

Keyingi yillarda Yangi O'zbekiston yoshlari turli fanlar, sport, san'at va adabiyot sohalarida o'zining chuqr bilim va qobiliyatini yaqqol namoyon qilishmoqda.

Hayotda yuksak marralarni ko'zlab turgan bunday serg'ayrat va bilimdon farzandlarimizni yurtimizdagi millionlab o'g'il-qizlari-mizga o'mak qilib ko'rsatsak, arziydi.

Mamlakatimizda navqiron avlod vakillarini har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Chunki jonajon Vatanimizning kelajagi, uning taqdiri va taraqqiyoti bugun shinam sinfxona va auditoriyalarda qunt bilan ta'lim olayotgan yoshlarning qo'lida. Ular ertaga O'zbekistonni yanada kuchli, rivojlangan va baxtli davlatga aylantirish uchun o'zlarining bor bilimi, iqtidori va kuch-g'ayratini safarbar qilsa, ko'zlagan maqsadlarimizga albatta erishamiz.

Ayni paytda mamlakatimizdagi ko'plab zamonaviy oliygoхlar, kasb-hunar maktablari va texnikumlar bitiruvchilarni o'z bag'riga chorlamoqda. Bu maskanlarda ularning ta'limni davom ettirib, yanada chuqurroq bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Sizlar jonajon Vatanimiz shonli tarixining bir qismi, o'z madaniyati va an'analarini asrlar davomida asrab-avaylab kelayotgan buyuk xalqning dilbandlari, Yangi O'zbekistonning umidi va tayanchi hisoblanasiz. Yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman, davlatimizning ertangi taqdiri, uning ravnaqi va taraqqiyoti sizlarning qo'lingizda.

Hech qachon orzu qilishdan to'xtamang, katta maqsadlar yo'liда imkoniyatlaringizni sinab ko'rishdan, bu yo'lда xato qilish va ulardan saboq olishdan qo'rwmang. Chunki xalqimiz sizlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda.

Sizlarning yangi g'oya va tashabbuslaringiz, ishtiyoqingiz va kuchingiz nafaqat O'zbekistonni, balki butun dunyoni o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun har qanday holatda ham o'z oldingizga qo'ygan ezgu maqsadingizdan ortga chekinmang.

Har biringiz ustozlaringiz va ota-onangiz qalbingizga singdirgan qadriyatlarga hamisha sodiq bo'lib, xalqimizning bebaho merosini

yanada boyitishga, yurtimizning yorug‘ kelajagiga hissa qo‘shishga intiling.

Biz jahonga ilm-ma’rifat, ma’naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug‘ zotlarning avlodimiz. Ularga xos bo‘lgan noyob xususiyatlar, ular yaratgan an’analar bugun har birimizning qalbimizda, ongimizda va hayotimizda yashamoqda.

Endilikda biz ana shu buyuk ajodolarimizning chinakam davom-chilari bo‘lgan qalbi qaynoq yoshlarimizning yuksak ma’naviy va intellektual salohiyati, ularning dunyoni lol qoldiruvchi yutuqlari bilan ham faxrlanishga haqlimiz.

Hech shubhasiz, hayotda yuksak natijalarga erishish uchun tinnimsiz harakat, shijoat va jasorat talab etiladi. Sizlarning chuqur bilim olish, zamonaviy kasb-hunarлarni o‘rganish orqali Vatanimizga munosib farzandlar bo‘lib yetishishingiz va uning taqdiri uchun mas’uliyatni zimmangizga olishingizga ishonaman.

Bu sharaflı yo‘lda barchangizga baxt va omad doimo yor bo‘lishini tilayman.

2024-yil 24-may

---

## **“XITOY – QIRG‘IZISTON – O‘ZBEKISTON” TEMIRYO‘LI QURILISHI BO‘YICHA STRATEGIK LOYIHANI AMALGA OSHIRISH TO‘G‘RISIDAGI BITIMNI IMZOLASH MAROSIMI ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

“Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temiryo‘li qurilishi bo‘yicha strategik loyihani amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimni imzolash marosimining barcha ishtirokchilarini samimiyl qutlashdan mammunman.

Bu mamlakatlarimiz o‘rtasida qaror topgan an‘anaviy yaqin va ko‘p qirrali hamkorlik rivojidagi chinakam tarixiy voqeadir. Bugun biz birgalikda keng mintaqamizda iqtisodiy va transport aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan muhim amaliy qadamlarni qo‘ymoqdamiz.

Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi, hurmatli Si Szinpin janoblariga “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Transkontinental transport va tranzit koridorining ajralmas qismi hisoblanuvchi ushbu muhim infratuzilma loyihasini ilgari surishda ko‘rsatgan shaxsiy e’tibori va uni to‘la qo‘llab-quvvatlagani uchun chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Yangi temiryo‘l Xitoy bilan iqtisodiy hamkorligimizni kengaytirib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishiga ishonaman.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

“Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temiryo‘li tarixiy Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab o‘tadi. Darhaqiqat, biz ko‘p asrlar davomida sav-

do aloqalari va madaniy almashinuv rivojiga xizmat qilgan ushbu qadimiy yo‘lni zamonaviy sharoitda qayta tiklayapmiz.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, mazkur temiryo‘l Xitoyni mintaqamiz bilan bog‘lovchi eng qisqa quruqlik yo‘liga aylanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uning barpo etilishi ortib borayotgan yuk tashish hajmiga samarali xizmat ko‘rsatish, ularni tashish vaqt va narxini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Mutaxassislarining qayd etishicha, yuk tashish yillik hajmi 15 million tonnaga gacha yetishi mumkin, tovarlarni yakuniy iste’molchilarga yetkazish muddati esa 7 kunga qisqaradi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit va logistika infratuzilmasi, omborxonalar va terminallar yaratiladi.

Loyihaning amalga oshirilishi oqibatida vujudga keladigan iqtisodiy ta’sirni barcha mamlakatlar his qiladi. Avvalo, yangi korxonalar va o‘n minglab ish o‘rinlari yaratiladi, o‘zaro tovar ayriboshlash hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko‘lami, investitsion jozibadorlik o‘sadi va asosiy natija – fuqarolarimizning turmush darajasi oshadi.

Kelgusida ushbu yo‘l bizning mamlakatlarimizga istiqbolli Transafg‘on yo‘lagi orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi, tranzit salohiyati va mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlikni sezilarli darajada oshiradi.

Qadrli do‘stlar!

Shuni ta’kidlamoqchimanki, ushbu keng ko‘lamli loyihani amalga oshirish uchun O‘zbekiston hududida barcha infratuzilma yaratilgan.

Bundan tashqari, biz zamonaviy temir va avtomobil yo‘llari milliy tarmog‘ini kengaytirmoqdamiz, yuklarni qayta ishlash va tashish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni faol joriy qilmoqdamiz.

Hamkorlarimizni yana bir bor ishontirib aytmoqchimanki, O‘zbekiston temiryo‘l qurilishi, imzolanayotgan bitim va qabul qilingan “yo‘l xaritasi” bo‘yicha izchil hamkorlikni davom ettirishga tayyor.

Aminmanki, uzoq muddatli umumiy manfaatlarimizga javob beradigan “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temiryo‘li strategik loyihasi do‘slik va sheriklik munosabatlarimizni mustahkamlashga, mamlakatlarimiz, xalqlarimiz farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ushbu keng qamrovli loyihaning barcha ishtirokchilariga ulkan zafarlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*2024-yil 6-iyun*

---

## O'ZBEKİSTONDA OZARBAYJON MADANIYATI KUNLARI ISHTIROKCHILARIGA

Qadrli mehmonlar!

Aziz vatandoshlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, bugungi ulkan voqea – O'zbekistonda Ozarbayjon madaniyati kunlarining tantanali ochilishi bilan barchangizni chin qalbimdan samimiyl muborakbod etaman.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida do'stlik va hamkorlik aloqalari jadal rivojlanib, mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Buni barcha sohalar qatori madaniy-gumanitar yo'nalishdag'i aloqalarimiz ham izchil rivojlanib borayotgani misolida barchamiz yaqqol ko'rib turibmiz.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, aziz qardoshim Ilhom Haydarovich Aliyev bilan kelishuvlarimiz asosida o'tgan yili Ozarbayjonda O'zbekiston madaniyati kunlari, shu yil yanvar oyida esa O'zbekiston fani va madaniyati kunlari yuksak saviyada o'tkazildi.

Qadimiy Ozarbayjon zaminida o'zbekistonlik ilm-fan va madaniyat namoyandalari katta hurmat-e'tibor bilan kutib olingani, bu diyorda bo'lib o'tgan qizg'in va samimiy uchrashuv va muloqotlar, hech shubhasiz, xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy qardoshlik munosabatlarini mustahkamlashga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Biz O'zbekistonda o'tkazilayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Baxshichilik va "Lazgi" festivallari hamda boshqa yirik madaniy tadbirdarda Ozarbayjon ijodkorlari muntazam ishtirok etib kelayotganini yuksak qadrlaymiz.

Ozarbayjonda milliy mug‘om san’ati bo‘yicha bo‘lib o‘tadigan an’anaviy festivalga o‘zbek san’atkorlari doimiy taklif etib borila-yotgani alohida diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda katta shod-u xurramlik bilan boshlanayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari qardosh ozar zaminida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston madaniyati kunlarining uzviy davomidir.

Ishonchim komil, bizning san’atsevar xalqimiz orziqib kutgan ushbu madaniyat kunlari qardoshlarimizning qadimiy va boy madaniyati, san’ati, adabiyoti, milliy an’ana va qadriyatlari bilan yanada ya-qinroq tanishish uchun qulay imkoniyatlar beradigan go‘zal bir an-juman bo‘ladi.

Siz aziz, Ozarbayjon madaniyati kunlarining barcha ishtirokchilarini yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, yuksak ijodiy parvozlar tilayman.

Sizlar ushbu madaniyat va san’at bayrami doirasida Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlar, xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati bilan yanada yaqinroq tanishasizlar, deb ishonaman.

Qardoshlarингiz diyori – O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

*2024-yil 11-iyun*

---

## **INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TO‘RTINCHI AN’ANAVIY SAMARQAND FORUMI ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli Forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, “Ekologik tahdidlar: o‘zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash” mavzusida-gi inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi an’anaviy Samarqand forumining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy qutlayman.

Yurtimizda ilk bor 2018-yilda o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi jahon amaliyatiga o‘ziga xos “Samarqand ruhi”ni olib kirdi, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu tariqa inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumlarini o‘tkazish yaxshi an’ana tusini oldi.

Bugungi anjumanda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo‘yicha ken-gash, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi, shuningdek, tanqli xorijiy davlat va jamoat arboblari, inson huquqlari sohasidagi yetakchi ekspertlar ishtirok etayotgani, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Yaxshi ma’lumki, global iqlim o‘zgarishi oqibatida sayyoramizda keskin ekologik vaziyat yuzaga keldi. Ichimlik suvi taqchiligi, atrof-muhit ifloslanishi, tuproq yemirilishi, kuchli chang va qum bo‘ronlari, bioxilma-xillikning yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Barcha qit'alarda va mamlakatlarda bu jarayonlarning salbiy ta'siri yanada kuchayib bormoqda. Ayniqsa, havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar ko'p bo'lgan va Orol fojiasini boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida buning oqibatlari yaqqol sezilmoqda.

Ekologik inqiroz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi eng asosiy to'siq va tahdidga aylandi, global miqyosda qashshoqlik bilan bog'liq muammolar ko'paymoqda, insonning sog'liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash xavf ostida qolmoqda. Bundan, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, ayollar va bolalar jiddiy aziyat chekmoqda.

Albatta, iqlim o'zgarishi oqibatida inson huquqlariga yetkaziladigan zararni keskin kamaytirish uchun jahon mamlakatlari birgalikda samarali choralar ko'rishi kerak. Kelajak avlodlar taqdiri uchun barhamiz ulkan mas'uliyatni o'z zimmamizga oladigan vaqt keldi.

Parij bitimida ta'kidlanganidek, iqlim o'zgarishiga qarshi choralar ko'rileyotganida, davlatlar inson huquqlarini hurmat qilishi, rag'batlantirishi va himoya qilishi, asosiy diqqat-e'tiborini mazkur sohadagi majburiyatlarini bajarishga qaratishlari lozim.

Hurmatli mehmonlar!

Yangi O'zbekistonda iqlim o'zgarishi muammolari bilan kurashish barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng muhim omiliga aylandi. Biz imkon qadar bunday jarayonlarning oldini olish va ularning salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha zarur choralarни ko'rmoqdamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi alohida bobda mustahkamlangan. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha vazifalarni amalga oshirish majburiyatları belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Orolbo'yи mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivoj-

lantirish, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o‘tish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2030-yilga borib mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 40 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida O‘zbekistonda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmonzorlar barpo etdik.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, bizning sa’y-harakatlarimizni jahon hamjamiyati keng qo’llab-quvvatlamоqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish”, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy bidadlikni mustahkamlash” kabi muhim rezolutsiyalar bir ovozdan qabul qilindi.

Hech shubhasiz, insoniyat to‘qnash kelayotgan iqlim bilan bog‘liq keskin muammolar oqibatlarini yumshatish inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Shu bois Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”-gi rezolutsiyasini ishlab chiqish va ilgari surish bo‘yicha tashabbusimizni qo’llab-quvvatlaysizlar, deb ishonaman.

Siz, azizlar bugungi Forum davomida global miqyosda ekologik vaziyat barqarorligini saqlash, inson huquq va manfaatlariga xizmat qiladigan yangi amaliy takliflarni ishlab chiqasizlar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalaniб, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, Forum ishiga ulkan muvaffaqiyat tilab qolaman.

---

## O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni tinchlik, mehr-oqibat va hamjihatlik fazilatlaridan tobora obod va munavvar bo'layotgan yurtimizga kirib kelgan Qurban hayiti bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu saodatli damlarda barchamiz bu ulug' ayyomning ruhi va shukuhini chuqur his etib, el-yurtimiz bilan birgalikda shunday yorug' kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytamiz.

Xalqimiz hayotida ezgulik, mehr-muruvvat, saxovat va olivjanoblik ramzi sifatida mustahkam qaror topgan Qurban hayiti bugungi kunda biz uchun barcha sohalarda inson qadri yetakchi o'ringa chiqayotgan Yangi O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar mazmuniga naqadar uyg'un va hamohang ekani bilan yanada ahamiyatli bo'lib bormoqda.

Ayniqsa, mahalla va xonardonlarimizda tinchlik-osoyishtalik, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlash, keksalar, yoshlar va xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar haqida g'amxo'rlik qilish, hech kimni mehr va e'tibordan chetda qoldirmaslikka qaratilgan ezgu ishlarimizda muqaddas dinimiz, uning insonparvarlik mohiyatini o'zida yaqqol ifoda etadigan ushbu fayzli bayram biz uchun ibrat maktabi, kuch-g'ayrat manbai bo'lib xizmat qiladi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Aziz do'stlar!

Qalblarimiz quvonchga to'lgan ushbu yorug' kunlarda keyinги yillarda mamlakatimizda azaliy diniy qadriyatlarimizni tiklash, muqaddas qadamjolarni obod qilish borasidagi ulkan ishlar, yurtimiz

mo'min-musulmonlarining ibodat arkonlarini, jumladan, haj va umra ziyyaratlarini erkin amalga oshirishlari uchun yaratib berilayotgan qulay sharoitlar haqida so'z yuritishimiz tabiiyidir.

Qisqa muddatda Imom Buxoriy, Imom Termiziyy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy markazlari tashkil etildi. Abu Iso Termiziyy, Abu Muin Nasafiy, Sulton Uvays Qaraniy, Suzuk ota yodgorlik majmualari tubdan obod qilindi. Yangitdan barpo etilayotgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazida qurilish va jihozlash ishlari jadal davom ettilermoqda. Shular qatorida shahar va qishloqlarimizda ko'plab muhtasham masjidlar barpo etilmoqda.

Keyingi yetti yilda 60 mingdan ziyod yurtimiz musulmonlari haj amallarini bajardilar. Shu kunlarda yana 15 ming nafar vatandoshimiz ikki muqaddas shahar – Makka va Madina ziyyaratiga borib, o'zlarining ezgu orzularini amalga oshirmoqdalar.

Pok niyatlar ijobat bo'ladigan mana shunday ilohiy lahzalarda ularning barchasiga chin dildan haj ibodatlarini to'liq ado etib, yurtimizga sog'-omon qaytib kelishlarini tilaymiz.

Hayit bayrami arafasida Makkayi mukarramada bo'lib turgan O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, hurmatli muftiyimiz shayx Nuriddin Xolinqazar hazratlari bilan telefon orqali bo'lgan muloqotimizda yurtdoshlarimizning muqaddas haj ibodatini mukammal ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini u kishi alohida ta'kidlab o'tdilar. Umid qilamizki, hojilarimiz Vatanimizga qaytgach, jamiyatimizdagи mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi hamda oilalar totuvligini kuchaytirishda ibrat va namuna ko'rsatadilar.

Muhtaram yurtdoshlar!

Mana shu qutlug' lahzalarda turli zaruratlar bilan xorijiy ellarda bo'lib turgan vatandoshlarimizni ham samimiy tabriklab, ularga sog'lik-omonlik, baxt va omad tilaymiz.

Dunyoning uzoq-yaqin mamlakatlaridagi dindoshlarimizga ham qizg‘in qutlovlari yo‘llab, ularning xalqlari va mamlakatlariga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilab qolamiz.

Ilohim, jahonning turli mintaqalarida davom etayotgan urush va janjallar tezroq barham topsin! Yer yuzida doimo tinchlik va osoyish-talik barqaror bo‘lsin!

Aziz va qadrli do‘sstar!

Bugun biz ko‘p millatli xalqimiz bilan birga Yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdamiz. **Yangi O‘zbekiston – bu yangi hayot, yangi tarraqqiyot, baxtli kelajak degani.**

Barchamiz hamjihat bo‘lib, boshlagan islohotlarimizni yanada qat’iy davom ettirsak, bu ulug‘ maqsadga so‘zsiz yetamiz.

Farzandlarimizni albatta bilimli, hunarli, odobli insonlar, chinakam vatanparvar avlod etib voyaga yetkazamiz.

Shu yo‘lda barchamizga baxt va omad yor bo‘lsin!

El-yurtimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Siz, azizlarni muqaddas Qurbon hayiti bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Ulug‘ ayyom barchamizga muborak bo‘lsin!

2024-yil 15-iyun

---

## MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, o'z iste'dodi va mahorati, fidokorona mehnati bilan el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan siz, milliy jurnalistikamiz jonkuyarlarini, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan muhtaram faxriyalarimizni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiyl muborak-bod etib, barchangizga yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ma'lumki, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlab qo'yilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda so'z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yo'lida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o'rni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkorlikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati us-tidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o'rganish va hal qilish borasida sizlarning o'rnингиз va ta'siringiz tobora ortib borayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Shu o‘rinda gazeta va jurnallarimiz, tele- va radiokanallar, ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzulardagi dolzarb chiqishlar, muammoli masalalar yuzasidan mutaxassis va ekspertlar ishtirokidagi ko‘rsatuv va eshittirishlar, tahliliy sharhlar, babs-munozaralar sezilarli ravishda ko‘payganini ta’kidlash lozim.

Xususan, qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi muammolar bo‘yicha berib borilayotgan tандиди va tahliliy materiallar joylarda mudrab o‘tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uyqudan uyg‘otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda.

Muxtasar aytganda, kuyunchak va oliyjanob jurnalistlarimiz, faol blogerlarimiz o‘zlarining qat’iy pozitsiyasi, haqqoniy so‘zi bilan hayotimizdagi o‘tkir muammolarni hal etish, islohotlarimizning samarasini oshirish, yurtdoshlarimizning fikrini, dunyoqarashini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Hech shubhasiz, bularning barchasi milliy media vositalarimiz “to‘rtinchchi hokimiyat” darajasiga yaqinlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday yuksak marraga yetish oson emasligi, bu yo‘lda to‘sinq va qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiydir.

Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu boradagi ishlarimizni qat’iyat bilan davom ettiramiz.

Muhtaram do‘stlar!

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo‘nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o‘z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko‘proq bo‘lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko‘p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma’naviy-intellektual fazilatlarga ega

bo‘lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, axborot maydonini sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to‘ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois, dunyoda yuz berayotgan voqeа-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o‘ta muhim, deb o‘ylayman.

Shuningdek, bugungi kunda yolg‘on va asossiz ma’lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish holatlari ko‘payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa qilib qo‘ymoqda. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me’yorlar negizida hal etilishi shart.

Siz, hurmatli media tarmoqlari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Albatta, sohada xizmat qilayotgan barcha yurtdoshlarimizning qonuniy manfaatlarini ta’minalash, ularning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirish masalalari bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharaflı faoliyatizingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Fursatdan foydalaniib, bugungi bayram munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ommaviy axborot vositalari xodimlarini chin dildan qutlayman.

Izlanish va ilhom zavqi, yangi ijodiy yutuqlar sizlarga hamisha yor bo‘lsin, azizlar!

---

## **MAQOM – QADIMIY TARIXIMIZ, BOY MADANIYATIMIZ, AZALIY QADRIYATLARIMIZ RAMZIDIR**

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz, azizlarni betakror qadriyat va an'analar yurti bo'lgan O'zbekiston zaminida ikkinchi marotaba o'tkazilayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugungi tantanamizda UNESCO Bosh konferensiyasi 42-sessiyasi prezidenti Simona Mikulesku, CESCO Bosh direktori Salim Muhammad al-Malik, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy madaniyat va meros fondi prezidenti Aktoti Raimkulova, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Bosh kotibi o'rindbosari Nurlan Seytimov, Turkiya Respublikasi Prezidentining bosh maslahatchisi Yalchin Topchu, Qozog'iston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Malik Otarbayev, Tojikiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy rivojlanish, madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha yordamchisi Abdullo Rahmonzoda, Qirg'iz Respublikasi madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vaziri Oltinbek Maksutov, Ozarbayjon madaniyat vaziri Adil Gabil o'g'li Karimli va boshqa muhtaram mehmonlarimiz ishtirok etayotgani uchun alohida minnatdorlik bildiraman.

Xush kelibsiz O'zbekiston zaminiga!

**Qadrli mehmonlar!**

Mazkur anjuman 2018-yilda ko‘hna Shahrisabzda o‘tkazilgan birinchi xalqaro maqom san’ati festivalining davomi bo‘lib, pandemiya tufayli vujudga kelgan olti yillik tanaffusdan so‘ng barchamizni yangicha ruh va shukuh bilan yana o‘ziga chorlamoqda.

**Buyuk ipak yo‘li durdonasi – jannatmakon mamlakatimizning gavhari, serviqor tog‘lar, yam-yashil o‘rmonlar, xalqparvar va olivjanob insonlar yurti bo‘lmish betakror Zomin bugun katta san’at bayramiga mezbonlik qilmoqda.**

Qadimiylar Zomin haqida ko‘plab kitoblar, ilmiy tadqiqotlarda bataysil ma’lumotlar berilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishi-cha, “Zomin” atamasi “Avesto”da tilga olingan “Zomyod”, ya’ni farovonlik farishtasi degan nom bilan bog‘liq va miloddan avvalgi VII–V asrlarga borib taqaladi.

Noyob arxeologik topilmalari, zabardast allomalari bilan jahonga mashhur ushbu hudud ko‘p asrlar davomida sivilizatsiya beshiklaridan biri, ilm-fan, san’at va ma’rifat markazi bo‘lib kelgan. Jumladan, XII asrning oxiri va XIII asrning birinchi yarmida bu makonda yashab ijod etgan huquqshunos alloma Muhammad ibn Mahmud Ustrushoni tarixda bolalar huquqlari bo‘yicha birinchi keng qamrovli manba – “Bolalar huquqlari kodeksi” (“Jomi’ ahkom as-sig‘or”) nomli noyob asar yaratganini katta faxr va iftixon bilan tilga olamiz.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu tarixiy asar bola huquqlari G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil muqaddam bugungi O‘zbekiston zaminida to‘liq o‘rganilib, amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

Bu ko‘hna diyor nafaqat beqiyos tabiat mo‘jizalarini, shu bilan birga, buyuk ma’naviy xazina bo‘lgan xalqimizning boy an’ana va qadriyatlari, madaniy merosi va folklor namunalarini ham saqlab kelayotgan tabarruk zamindir.

Shu o‘rinda Jizzax viloyatidan O‘zbekiston xalq hofizlari Eson Lutfullayev va Orifxon Hotamov, O‘zbekiston san’at arbobi Bahrul-

lo Lutfullayev kabi hayotbaxsh va o'limas navolari bilan xalqimiz mehrini qozongan atoqli hofizlar, mohir bastakorlar yetishib chiqqanini yodga olishni istar edim.

Muhtaram festival qatnashchilar!

Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom – umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrlidir.

Shu bilan birga, u o'zida musiqa, she'riyat va raqs san'atini ajoyib tarzda uyg'un etgan yuksak tafakkur va insoniy kamolot qomusidir. Maqom san'ati uchun asosiy mavzu – eng avvalo, shaxs, uning erki va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi.

Bu mumtoz badiiy obida asrlar mobaynida avlodlar o'rtasida ruhiy uzviylikni saqlab, inson ma'naviy olamini boyitib, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdek ulug' maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda.

Maqom o'zida xalqning teran ruhiyati, ezgu niyatları, milliy mentaliteti, so'nmas qadriyatlarini mujassam etgan bo'lib, sivilizatsiya taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Musulmon Sharqida Birinchi va Ikkinci Renessans davrida maqom san'ati jadal rivojlanib, o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Xususan, X asrning birinchi yarmida Sharqda "Muallimi soniy" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy o'zining "Katta musiqa kitobi"da musiqa san'atining nazariy va amaliy mezonlarini ud sozi orqali mukammal tartibga keltirgan. Buyuk mutafakkir Muhammad Xorazmiy "Ilmlar kaliti" kitobining musiqaga bag'ishlangan qismida o'sha davrdagi musiqa cholg'ulari haqida aniq ma'lumotlar beradi. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin

Muhammad Bobur kabi buyuk allomalarimiz esa noyob musiqiy asarlar yaratib, maqom rivojiga beqiyos hissa qo'shganlar.

XX asrda bu an'analarni munosib davom ettirgan Abdurauf Fitrat, Viktor Uspenskiy, Yunus Rajabiy kabi salohiyatli va peshqadam san'atshunos olimlar, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Turg'un Alimatov, Berta Davidova, Fattohxon Mamadaliyev, Orif Alimaxsumov, Mahmudjon Tojiboyev singari atoqli va fidoyi ustozlarning unutilmas xizmatlarini hamisha cheksiz hurmat va ehtirom bilan esga olamiz.

Majoziy ma'noda olti azim o'zanga qiyoslanadigan, xalqimiz badiiy tafakkurining beqiyos mahsuli bo'lgan "Shashmaqom" asrlar davomida jahon madaniyat ummonini to'ldirib, uni har tomonlama boyitib kelmoqda.

Shu o'rinda mumtoz musiqa san'atining gultoji bo'lgan betakror maqomlarimiz UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani va bu uni butun dunyoda keng targ'ib qilish va ommalashtirishga munosib hissa qo'shayotganini ulkan xursandchilik bilan ta'kidlamoqchiman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O'zbekistonda maqom san'atini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazishda mashhur davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning o'mni alohida ajralib turadi. G'oyat og'ir davrlarda Sharof Rashidovichning sa'y-harakatlari bilan Toshkent davlat konservatoriyasida maqom san'atini ilmiy o'rganishga, uni xalqaro miqyosda targ'ib etishga asos solingan edi. O'sha yillarda respublikamizda maqom ansambli tashkil etilgan. O'lmas "Shashmaqom" durdonalari notaga olinib, 6 jilddan iborat mukammal kitob nashr qilingan.

O'ylaymanki, bugungi fayzli anjumanimiz tufayli rahmatli Sharof Rashidovichning ham ruhlari shod bo'lmoqda.

Xabaringiz bor, Yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori madaniyat va san'at yo'nalishini rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bu jarayonda “Sharq taronalari”, Xalqaro baxshichilik san’ati, “Lazgi”, Xalq hunarmandchiligi festivali singari nufuzli anjumanlar, Toshkent xalqaro kinofestivali, madaniyat kunlari, tasviriy va amaliy san’at ko’rgazmalari hamda boshqa muhim tadbirlarni o’tkazish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hech shubhasiz, ular orasida mumtoz musiqa san’atining noyob durdonasi bo‘lgan maqomlarga bag‘ishlangan mazkur xalqaro festival beqiyos o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ushbu san’at ravnaqini yangi bosqichga olib chiqish, iste’dodli yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Bugungi kunda maqom san’ati butun mamlakatimiz bo‘ylab, boshlang‘ich ta’limdan tortib, akademik fan darajasigacha bo‘lgan bosqichlarda uzlucksiz tarzda o‘rganilmoqda. Biz Toshkent shahrida Maqom markazi yangi binosini qurish bo‘yicha amaliy ishlarni boshladik. Maqom rivoji yo‘lida sermahsul ijod qilib kelayotgan bastakor, kompozitor, musiqashunos, xonanda va sozandalarni faol qo’llab-quvvatlash maqsadida yurtimizda nufuzli milliy tanlovlardan o’tkazib kelinmoqda.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, hayotini ana shunday sharafliga va mas’uliyatli ishga bag‘ishlagan, go‘zal qalb olamida bu umum-bashariy meros namunalarini avaylab-ardoqlab kelayotgan, o‘zining benazir va jozibador ohanglari bilan xalqlarimizni maftun va mamnun etayotgan sizlar kabi barcha aziz san’atkorlarimizga shaxsan o‘z nomimidan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Qadrli do’stlar!

Biz bu borada boshlagan va baland marralarni ko‘zlagan reja va tadbirlarimizni albatta izchil davom ettiramiz. Zero, milliy maqom ijrochiligi mumtoz san’atimiz va yuksak madaniyatimizning o‘q il-dizi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Ko‘ngil quvvati – xush navozdin, ruh quti – xush ovozdin”.

Qarang, qanday chuqur ma'noli so'zlar.

Darhaqiqat, barcha olis va yaqindan kelgan san'atkorlar ishtiroki-da do'st va birodar xalqlarimizning dillarini bir-biriga chambarchas bog'laydigan bugungi anjumanimiz ham musiqa orqali Yer yuzidagi barcha insonlarga ma'naviy oziq berishga xizmat qiladi. Festivalimiz ko'lami tobora kengayib, bugun bu muhtasham majmuada Osiyo, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika qit'alarining 80 dan ortiq mamlakatlaridan qariyb 400 nafar mehmonlar jam bo'lib turgani ham fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

Ezgulik va gumanizm bayrog'i ostida birlashgan, san'atni butun borlig'i bilan sevadigan barcha ijod ahli uchun ushbu festival, hech shubhasiz, katta bayramdir.

Fursatdan foydalanib, tadbirni tashkil etishda bevosita ishtirok etayotgan barcha fidoyi insonlarga, bizning quvonchimizga sherik bo'layotgan xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlar va killariga, hurmatli mehmonlarimizga chin dildan tashakkur aytaman.

Maqomlar jahon musiqa ixlosmandlari ruhining tuganmas kuch-quvvat va ilhom manbai bo'lsin!

Maqom san'atining shoni va shuhrati boqiy bo'lsin!

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, oliyjanob faoliyatizingizda yangi omadlar yor bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Ikkinci xalqaro maqom san'ati festivali  
ochilish marosimidagi nutq*

2024-yil 27-iyun

---

## O'ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli o'g'il-qizlarim!

Siz, azizlarni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' ayyom – Yoshlar kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimiz ijobatini, Yangi O'zbekiston kelajagini butun el-yurtimiz qatori sizdek azm-u shijoatli farzandlarimiz bilan bog'liq holda ko'ramiz. Shu bois yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni kamol toptirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, so'nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishslash bo'yicha dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruvi tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Bu esa mahallalardagi Prezident vakillari bo'lgan yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni quyi bo'g'inning o'zida hal etish imkonini bermoqda.

Ayniqsa, "Yoshlar daftari", "Yoshlar balansi" platformasi asosida olib borayotgan keng ko'lamli ishlarimiz natijasini o'g'il-qizlarimiz o'z hayotida aniq his etmoqda.

Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadini oshirish bo'yicha joriy etilgan yangi tizim tufayli bu yilning o'zida "mahalla yettiligi" tavsiyasi bilan 156 ming yoshga 60 ming hektar yer maydoni 30 yil muddatga ijaraga berilgani ham shu yo'ldagi muhim qadamdir.

Albatta, yoshlarning mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda muhim yutuqlarga erishayotgani barchamizni xur-

sand qiladi. Birgina o'tgan o'quv yilida maktab o'quvchilarimizdan 55 nafari matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medalini, madaniyat va san'at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda esa yoshlarimizning 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 359 nafari 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yaqinda Qatarda bo'lib o'tgan futbol bo'yicha Osiyo kubogi o'yinlarida O'zbekiston olimpiya terma jamoasi mamlakatimiz tari-xida ilk bor Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritgani ham barchamizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Mana, bizning qanday iste'dodli, bilimli va matonatlali yoshlarimiz bor! "Yangi O'zbekiston yoshlari" degan sharaflı nomga har tomonlama munosib bo'lgan bunday yigit-qizlar bizning bebahoy boyligimiz, oltin fondimizdir.

Qadrli navqiron do'stlarim!

O'zbekistonda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar dunyo miqyosida tan olinmoqda. O'tgan yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra, O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e'tirof etilgani ham shundan dalolat beradi. Shuningdek, BMT tomonidan "Yoshlar strategiyasi – 2030"ni namunaviy tarzda amalga oshirish bo'yicha tanlab olingen 10 ta mamlakatdan biri aynan O'zbekistondir. 2022-yilda Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, 2024-yilda esa azim Toshkentimiz – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e'lon qilindi.

Shu kunlarda mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan Butunjanhon yoshlar festivali ham O'zbekistonga bo'lgan yuksak e'tibor namunasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Ushbu anjumanda 92 ta mamlakatdan 700 nafardan ziyod chet ellik yoshlar, 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning vazirlik va idoralaridan rahbar va mas'ul xodimlar ishtirok etmoqda. Eng muhimmi, yurtimiz yoshlari ning butun dunyoda do'stlari, hamkorlari ko'paymoqda, bilim va

kasb o‘rganish, global muloqot va almashuvlarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Aziz o‘g‘il-qizlarim!

Farzandlari bilimli, iste’dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug‘ bo‘ladi. Biz O‘zbekiston yoshlarini ana shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Hech qachon unutmang, sizlar yoshlikning har bir daqiqasini g‘animat bilib, doimo bunyodkorlik va ijodkorlik hissi bilan, Vatanga cheksiz mehr va sadoqat tuyg‘usi bilan yashasangiz albatta kam bo‘lmaysiz.

Sizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor tabriklab, o‘z oldin-gizga qo‘ygan maqsadlarga erishishda barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, omad va zafarlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz o‘g‘il-qizlarim!

2024-yil 30-iyun

## MUNDARIJA

<b>SHHT mintaqasi – ulkan iqtisodiy imkoniyatlar makoni</b>		
<i>Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashi majlisidagi nutq</i>		
2023-yil 4-iyul .....		3
<b>Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarimizni yanada ulkan natijalar bilan mustahkamlash – bosh vazifamiz</b>		
<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutq</i>		
2023-yil 14-iyul .....		11
<b>Umumiy tarix va merosimiz zamonaviy munosabatlarimiz rivoji uchun mustahkam poydevordir</b>		
<i>"Ko'rfaż arab davlatlari – Markaziy Osiyo" oliy darajadagi bir'inchi sammitidagi nutq</i>		
2023-yil 19-iyul .....		25
<b>Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi</b>		
2023-yil 29-iyul .....		31
<b>Temiryo'l transporti sohasi xodimlariga</b>		
2023-yil 5-avgust .....		34
<b>O'zbekiston quruvchilariga bayram tabrigi</b>		
2023-yil 13-avgust .....		37
<b>Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – zamon talabi</b>		
<i>Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutq</i>		
2023-yil 18-avgust .....		40
<b>Shahid bobolarimiz xotirasini e'zozlash – muqaddas insoniy burchimizdir</b>		
<i>Shahidlar xotirasini yod etish kunida bildirilgan fikrlar</i>		
2023-yil 31-avgust .....		59

<b>Bir bo'lsak – yagona xalqımız, birlashsak – Vatanımız</b>	
<i>O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq</i>	
<i>2023-yil 31-avgust</i>	70
<b>Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya ishtirokchilariga</b>	
<i>2023-yil 7-sentabr</i>	79
<b>Xalqaro etnosport festivali ishtirokchilariga</b>	
<i>2023-yil 8-sentabr</i>	82
<b>Markaziy Osiyo iqtisodiy o'sish va investitsion faoliyat markaziga aylanmoqda</b>	
<i>Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvidagi nutq</i>	
<i>2023-yil 14-sentabr</i>	85
<b>Orolni qutqarish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajriba</b>	
<i>Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisidagi nutq</i>	
<i>2023-yil 15-sentabr</i>	95
<b>Markaziy Osiyoni tinch va barqaror taraqqiy topayotgan hududga aylantirish – ustuvor maqsadimiz</b>	
<i>Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining</i>	
<i>78-sessiyasidagi nutq</i>	
<i>2023-yil 19-sentabr</i>	102
<b>Ikkinchi xalqaro hunarmandchilik festivali ishtirokchilariga</b>	
<i>2023-yil 21-sentabr</i>	112
<b>"Ipak yo'li durdonasi" XV Toshkent xalqaro kinofestivali ishtirokchilariga</b>	
<i>2023-yil 29-sentabr</i>	115
<b>O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga</b>	
<i>2023-yil 30-sentabr</i>	117
<b>Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib o'tgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan O'zbekiston sport delegatsiyasi a'zolariga</b>	
<i>2023-yil 8-oktabr</i>	120
<b>O'zbekiston MDH davlatlari doirasida ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishdan har tomonlama manfaatdor</b>	
<i>Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi</i>	
<i>Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutq</i>	
<i>2023-yil 13-oktabr</i>	123

<b>Turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omilidir</b>	
<i>Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutq</i>	
2023-yil 16-oktabr .....	128
<b>“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi: xalqaro hamkorlikning yangi modeli</b>	
<i>“Bir makon, bir yo‘l” uchinchisi xalqaro forumidagi nutq</i>	
2023-yil 18-oktabr .....	139
<b>Xavfsizlik sohasidagi tahdidlarga qarshi birligida kurashish – tinchlik va taraqqiyot asosidir</b>	
<i>Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining ikkinchi yig‘ilishi ishtirokchilariga yo‘llangan murojaat</i>	
2023-yil 20-oktabr .....	144
<b>Ona tilimiz – buyuk va bebafo ma’naviy boyligimizdir</b>	
<i>O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan yo‘llangan tabrik</i>	
2023-yil 21-oktabr .....	148
<b>Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga</b>	
2023-yil 25-oktabr .....	152
<b>Ko‘p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish yo‘lida yana bir ulkan qadam</b>	
<i>Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutq</i>	
2023-yil 3-noyabr .....	156
<b>Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari</b>	
<i>Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o‘n oltinchi sammitidagi nutq</i>	
2023-yil 9-noyabr .....	163
<b>O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasi xodimlariga</b>	
2023-yil 10-noyabr .....	171
<b>“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va “Navoiyuran” davlat korxonasi jamoalariga</b>	
2023-yil 17-noyabr .....	174
<b>SPEKA – mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmi</b>	
<i>Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi – SPEKA sammitidagi nutq</i>	
2023-yil 24-noyabr .....	177

<b>Barqaror, farovon va xavfsiz kelajak yo‘lida</b>	
<i>Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP28)dagi nutq</i>	
2023-yil 1-dekabr .....	183
<b>Asosiy qonunimiz – keng ko‘lamli islohotlarimizning mustahkam huquqiy poydevori</b>	
<i>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan yo‘llangan tabrik</i>	
2023-yil 7-dekabr .....	186
<b>O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga</b>	
<i>2023-yil 9-dekabr .....</i>	191
<b>“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga</b>	
<i>2023-yil 11-dekabr .....</i>	194
<b>O‘zbekiston Fanlar akademiyasi jamoasiga</b>	
<i>2023-yil 12-dekabr .....</i>	199
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir inson hamda demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir</b>	
<i>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutq</i>	
2023-yil 19-dekabr .....	202
<b>Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak</b>	
<i>Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutq</i>	
2023-yil 22-dekabr .....	208
<b>Mamlakatimiz tarixida yangi va yorqin sahifa</b>	
<i>“Yashil” energetika sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq</i>	
2023-yil 27-dekabr .....	232
<b>O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrige</b>	
<i>2023-yil 31-dekabr .....</i>	237
<b>“Jadid” gazetasi jamoasi va mushtariylariga</b>	
<i>2024-yil 1-yanvar .....</i>	239
<b>Prokuratura organlari xodimlari va faxriylariga</b>	
<i>2024-yil 8-yanvar .....</i>	241

<b>Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolati</b>	
<i>O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llangan bayram tabrige</i>	
2024-yil 13-yanvar .....	245
<b>Atrof-muhit va bioxilma-xillikni asrash uchun barchamiz mas'ulmiz</b>	
<i>BMTning yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasiga a'zo tomonlar ishtirokidagi konferensiyaning 14-yig'iliши ishtirokchilariga tabrik</i>	
2024-yil 12-fevral .....	248
<b>Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoitlarni yaratib berish eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi</b>	
<i>Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutq</i>	
2024-yil 7-mart .....	252
<b>Muborak Ramazon oyi kirib kelishi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrik</b>	
2024-yil 11-mart .....	263
<b>Navro'z – sharqona yangi yil debochasi, yasharish va yangilanish ayyomi</b>	
<i>Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutq</i>	
2024-yil 21-mart .....	265
<b>Ramazon hayiti munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrik</b>	
2024-yil 9-aprel .....	273
<b>Futbol bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasiga</b>	
2024-yil 30-aprel .....	276
<b>Investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotiga yangi kuch, yangi nafas olib kiradi</b>	
<i>Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutq</i>	
2024-yil 2-may .....	278
<b>Mamlakatimizda muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun barcha sharoitlarni yaratamiz</b>	
<i>Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisidagi nutq</i>	
2024-yil 3-may .....	287
<b>Qahramon ajdodlarimizning jasorati biz uchun vatanparvarlik timsolidir</b>	
<i>Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrige</i>	
2024-yil 8-may .....	291

<b>Savdo-iqtisodiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish – doimo e'tiborimiz markazida</b>		
<i>Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutq</i>		
2024-yil 8-may .....	295	
<b>Osiyo xotin-qizlari forumi ishtirokchilariga</b>		
<i>Osiyo xotin-qizlari forumi ishtirokchilariga yo'llangan tabrik</i>		
2024-yil 13-may .....	300	
<b>Buyuk san'atkorga yuksak ehtirom</b>		
<i>O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq</i>		
2024-yil 16-may .....	303	
<b>Adabiyot yashasa – millat yashar</b>		
<i>Erkin Vohidov ijodiga bag'ishlangan adabiy festival qatnashchilariga yo'llangan tabrik</i>		
2024-yil 23-may .....	309	
<b>Mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlarimizga</b>		
2024-yil 24-may .....	312	
<b>"Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temiryo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimni imzolash marosimi ishtirokchilariga</b>		
2024-yil 6-iyun .....	315	
<b>O'zbekistonda Ozarbayjon madaniyati kunlari ishtirokchilariga</b>		
2024-yil 11-iyun .....	318	
<b>Inson huquqlari bo'yicha to'rtinchı an'anaviy Samarqand forumi ishtirokchilariga</b>		
2024-yil 13-iyun .....	320	
<b>O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigi</b>		
2024-yil 15-iyun .....	323	
<b>Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga</b>		
2024-yil 26-iyun .....	326	
<b>Maqom – qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimiz ramzidir</b>		
<i>Ikkinci xalqaro maqom san'ati festivali ochilish marosimidagi nutq</i>		
2024-yil 27-iyun .....	329	
<b>O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi</b>		
2024-yil 30-iyun .....	335	

**Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich**

M 54

Bir bo'lsak – yagona xalqımız, birlashsak – Vatanmiz. 8-jild [Matn]/  
Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. – 344 b.  
ISBN 978-9910-9214-0-7

UO'K 323 (575.1)  
KBK 66.3 (50'zb)

*Rasmiy nashr*

*Shavkat Miromonovich Mirziyoyev*

## **BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ**

*8-jild*

Muharrir *Dildora Abduraimova*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yelena Tolochko*

Musahhih *Munisa Ismoilova*

Kompyuterda sahifalovchi *Shahlo Zokirova*

Tasdiqnomalar № 4642. 22.07.2020.

2024-yil 11-iyulda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x100  $\frac{1}{16}$ .  
Offset qog'oz. "Times New Roman" garniturasida offset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 27,73. Nashr tabog'i 17,36. Adadi 5000 nusxa.  
Buyurtma № 24-666.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Telefon: (71) 244-34-38.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



